




XALQARO TIZIMLARDA O'ZBEKISTON MANFAATLARI

Qo'ysinova Fazilat Oripovna



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOMSHUNOSLIK AKADEMIYASI

Qo‘ysinova Fazilat Oripovna

XALQARO TIZIMLARDA O‘ZBEKISTON MANFAATLARI

fanidan o‘quv qo‘llanma

(Mutaxassislik: 70310201 – Xalqaro munosabatlar va zamonaviy siyosiy
jarayonlar)

TOSHKENT-2026

UO‘K: 327 (575.1)(075.8)

KBK: 66.4(50‘zb)ya73

Qo‘ysinova F.O. Xalqaro tizimlarda O‘zbekiston manfaatlari. O‘quv qo‘llanma. – T.: «SCIENCE PRINT» MCHJ», – Toshkent, 2026, 292 b

ISBN: 978-9910-5275-6-2

Bugungi kunda O‘zbekiston o‘z milliy manfaatlariga asoslangan holda ochiq, o‘zaro manfaatli va konstruktiv tashqi siyosat olib bormoqda. Yangi O‘zbekistonning zamonaviy tashqi siyosiy holati dunyoda va mintaqada shiddat bilan o‘zgarayotgan vaziyat hamda mamlakat ichidagi keng ko‘lamli o‘zgarishlarga asoslanib shakllanmoqda. Bugungi kunda O‘zbekistonning mintaqaviy va global miqyosdagi ko‘p vektorli munosabatlarini tadqiq qilish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu jihatdan “Xalqaro tizimlarda O‘zbekiston manfaatlari” nomli o‘quv qo‘llanmasi o‘ziga xos ahamiyatga egadir. Mazkur o‘quv qo‘llanmada O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishlari, uning zamonaviy xalqaro munosabatlardagi o‘rni, roli va shu sohadagi faoliyatining tahlili. Ko‘ptomonlama tashqi siyosatning xususiyatlari. O‘zbekiston tashqi siyosatining yutuqlari va muammolari. Mintaqaviy va global miqyosdagi muammolarni hal etishda O‘zbekiston tashqi tashabbuslari. O‘zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyati va iqtisodiyotiga integratsiyasi haqida nazariy va amaliy ma’lumotlar o‘rin olgan.

O‘quv qo‘llanmada bir nechta mavzularga bo‘lingan bo‘lib, har bir mavzu O‘zbekistonning tashqi siyosatidagi ustuvor yo‘nalishlar va prinsiplar, xalqaro munosabatlarni rivojlantirish istiqbollari bilish, jahon siyosatidagi turli jarayonlarni tushunish va tahlil etishni xulosalar bayon qilingan. Mazkur darslik o‘z mohiyatiga ko‘ra talaba yoshlarning ijtimoiy, siyosiy bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi.

Ma’sul muharrir:

B.Berdiyev – O‘zXIA “Xalqaro munosabatlar” kafedrasida dotsenti, siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Taqrizchilar:

S.Saidov – O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti Siyosiy fanlar kafedrasida mudiri, professor, siyosiy fanlar doktori.

F.Jo‘raqulov – O‘zXIA, “Xalqaro munosabatlar” kafedrasida professori, siyosiy fanlar doktori.

O‘quv qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2026 yil 1 iyundagi 5038– sonli buyrug‘iga asosan nashrga ruxsat etilgan. (Ro‘yxatga olish raqami № 9194-886a-1d7f-6389-da85-1788-4402)

ISBN: 978-9910-5275-6-2

© Qo‘ysinova F.O., 2026.
© «SCIENCE PRINT», 2026.

МУҲДАРИЖА

Kirish	6
1-bob Fanning obekti, predmeti va asosiy kategoriyalari	9
2-bob O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosatidagi ustuvor yo‘nalishlari va prinsiplari	46
3-bob O‘zbekistonning Rossiya Federatsiyasi bilan munosabatlari	62
4-bob O‘zbekiston va Xitoy Xalq Respublikasi	87
5-bob O‘zbekiston-AQSH munosabatlarning rivoji va istiqbollari	105
6-bob O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosatida Germaniya, Fransiya va Buyuk Britaniya	129
7-bob Markaziy Osiyo mintaqasidagi mamlakatlar bilan siyosiy, ilmiy, iqtisodiy va madaniy munosabatlar	150
8-bob Afg‘oniston – xalqaro munosabatlar tizimida	164
9-bob O‘zbekiston Respublikasi va Afg‘onistondagi yarashuv jarayonlarining istiqboli	175
10-bob O‘zbekiston Respublikasining Pokiston va Hindiston bilan ikki tomonlama aloqalari	188
11-bob Turkiya va O‘zbekiston hamkorlik munosabatlari evolyutsiyasi	209
12-bob Eron va uning O‘rta Sharq va Markaziy Osiyo mintaqasidagi siyosiy vaziyatga ta’siri	226
13-bob MDH mamlakatlari bilan munosabatlarning siyosiy yo‘nalishlari	243
14-bob. O‘zbekistonning Arab davlatlari bilan hamkorlik aloqalari.....	259
15-bob O‘zbekiston Respublikasi xalqaro mintaqaviy tashkilotlar tizimida	269
Glossariy	287

TABLE OF CONTENTS

Preface	6
Chapter 1	The object, subject, and categories of the science 9
Chapter 2	The Priority directions and principles of Uzbekistan's foreign policy 46
Chapter 3	The relations between Uzbekistan and Russian Federation 62
Chapter 4	The relations between Uzbekistan and China 87
Chapter 5	The development of relations between Uzbekistan and USA 105
Chapter 6	he role of Germany, France and Great Britain in Uzbekistan's foreign policy 129
Chapter 7	The political, scientific, economic, and cultural relations with Central Asian countries 150
Chapter 8	The role of Afghanistan in International Relations 164
Chapter 9	Prospects of the Reconciliation Process between Uzbekistan and Afghanistan 175
Chapter 10	The Bilateral Cooperation of Uzbekistan between Pakistan and India 188
Chapter 11	The evolution of relations between Uzbekistan and Turkey .. 209
Chapter 12	Iran and it's influence on the situations in Middle East and Central Asia 226
Chapter 13	The political directons of relations with CIS countries 243
Chapter 14	The relations between Uzbekistan and Arab countries 259
Chapter 15	The role of Uzbekistan in international regional organisations' system 269
Glossariy	287

СОДЕРЖАНИЕ

Введение	6
Глава 1	Объект, предмет и основные категории науки
Глава 2	Приоритетные направления и принципы внешней политики Республики Узбекистан
Глава 3	Отношения Узбекистана с Российской Федерацией
Глава 4	Узбекистан и Китайская Народная Республика
Глава 5	Развитие и перспективы отношений Узбекистана и США
Глава 6	Германия, Франция и Великобритания во внешней политике Республики Узбекистан
Глава 7	Политические, научные, экономические и культурные отношения со странами Центральноазиатского региона
Глава 8	Афганистан в системе международных отношений
Глава 9	Перспективы процессов примирения Республики Узбекистан и Афганистана
Глава 10	Двусторонние связи Республики Узбекистан с Пакистаном и Индией
Глава 11	Эволюция отношений сотрудничества между Турцией и Узбекистаном
Глава 12	Иран и его влияние на политическую ситуацию на Ближнем Востоке и в регионе Центральной Азии
Глава 13	Политические направления отношений со странами СНГ
Глава 14	Сотрудничество Узбекистана с арабскими государствами
Глава 15	Сотрудничество Узбекистана с арабскими государствами
Глоссарий	287

KIRISH

Bugungi globallashuv jarayoni avj olgan, xalqaro munosabatlar tobora murakkablashib borayotgan vaziyatda mamlakatning xalqaro maydondagi nufuzini yuksaltirish, milliy manfaatlarni ta'minlash masalalari dolzarb hisoblanadi. Milliy manfaatlar ta'minlangan holda o'zaro hamkorlik davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni rivojlantirishda samarali usullardan biri hisoblanadi. Shu jihatdan dunyo mamlakatlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va hamkorlik munosabatlari tobora chuqurlashib borayotgan davrda davlatlarning xalqaro tizimlarda faol ishtirok etishlari, o'z milliy manfaatlarini himoya qilishlari va ilgari surishlarida zamonaviy yondashuvlardan foydalanishni talab qilmoqda.

Chunki, oldingi davrlarda xalqaro munosabatlarda mamlakatning qudrati asosan uning harbiy va iqtisodiy salohiyati bilan o'lgan bo'lsa, endilikda davlatning tarixi va diplomatiya vositalarini qo'llashi tashqi siyosatning muhim mezonlari sifatida e'tirof etilmoqda. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston Respublikasining xalqaro maydondagi o'rnini va roli, uning tashqi siyosatdagi faoliyati hamda milliy manfaatlarini ta'minlash mexanizmlarini o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mustaqillikning ilk yillaridan O'zbekiston tashqi siyosati zamonaviy mezonlar asosida shakllanib, tadrijiy ravishda rivojlanib kelmoqda. Bunda teng huquqlilik, o'zaro manfaatdorlik, suverenitet va hududiy yaxlitlikni hurmat qilish davlatimiz tashqi siyosatining asosiy tamoyillari hisoblanadi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek "Kuchimiz birlikda, muvaffaqiyat sari yo'limiz – do'stlik va hamkorlikda"¹. Muvozanatli siyosat natijasida mintaqada xavfsizlik va barqarorlik o'rnatilib xalqaro subektlar bilan o'zaro manfaatli muloqot yo'lga qo'yildi.

Ta'kidlash joizki, O'zbekistonning xalqaro subektlar bilan munosabatlarida ko'p vektorlilik pragmatik, konstruktiv va muvozanatli tashqi siyosatning asosi

¹ Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuv <https://president.uz/oz/lists/view/8675>

hisoblanadi. Bu siyosat barcha hamkorlar bilan teng huquqli, o‘zaro manfaatli va ochiq muloqotni nazarda tutadi.

So‘ngi yillarda xalqaro maydonda O‘zbekistonning nufuzi sezilarli darajada oshdi. Ushbu jarayon mamlakatimizning Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (YEXHT), Mustaqil davlatlar hamdo‘stli (MDH), Shanxay hamkorlik tashkiloti (SHHT), Islom hamkorlik tashkiloti, Turkiy davlatlar tashkiloti, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (IHT) kabi xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar doirasida ko‘p tomonlama diplomatik aloqa o‘rnatgani bilan uzviy bog‘liqdir. Xususan, davlatimiz tomonidan xalqaro xavfsizlik va mintaqaviy rivojlanishning dolzarb muammolarini hal etish yuzasidan ilgari surilayotgan tashabbuslar jahon hamjamiyati tomonidan keng qo‘llab-quvvatlanayotgani e‘tiborga molik.

O‘zbekistonning xalqaro tizimlardagi ishtiroki, avvalo, davlat xavfsizligini ta‘minlash, iqtisodiy taraqqiyotni rag‘batlantirish, investitsiyalar jalb qilish, transport-kommunikatsiya yo‘laklarini rivojlantirish va ekologik muammolarga yechim topish kabi milliy manfaatlarni amalga oshirishga qaratilgan. Xususan, Markaziy Osiyo mintaqasida o‘zaro ishonch va yaxshi qo‘shnichilik muhitini mustahkamlash O‘zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. “Bugungi kunda Markaziy Osiyo – barqaror o‘sinh va farovonlik uchun oldimizda yangi imkoniyatlar ochayotgan jadal taraqqiyot va samarali hamkorlik makonidir”².

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar tashqi siyosatda ham o‘z aksini topdi. O‘zbekiston ochiq, pragmatik va konstruktiv tashqi siyosat yuritish orqali xalqaro hamjamiyat bilan hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Bu jarayonda davlatning xalqaro nufuzi oshib, uning tashabbuslari keng qo‘llab-quvvatlanmoqda. Jumladan, xavfsizlik, barqaror rivojlanish, inson huquqlari va ekologik muammolar bo‘yicha ilgari surilgan tashabbuslar xalqaro maydonda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

² Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuv <https://president.uz/oz/lists/view/8675>

Mazkur o'quv qo'llanmaning asosiy maqsadi - O'zbekistonning xalqaro tizimlardagi ishtirokini, milliy manfaatlarini ta'minlash yo'llarini va bu boradagi asosiy ustuvor yo'nalishlarni ilmiy-amaliy jihatdan yoritib berishdan iborat. Shu bilan birga, kitobda xalqaro munosabatlar nazariyasi, tashqi siyosat instrumentlari va zamonaviy global jarayonlarning milliy manfaatlarga ta'siri tahlil qilingan.

Qo'llanma talabalar, tadqiqotchilar va xalqaro munosabatlar sohasiga qiziquvchi keng kitobxonlar ommasi uchun mo'ljallangan bo'lib, u O'zbekistonning xalqaro maydondagi faoliyatini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

1-BOB. FANNING OBYEKT VA PREDMETI HAMDA ASOSIY KATEGORIYALARI

Reja:

- 1.1. Xalqaro tizimlarda O‘zbekiston manfaatlari fanining obekti va predmeti.
- 1.2. Faning asosiy kategoriyalari
- 1.3. Xalqaro tizimlar tushunchasi.
- 1.4. Ichki va tashqi siyosatning bir biriga bog‘likligi.

Tayanch so‘z va iboralar: xalqaro tizim, kuchlar muvozanati, dunyoviy-siyosiy, xalqaro munosabatlar, global tizim, manfaatlar, amorf birlashma, tizim lituzilmaviy, donor – mamlakatlar.

1.1. O‘zbekiston Respublikasining xalqaro tizimlardagi o‘rni fanini o‘rganishning sabablari.

XXI asr globallashuv, integratsiya va o‘zaro bog‘liqlik davri sifatida insoniyat taraqqiyotining yangi bosqichini boshlab berdi. Globallashuv jarayonida davlatlarning xalqaro tizimdagi o‘rni, uning siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalari muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasi ham mustaqillikka erishganidan so‘ng qisqa vaqt ichida jahon hamjamiyatining faol a‘zosiga aylandi. Shu bois “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro tizimlardagi o‘rni” fanini o‘rganish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarbdir.

Xalqaro munosabatlar tizmining rivojlanishi bilan bog‘liq umumiy qonuniyatlar doirasida ma’lum bir ko‘lamdagi bilimlariga ega bo‘lmay turib, muayyan voqea-hodisalar o‘rtasidagi sababli bog‘lanishlarni aniqlash mumkin emas. aynan ana shu “kuchlar muvozanati qonuni”ni yoki jahondagi davlatlararo umum tizimi y darajaning boshqa muhim bo‘g‘inlarini o‘zlashtirib olmay turib, bugungi kunda zamonaviy dunyoviy- siyosiy munosabatlar borasida jahon sahnida ro‘y berayotgan u yoki bu xildagi jiddiy o‘zgarishlarning ahamiyati va tutgan o‘rnini aniqlash mumkin, albatta. Bu “qonunlar”ni to‘g‘ri tushuna bilish bizga muhokama qilinayotgan hodisa yoki jarayoning boshqa shunga o‘xshash voqea-hodisalar sirasidagi o‘rnini aniqlab topish imkonini beradi.

Fanning dolzarbligi va ilmiy ahamiyati mazkur fan davlatning xalqaro munosabatlar tizimidagi o‘rnini kompleks tarzda o‘rganadi. Xalqaro tizim – bu davlatlar, xalqaro tashkilotlar, transmilliy kompaniyalar va boshqa aktorlar o‘rtasidagi murakkab munosabatlar majmuasidir. O‘zbekistonning ushbu tizimdagi ishtirokini o‘rganish orqali quyidagi masalalar ilmiy asosda tahlil qilinadi:

- Davlatning tashqi siyosat strategiyasi va ustuvor yo‘nalishlari;
- Mintaqaviy va global xavfsizlik masalalaridagi roli;
- Iqtisodiy diplomatiya va xalqaro savdo aloqalari;
- Madaniy-gumanitar hamkorlikning rivojlanish tendensiyalari.

Ushbu fan talabalarga xalqaro munosabatlar nazariyasi va amaliyotini uyg‘un holda o‘rganish imkonini beradi.

Fanni o‘qitishning dolzarbligi quyidagilardan iborat:

Birinchidan, davlat suvereniteti va milliy manfaatlarni himoya qilish zarurati. Har qanday mustaqil davlat o‘z manfaatlarini xalqaro maydonda himoya qilishi lozim. O‘zbekistonning xalqaro tashkilotlardagi faoliyati, ikki va ko‘p tomonlama diplomatik aloqalari aynan shu maqsadga xizmat qiladi. Mazkur fan orqali talaba davlat manfaatlarini anglash va ularni ilgari surish mexanizmlarini o‘rganadi.

Ikkinchidan, globallashuv sharoitida iqtisodiy integratsiyaning kuchayishi. Bugungi kunda iqtisodiy rivojlanish ko‘p jihatdan xalqaro hamkorlikka bog‘liq. O‘zbekistonning Jahon savdo tizimiga integratsiyasi, investitsion siyosati va transport-kommunikatsiya loyihalaridagi ishtiroki iqtisodiy o‘rishni ta’minlovchi muhim omillardir. Ushbu fan iqtisodiy diplomatiya vositalarini tahlil qilish imkonini beradi.

Uchinchidan, mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlik masalalari. Markaziy Osiyo geosiyosiy jihatdan muhim hudud hisoblanadi. Terrorizm, ekstremizm, transmilliy jinoyatchilik kabi tahdidlarga qarshi kurashishda O‘zbekiston faol tashabbuslar bilan chiqmoqda. Shu sababli mazkur fan xavfsizlik muammolarini kompleks o‘rganishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

To‘rtinchidan, madaniy va gumanitar aloqalarni rivojlantirish ehtiyoji.

O‘zbekiston boy tarixiy-madaniy merosga ega davlat sifatida xalqaro maydonda o‘zining ijobiy imijini shakllantirmoqda. Turizm, ta’lim va madaniyat sohalaridagi hamkorlik mamlakatning “yumshoq kuch” (soft power) salohiyatini oshiradi. Fan doirasida ushbu jarayonlar chuqur tahlil qilinadi.

Beshinchidan, yosh mutaxassislarni tayyorlash zarurati. Xalqaro munosabatlar sohasida malakali kadrlar tayyorlash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Diplomatiya, xalqaro huquq, tashqi iqtisodiy faoliyat kabi yo‘nalishlarda bilimli mutaxassislar davlat taraqqiyotiga xizmat qiladi. Mazkur fan talabalarning analitik fikrlashini rivojlantiradi va ularda global dunyoqarashni shakllantiradi.

Fan doirasida turli ilmiy metodlardan foydalaniladi: tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, tarixiy yondashuv va prognozlash usullari. Bu metodlar orqali O‘zbekistonning xalqaro tizimdagi o‘rni dinamik jarayon sifatida o‘rganiladi. Shuningdek, statistik ma’lumotlar va xalqaro reytinglar asosida amaliy tahlillar olib boriladi.

Xulosa qilib aytganda, “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro tizimlardagi o‘rni” fanini o‘rganish zamonaviy sharoitda muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. U talabalarga global jarayonlarni chuqur anglash, milliy manfaatlarni himoya qilish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish ko‘nikmalarini beradi. Mazkur fan orqali O‘zbekistonning jahon hamjamiyatidagi o‘rni va nufuzi yanada chuqurroq anglanadi hamda kelajakdagi strategik rivojlanish yo‘nalishlari ilmiy asosda belgilanadi.

1.2. Fanning asosiy kategoriyalari

Xalqaro tizimlarda O‘zbekiston manfaatlari fani mazmunan keng va ko‘p qirrali bo‘lib, u davlatning global maydondagi o‘rni, strategik maqsadlari hamda tashqi siyosiy faoliyatining asosiy yo‘nalishlarini o‘rganishga qaratilgan. Ushbu fan doirasida O‘zbekiston manfaatlari bir necha asosiy kategoriyalarga ajratish mumkin.

Avvalo, siyosiy manfaatlar eng muhim kategoriyalardan biri hisoblanadi. Bu

yo‘nalish davlat suverenitetini mustahkamlash, hududiy yaxlitlikni ta‘minlash hamda xalqaro maydonda mustaqil siyosat yuritishni o‘z ichiga oladi. O‘zbekiston uchun xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish, diplomatik aloqalarni kengaytirish va mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlash muhim siyosiy vazifalardandir. Shu bilan birga, davlat o‘zining xalqaro imijini yaxshilash, tinchlikparvar siyosatini targ‘ib qilish orqali global tizimda faol ishtirok etishga intiladi.

Ikkinchi muhim kategoriya iqtisodiy manfaatlardir. O‘zbekistonning xalqaro tizimdagi iqtisodiy manfaatlari milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta‘minlashga qaratilgan. Bu esa xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, eksport salohiyatini oshirish, yangi bozorlarga chiqish va xalqaro savdo aloqalarini kengaytirishni o‘z ichiga oladi. Ayniqsa, transport-kommunikatsiya loyihalarida ishtirok etish, energetika resurslaridan samarali foydalanish hamda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Global iqtisodiy tizimda integratsiyalashuv orqali mamlakat o‘z iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlashga intiladi.

Uchinchi kategoriya xavfsizlik manfaatlardir. Bu yo‘nalish milliy xavfsizlikni ta‘minlash, terrorizm, ekstremizm, noqonuniy migratsiya va transmilliy jinoyatchilikka qarshi kurashishni o‘z ichiga oladi. Markaziy Osiyo mintaqasining geosiyosiy ahamiyatini hisobga olgan holda, O‘zbekiston uchun mintaqaviy barqarorlikni saqlash ustuvor vazifa hisoblanadi. Xavfsizlik manfaatlari doirasida davlat qo‘shni mamlakatlar bilan o‘zaro ishonchga asoslangan hamkorlikni rivojlantirishga katta e‘tibor qaratadi.

To‘rtinchi kategoriya ijtimoiy-gumanitar manfaatlardir. Bu yo‘nalish xalqaro miqyosda madaniy almashinuvni rivojlantirish, ta‘lim va ilm-fan sohasida hamkorlikni kengaytirish hamda inson huquqlarini himoya qilish bilan bog‘liq. O‘zbekiston o‘zining boy tarixiy va madaniy merosini jahon hamjamiyatiga tanitish orqali “yumshoq kuch” (soft power) siyosatini amalga oshiradi. Shu bilan birga, xorijda yashayotgan vatandoshlar bilan aloqalarni mustahkamlash ham ushbu kategoriyaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Beshinchi kategoriya ekologik manfaatlardir. Zamonaviy xalqaro tizimda ekologik muammolar, xususan, iqlim o'zgarishi, suv resurslaridan foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish dolzarb masalalardan biridir. O'zbekiston uchun Aral dengizi fojiasi bilan bog'liq muammolarni hal etish, suv resurslarini oqilona boshqarish va "yashil iqtisodiyot"ga o'tish muhim ekologik manfaatlar sirasiga kiradi. Bu borada xalqaro hamkorlikni kuchaytirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Yana bir muhim kategoriya transport va logistika manfaatlaridir. O'zbekiston geografik jihatdan markaziy o'rinda joylashgan bo'lib, bu uning tranzit salohiyatini oshirish imkonini beradi. Xalqaro transport yo'laklarini rivojlantirish, yangi temiryo'l va avtomobil yo'llarini qurish orqali mamlakat global savdo tizimida muhim bo'g'inga aylanishni maqsad qiladi. Bu esa nafaqat iqtisodiy foyda keltiradi, balki siyosiy va strategik ahamiyatga ham ega.

Xulosa qilib aytganda, Xalqaro tizimlarda O'zbekiston manfaatlari fanining asosiy kategoriyalari o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, ular davlatning kompleks rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Siyosiy, iqtisodiy, xavfsizlik, ijtimoiy-gumanitar, ekologik hamda transport-logistika manfaatlar birgalikda O'zbekistonning xalqaro maydondagi o'rnini mustahkamlaydi. Ushbu kategoriyalarni chuqur o'rganish orqali talabalarda global fikrlash, strategik tahlil qilish va xalqaro munosabatlarni to'g'ri baholash ko'nikmalari shakllanadi.

1.3. Xalqaro tizimlar tushunchasi

Xalqaro munosabatlarning rivojlanish jarayonini mantiqan anglab yetish uchun uning tarkibiy shakllanishida yetarlicha jiddiy o'rin tutuvchi ba'zi bir unsurlarini chuqur tushunib olish kerak bo'ladi. Xalqaro munosabatlar tizimi bugungi kunda "xalqaro siyosat" atamasi bilan ifodalanadigan barcha tushunchalarni o'z ichiga qamrab oladi. U ijtimoiy, etik-diniy, iqtisodiy, harbiy-strategik, madaniy, geosiyosiy, ilmiy-texnologik va boshqa jihatlar bilan tavsiflanadi. Xalqaro munosabatlar tizimi jahon siyosatining global tizim doirasidagi qaysi jihatlariga aloqador, bu munosabatlar rossiyalik taniqli

siyosatshunos akademik E.Pozdnyakovning mazkur muammolar xususidagi fikriga ko'ra, davlatlarning o'zaro munosabatlari, ularning tashqi siyosati, tashqi siyosiy maqsadlari va ustuvorliklari, manfaatlari bilan uzviy bog'liqdir. Aynan ana shular xalqaro muloqotning tub negizini tashkil qiladi va shu asnosda, haqli ravishda, xalqaro munosabatlar tizimining asos poydevori hisoblanadi. Shu o'rinda barcha jamul-jamlikda alohida sifatiy mohiyatkasb etadigan unsurlar va bog'lanishlar bilan namoyon bo'ladigan o'z xususiy rivojlanish qonuniyatlari mazkur tizimga xos bo'lgan odatiy tushuncha ekanligini ta'kidlab o'tish joizdir. Akademik Pozdnyakovning ta'kidlashicha:

Tizim unsurlarining bog'liqligi, uning amal qilishi va rivojlanishi, shuningdek, uning yaxlitligi ana shu unsurlar o'rtasidagi bog'lanishlarning barqaror, ko'p variantli va muayyan tarzda tashkillashgan usulidan iborat bo'ladi. Tizimning tuzilmaviy tashkil qilinishi shunga tayanadi.

Taklif etilayotgan yondashuv doirasida davlatlararo munosabatlar tizimi tarkiban o'zining umumiy ko'rinishida tabaqalararo o'zaro bog'langan uchta daraja markaziy kuch munosabatlari darajasi, ziddiyatlar bug'ini darajasi va tizimli-tuzilmaviy "ustqurma" darajasi ko'rinishida taqdim etilishi mumkin.

Bunday bo'linish qanchalik shartli bo'lishidan qat'i nazar, uning ijobiy tomoni shundaki, u davlatlararo munosabatlarni hech bir oqilona tasniflashtirishga yo'l qo'yilmaydigan hadsiz-poyonsiz boshboshdoqliklar tarzida emas, balki nisbatan tartiblashtirilgan ko'rinishda taqdim etish imkonini beradi».

Shunday qilib, xalqaro munosabatlar tizimi siyosiy chegaralar bilan ajratilgan mustaqil davlatlar majmuidan iboratdir. Bu uyushmagan, allaqanday bir amorf birlashma bo'lib qolmasdan, balki bundagi har bir ishtirokchi davlatni alohida olib qaraydigan bo'lsak, o'ziga xoslik va aynan shu davlatgagina xos bo'lgan qadriyatlar va an'analar tizimini anglatadi. Shu orqali ushbu davlatlar hamjamiyatining betakror me'moriy qiyofasiga ta'sir ko'rsatadi.

Tizim qatnashchilari, shuningdek, xalqaro munosabatlar subyektlari sifatida ham ma'lumdirlar. Ular (mustaqil davlatlar) quyidagi qator muhim jihatlari bilan

farqlanadi:

- egallab turgan hududining hajmi;
- quruqlikdagi, suvdagi va koinotdagi transport-aloqa tarmoqlariga kira olish imkoniyatlari;
- yalpi ichki mahsulot (YAIM) hajmi, ya'ni quvvat darajasi;
- aholi soni va uning savodxonlik darajasi;
- harbiy ta'minlanganlik darajasi;
- ilmiy-texnikaviy va iqtisodiy salohiyat;
- qurolli kuchlar (QK)ning jangovarligi, kuch-qudrati va qurollanganlik darajasi.

Bu ko'rsatkichlar istalgan davlatning xalqaro munosabatlar tizimidagi o'rni va ahamiyatini belgilab beradi. Misol uchun, Zanzibar, Birma yoki Burkina-Faso kabi davlatlarning xalqaro muammolarni tartiblashtirishdagi roli, ularning madaniy-tamadduniy noyobligini kamsitmagan holda aytganda, unchalik ahamiyatli emas.

Ayni paytda, AQSH, Rossiya, Xitoy, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Yaponiya, Hindiston va boshqa yirik davlatlarning roli va mavqei ularning jahon miqyosidagi qudrati va nufuziga mos ravishda yuqori hisoblanadi. BMT Xavfsizlik Kengashining doimiy a'zolik instituti qaysi tamoyilga asoslanadi? Yoki donor mamlakatlar va tashqi yordamni oluvchi mamlakatlarning maqomi qaysi mezonga ko'ra belgilangan? Ana shu va boshqa ko'plab shunga o'xshash savollarga javobni yana o'sha yuqorida qayd etilganlardan topish mumkin. Xalqaro munosabatlar subyektlari doimiy ravishda o'zaro ta'sirda bo'lar ekan, bugungi kunda xalqaro munosabatlar tizimi yoki xalqaro tizim deb e'tirof etilgan siyosiy-ilmiy voqelikning rivojlanishi bilan bog'liq mazmun, tarkibiy tuzilish va mexanizmlarni belgilaydi.

Mustaqil davlat nafaqat mamlakat ichida, balki undan tashqarida, ya'ni xalqaro maydonda ham hokimiyatning namoyon bo'lishidir. Aynan davlat xalqaro hamjamiyat subyekti sifatida chiqish, shartnoma yoki bitimlar tuzish, urush e'lon

qilish yoki sulh tuzish uchun haqiqiy hokimiyat vakolatiga egadir.

Xalqaro munosabatlar har qanday davlat uchun amalda o'z imkoniyatlarini sinab ko'rishi mumkin bo'lgan muhit vazifasini bajaradi. Davlat o'z-o'zicha emas, balki xalqaro munosabatlarning o'ziga o'xshash qatnashchilari hamjamiyatida mavjud bo'ladi, faoliyat yuritadi va rivojlanadi, davlatni tizimdan tashqarida tasavvur etib bo'lmaydi.

Mohiyatiga ko'ra, tashqi muhitning o'zi va xalqaro muloqot davlat uchun o'ziga xos o'qlar tizimi bo'lib xizmat qiladi. Tuzilishiga ko'ra, xalqaro munosabatlar tizimi markaz yoki o'zak-mag'iz, tizimosti tuzilma va periferiyadan tashkil topgan. Xalqaro munosabatlar tizimining markazini buyuk davlatlar sifatida e'tirof etilgan va xalqaro siyosatga jiddiy ta'sir ko'rsatadigan davlatlarning uncha katta bo'lmagan bir guruhidan iboratdir. Ularning soni cheklanganligi xalqaro muammolar yechimida hamma davlatlar ham mutlaq kuch omili sifatidagi mavqega ega emasligidan dalolat beradi. Shu sababli, siyosiy tilda ularni kuch markazlari deb, ular o'rtasidagi munosabatlarni esa kuch markazlari munosabatlari deb atash qabul qilingan.

Mashhur Versal tizimi misolida XX asrning boshidagi urushdan keyingi davrda kuch markazlari dunyoning bundan keyingi tuzilishini hal qilishida, birinchi navbatda, o'z manfaatlari va kuch-qudratlari bilan bog'liq imkoniyatlaridan kelib chiqib, harakat qilganini ko'rish mumkin.

Millatlar Ligasining Statuti (Ustavi) o'sha tizimga xos bo'lgan kuch markazlarining munosabatlarini aks ettiruvchi shart-sharoitlarning siyosiy-huquqiy qamrov doirasi sifatida xizmat qilgan. Germaniyaning Belgiya, Lyuksemburg, Fransiya, Shveytsariya, Avstriya, Chexoslovakiya, Polsha va Daniya bilan bo'lgan chegaralarining ta'rifini hamda Yevropaning siyosiy tuzilishi bilan bog'liq masalalar yechimini o'z ichiga olgan edi.

Tizimning o'zak-mag'izidan tashqarida bo'lgan davlatlar o'z tashqi siyosatlarini xalqaro siyosatdagi u yoki bu yo'nalishiga tayangan holda olib borar ekanlar, kuch markazlari munosabatlarining qatnashchilari bilan mustahkam

aloqalarni yo'lga qo'yishdan manfaaddordirlar. Bu turdagi hech qaysi davlat kuch markazlarida hukmronlik qilayotgan yetakchi kayfiyatlardan chetlashib, yakkalanib qolishiga yoki ulardan voz kechishga qodir emas.

O'z navbatida, markaziy kuch markazlari munosabatlarining qatnashchilari ham tizimosti tuzilmasi va periferiya aloqalarining qatnashchilari bilan faol munosabat o'rnatadilar. U yoki bu davlatni, yoki davlatlar guruhini turli yo'llar bilan o'z tarafiga o'tishga undaydilar.

Davlatlarning o'zaro bir-biriga bog'liqligi xalqaro tizimning eng yaqqol belgilaridan hisoblanadi. Avval aytib o'tilganidek, bu holat ularning o'zaro muloqotga bo'lgan ehtiyojidan hamda umumiy va, ayni paytda, o'zaro farqlanib turuvchi turli xil manfaat va maqsadlar mavjudligidan kelib chiqadi. Mazkur maqsadlarni amalga oshira borib, davlatlar bir-birlariga muqarrar ravishda o'zaro muomalaga kirishishi asnosida ta'sir ko'rsatmay qolmaydilar. Davlatlarning o'zaro bog'liqligi va o'zaro ta'siri bunday aloqalarning ma'lum bir o'ziga xosligida, turli xildagi ittifoq va birlashmalar tashkil qilinishida, ya'ni aynan xalqaro munosabatlar tizimining o'zi uchun xos bo'lgan shakllar va munosabatlarda yaqqol namoyon bo'ladi. Ushbu jarayonlar haqida keyinchalik, xususan, kuchlar muvozanati siyosatini, jamoaviy xavfsizlik tizimi va iqtisodiy xavfsizlik nazariyasini tahlil qilish doirasida batafsil to'xtalib o'tiladi.

Tizimosti tuzilmasi turli xil alomatlariga ko'ra belgilanadi. Bular madaniy-tamadduniy, sivilizatsiya, mintaqaviy-jug'rofiy va ijtimoiy-iqtisodiy kichik tizimlardir. Jahon tarixining har xil bosqichlarida har xil kichik tizimosti tuzilmalar paydo bo'lib kelgan, lekin ular doimo xalqaro munosabatlar tizimining nisbatan avtonom, muxtor qismlari bo'lgan edi.

Qadimgi Gretsiya, Xanaan podsholigi yoki Rim imperiyasi, ehtimol, O'rta yer dengizi, Arabiston yarimoroli, Nil vohasi, Yaqin va O'rta Sharq hamda Markaziy Osiyoning keng maydonlarini qamrab olgan dastlabki tizimosti tuzilmalaridan biridir.

Keyinchalik ularning o'rnini Vizantiya, Chingizxon, Temurlang, Buyuk

Mo'g'ullar yerlari - Sharqda, Karl V davridagi Yevropa, Boburiylar monarxiyasi, Napoleon davridagi Yevropa, Bismark qo'l ostidagi birlashgan Germaniya va h.k.lardan iborat boshqa tizimosti tuzilmalar egalladi.

Tizimosti tuzilmasi, o'z navbatida, yana bir qator turdosh tizimlar mavjudligini ko'zda tutadi va unda barcha tamadduniy omillar bir-biri bilan chambarchas bog'lanib ketishi kuzatiladi.

Vaqt mazkur jarayonga doimo o'zgartirishlarini kiritib kelgan va bu holat har bir tizimosti tuzilmasining o'ziga xos xususiyatida, albatta, aks etmay qolmagan.

Bugungi kundagi dunyo munosabatlari tizimining ildizlari O'ttiz yillik urush o'z poyoniga yetgach, 1648 yilning 24 oktabrida Myunster va Osnabryukda imzolangan va "Vestfal shartnomasi» deb nomlangan tinchlik sulhi tuzilganidan keyin aynan shu nomdagi, ya'ni Vestfal tizimining yuzaga kelishi bilan bog'liq natijalari tarixga kirgan O'ttiz yillik urush davrlariga borib taqaladi.

Odatda, Vestfal sulhi deganda, 1648 yilning 4–5 iyunidagi Vefelingxofen jangida Fransiya va Shvetsiyaning mag'lub bo'lganligi oqibatida bu davlatlar bilan kayzer Ferdinand III o'rtasida tuzilgan kelishuvlar nazarda tutiladi.

Shuningdek, 1643–1649 yillar davomida Myunster va Osnabryukda bo'lib o'tgan tinchlik kongresslarida qabul qilingan shartnoma Yevropadagi surunkali urushlarga umuman barham berishni maqsad qilib qo'ygan.

Vestfal sulhiga ko'ra, Shtettin porti bilan butun G'arbiy Pomeraniya Shvetsiya tasarrufiga kirdi, shuningdek, Sharqiy Pomeraniyaning ma'lum qismi, Pomeran ko'rfazi ham sohil bo'yi shaharlari bilan birga uning ixtiyoriga o'tdi.

Shimoliy Germaniyadagi eng yirik daryolarning etaklari Shvetsiyaning haqiqiy nazorati ostiga olindi. Shvetsiya ma'lum muddat davomida Boltiq dengizi sohillaridagi davlatlar ustidan hukmronlik qiluvchi va nemis davlatlariga ta'sir o'tkaza oluvchi buyuk Yevropa davlatiga aylanib qoldi. Fransiya Elzasni (Strasburgdan tashqari) qo'lga kiritish bilan birga, bir qator shaharlar ustidan vasiylik huquqiga ham ega bo'ldi. Garchi o'sha davrda uning vujudga kelishidan

ba'zi bir yirik Yevropa davlatlari manfaatdor bo'lsa-da, Gollandiya haqli ravishda tan olingan mustaqil davlat sifatida e'tirof etildi.

Shuningdek, Shveytsariya va Germaniya knyazliklari ham muhim o'zgarishlarga uchradi. Brandenburg (bo'lg'usi Prussiya) ham o'z makonlarini va ta'sirini sezilarli darajada kengaytirdi, Bavariya hamda Saksoniyaning kuch-qudrati oshib bordi.

Ayni paytda, Vestfal sulhi Germaniyaning shu tariqa parchalanganligini mustahkamladi. Endilikda diniy omilning Yevropa siyosatidagi hal qiluvchi rolga barham berildi. Buyuk Fransuz revolyutsiyasi va undan keyingi davrda Napoleon boshchiligidagi bir qator bosqinchilik urushlari mashhur Vena kongressidan qariyb 150 yil avval dunyoda qaror topgan tartibga yakuniy nuqta qo'ydilar.

Endilikda Vena tizimi, deb atalayotgan yangi tizimga ko'ra, shunday deb atalmish "Yevropa pentarxiyasi» tashkil qilinishi ko'zda tutildi, uning tarkibiga Napoleon armiyasi ustidan g'alaba qozongan mamlakatlar kirdi. 1814–1815 yillarda bo'lib o'tgan va Umumevropa konferensiyasi, keyinchalik Vena kongressi deb nom olgan yig'in Yevropa davlatlarining Napoleon urushlaridan so'nggi chegaralarini belgilab berdi. Vena shahrida Metternix raisligi ostida bo'lib o'tgan kongressda Turkiyadan tashqari barcha Yevropa davlatlarining vakillari ishtirok etdilar.

Kongress yangi Niderlandiya qirolligi tarkibiga Avstriya Niderlandiyasi hududi (hozirgi Belgiya)ning kiritilishiga ruxsat berdi, biroq Avstriyaning qolgan barcha makonlari, jumladan, Lombardiya, Venetsiya oblasti, Toskana, Parma va Tirol Gabsburglarning nazorati ostiga qaytdi. Saksoniyaning bir qismi hamda Vestfaliya va Reyn oblastining kattagina hududi Prussiyaga o'tdi. Fransiyaning sobiq ittifoqdoshi bo'lgan Daniya Shvetsiya tasarrufiga o'tkazilgan Norvegiyadan mahrum bo'ldi. Italiyada Rim papasining Vatikan va Papa oblasti ustidan hukmronligi tiklandi, Burbonlar esa ikkala Sitsiliya Qirolligini qaytarib oldilar. Shuningdek, Germaniya ittifoqi tashkil qilindi. Napoleon tomonidan barpo etilgan davlatning bir qismi Polyak Podsholigi nomi bilan Rossiya imperiyasi tarkibiga

kirdi, Rossiya imperatori esa polyak qiroli ham bo'lib hisoblanar edi. Kongress Napoleon urushlari oxiriga kelib mavjud bo'lgan Yevropada qaror topgan yangi kuchlar taqsimotini belgilab berdi va shu asnoda g'olib mamlakatlar - Rossiya, Avstriya va Buyuk Britaniyaning xalqaro munosabatlar borasidagi yetakchi rolini uzoq muddatga saqlab qoldi. Avstriya-Vengriya, Angliya, Fransiya, Germaniya va Rossiya yangi kuch markazlariga aylandi. Rossiyaning Yevropadagi "pentarxiya» bo'yicha ittifoqdoshlari kayfiyatida kuzatilayotgan o'zgarishlar hamda ularning endilikda Ottoman Turkiyasi tarafiga o'tish sabablari Rossiya mavqeining kuchayishi va uning Qrim urushida (1853–1856 yy.) Turkiya ustidan g'alaba qozonish ehtimolining yuqoriligi bilan izohlanadi.

Rossiyaning avvalgi ittifoqdoshlari uning kuchayib ketishidan, Qora dengiz, Boltiq dengizi va Kaspiy dengizi ustidan bevosita nazorat olib borish imkoniyatini qo'lga kiritishidan xavfsirab qolgan edilar. Jiddiy saboq olgan Rossiya o'zining yevropalik hamkorlari bo'lishi Fransiya, Angliya va Germaniyaga nisbatan qo'ldan boy bergan o'z mavqeini chekinishlar va yon berishlar yo'li bilan tiklab olishga harakat qildi.

Diplomatik fitnalar va murakkab hiyla-nayranglar natijasida o'sha davrdagi Yevropa mamlakatlari o'rtasida ikkita yirik ittifoq paydo bo'ldi: Antanta (Rossiya, Angliya, Fransiya) va Uchlik ittifoqi (Germaniya, Avstriya-Vengriya va Italiya).

Bu xatti-harakatlar ko'zlangan asl maqsad esa - dunyoda hukmronlik qilish uchun o'z mavqeini kuchaytirish va ta'sir doirasini qayta taqsimlashdan iborat edi.

Bundan keyingi bo'lib o'tgan voqealar barchaga yaxshi ma'lum - Sarayevoda "Yosh Bosniya» guruhining ekstremistlari tomonidan ersgersog Frans Ferdinand o'ldirildi va bu Birinchi jahon urushining boshlanib ketishi uchun rasmiy sabab bo'lib xizmat qildi.

Urush davomida Uchlik ittifoqi mag'lubiyatga uchrab, Avstro-Vengriya, Germaniya va Ottoman imperiyalari parchalanib ketdi. Chor Rossiyasi tugatildi va ularning o'rnida g'olib mamlakatlar tomonidan qo'llab-quvvatlangan yangi davlatlar paydo bo'ldi.

Mazkur keskin o'zgarishlar natijasida dunyoda kuchlar taqsimotining yangicha tartibi qaror topdi. Bunda xalqaro siyosatning noyevropa qatnashchilari va, birinchi navbatda, AQSH ilk bora dunyo siyosat maydonida nazarga tushdilar.

G'arbiy yarimshardagi davlat Amerikalararo muammolar yechimi bilan cheklanib qolgan bo'lganligi sababli, Amerika o'sha vaqtgacha Yevropada sodir bo'lgan dunyo ishlarida qatnashish tajribasiga ega emas edi.

Murakkab diplomatik hiyla va fitnalar vositasida Vudro Vilson ma'muriyati Versal tizimi doirasida dunyoni urushdan keyingi qayta qurish to'g'risidagi rejasining qabul qilinishiga erishdi.

Bunda Germaniya bosh ittifoqdosh va birlashgan mamlakatlar (kuch markazlari) Belgiyaning betarafligini belgilab bergan 1839 yildagi shartnomalarni o'zgartirish maqsadida Belgiya yoki Niderlandiya hukumatlari bilan tuzishi mumkin bo'lgan barcha bitimlarni tan olish va ularni bajarish majburiyatini olgan edi.

O'sha shartlarga ko'ra, Germaniya Eypen va Malmedi okruglarining, shuningdek, Morens hududining shunday deb atalmish neytral hamda Prussiyaga tegishli qismlarining Belgiyaga o'tishini tan olishga majbur edi. Lyuksemburg Germaniya bojxona ittifoqi tarkibidan chiqib, Germaniya undan to'liq mustaqil bo'lib oldi. U, mag'lub davlat sifatida, 1919 yil sulhida ko'zda tutilgan chegaralarda Avstriyaning mustaqilligini hurmat qilishi, Chexoslovakiyaning mustaqilligini, Polshaning to'liq mustaqilligini tan olishi va Yuqori Sileziyaning bir qismidan, shuningdek, Millatlar Ligasining muhofazasi ostidagi erkin shahar (okrugi bilan)ga bo'lgan huquqlaridan Polsha foydasiga voz kechishi lozimligi belgilab qo'yildi. Germaniya va Daniya o'rtasida yangi chegara o'rnatildi. 1871 yildagi Frankfurt sulhining shartlariga ko'ra Germaniya tasarrufiga o'tgan Elzas va Lotaringiya esa mustaqil Fransiya qaytarib berildi. Fransiya shimolidagi vayron bo'lgan ko'mir konlari uchun to'lanadigan tovon sifatida kuch markazlaridan birining vakili bo'lishi Jorj Klemansoning talabi bilan Saar havzasidagi ko'mir konlari 15 yillik muddatga Millatlar Ligasi komissiyasining boshqaruviga o'tdi,

Germaniya esa, shuningdek, Reyn hududini quolsizlantirish majburiyatini ham o'z zimmasiga oldi.

Kuch markazlari Germaniya va Turkiya mustamlakalari taqdirini ham xuddi shunday osonlikcha hal qilib qo'ya qoldilar.

Bu mustamlakalar g'oliblar o'rtasida Millatlar Ligasining mandatlar tizimi asosida taqsimlanib, unga ko'ra mandatariy davlatlar (kuch markazlari) hududlar ustidan vasiylik o'rnatar edilar.

Buyuk Britaniya G'arbiy Togo, Kamerunning bir qismi va Germaniyaga tegishli Sharqiy Afrikaning katta bir qismi - Tanganikani boshqarish mandatini oldi; Janubi-G'arbiy Afrikadagi Germaniyaga qarshi bo'lgan hududlar Janubiy Afrika Ittifoqi ixtiyoriga o'tdi.

Fransiya Suriya va Livanni boshqarish mandatidan tashqari, shuningdek, Sharqiy Togo va Kamerunning bir qismiga mandat oldi; Belgiya - Ruanda-Urundiga; Yaponiya - Tinch okeanining ekvatoridan shimolda joylashgan orollariga, ya'ni Marshall, Karolina va Marian orollariga; Avstraliya - Nauru oroliga (Buyuk Britaniya va Yangi Zelandiya bilan birgalikda), sobiq Germaniyaga tegishli Yangi Gvineyaga hamda ekvatoridan janubda joylashgan Tinch okeani orollariga; Yangi Zelandiya - G'arbiy Samoa orollariga mandat oldi.

Kuch markazlarining xohishiga ko'ra u avvalgi German-Xitoy shartnomalaridan kelib chiqadigan Xitoydagi bir qator imtiyoz va afzalliklardan mahrum bo'ldi.

Shu tariqa, Germaniya Kanton (Guanchjou)da Britaniya konsessiyasining hududidagi o'ziga tegishli bo'lgan mulkini Buyuk Britaniyaga boy berdi. Szyaochjou hududida esa barcha huquq va imtiyozlaridan Yaponiya foydasiga voz kechdi.

Versal tizimi dunyoning urushdan keyingi tuzilishini Germaniya bilan ma'lum shartnoma bilan birga Antanta mamlakatlarining Avstriya, Bolgariya, Vengriya va Turkiya bilan imzolagan bir qator bitim hamda shartnomalarni o'z ichiga olgan edi (1920 yil 10 avgustdagi Sen-Jermen shartnomasi, 1919 yil 27

noyabrdagi Neyi tinchlik sulhi, 1920 yil 4 iyundagi Trianon, 1920 yil 10 avgustdagi Sevr tinchlik sulhi hamda ikkita tarixiy hujjat - akt bilan imzolangan 1923 yil 30 yanvar va 24 iyuldagi Lozanna tinchlik sulhi).

Versal tizimi g'arb davlatlarining o'sha davrda ommalashib ketgan kommunistik kayfiyatlardan o'zlarini himoya qilishga, mustamlakachilikka qarshi kurash va ozodlikka erishish yo'lidagi harakatlarni to'xtatishga, mag'lub mamlakatlarni yanada qaram holatga keltirishga bo'lgan intilishlarini aks ettirgan edi. U Birinchi jahon urushining boshlanishiga sabab bo'lgan asosiy qarama-qarshiliklarni biroz bo'lsa-da, bo'shashtirishga yoki yumshatishga olib kelmadi.

Nafsilamrini aytganda, o'sha davrda mavjud bo'lgan Versal tizimi doirasida urushda yengilgan mamlakatlar zimmasiga yuklangan adolatsiz va og'ir shartlar Ikkinchi jahon urushining boshlanishiga olib keldi. Versal tizimi tarkibidagi barcha shartnomalar matni aynan o'sha kuch markazlarining manfaatlariga xizmat qiladigan xalqaro tashkilot - Millatlar Ligasining nizomidan boshlanar edi.

Dunyoning qayta bo'linishini niqoblash maqsadida Versal tizimining ijodkorlari "mandat ostidagi» hududlar va protektoratlar tizimini kiritadilar, ya'ni mandatarliy davlat sobiq mustamlakani rasman Millatlar Ligasining topshirig'iga binoan boshqarar edi.

O'sha olis voqealarning mungli sadosi hanuzgacha Yaqin Sharqda, Shimoliy va Sharqiy Afrikadagi hududiy, etnik-ijtimoiy hamda boshqa muammolar ko'rinishida bizgacha yetib kelmoqda. Yangi xalqaro tizim nihoyatda beqaror bo'lib, juda qisqa fursat oralig'ida parokandalikka yuz tutdi. Birinchi jahon urushiga olib kelgan g'olib mamlakatlar o'rtasida asosiy qarama-qarshiliklarni bartaraf etmasdan, ushbu tizim g'oliblar va mag'lublar o'rtasida, shuningdek, g'olib mamlakatlar o'rtasida ham bir qator yangi ziddiyatlarni tug'dirdi va bu holat jiddiy nizolar kelib chiqish xavfi mavjud bo'lgan yangi harbiy-siyosiy bloklarning topishini tezlashtirib yubordi. Versal sulhi vaqt sinovidan o'ta bilmadi va Ikkinchi jahon urushining boshlanishi arafasida undagi qoidalarining aksariyati buzilib bo'lgan edi. Versal shartnomasi qoidalari uchun ilk mash'um og'ir sinov bo'ldi.

Germaniya qo'shinlarining 1936 yil mart oyida Reyn qurolsizlantirilgan hududiga kirib kelishi - 1938 yil martda Germaniya tomonidan Avstriyaning ochiqdan-ochiq qo'shib olinishini anglatgan Anshlyus esa, bu yo'nalishdagi navbatdagi qadam bo'ldi. O'sha yili sentabr oyining oxirida Germaniya Buyuk Britaniya va Fransiyaning roziligi bilan («Myunxen bitimi») Chexoslovakiyaning Sudet oblastini egallab oldi, 1939 yilning martida esa butun Chexoslovakiya zabt etildi. Mazkur aksiyadan keyin bir hafta o'tgach, Germaniya Litvaga qarashli bo'lgan Memel (Klaypeda)ni bosib oldi, 1939 yilning 1 sentabrida esa Polshaga hujum qilishi bilan Ikkinchi jahon urushini boshlab yubordi.

Lebensraum “hayotiy makon”ni kengaytirish va “adolatli chegaralar”ni ta'minlash ketidan quvish siyosiy vaziyatni mantiqan o'zining muqarrar yakuniga olib keldi va shu tariqa Versal tizimiga so'nggi nuqta qo'ygan Ikkinchi jahon urushi boshlanib ketdi.

Ikkinchi jahon urushidan so'nggi Yalta Potsdam tizimi dunyoda siyosiy kuchlarning yangicha taqsimotiga asos soldi. Potsdamdan keyingi dunyo tizimi ikki qutbli tizimga aylandi. Mazkur tizimning asosini Sovet Ittifoqi va Qo'shma Shtatlar tomonidan tuzilgan harbiy-siyosiy bloklar Varshava Shartnomasi hamda NATO, shuningdek, bir qator tizimosti iqtisodiy birlashmalar va harakatlarning kuch-qudrati tashkil qildi. Dunyo siyosatining mahobatli ikkita “gigant»i orasidagi murakkab qarama-qarshiliklar davri barchaga ma'lum bo'lgan fojialik keskin o'zgarishlarga nihoyatda boy. Shunga qaramasdan, dunyo ikki qutbli tizim davrida “status-kvo»ning qat'iy qoidalari doirasida rivojlanib keldi. Ikki qutbli tizimning “yaxshi» ekanligiga yetarli dalil topish va “yomon»ligini ham o'shancha dalil asosida isbotlash mumkin. Lekin adolat yuzasidan shuni qayd etish joizki, kuchlarning ikki qutbli muvozanati tizimi Ikkinchi jahon urushidan keyin qaror topgan mutlaqo muayyan shart-sharoitlar taqozosi bilan yuzaga keldi. Mazkur tizim Sovet Ittifoqining zaiflashuvi va keyinchalik parchalanib ketishi bilan bevosita bog'liq bo'lgan obyektiv shart-sharoitlarga ko'ra o'z faoliyatini tugatdi.

Bugungi kunda qator siyosiy tahlilchilar dunyodagi hozirgi mavjud tizimni

yoki “bir qutbli», yoki (ko‘p hollarda) “ko‘p qutbli» tizim sifatida ta’riflashga urinadilar. Birinchi ta’rif shunga asoslanganki, dunyoda yagona buyuk mamlakat AQSH qolgan bo‘lib, u harbiy va iqtisodiy kuch-qudratning asosiy ko‘rsatkichlari bo‘yicha qolgan barcha davlatlardan ustundir. Ikkinchi ta’rifga ko‘ra, ikki qutblilik tizimning buzilishi natijasida avval ikkinchi darajali hisoblangan davlatlar deyarli teng siyosiy mavqeni qo‘lga kiritdilar. Birinchi ta’rifga kelsak, “bir qutbli» dunyo jismoniy dunyoda ham, siyosiy dunyoda ham mavjud bo‘la olmaydi. “Qutb» va “qutblilik» tushunchalarining o‘ziyiq bir-biriga zid ta’sirdagi obyektlar yoki subyektlar mavjudligini taqozo qiladi. Ikkinchi ta’rif davlatlarning teng huquqliligi to‘g‘risidagi rasmiy nizomga hamda davlatlar o‘rtasidagi munosabatlar umuminsoniy qadriyatlar va manfaatlarga tayanishi kerak, degan xuddi shunday rasmiy qoidaga asoslanadi.

Fikrimizcha, bu borada yapon tahlilchilarining izlanishlari haqiqatga yaqinroq keladi. Unga ko‘ra, hozirda na bir qutbli, na ko‘p qutbli xalqaro munosabatlar tizimi mavjud emas. O‘zlarining tashqi siyosiy faoliyatini amalga oshira borib, ikki tomonlama, mintaqaviy, shuningdek, global uch bosqichli munosabatlarga kirishayotgan milliy davlatlarning ma’lum bir majmui bor, xolos.

Umuman esa, ikki qutblilik parchalanib ketganidan so‘nggi zamonaviy munosabatlar tizimi “bir qutbli” ham, “ko‘p qutbli” ham emas. U hozircha shakllanish bosqichida bo‘lib, hali u yoki bu darajada jiddiy takomilga erishganicha yo‘q va shuning uchun ham, unga nisbatan biron-bir qat’iy baho yoki yorliqni qo‘llash mantiqan to‘g‘ri bo‘lmaydi. Bugun dunyoda haqiqatan ham faqat bittagina buyuk davlat mavjud, lekin bu holat mazkur davlat bir vaqtning o‘zida umuman xalqaro munosabatlar rivojiga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatadi, degani emas.

O‘zining tashqi muhiti doirasida tizimosti va umumiy tizim darajalarida harakat qiluvchi davlatlar boshqa turli davlatlar bilan alohida yoki guruh ichida o‘zaro ta’sirda bo‘ladilar, qarama-qarshiliklarga uchraydilar va ularni turli vositalar yordamida, ya’ni diplomatik, iqtisodiy, targ‘ibot yoki harbiy yo‘llar bilan hal qilishga intiladilar.

Shu bilan birga, aynan shu o‘rinda xalqaro siyosatning ziddiyat tugunlari deb ataluvchi hodisasi yuzaga kelishi uchun tegishli shart-sharoitlar paydo bo‘ladi. Xalqaro ziddiyat tugunlari ularning muloqot amaliyotida muqarrar bo‘lgan siyosiy voqelik hisoblanadi. Xalqaro munosabatlar tarixidagi misollar ham aynan shundan dalolat beradi. Loaqal 1958 yil avgustida “katta siljish” siyosati va Xitoy Xalq Respublikasining Sovet Ittifoqidan ma’lum darajada uzoqlashuvi asnosida kechgan Tayvan inqirozini yodga olaylik. O‘sha voqealar A.D. Bogaturov tahriri ostida nashr etilgan “Sistemnaya istoriya mejdunarodnix otnosheniy”, “Xalqaro munosabatlarning tizimiy tarixi” mavzusidagi jamoaviy tadqiqot mualliflari tomonidan yetarlicha batafsil o‘rganilgan.

O‘sha yillarda Tayvanning mustaqilligini tan olmagan va Xitoy bu orolni o‘ziga qo‘shib olishga intilib, “ikki Xitoy” g‘oyasiga qat’iy qarshi chiqqan. Gomindan hukumati esa o‘zini Xitoy Respublikasining markaziy hokimiyati deb atar edi.

O‘sha davrda Angliyadan tashqari, birorta G‘arb mamlakati XXRni tan olmagan bo‘lib, ayni bir vaqtning o‘zida Chan Kayshi hukumati bilan faol diplomatik, harbiy-texnika va boshqa munosabatlarda bo‘lgan. Bu bilan birga, 1954 yilning dekabrda AQSH Gomindan bilan o‘zaro mudofaa to‘g‘risida shartnomani ham imzoladi. Mazkur shartnoma ta’siri ayni paytda Formoza oroliga ham, Peskador orollariga ham bevosita taalluqli edi.

Yaqqol tahdid xavfi ostida marksizm asoslari talqinidagi XXR ba’zi bir mafkuraviy ziddiyatlarga qaramasdan, SSSR bilan harbiy-texnika munosabatlarini faollashtirdi. Mao Szedun nima qilib bo‘lsa-da, shimoliy qo‘shnisidan yadro qurolini ishlab chiqarish texnologiyasini qo‘lga kiritish va sovet mutaxassislarini 6500–1000 KVT quvvatga ega bo‘lgan yadro reaktorini qurishga jalb etishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan edi. Sovet Ittifoqi yadroviy reaktorni qurib, uranni boyitish texnologiyasini Xitoyga berib yubordi. Oqibatda, Xitoy yadroviy mamlakatga aylandi, ya’ni o‘z-o‘zidan shunday deb atalmish “yadroviy klub”ga a’zo bo‘ldi va dunyodagi “martabalar jadvali”dagi o‘zining mavqeini o‘zgartirdi.

O'sha davrda Xitoy sovet davlatidan harbiy-texnika yordamini olishga intilib, AQShni turli yo'llar bilan XXRni tan olishga majbur qilishga uringan edi.

AQSH esa, o'z navbatida, Chan Kayshini qo'llab-quvvatlab, kommunistik Xitoyni yakka lab qo'yishga harakat qilar va, shuningdek, Koreyadagi urush davrida qo'lga olingan amerikalik harbiy asirlarning ozod etilishini talab qilar edilar. Ushbu voqealar har doim takrorlanib kelayotgan quyidagi haqiqatni yana bir bor tasdiqlaydi: davlatlar boshqa davlatlarning manfaatlari bilan kamdan-kam hollarda mos kelishi mumkin bo'lgan o'z milliy manfaatlaridan kelib chiqadilar. Davlatlar xalqaro maydonda o'zaro ta'sir ko'rsatib, tegishli kelishuvlar va qo'shma muassasalar bilan birgalikda kuzatiladigan iqtisodiy va harbiy-strategik yo'nalishdagi birlashmalarni tashkil qilib, ittifoqlar, alyanslar, bloklar va uyushmalarni tuzadilar. Bularning hammasi ustqurma formati bo'lib, unda davlatlar xalqaro muloqotning ma'lum meyorlari, qoidalari va odatlarini birgalikda ishlab chiqadilar. Hatto xalqaro huquq tizimi o'z mohiyatiga ko'ra butun xalqaro munosabatlar majmuining sababi emas, balki oqibati sifatida siyosat sahniga chiqadi.

Ichki va tashqi siyosatning subyekti, milliy manfaatlarning ifodachisi, ularning kafili hamda himoyachisi bo'lib fuqarolik jamiyati yoki uning biron-bir alohida instituti, siyosiy partiyasi, jamoatchilik guruhi, majlisi yoki birlashmasi emas, balki davlat hisoblanadi. Davlat o'z ichki va tashqi siyosatini qanday olib boradi, o'z milliy manfaatlarini qanday himoya qiladi buni u yaxshi bajaradimi, yo'qmi bu boshqa masala.

Ko'p hollarda davlat tomonidan o'z vazifalari va ustuvorliklarini, milliy manfaatlarini noto'g'ri tushunilishi yoki ularning himoyasiga davlat yetarli darajada e'tibor bermasligi, u umuman ushbu manfaatlarning subyekti emas, degan yanglish tasavvurni tug'diradi.

Biroq davlat o'z vazifalari va ustuvorliklarni qanday tushunmasin hamda ularni qay tarzda amalga oshirmasin, baribir, ularning subyekti hisoblanadi va ularning ijrosi amalda ta'minlanishi uchun faqat davlatgina mas'uldir. Tizimosti

tuzilmalar muntazam ravishda takomillashuvchi va rivojlanuvchi o'z ichki tizim-osti tuzilma aloqalariga egadir. Qarang: Aktualniye problemi Severo-Vostochnoy Azii (Yaponiya, Koreya, NIS). Informatsionniy byulleten, 1993, № 10. – S. 15–16.

Misol uchun, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH)ga a'zo davlatlar mazkur birlashma doirasida o'zlarining umumiy manfaatlariga sodiq qolgan holda Parlamentlararo assambleya, Davlatlararo iqtisodiy komitet, Davlatlararo bank doirasida va hokazo sohalarda hamkorlikni davom ettiradilar. MDH shaklini o'zgartirish zaruriyati ularni Jamoaviy xavfsizlik to'g'risidagi shartnoma tashkilotini (JXSHT) mustahkamlashga, shuningdek, Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyati (YEIH) doirasida Bojxona yoki Valyuta ittifoqlari doirasida integratsiyalashuvga undaydi.

Hamdo'stlikka a'zo davlatlar, ba'zi ichki ziddiyatlarga qaramasdan, bugungi kunda xalqaro va mintaqaviy muammolarni hal qilishda o'zaro munosabatlarini yangicha yo'sinda olib borishga harakat qilmoqdalar. Dunyoning bir qismidagi o'zgarishlar muqarrar ravishda uning qolgan hamma qismlarida o'zgarishlarga olib keladi va bu holat dunyo bo'ylab ro'y berayotgan jarayonlar, shak-shubhasiz, o'zaro bog'liq ekanligidan yana bir bor dalolat beradi. Zamonaviy xalqaro munosabatlarning tizimli-tuzilmaviy asoslari o'z-o'zidan emas, balki o'zaro bog'liqlik qonuniga ko'ra shakllanadi. Bunda har xil davlatlar, tizimosti va umumiy tizim darajasida o'zlarining tashqi siyosiy faoliyatini amalga oshiradilar. Dunyodagi umumsiyosiy muhit o'z-o'zidan emas, balki, ta'bir joiz bo'lsa, dunyodagi qariyb barcha davlatlarning o'zaro ta'siri natijasida shakllanadi.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) - davlatlararo birlashma bo'lib, dastlab Belorussiya, Rossiya va Ukraina tomonidan tashkil qilingan. 1991 yil 8 dekabrda Minskda MDHni tashkil qilish to'g'risida kelishuv imzolanib, unda uchta davlat rahbarlari SSSR chuqur inqiroz va parchalanish sharoitida o'z faoliyatini tugatganini tasdiqladilar. Bunda siyosiy, iqtisodiy, gumanitar, madaniy va boshqa sohalarda hamkorlikni rivojlantirish to'g'risida kelishildi. 1991 yil 21 dekabrda kelishuvga Ozarbayjon, Armaniston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Moldaviya,

Tojikiston, Turkmaniston, O‘zbekiston qo‘shildilar. Ular Belorussiya, Rossiya va Ukraina bilan Olma-Otada “MDH maqsadlari va tamoyillari to‘g‘risida”gi deklaratsiyani imzoladilar.

Ozarbayjon (1993 yil sentabriga qadar) va Moldaviya (1993 yil apreliyach) ushbu davlatlarning parlamentlari tomonidan ularning haqiqiy a‘zoli ratifikatsiya qilinguniga qadar MDHning uyushgan a‘zolari bo‘lgan edilar. 1993 yilning oktabrida Gruziya MDHning haqiqiy a‘zosi bo‘ldi. 2005 yil avgustda esa Turkmaniston MDHning haqiqiy a‘zolidan chiqib, uyushgan kuzatuvchi-a‘zo maqomini oldi. MDHning bir qator tuzilmalarida (prezident devonlarining muvofiqlashtiruvchi qo‘mitalari, statistika, temir yo‘l qo‘mitalari va b.) kuzatuvchi sifatida Mongoliya qatnashadi. So‘nggi paytlarda Gruziya, Moldaviya va Ukraina siyosatchilari MDHdan chiqish yoki uyushgan a‘zo maqomiga o‘tish ehtimoli to‘g‘risida so‘z ochmoqdalar.

MDH raisi lavozimi bir davlat rahbaridan boshqasiga navbat bilan o‘tadi. Hamdo‘stlikning doimiy organi - Minsk (Belorussiya)dagi MDH Ijroiya qo‘mitasi hisoblanadi. MDH mamlakatlari aholisi 2006 yil boshiga 280 mln kishini tashkil qildi. Barcha davlatlarning umumiy sa‘y-harakatlari va ularning shu paytga qadar olib borgan siyosati natijasidir.

Boshqacha qilib aytganda, dunyoning, uning kichik tizimlarining, uning kichik tizimlarini, kuch markazlari munosabatlarining o‘ziga xos jihatlarini shakllantirishda va ziddiyatlar tugunlarining paydo bo‘lishida ham xalqaro munosabatlarning subyektlari o‘z tashqi siyosiy faoliyati vositasida qatnashadilar. Umumiy mantiqqa zid, boshi berk ko‘chaga o‘xshash ma’lum bir paradoks holati yuzaga keladi. Davlatlar barqarorlikning mustahkamlanishi va qulay tashqi muhitning yaratilishidan manfaatdordirlar. Ayni paytda, ular shakllanayotgan status-kvoni o‘z harakatlari bilan u yoki bu darajada, ya’ni tizim yoki umumiy tizim darajasida buzadilar. Bu o‘rinda AQShning XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi hududiy ekspansiyasi davrini eslashning o‘zi kifoya.

Mazkur jarayon qurolli kuchlar qo‘llagan holda to‘g‘ridan-to‘g‘ri bosib olish

yo'li bilan yoki shunday deb atalmish "kelishilgan xaridlar» vositasida amalga oshirilgan edi, ya'ni: 1803 yilda AQSH Fransiyadan Luizianani, 1819 yilda esa Ispaniyadan (shu vaqtga qadar AQSH tomonidan bosib olingan) Floridani sotib oldi. 1867 yilda chor hukumati AQShga Alyaskani sotib yubordi. Birinchi jahon urushi davrida AQSH Daniya hukumatiga tazyiq o'tkazib, undan Sent-Tomas, Sent-Djon va Santa-Krus orollarini (Vest-Ind orollari) sotib oldi.

Dunyoni qayta tuzish va bo'lib olish uchun urush sifatida e'tirof etilgan Ispan-Amerika urushi tugaganidan so'ng, 1898 yilning 10 dekabrda Parijda Ispan-Amerika sulhi imzolandi. Ispaniya Kubadan voz kechdi va tez fursatda orol mustaqil deb e'lon qilindi. Lekin, haqiqatda, u AQShning protektorati ostida qoldi. Puerto-Riko, Guam va Filippin AQShga o'tdi. Filippinga Germaniya ham da'vogar edi, biroq Berlin faqatgina Tinch okeanida joylashgan Karolina, Marian va Palau orollarinigina Ispaniyadan sotib olishga muvaffaq bo'ldi, xolos.

Bosqinchilik siyosatining ushbu barcha yutuqlariga o'zlarining kengayishdan iborat ehtiyojlaridan, ta'sir doirasini kengaytirishdan kelib chiqqan holda erishilgan.

Bundan ma'lum bo'ladiki, davlatlar o'z tashqi siyosiy faoliyatining har bir harakatida qandaydir umumiy manfaatlardan emas, balki har doim muntazam o'zgarib boruvchi va tuzatilib boriluvchi o'z manfaatlaridan kelib chiqadilar.

Shakllantirilayotgan tuzilma davlat rahbarlarining tashqi siyosat yuritishdagi mafkuraviy salohiyati yoki dabdabali nutqlariga bog'liq bo'lmay, balki faqatgina ularning xatti-harakatlari-yu, muayyan ishlarida namoyon bo'ladi. Bu har doim kamida butun bir qator birga kuzatiladigan yo'lakay omillar bilan o'zaro bir-birini taqozo qiladigan jarayondir. Biroq o'zaro bog'langanlik tendensiyasi ijobiy rivojlanishning ko'p sonli misollariga qaramasdan, salbiy jihatlarga ham ega. Barcha davlatlar uchun chegaralarni mustahkamlash muammosi, o'z hududlarini narkotrafikdan, qo'poruvchi ekstremistik guruhlar kirib kelishidan, noqonuniy migratsiyadan, ommaviy qirg'in qurollarining o'ta xavfli turlarini ishlab chiqarish texnologiyalarini o'tkazishdan himoya qilish dolzarb masala hisoblanadi.

Dunyodagi hech bir davlat, u qanchalik boy va qudratli bo'lishidan qat'i nazar, milliy manfaatlar va maqsadlarni xalqaro tizim shartlariga moslashish jarayonidan holi emas. Bu yerda bugungi zamonaviy xalqaro munosabatlarga xos bo'lgan yana bir qonuniyat yuzaga keladi, ya'ni dunyoning hech bir davlati o'z tashqi siyosiy muammolarini yolg'iz o'zi, mustaqil hal qilishga qodir emas.

AQSH qanchalik qudratga ega bo'lmasin, u o'z milliy xavfsizligini to'liq ta'minlashga qodir emas. Bu turdagi bir tomonlama harakatlar muvaffaqiyatsizlikka uchrashi muqarrar. Bugungi Isroil davlati - Yaqin Sharqdagi kuchli va texnologik rivojlangan hamda AQSH tomonidan to'liq qo'llab-quvvatlanadigan davlatdir.

Biroq ko'pchilik isroillik siyosatchilar mazkur holat Falastin avtonomiyasi va mintaqadagi unga chegaradosh mamlakatlar bilan faol muloqotni yo'lga qo'ymasdan turib hamda ana shu davlatlarning manfaatlarini hisobga olmasdan turib, yahudiy davlatining xavfsizligini to'la kafolatlay olmasligini yaxshi tushunadilar. Davlatning mutlaq kuchi mavjud emas dunyoda har qanday kuch, u qanchalik ta'sirli va keng ko'lamli bo'lmasin, har doim nisbiydir. Bu zamonaviy xalqaro munosabatlarning allaqachon davr sinovidan o'tgan va isbot talab qilmaydigan aksiomasidir.

Shuning uchun ham har qanday davlatning tashqi siyosati xalqaro tizimning shakllanish jarayoniga ta'sir ko'rsata borib, o'zi ham uning sharoitlarini hisobga olishga majburdir. Buning sababi har qanday davlatlar o'rtasidagi tashqi siyosatning o'zaro tizimiy bog'liqligida bo'lib, bir vaqtning o'zida biron-bir mutlaqo mustaqil tashqi siyosatning mavjudligini istisno etadi, ya'ni tizimdan tashqarida mavjud bo'lgan faoliyatni istisno qiladi.

Aynan shuning uchun ham markaziy kuch munosabatlarining birmuncha faol qatnashchilari Yaqin Sharqdagi, sobiq sovet hududidagi Markaziy Osiyoda va umuman dunyodagi yangicha siyosiy shart-sharoitlar bilan hisoblashishga majburdirlar.

Bu yerda tashqi siyosatni shakllantiruvchi shaxslarning xohishlari va davlatning ehtiyojlari bilan uning haqiqiy imkoniyatlari o'rtasidagi tafovutni ajrata

bilish va ko'pincha bunday xohish-ehtiyojlar bilan imkoniyatlar bir-biriga aynan to'g'ri kelavermasligini e'tiborda tutish kerak bo'ladi. Davlatlar o'rtasidagi kelishuvlarning hamma shartlari ham haqiqiy bo'lavermaydi va ko'p hollarda u yoki bu vaziyatlarda majburiy murosaga aylanadi. Xalqaro siyosatni o'rganishga qaysi jihatdan yondashilmasin, bir narsa shubhasiz - davlat, u kichik yoki katta, boy yoki kambag'al bo'lishidan qat'i nazar, o'z mustaqilligini saqlab turgan paytgacha, xalqaro tizimda mustaqil rol o'ynaydi.

1.4. Ichki va tashqi siyosatning bir biriga bog'likligi.

Xalqaro munosabatlardagi murakkab chalkashliklar, cheksiz o'zgarishlar va qayta guruhlashlar, shu kundagi mavjud ittifoqlar va alyanslarning tarqatib borilishi hamda yangilarining tashkil qilinishi jahondagi davlatlarning xatti-harakatlarida sodir bo'layotgan doimiy o'zgarishlardan dalolat beradi. Bularning bari xalqaro munosabatlar subyektlarining ta'sir mavqelari o'zgarib borishi asosida yuz beradi. Davlatlarning dunyodagi o'rni, roli va ahamiyati ularning ichki rivojlanishi hamda ustuvorliklariga nisbatan kam darajada bo'ysungan muhitdagi faolligi bilan belgilanadi. Tashqi muhit mavjudligining sababi xalqaro tizim doirasida davlatlarning o'zaro munosabatlari majmui sifatida davlatlarning tashqi siyosiy faoliyati bo'lib, unga ko'ra davlatlar o'z milliy manfaatlarini himoya qiladilar. Tashqi siyosiy faoliyat aynan tashqi muhitga yo'naltirilgan bo'lib, aynan u, o'z navbatida, shu o'rinda jahondagi siyosiy aloqalarning deyarli istalgan qatnashchisining ichki rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi.

Dunyo davlatlari o'rtasidagi aloqalarning tobora jadallashib borayotganligi ularning avtarkiya va tashqi alohidalik sharoitida mavjud bo'lishiga imkon bermaydi, natijada o'z-o'ziga butunlay yetarliligini, ayniqsa, iqtisodiyot sohasida yaratish to'g'risidagi g'oyalar rad etiladi hamda ularni hattoki eng qudratli davlatlar ham boshqa biror davlatga muhtojligi yo'qligi misolida amalga oshirishga urinishlarga chek qo'yadi. Zamonaviy sharoitda dunyoning hech bir mamlakati, uning qay darajada kattaligi va iqtisodiy salohiyatidan qat'i nazar, xalqaro tizimning iqtisodiy yoki siyosiy yo'nalishlaridagi rivojlanish

xususiyatlaridan voz kechishga qodir emas. Siyosatchilarning buning aksiga ishontirishga har qanday urinishlari befoйда.

Umuman olganda, tashqi muhit deb davlatning kichik tizim, regional va umumiy tizim, global darajalarda o‘rab olgan muhit tashqi voqelik atrofi tushuniladi. Kichik tizim darajasida davlatning yaqin doirasi makoniy-geografik, tabiiy-iqlimiy, transport-kommunikatsiya va resurs sharoitlarining o‘ziga xosligi, chegaralarining shakli, chegaradosh davlatlarning siyosiy va iqtisodiy rivojlanishining turi hamda darajasi bilan tavsiflanadi. “Davlat uchun davlatlararo munosabatlar tizimi bu tashqi muhitdir. Uning ta’siri ostida ko‘p jihatdan davlatning tashqi siyosiy faoliyati shakllantiriladi, uning ichida kamol topadi, unda davlatlar bir-biriga ta’sir ko‘rsatadi, ularning manfaatlari bevosita to‘qnashadi, hamkorlik amalga oshiriladi va nafaqat alohida davlatlarning, balki ba’zida butun dunyoning taqdiriga taalluqli bo‘lgan eng muhim muammolar hal qilinadi”.

Davlatning ichki muhiti o‘z ichiga davlatning tuzilishini, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish darajasini, demografik o‘sish xarakterini, ijtimoiy ongning turini, mazkur jamiyatda ustuvor bo‘lgan qadriyatlar mezonini, uning etnik o‘ziga xosligini, ekin maydonlarining sifatini, irrigatsiya hamda melioratsiya, hududning agrar va sanoat jihatdan o‘zlashtirilganlik miqyosini, ITTKI (ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari) hamda mudofaa sanoatiga qo‘yilmalar hajmini, transport-kommunikatsiyalarining rivojlanganligi va h.k. Bularning hammasini umumiy ko‘rinishda deyarli istalgan davlat misolida uchratish mumkin.

Tashqi va ichki muhitda davlat siyosatining mohiyati uning dunyodagi mavqeini doimo mustahkamlab borish, nufuzini oshirish, millatni mustaqil madaniy yaxlitlik sifatida saqlab qolish hamda uning ichki va tashqi xavfsizligini ta’minlashdan iboratdir. Davlat siyosatining turli maqsadlari va yo‘nalishlari uning milliy manfaatlarining asosida, birinchi navbatda, xalqaro maydonda millatning (ya’ni davlatning) o‘zini o‘zi saqlab qolishi yoki yashab qolish g‘oyasi yotadi, chunki qolgan barcha maqsadlarga erishish aynan shunga bog‘liq. Barcha mamlakatlar uchun umumiy bo‘lgan mazkur vazifaga davlatning hududiy

yaxlitligi va uning mustaqilligini ta'minlashni kiritish mumkin.

Shu ma'noda XX asr jahon siyosati tizimining eng yirik yutuqlaridan biri bo'lib, totuv yashashning bosh shartlari sifatida chegaralarning mustahkamlik tamoyilini o'rnatish hisoblanadi. Ushbu tamoyil Yevropada xavfsizlik va hamkorlik bo'yicha yig'ilishning yakunlovchi hujjatida qayd etilgan (1975 y.) bo'lib, bundan avval u Afrika Birligi Tashkilotining qarorlarida o'z aksini topgan edi. Agarda birinchi misolda biz Yevropa mamlakatlari, shuningdek, AQSH va Kanada tomonidan qilingan hududiy da'volar Yevropa qit'asi bo'ylab olib borilgan qator urushlarga sababchi bo'lganligining tan olinishiga guvoh bo'lsak, ikkinchisida esa mustamlakachilik siyosatining qurbonlariga aylangan xalqlarning manfaatlarini hisobga olmagan ushbu siyosatga bo'lgan munosabatni yaqqol ko'rishimiz mumkin.

O'tgan asrning oxirida Britaniya hukumatiga rahbarlik qilgan baronessa Margaret Tetcher davlatning xalqaro maydondagi rolini shunday ta'riflaydi: "Tashqi siyosat va xavfsizlikni ta'minlash bu, avvalo, boshqa davlatlar bilan munosabatlarida shaxsiy maqsadlarga erishish uchun kuch hamda qudratdan foydalanishdir".

Men, konservator sifatida, bunday ta'rifdan mutlaqo cho'chimayman. Boshqalar kuchga tayanmasdan, xalqaro ishlarda istalgan natijalarga erishishga urinib ko'rsinlar. Ular muvaffaqiyatsizlikka uchrashi muqarrar.

Fikrini davom ettirar ekan, Tetcher xonim tashqi siyosatga bo'lgan munosabatini quyidagicha izohlaydi:

Tashqi siyosat va xavfsizlikni ta'minlash masalalari borasida erkin fikr emas, balki konservativ nuqtai nazar tarafdori bo'lganim sababli, men Uinston Cherchillning natsistlar Germaniyasiga qarshi kurashda SSSR bilan ittifoq tuzish haqidagi fikriga mutlaqo qo'shilaman: "Gitler do'zaxga bostirib kirgan taqdirda, men, hech bo'lmaganda, shaytanga yaxshi tavsiyanoma bergan bo'lar edim".

G'arbda uzoqni ko'zlovchi ko'pgina siyosatchilar tashqi siyosatga bunday yondashuvning yaxshi samara berishiga deyarli shubha qilmaganlar, aks holda,

uning ular o‘z siyosatlarida muvaffaqiyatsizlikka uchrar edilar. Umuman olganda, davlatni va umuman ichki hamda tashqi muhitdagi funksiyalarini tushunish aslida deyarli barcha siyosiy tafakkur maktablari va yo‘nalishlari uchun xos bo‘lgan holatdir.

Endi amalda uning siyosati qay tarzda ro‘yobga chiqarilmoqda va bu siyosat u yoki bu davlatning tub milliy manfaatlariga muvofiq keladimi yoki yo‘qmi bu butunlay boshqa masala. Anglashimizcha, bu masala har bir davlat tomonidan o‘zida mavjud vosita va imkoniyatlarga mos ravishda mustaqil hal qilinadi.

Shu munosabat bilan davlatlarning tezkor tashqi siyosiy faoliyat orqali o‘z tashqi muhitiga o‘ziga kerak bo‘lgan yo‘nalishda ta’sir ko‘rsatishga intilishi va shu bilan bir vaqtning o‘zida ta’sir etishning eng samarali choralarini tanlashini tushunish mumkin. Ularga ijobiy natijalari ularning xalqaro mavqelarini mustahkamlanishi yo‘lida shak-shubhasiz ta’sir ko‘rsatayotgan milliy manfaatlarining murakkab majmui turtki bo‘lib xizmat qiladi. Ayni paytda, davlatlarning tashqi muhiti ham tizim doirasida ularga teskari ta’sir ko‘rsatadi. Bunday munosabatlar qatnashchisining tashqi siyosiy egiluvchanlik darajasi, uning tashqi siyosiy ustuvorliklarini amalga oshirishda tashqi muhitning o‘zgaruvchan sharoitlariga o‘z vaqtida moslashish qobiliyati odatda mazkur jarayonning mezonini bo‘lib xizmat qiladi.

Mazkur mezonning samaradorligi o‘z davlatining manfaatlari bilan birga boshqa davlatlarning manfaatlarini ham o‘zaro hisobga olish sharti bilangina ko‘zga ko‘rinadi. Shunga qaramasdan, butun xalqaro tizim doirasidagi kuchlar raqobatchiligining qat’iy shartlari hech bir davlatga xalqaro munosabatlarning taraqqiyot yo‘nalishini o‘zi uchun kerakli o‘zanga burib yuborish kafolatini ham, xuddi shuning kabi, mamlakatning to‘liq xavfsizligini bir yoqlama urinishlar bilan ta’minlash kafolatini ham bermaydi.

Jahon tarixi bunday misollarga boy. Ikkinchi jahon urushi davrida bo‘lib o‘tgan “g‘alati urush” Yevropa xalqlariga ko‘p musibatlar olib kelgan.

Ma’lumki, Angliya tashqi ishlar vazirligi Germaniya Polshaga qarshi harbiy

harakatlarni to'xtatishni talab etuvchi nota yubordi va aks holda, Buyuk Britaniya o'zining kafillik majburiyatlarini bajarishi to'g'risida ogohlantirdi. Fransiya hukumati ham xuddi shunday yo'lni tutdi. Biroq ularning rejasi SSSRning tutgan o'rnini hisobga olmagan va Yevropada bu siz ham tang bo'lgan vaziyatni murakkablashtirgan edi.

1939 yilning 3 sentabridayoq Fransiya va Angliya Germaniyaga qarshi urush e'lon qilishga majbur bo'ldilar. Biroq ular, harbiy kuchda ko'p marotaba ustunlikka ega bo'lishiga qaramay, Germaniyaga qarshi hech qanday harbiy harakatlarni amalga oshirmadi. Bu davr "g'alati urush" deb nomlanib, 1939 yil sentabridan 1940 yilning mayigacha davom etgan.

Angliya va Fransiya uchun bu urushning mohiyati natsistlar Germaniyasining Polshani vayron qilishiga hamda Sharqqa kirib borishiga xalaqit qilmaslikdan iborat edi.

Shunday qilib, tashqi siyosatga jiddiy yondashuv, uning maqsad va vazifalarini to'g'ri tushunish, siyosiy jarayonlar rivojiga mohirona ta'sir ko'rsatish, dunyoda sodir bo'layotgan har xil o'zgarishlarga o'z vaqtida hamda aynan mos munosabat ko'rsatish turli mavqedagi barcha davlatlar uchun har doim muhim bo'lgan.

Bu esa tashqi siyosatni mintaqaviy va umumjahon miqyosidagi o'zgarishlarga muvofiq muntazam to'g'rilab borishni, tashqi siyosatning davlatning ichki siyosatiga va tashqi muhitdagi vaziyat bilan yaqin bog'liq hodisa sifatidagi mohiyatini to'g'ri tushunishni talab etadi.

Shu bilan birga, mamlakat ichidagi jarayonlarni faqatgina tashqi omillarga bog'liq, deb tushunish kerak emas. Kennet Uolts taklif etgan neorealizm ta'limotiga ko'ra, bunga yana yashab qolish muammosini ham kiritish mumkin. Eng muhimi, davlat siyosati deb ataluvchi, davlat ichkarisi va tashqarisida, davlatning farovonligini ta'minlash, xalqning turmush darajasini oshirish, mamlakatning ijobiy mavqeini mustahkamlash singari yagona umumiy maqsadga ega bo'lgan yaxlit va bo'linmas hodisaga to'g'ri yondashishdir. Davlatning ichki

va tashqi siyosati ham yagona davlat rivojlanish strategiyasi doirasida o‘zaro uzviy bog‘liq tushunchalardir.

Ichki va tashqi siyosat bu davlat tasarrufidagi ikkita instrument bo‘lib, shunga muvofiq tarzda o‘z davlat (milliy) manfaatlarining ichki hamda tashqi jihatlarini amalga oshirish uchun mo‘ljallangan. Ushbu jihatlar qay darajada mos bo‘lmasa (yoki mos bo‘lsa), ichki va tashqi siyosatning vazifalari ham aynan o‘sha darajada mos bo‘ladi (yoki mos bo‘lmaydi).

Davlatning tashqi siyosati ham, ichki siyosati ham o‘z mazmun-mohiyatiga ko‘ra ushbu davlatning asosini tashkil qilgan madaniy-qadriyatlar qatlamiga tayanadi. Shu bilan birga, birini ikkinchisidan hosil qilishga urinish yoki mamlakat ichkarisidagi va tashqarisidagi ma‘lum bir jarayonlarning boshqalariga qat‘iy bo‘ysunishi tamoyilini izlash to‘g‘ri bo‘lmas edi.

Aks holda, “tashqi siyosat” yoki “ichki siyosat” kabi tushunchalarga ehtiyoj qolmagan bo‘lar edi. Davlat siyosatining yo‘nalishlaridan har biri ma‘lum ma‘noda mustaqildir. Shu ma‘noda davlatning har xil funksiyalari, davlatning yagona siyosati doirasida har xil vazifalarning hal qilinishi uning milliy manfaatlaridan kelib chiqqan holda tushuniladi. Mohiyatan, xavfsizlikning asosini tashkil qiluvchi integral yaxlitlikka ichki va tashqi siyosat vositasida bir tanganing ikki tarafi singari har xil funksiyalar prizmasi orqali erishiladi. Bir-birini o‘zaro to‘ldirish bor, lekin sharoitlarning bir tomonlama va qat‘iy o‘zaro bo‘ysunishi mavjud emas.

Ularning farqlanishidagi o‘ziga xoslikni anglab yetish uchun ularni bir-biridan tubdan ajratadigan hamda ularni ichki siyosiy hamda tashqi siyosiy manfaatlar sohasiga aylantiradigan omillarni hisobga olish lozim. Bu, birinchi navbatda, tashqi muhitning alohida tabiati va xarakteri bo‘lib, unda mamlakat ichkarisidagiga nisbatan o‘zgacha, ya‘ni undan qat‘iy farqlanadigan qonunlar va mexanizmlar amal qiladi. Bunday muhitda davlatning an‘anaviy ehtiyojlari, xususan, ijtimoiy-iqtisodiy yoki siyosiy-mafkuraviy ehtiyojlari bir qadar o‘zgacha tus oladi. Davlat uchun o‘zgacha bo‘lgan, ya‘ni xalqaro muhitda hatto davlat qurilishining shakli ham alohida ahamiyat kasb etadi. Ichki va tashqi siyosat

omillarini ko‘rib chiqishda ichki hamda tashqi muhitning sharoitlariga mos bo‘lgan chegaraviy (yondosh) segmentlar ham uchraydi. Ularning umumiy ko‘rinishi quyidagichadir:

Tabiiy omillar:

- Makoniy-geografik joylashuvi (uning o‘ziga xos xususiyati, jumladan, qulay dengiz yo‘llariga va qit’a ichidagi transport-kommunikatsiya yo‘llariga bevosita chiqish imkoniyatining mavjudligi yoki yo‘qligi).

- Aholi (demografik qudrat).

- Iqtisodiyotning quyidagi jabhalari: a) tabiiy zaxiralar, ularning turi, aniqlangan hajmlari, qo‘yilmalarning qiymati; b) sanoat va qishloq xo‘jalik salohiyati.

- Harbiy qudrat (qurolli kuchlarning harbiy tayyorgarlik va harakatchanlik darajasi; qurol-aslahalar hamda harbiy texnikaning sifati).

Ma’naviy omillar: Tarixiy xotira. “O‘zga”ning timsolini baholash. Xalqaro majburiyatlar sohasidagi xulq-atvor taomillari. Milliy xavfsizlik muammosiga sezgirlik darajasi. O‘z navbatida, ichki muhit omillariga asosan quyidagilarni kiritish mumkin:

Tuzilmaviy omillar:

Siyosiy institutlar.

Iqtisodiy institutlar.

Tabiiy va ijtimoiy muhitdan foydalanishga qodirlik: texnologik, iqtisodiy hamda inson salohiyatlarining sifati.

Siyosiy partiyalar.

Tazyiq o‘tkazish guruhleri.

Asosiy siyosiy tazyiq o‘tkazishning vositalari.

Qarorlarni qabul qilish mexanizmi va jarayonining o‘ziga xos xususiyati.

Etnik guruhlar.

Konfessional guruhlar.

Til guruhleri.

Ijtimoiy harakatchanlik yoki moslashuvchanlik.

Hududiy tuzilmasi: shahar va qishloq aholisining ulushi yoki o'zaro nisbati.

Jamiyatdagi milliy totuvlik darajasi.

Madaniy va insoniy omillar:

Davlatning qadriyatlar tizimi.

Til.

Din.

Tafakkurning ustuvor qoliplari.

Milliy an'analarning turi va xarakteri.

Ichki muhit ham ko'p jihatdan tashqi muhit sharoitlaridan farqlanib turuvchi alohida sharoitlarga egadir. Davlat iqtisodiyotining o'ziga xos turi, aholi qatlamlarining tarkibi, ijtimoiy guruhlar o'rtasida o'zaro munosabatlarning xarakteri, jamiyat ichida siyosiy kuchlarning o'rni va o'zaro nisbati, siyosiy hokimiyatning mohiyati, mazkur davlatdagi demokratik institutlarning rivojlanish darajasi, xalqlar orasidagi totuvlikning darajasi hamda sifati, shuningdek, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikning boshqa elementlari - ana shularning barchasi birgalikda davlat ichki muhitining tabiatini tashkil qiladi.

Tashqi va ichki muhit o'rtasidagi tafovut bu ikkala muhitning aynan ushbu segmentlarida yashiringan. Ularga nisbatan davlatning har xil munosabati bir xil emasligi va ehtiyojlar hamda vazifalarga muvofiq ta'sir ko'rsatishning bir-biridan farqlanadigan vositalari qo'llanishining boisi ham ana shundadir. Davlatdan tashqari va uning sarhadlaridan tashqarida uning siyosiy hokimiyatining monopoliyasi mavjud emas. Xalqaro tizimning mavjudligi mustaqil subyektlar sifatida teng bo'lgan davlatlarning muntazam va murosasiz kurashda o'z huquqlarini qat'iy himoya qilishi bilan bog'liq. Agarda davlat umumjahon munosabatlarining mustaqil birligi sifatida o'zini saqlab qolishi uchun kurashmasa, ko'pincha zamonaviy qurol-aslahalarning ulkan zaxiralarini aksariyat hollarda nihoyatda qimmatbaho va ruxsat etilmagan ko'paytirish, qurollarni keng ishlab chiqarish davlatning ichki siyosiy barqarorligini ta'minlash maqsadlari uchun

ahamiyatga ega bo'lmagan bo'lar edi.

Tashqi muhitda shakllanib kelayotgan vaziyatga bog'liq ravishda va ma'lum iqtisodiy hamda harbiy-texnikaviy imkoniyatlardan foydalanib, davlatlar asosan tashqi siyosatning quyidagi instrumentlarini qo'llaydilar:

- tashqi siyosiy targ'ibot (xalqaro jamoatchilik tasavvurida mamlakatning ijobiy mavqeini mustahkamlash maqsadini ko'zda tutadi);

- diplomatiya (odatda uchta darajada amalga oshiriladi rasmiy uchrashuvlar, de-fakto va de-yure tan olish, elchilarni ayirboshlash);

- tashqi savdo munosabatlari (savdo aloqalarini o'rnatish, o'zaro savdo bitimlarini tuzish, tariflar va kvotalar tizimi orqali tashqi savdoda cheklovlarni qo'llash ko'rinishida bo'ladi);

- tashqi yordam (mamlakatlar tomonidan ularning tashqi siyosatida ikki xil ko'rinishda iqtisodiy (moliyaviy yoki tovar sifatida), shuningdek, harbiy (qurol-aslaha yetkazib berish, harbiy maslahatchilarni hamda harbiy qo'shinlar va kontingentlarni yuborish));

- ittifoqlar (ikki tomonlama yoki ko'p tomonlama turlari uchraydi va odatda ikki turda bo'ladi iqtisodiy yoki harbiy, tegishli manfaatlarni himoya qilish uchun);

- xalqaro tashkilotlar (uchta darajaga bo'linadi global yoki mintaqaviy, davlatlararo va nodavlat);

- boykotlar va sanksiyalar (bir yoki bir guruh davlatlar tomonidan u yoki bu davlatga bosim o'tkazib, u yoki bu xalqaro muammo borasida uning siyosatini o'zgartirish maqsadida qo'llanadi);

- harbiy kuch (har xil ko'rinishlarda bo'ladi turli xil shtab, komanda va qo'shma o'quv tayyorgarliklarni o'tkazish, eng zamonaviy harbiy texnologiyalar sohasidagi yutuqlarni ishlab chiqish hamda namoyish qilish, shuningdek, mustaqillikni himoya qilishning so'nggi chorasi sifatida urushni e'lon qilish).

Siyosiy jihatdan noqobil davlatlar (Gaiti, Somali, Eritreya va boshqalar), qanday siyosiy hiylalarni qo'llamasin, boshqa mamlakatlar hamjamiyatida istalgan mavqe, nufuz va o'rinni egallay olmasligi tayin.

Davlatning ichki vaziyatining qudrati bilan uning davlatlar tizimidagi roli o'rtasidagi o'zaro aloqa to'g'ridan-to'g'ri bo'lib, o'zaro bog'liqlikning o'sishiga ham, davlatlar siyosatida umumiy manfaatlarning paydo bo'lishi yoki ko'payishiga ham qaramasdan, hech qancha o'zgarmagan. Aksincha, dunyodagi siyosiy munosabatlarning jipslashuvi, o'zaro bog'langanlikning ortib borishi bilan birga, davlat ichidan zaif bo'lgani holda nisbatan kuchli davlatning bosim ko'rsatishiga qarshi turish va boshqa, nisbatan qudratli davlatlarga bog'lanib qolmaslik tobora qiyinlashadi. Bu borada mashhur nemis tarixchisi va mutafakkiri Leopold fon Rankening quyidagi so'zlarini yodga olish joizdir: "Dunyo bo'lindi. Unda bir nimaga erishish uchun o'z kuchingizga tayanib, qadr toplashingiz, to'liq mustaqillikka erishishingiz lozim. Sizning dunyodagi huquqlaringizni sizga hech kim o'z ixtiyori bilan berib qo'ymaydi: ular uchun kurasha bilmoq kerak».

Nazorat savollari:

1. Xalqaro munosabatlar tizimi qanaqa tushunchalardan iborat?
2. Mustaqil davlat qaysi talablarga javob berishi kerak ?
3. Versal tizimi misolida zamonaviy xalqaro munasobatlarni izohlang?
4. Ichki va tashqi siyosat uzviy bog'lig'ligi sabablari.
5. Ichki va tashqi siyosat omillarini keltiring.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlat ini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq. – T. : O'zbekiston, 2016.
2. Mirziyoyev Sh. M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali

marosimdagi ma'ruza. 2016 yil 7 dekabr. /SH. M. Mirziyoyev. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 48 b.

3. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.

4. Mirziyoyev Sh. M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyat ining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy- iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan vazirlar mahkamasining keng aytilgan majlisidagi ma'ruza. – T. : O‘zbekiston, 2017.

5. Umarov X. P. O‘zbekiston Respublikasi geosiyosiy holatining geos

6. Artikov J. Y. Vneshnyaya politika Respubliki Uzbekistan i problemi t

7. O‘zbekiston geo siyosati: O‘quv qo‘llanma T. : JIDU 2012

8. . XXI asrda jahon siyosati va O‘zbekiston tajribasi: siyosiy, xukukiy va ijtimoiy jihatlar: O‘zbekiston Respublikasi miqyosida ilmiy- amaliy konferensiya materiallari to'plami (Toshkent, 24 mart 2015 yil) / Mas'ul muxarrir: Sh. A. Yovqochev. –T. : ToshDSHI, 2015.

9. XX asrda jahon siyosatida arxitektonik o'zgarishlar: realpolitik k

Test topshiriqlari

1. O‘zbekiston Respublikasining xalqaro tizimlardagi o‘rnini o‘rganishning asosiy sababi nima?

A) Faqat tarixni bilish

B) Davlatning jahondagi rolini tushunish

C) Faqat iqtisodiy ma'lumot olish

D) Faqat siyosatchilarni o'rganish

2. O‘zbekiston xalqaro tizimlarda ishtirok etishi nimaga xizmat qiladi?

- A) Faqat madaniyatni rivojlantirishga
- B) Davlatning izolyatsiyada qolishiga
- C) Iqtisodiy va siyosiy hamkorlikka**
- D) Faqat ichki muammolarni hal qilishga

3. Quyidagilardan qaysi biri xalqaro tizimlarda ishtirok etishning afzalligi hisoblanadi?

- A) Boshqa davlatlardan uzilish
- B) Hamkorlik va tajriba almashish**
- C) Faqat milliy siyosat yuritish
- D) Tashqi aloqalarni cheklash

4. Xalqaro tizimlar nima?

- A) Faqat bir davlat siyosati
- B) Davlatlar o'rtasidagi munosabatlar tizimi**
- C) Faqat iqtisodiy tashkilotlar
- D) Faqat harbiy ittifoqlar

5. Quyidagilardan qaysi biri xalqaro tizimga kiradi?

- A) Mahalliy korxona
- B) Oila
- C) Davlatlar va xalqaro tashkilotlar**
- D) Maktab

6. Xalqaro tizimlarning asosiy ishtirokchilari kimlar?

- A) Faqat fuqarolar
- B) Davlatlar va xalqaro tashkilotlar**
- C) Faqat tadbirkorlar
- D) Faqat talabalar

7. Xalqaro tizimlar qanday munosabatlarni o'z ichiga oladi?

- A) Faqat ichki munosabatlarni
- B) Faqat shaxsiy munosabatlarni
- C) Davlatlar o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy munosabatlarni**

D) Faqat ta'lim munosabatlarini

8. Ichki siyosat nima?

A) Davlatning boshqa davlatlar bilan munosabati

B) Davlat ichidagi boshqaruv va siyosat

C) Faqat tashqi savdo

D) Faqat harbiy harakatlar

9. Tashqi siyosat nima?

A) Davlat ichidagi qarorlar

B) Davlatning xalqaro munosabatlardagi siyosati

C) Faqat ta'lim siyosati

D) Faqat soliq siyosati

10. Ichki va tashqi siyosat o'rtasida qanday bog'liqlik bor?

A) Ular mutlaqo bog'liq emas

B) Faqat ichki siyosat muhim

C) Ular bir-biriga ta'sir qiladi

D) Faqat tashqi siyosat muhim

11. Ichki siyosatdagi muammolar tashqi siyosatga qanday ta'sir qiladi?

A) Ta'sir qilmaydi

B) Davlatning xalqaro nufuzini pasaytiradi

C) Faqat madaniyatga ta'sir qiladi

D) Faqat ta'limga ta'sir qiladi

12. Tashqi siyosatdagi muvaffaqiyat ichki siyosatga qanday ta'sir qiladi?

A) Ta'sir qilmaydi

B) Iqtisodiy va siyosiy barqarorlikni oshiradi

C) Faqat sportga ta'sir qiladi

D) Faqat ta'limga ta'sir qiladi

13. O'zbekistonning xalqaro maydondagi faolligi nima bilan bog'liq?

A) Faqat aholi soni bilan

B) Siyosiy va iqtisodiy siyosat bilan

C) Faqat iqlim bilan

D) Faqat geografiya bilan

14. Xalqaro tizimlarda ishtirok etish orqali O'zbekiston nimaga erishadi?

A) Izolyatsiyaga

B) Rivojlanish va hamkorlikka

C) Faqat ichki muammolarga

D) Tashqi aloqalarni cheklashga

15. Davlatning xalqaro tizimlardagi o'rni nimaga bog'liq?

A) Faqat tabiiy resurslarga

B) Siyosiy, iqtisodiy va diplomatik faoliyatga

C) Faqat aholiga

D) Faqat ta'limga

2-BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TASHQI SIYOSATIDAGI USTUVOR YO‘NALISHLARI VA PRINSIPLARI

Reja:

2.1.O‘zbekiston tashqi siyosatining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari va xalqaro huquqiy prinsiplari.

2.2.“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi: iqtisodiy diplomatiya va milliy manfaatlarni ilgari surish.

2.3.Markaziy Osiyo tashqi siyosatning bosh ustuvor yo‘nalishi va mintaqaviy xavfsizlik.

2.4.Yangi O‘zbekistonning ko‘p tomonlama diplomatiyasi: xalqaro tashkilotlar va global hamkorlik.

Tayanch so‘z va iboralar: Markaziy Osiyo, iqtisodiy diplomatiya, suverenitet, “O‘zbekiston – 2030”, integratsiya, ko‘p tomonlama diplomatiya, milliy manfaatlar, xavfsizlik, strategik sheriklik.

2.1. O‘zbekiston tashqi siyosatining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari va xalqaro huquqiy prinsiplari.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so‘ng xalqaro maydonda o‘zining mustaqil tashqi siyosatini shakllantirish va uni izchil amalga oshirish yo‘lidan bordi. Zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimi globallashuv, geosiyosiy raqobat, mintaqaviy xavfsizlik muammolari hamda iqtisodiy integratsiya jarayonlari bilan xarakterlanadi. Bunday murakkab sharoitda har bir davlat o‘z milliy manfaatlarini himoya qilish, suverenitetini mustahkamlash va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish uchun puxta o‘ylangan tashqi siyosat strategiyasini yuritishi zarur.

O‘zbekiston tashqi siyosati aynan ana shu zaruratdan kelib chiqib, milliy manfaatlar ustuvorligi, o‘zaro manfaatli hamkorlik, tinchlikparvarlik va xalqaro huquq normalariga sodiqlik kabi asosiy prinsiplarga tayangan holda shakllandi. Shu bilan birga, mamlakat tashqi siyosatida mintaqaviy barqarorlikni ta’minlash,

qo'shni davlatlar bilan do'stona aloqalarni mustahkamlash, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar bilan samarali hamkorlikni rivojlantirish muhim ustuvor yo'nalishlar sifatida namoyon bo'lmoqda.

Mazkur mavzu dolzarbligi shundaki, bugungi kunda O'zbekistonning xalqaro maydondagi o'rnini tobora mustahkamlanib borayotgan bir paytda uning tashqi siyosatidagi ustuvor yo'nalishlar va prinsiplarga ilmiy asosda yondashish, ularning mazmun-mohiyatini chuqur tahlil qilish alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu ma'ruza aynan O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosatidagi asosiy ustuvor yo'nalishlar va prinsiplarning nazariy hamda amaliy jihatlarini yoritishga qaratilgan.

O'zbekiston tashqi siyosatining poydevori O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hisoblanadi. 2023-yilgi yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning IV bobi ("Tashqi siyosat") ushbu sohani tartibga soladi.

- 17-modda (Asosiy prinsip): O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'la huquqli subyektidir. Uning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, davlatlarning hududiy yaxlitligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik prinsiplariga asoslanadi.

- 18-modda (Tinchliksevarlik): O'zbekiston Respublikasi tinchliksevar tashqi siyosat olib boradi, u davlatlarning suveren tengligi, chegaralar daxlsizligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish tamoyillariga asoslanadi.³

Konstitutsiyaviy islohotlarning ahamiyati shundaki, yangi tahrirda "tinchliksevarlik", "inson huquqlarini hurmat qilish" va "hududiy yaxlitlik" tamoyillari aniq mustahkamlandi, bu esa davlatning ochiqligini va oldindan bashorat qilinadigan (prognoz qilinadigan) tashqi siyosat yuritishini anglatadi.

O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosatida xalqaro huquqiy prinsiplar muhim nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi. Mustaqillikdan so'ng

³ <https://constitution.uz/uz>

mamlakat o'z tashqi siyosatini umum e'tirof etilgan xalqaro huquq normalariga tayangan holda shakllantirdi. Bu yondashuv, avvalo, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomida mustahkamlangan prinsiplar bilan uyg'unlikda olib borilmoqda.

Birinchidan, davlat suvereniteti va tengligi prinsipi O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy ustunlaridan biridir. Ushbu prinsipga ko'ra, O'zbekiston o'zining hududiy yaxlitligi, siyosiy mustaqilligi va ichki ishlariga aralashmaslik huquqini qat'iy himoya qiladi. "Davlatlar o'rtasidagi munosabatlar suveren tenglik va ichki ishlariga aralashmaslik prinsiplari asosida qurilishi zarur."⁴ Shu bilan birga, boshqa davlatlarning ham suveren huquqlariga hurmat bilan yondashadi. Bu yondashuv mamlakatning xalqaro maydondagi barqaror va ishonchli hamkor sifatidagi imijini mustahkamlab bormoqda. "Har bir davlat o'z tashqi siyosatini, avvalo, milliy manfaatlari asosida quradi va bu manfaatlarni xalqaro huquq normalari bilan uyg'unlashtiradi."⁵

Ikkinchidan, kuch ishlatmaslik va nizolarni tinch yo'l bilan hal etish prinsipi O'zbekiston tashqi siyosatining muhim yo'nalishidir. Mamlakat har qanday xalqaro nizolarni muzokaralar, diplomatik vositalar va huquqiy mexanizmlar orqali hal etishni qo'llab-quvvatlaydi. Bu borada O'zbekiston mintaqaviy barqarorlikni ta'minlash, xususan, Markaziy Osiyoda tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlashga alohida e'tibor qaratadi.

Uchinchidan, ichki ishlariga aralashmaslik prinsipi qat'iy amal qilinadigan normalardan biridir. O'zbekiston boshqa davlatlarning siyosiy tizimi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo'li va ichki siyosatiga aralashmaslik siyosatini yuritadi hamda o'z hududida ham bunday aralashuvlarga yo'l qo'ymaslikni ta'minlaydi.

To'rtinchidan, xalqaro majburiyatlarga sodiqlik prinsipi muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston xalqaro shartnomalar va bitimlarga qo'shilar ekan, ularni

⁴ Helsinki Final Act (1975), I prinsip, 3–5-betlar.

⁵ Karimov I.A. *O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari*. — Toshkent, 1997, 45-bet.

vijdonan bajarish tamoyiliga amal qiladi. Bu esa mamlakatning xalqaro huquq subyekti sifatidagi mas'uliyatini namoyon etadi.⁶

Beshinchidan, inson huquqlari va erkinliklariga hurmat prinsipi ham tashqi siyosatda alohida o'rin tutadi. O'zbekiston inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha xalqaro normalarni qo'llab-quvvatlaydi va bu borada xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi. Shuningdek, o'zaro manfaatli hamkorlik va ochiqlik prinsipi ham muhim hisoblanadi. O'zbekiston turli davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan teng huquqli va manfaatli aloqalarni rivojlantirishga intiladi. Bu jarayonda Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, Shanxay hamkorlik tashkiloti kabi tuzilmalar bilan hamkorlik alohida ahamiyat kasb etadi. "Xalqaro hamkorlik bugungi kunda barqaror rivojlanishning ajralmas sharti bo'lib, u umumiy xavfsizlikni ta'minlashning asosiy vositasidir."⁷

2.2. "O'zbekiston – 2030" strategiyasi: iqtisodiy diplomatiya va milliy manfaatlarni ilgari surish.

"O'zbekiston – 2030" strategiyasi mamlakatning uzoq muddatli rivojlanish yo'nalishlarini belgilovchi muhim konseptual hujjat bo'lib, u iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, davlat boshqaruvini takomillashtirish va xalqaro hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan kompleks islohotlar dasturini o'z ichiga oladi. Ushbu strategiya doirasida iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, investitsiya muhitini yaxshilash, xususiy sektor rolini kuchaytirish hamda O'zbekistonni mintaqaviy va global iqtisodiy tizimga chuqur integratsiyalashuvi ustuvor vazifalar sifatida belgilangan.⁸

Strategiya tarkibiy jihatdan bir nechta asosiy yo'nalishlardan iborat bo'lib, ular o'zaro uzviy bog'liq holda mamlakat taraqqiyotini ta'minlashga xizmat qiladi. Avvalo, makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, sanoatni modernizatsiya qilish va yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, investitsion

⁶ <https://lex.uz/docs/-39149>

⁷ World Development Report. — Washington, 2019, 27-bet.

⁸ https://gov.uz/oz/pages/2030_strategy

jozibadorlikni oshirish, xorijiy kapitalni jalb qilish va xususiylashtirish jarayonlarini jadallashtirish orqali iqtisodiyotda davlat ulushini qisqartirish koʻzda tutilgan. Transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish, xalqaro transport yoʻlaklarini kengaytirish va mamlakatni tranzit markazga aylantirish ham strategiyaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bundan tashqari, inson kapitalini rivojlantirish, taʼlim va sogʻliqni saqlash tizimini takomillashtirish hamda davlat boshqaruvida raqamlashtirish va ochiqlikni taʼminlash kabi yoʻnalishlar ham muhim oʻrin egallaydi.

Mazkur strategiya bir qator asosiy tamoyillarga tayangan holda amalga oshiriladi. Xususan, pragmatizm va natijadorlik tamoyili asosida qabul qilinayotgan qarorlar iqtisodiy samaradorlikka yoʻnaltiriladi. Ochiqlik va xalqaro integratsiya tamoyili esa Oʻzbekistonning global iqtisodiy tizimga faol qoʻshilishini taʼminlaydi. Inson kapitaliga ustuvor eʼtibor qaratish orqali iqtisodiy rivojlanishning markaziga inson omili qoʻyiladi. Shu bilan birga, xususiy sektorni qoʻllab-quvvatlash, hududiy muvozanatni taʼminlash va barqaror rivojlanishga erishish strategiyaning muhim prinsiplaridan hisoblanadi.

“Iqtisodiy diplomatiya” ushbu strategiyada milliy manfaatlarni ilgari surishning asosiy vositalaridan biri sifatida namoyon boʻladi. Bu yoʻnalishda Oʻzbekiston xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, eksport salohiyatini oshirish va yangi bozorlarni egallashga alohida eʼtibor qaratmoqda. Xususan, mamlakat xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni kengaytirib, Jahon banki hamda Xalqaro valyuta jamgʻarmasi bilan faol aloqalarni yoʻlga qoʻygan. Shu bilan birga, global savdo tizimiga integratsiyalashuv, jumladan Jahon savdo tashkilotiga aʼzo boʻlish jarayoni ham iqtisodiy diplomatiyaning muhim yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi.

Bundan tashqari, iqtisodiy diplomatiya transport va logistika sohasida ham faol olib borilmoqda. Mamlakatning geografik joylashuvidan samarali foydalanish, transmilliy transport koridorlarini rivojlantirish va Markaziy Osiyoda logistika markaziga aylanish strategik vazifalardan biri sifatida belgilanmoqda.

Energetika sohasida ham hamkorlikni kengaytirish, resurslardan samarali foydalanish va “yashil iqtisodiyot” tamoyillarini joriy etish orqali O‘zbekiston o‘z iqtisodiy manfaatlarini xalqaro maydonda ilgari surmoqda.

Umuman olganda, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlash, xalqaro raqobatbardoshligini oshirish va milliy manfaatlarni samarali himoya qilishga qaratilgan tizimli va uzoq muddatli rivojlanish modelini ifodalaydi. Unda iqtisodiy diplomatiya muhim instrument sifatida xizmat qilib, O‘zbekistonning global iqtisodiy makondagi o‘rnini mustahkamlashga yordam bermoqda.

2.3. Markaziy Osiyo - tashqi siyosatning bosh ustuvor yo‘nalishi va mintaqaviy xavfsizlik.

XXI asr geosiyosiy voqeligida Markaziy Osiyo dunyoning diqqat markazida turgan, ulkan iqtisodiy salohiyatga ega va murakkab xavfsizlik chaqiriqlariga duch kelayotgan hududdir. O‘zbekiston uchun Markaziy Osiyo - bu shunchaki qo‘shni davlatlar yig‘indisi emas, balki mamlakatning barqaror taraqqiyoti, iqtisodiy farovonligi va milliy xavfsizligi kafolatlanadigan yagona va ajralmas makondir.

2016-yildan boshlab O‘zbekiston tashqi siyosatida “yaxshi qo‘shnichilik” tamoyiliga asoslangan tub burilish yuz berdi. Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan tashqi siyosatning eng asosiy ustuvor yo‘nalishi etib aynan Markaziy Osiyo belgilandi. Nima uchun aynan Markaziy Osiyo? Birinchidan, mintaqadagi barqarorlik O‘zbekistonning ichki rivojlanishi uchun hal qiluvchi omildir. Agar qo‘shnilar bilan munosabatlarda ishonchsizlik, chegaraviy nizolar yoki savdo to‘siqlari bo‘lsa, mamlakat iqtisodiy salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish imkonsiz. Ikkinchidan, tarixiy va madaniy mushtaraklik. Bizning xalqlarimiz asrlar davomida yagona tarixiy jarayonlar, umumiy diniy va madaniy qadriyatlar, shuningdek, bir-biriga bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy tizimlar ichida yashab kelgan.

Mintaqada suv-energetika resurslaridan foydalanish, chegaraviy masalalar, ekologik muammolar hamda transmilliy tahdidlar – terrorizm, ekstremizm va noqonuniy migratsiya kabi omillar xavfsizlikka jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois O‘zbekiston ushbu muammolarni faqatgina mintaqaviy hamkorlik va o‘zaro

ishonch asosida hal etish tarafdori hisoblanadi. Bu borada davlatlar o'rtasida siyosiy muloqot, maslahatlashuvlar va qo'shma tashabbuslarning yo'lga qo'yilishi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlashda xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar bilan hamkorlik ham muhim o'rin tutadi. Xususan, Shanxay hamkorlik tashkiloti doirasida xavfsizlik, terrorizmga qarshi kurash va iqtisodiy hamkorlik masalalari bo'yicha muvofiqlashtirilgan siyosat olib borilmoqda. Shuningdek, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti bilan hamkorlik orqali demokratik institutlarni rivojlantirish, inson huquqlarini himoya qilish va xavfsizlikni mustahkamlashga qaratilgan tashabbuslar ilgari surilmoqda. "Tinchlikni saqlash – bu faqat harbiy kuch emas, balki diplomatiya va o'zaro ishonch orqali erishiladigan jarayondir."⁹

O'zbekiston tashqi siyosatida Markaziy Osiyoda yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida qaraladi. So'nggi yillarda mintqa davlatlari o'rtasida savdo-iqtisodiy aloqalar kengayib, transport va kommunikatsiya loyihalari rivojlanmoqda. Bu esa o'z navbatida iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish va mintaqaning global iqtisodiy tizimdagi o'rnini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari, ekologik xavfsizlik, xususan, Orol dengizi inqirozi oqibatlarini bartaraf etish ham mintaqaviy hamkorlikning muhim yo'nalishlaridan biridir. O'zbekiston ushbu muammoni hal etishda xalqaro hamjamiyat e'tiborini jalb qilish, qo'shni davlatlar bilan birgalikda ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish tashabbusini ilgari surmoqda.

Mintaqaviy xavfsizlik tushunchasi bugungi kunda faqat harbiy xavfsizlik bilan cheklanib qolmaydi. U suv-energetika resurslaridan oqilona foydalanish, chegaralarni delimitatsiya va demarkatsiya qilish, transmilliy jinoyatchilik va terrorizmga qarshi kurashni ham o'z ichiga oladi.

Markaziy Osiyoda xavfsizlikni ta'minlashning eng samarali mexanizmi sifatida 2018-yilda yo'lga qo'yilgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining

⁹ UN Charter (Nizom), 1945, 1-modda izohlari (tahliliy sharhlar to'plami), 12-bet.

Maslahat uchrashuvlari formatini alohida ta'kidlash lozim. Bu format mintaqadagi muammolarni tashqi kuchlar aralashuvisiz, o'zaro kelishuv va hurmat asosida hal etishning eng maqbul yo'lidir.

Xavfsizlik masalasida Afg'oniston omili ham alohida o'rin tutadi. O'zbekistonning pozitsiyasi aniq: Afg'onistonda tinchlik o'rnatilishi Markaziy Osiyo xavfsizligining ajralmas qismidir. Afg'on xalqiga gumanitar yordam ko'rsatish va uni mintaqaviy iqtisodiy loyihalarga (masalan, Termiz–Mozori-Sharif–Kobul–Peshovar temir yo'li) jalb etish orqali mamlakatni izolyatsiyadan olib chiqish mintaqaviy barqarorlikni mustahkamlashning eng to'g'ri yo'lidir.

Markaziy Osiyoning geosiyosiy joylashuvi - bu uning asosiy resursi. Mintaqa Shimol va Janub, Sharq va G'arb o'rtasidagi "ko'prik" vazifasini o'taydi. O'zbekistonning mintaqaviy siyosati aynan ushbu transport-logistika imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga qaratilgan.

Iqtisodiy hamkorlik faqat savdo hajmini oshirish emas, balki mintaqaviy sanoat kooperatsiyasi va qo'shilgan qiymat zanjirlarini yaratishdir. Bugungi kunda mintaqaviy savdo hajmi sezilarli darajada o'sdi. Bu esa bir-birini to'ldiruvchi iqtisodiyotlarni shakllantirish imkonini beradi. Masalan, energiya resurslariga boy davlatlar va qishloq xo'jaligi yoki sanoat salohiyati yuqori bo'lgan davlatlarning o'zaro hamkorligi butun mintaqani raqobatbardosh qiladi.

O'zbekistonning mintaqaviy siyosati xalqaro maydonda "Markaziy Osiyo ovozi"ni kuchaytirishga qaratilgan. "C5+1" (Markaziy Osiyo davlatlari + AQSH, Yevropa Ittifoqi, Xitoy, Rossiya, Yaponiya, Koreya Respublikasi va h.k.) formatlarining rivojlanishi bunga yaqqol misoldir.

Bizning yondashuvimiz shundan iboratki, mintaqa tashqi kuchlarning geosiyosiy raqobat maydoniga emas, balki konstruktiv hamkorlik makoniga aylanishi kerak. O'zbekiston hech qaysi yirik davlatning mintaqaviy manfaatlarini boshqasiga qarshi qo'ymaydi, balki barcha hamkorlar bilan teng huquqli va manfaatli aloqalarni rivojlantirish tarafdoridir.

Markaziy Osiyo bugun uygʻonish davrini boshdan kechirmoqda. Bir paytlar “muammoli mintaq” deb qaralgan hudud, bugun barqaror rivojlanayotgan va integratsiyalashayotgan mintaqaga aylanib bormoqda.

Oʻzbekiston uchun mintaqaviy xavfsizlik va taraqqiyot - bu oʻz kelajagimizga sarmoya kiritishdir. Biz mintaq xalqlari bilan nafaqat savdo qilamiz, balki umumiy madaniy va sivilizatsion makonni qayta tiklamoqdamiz.

2.4. Yangi Oʻzbekistonning koʻp tomonlama diplomatiyasi: xalqaro tashkilotlar va global hamkorlik.

Yangi Oʻzbekiston tashqi siyosatida koʻp tomonlama diplomatiya ustuvor yoʻnalishlardan biri sifatida shakllanib, mamlakatning global maydondagi faolligini sezilarli darajada oshirmoqda. Bu yondashuv davlatning nafaqat ikki tomonlama aloqalarni rivojlantirish, balki xalqaro tashkilotlar doirasida ham keng qamrovli hamkorlikni yoʻlga qoʻyishga intilayotganini koʻrsatadi. Koʻp tomonlama diplomatiya orqali Oʻzbekiston global muammolarni hal etishda faol ishtirok etish, xalqaro tashabbuslarni ilgari surish va milliy manfaatlarini samarali himoya qilish imkoniyatiga ega boʻlmoqda.

Avvalo, Oʻzbekistonning xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligi uning tashqi siyosatining muhim tarkibiy qismidir. Mamlakat Birlashgan Millatlar Tashkiloti doirasida tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlash, barqaror rivojlanishni taʼminlash hamda inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan tashabbuslarni ilgari surmoqda. Xususan, Markaziy Osiyoni tinchlik, barqarorlik va yaxshi qoʻshnichilik hududiga aylantirish boʻyicha ilgari surilgan tashabbuslar xalqaro hamjamiyat tomonidan keng qoʻllab-quvvatlandi.

Shuningdek, Oʻzbekiston mintaqaviy va global tashkilotlar bilan ham faol hamkorlik olib bormoqda. Jumladan, Shanxay hamkorlik tashkiloti doirasida xavfsizlik, iqtisodiy hamkorlik va transport-logistika masalalari boʻyicha qoʻshma loyihalar amalga oshirilmoqda. Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti bilan hamkorlik esa demokratik institutlarni rivojlantirish, saylov tizimini takomillashtirish va inson huquqlarini taʼminlashga xizmat qilmoqda.

Ko‘p tomonlama diplomatiyaning yana bir muhim yo‘nalishi – iqtisodiy hamkorlikni kengaytirishdir. O‘zbekiston xalqaro moliyaviy institutlar bilan aloqalarni mustahkamlab, investitsiyalarni jalb qilish va iqtisodiy islohotlarni qo‘llab-quvvatlashga erishmoqda. Bu borada Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg‘armasi kabi tuzilmalar bilan hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu institutlar orqali infratuzilma, energetika va ijtimoiy sohalarda yirik loyihalar amalga oshirilmoqda.

Bundan tashqari, global muammolar – iqlim o‘zgarishi, ekologik barqarorlik, suv resurslarini boshqarish kabi masalalarda ham O‘zbekiston faol pozitsiyani egallamoqda. Xususan, Orol dengizi muammosini xalqaro darajaga olib chiqish va uni hal etishda global hamkorlikni kuchaytirish tashqi siyosatning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Yangi O‘zbekistonning ko‘p tomonlama diplomatiyasi ochiqlik, pragmatizm va o‘zaro manfaatdorlik tamoyillariga asoslanadi. “Biz ochiq, pragmatik va o‘zaro manfaatli tashqi siyosat yuritishni davom ettiramiz.”¹⁰ Bu yondashuv mamlakatning xalqaro maydondagi nufuzini oshirish, global jarayonlarda faol ishtirok etish va barqaror rivojlanishni ta‘minlashga xizmat qilmoqda. Natijada, O‘zbekiston zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida ishonchli va mas‘uliyatli hamkor sifatida tobora mustahkam o‘rin egallab bormoqda.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosatidagi ustuvor yo‘nalishlari va prinsiplari zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimining murakkab va dinamik sharoitlariga mos ravishda shakllangan yaxlit strategik modelni ifodalaydi. Ushbu modelning asosida milliy manfaatlar ustuvorligi, suverenitet va hududiy yaxlitlikni ta‘minlash, xalqaro huquq normalariga sodiqlik hamda tinchlikparvarlik tamoyillari yotadi. Ayniqsa, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomida belgilangan prinsiplar bilan uyg‘unlik O‘zbekiston tashqi siyosatining huquqiy asoslanganligini va izchilligini ta‘minlaydi.

¹⁰ Mirziyoyev Sh.M. Oliy Majlisga Murojaatnoma. — Toshkent, 2020, 18-bet.

Shu bilan birga, mamlakat tashqi siyosatida Markaziy Osiyo mintaqasi bosh ustuvor yoʻnalish sifatida belgilanib, yaxshi qoʻshnichilik, oʻzaro ishonch va mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlashga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Global darajada esa koʻp tomonlama diplomatiya, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar bilan samarali hamkorlikni rivojlantirish orqali Oʻzbekiston oʻzining xalqaro nufuzini oshirib bormoqda. Bu jarayonda Shanxay hamkorlik tashkiloti va Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti kabi tuzilmalar bilan aloqalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Natijada, Oʻzbekiston tashqi siyosati ochiqlik, pragmatizm va oʻzaro manfaatdorlik tamoyillariga asoslangan holda milliy taraqqiyotga xizmat qiluvchi samarali mexanizm sifatida namoyon boʻlmoqda. Mazkur yondashuv nafaqat mamlakatning xalqaro maydondagi oʻrnini mustahkamlaydi, balki mintaqaviy va global miqyosda tinchlik, barqarorlik hamda hamkorlikni taʼminlashga ham sezilarli hissa qoʻshadi.

Nazorat savollari:

1. Oʻzbekiston Respublikasining tashqi siyosatining asosiy maqsadi nima?
2. Tashqi siyosatda milliy manfaat tushunchasi nimani anglatadi?
3. Oʻzbekiston tashqi siyosatining asosiy prinsiplari qaysilar?
4. Suverenitet va davlatlar tengligi prinsipi nimani bildiradi?
5. Ichki ishlariga aralashmaslik prinsipi qanday qoʻllaniladi?
6. Kuch ishlatmaslik va nizolarni tinch yoʻl bilan hal qilish prinsipi mohiyati nimada?
7. Oʻzbekiston tashqi siyosatida Markaziy Osiyo mintaqasining oʻrni qanday?
8. Nega Markaziy Osiyo Oʻzbekiston tashqi siyosatining ustuvor yoʻnalishi hisoblanadi?
9. Mintaqaviy xavfsizlik deganda nima tushuniladi?
10. Terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashda Oʻzbekiston qanday yondashuvni qoʻllaydi?

11. Ko'p tomonlama diplomatiya nima va u qanday ahamiyatga ega?
12. O'zbekiston qaysi xalqaro tashkilotlar bilan faol hamkorlik qiladi?
13. Iqtisodiy diplomatiyaning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
14. O'zbekiston tashqi siyosatida xalqaro huquqning o'rni qanday?
15. Yangi O'zbekiston tashqi siyosatining ochiqlik va pragmatizm tamoyillari nimani anglatadi?

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Tashqi siyosiy faoliyat konsepsiyasi. – Toshkent, 2012.
3. O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi rasmiy hujjatlari. – www.mfa.uz
4. Karimov I.A. *O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari*. – Toshkent: O'zbekiston, 1997.
5. Mirziyoyev Sh.M. *Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz*. – Toshkent: O'zbekiston, 2016.
6. Mirziyoyev Sh.M. Oliy Majlisga Murojaatnoma (2020–2025 yillar). – Toshkent.
7. Mirziyoyev Sh.M. *Yangi O'zbekiston strategiyasi*. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
8. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomi. – 1945.
9. Helsinki Yakuniy akti (Yevropa xavfsizlik va hamkorlik kengashi). – 1975.
10. Birlashgan Millatlar Tashkiloti. *Annual Reports and Resolutions*. – New York, 2018–2024.
11. Shanxay hamkorlik tashkiloti. *Charter and Official Documents*. – Beijing, 2020.
12. Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti. *OSCE Documents*. – Vienna, 2019.

13. Jahon savdo tashkiloti. *WTO Reports on Uzbekistan accession process*. – Geneva, 2022.
14. Jahon banki. *World Development Indicators*. – Washington, 2023.
15. Xalqaro valyuta jamg'armasi. *Country Reports: Uzbekistan*. – IMF, 2023.
16. Allayarov Sh. *Xalqaro munosabatlar nazariyasi*. – Toshkent: Universitet, 2019.
17. Rashidov A. *Tashqi siyosat va diplomatiya asoslari*. – Toshkent, 2021.

Test topshiriqlari

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining nechanchi moddasida tashqi siyosatning asosiy prinsiplari (suveren tenglik, kuch ishlatmaslik, chegaralar daxlsizligi) mustahkamlangan?

A) 15-modda

B) 17-modda

C) 18-modda

D) 20-modda

2. O'zbekiston tashqi siyosatining bosh ustuvor yo'nalishi qaysi mintaqaga hisoblanadi?

A) Yevropa Ittifoqi

B) Janubiy Osiyo

C) Markaziy Osiyo

D) Yaqin Sharq

3. O'zbekistonning harbiy-siyosiy bloklar borasidagi pozitsiyasi qanday?

A) Harbiy bloklarga a'zo bo'lishga intiladi

B) Faqat MDH doirasidagi harbiy tuzilmalarda qatnashadi

C) Harbiy-siyosiy bloklarga qo'shilmaslik kursiga sodiq

D) Xorijiy harbiy bazalarni joylashtirishni qo'llab-quvvatlaydi

4. "O'zbekiston – 2030" strategiyasiga ko'ra, 2030-yilgacha qancha miqdorda xorijiy investitsiyalarni (FDI) jalb qilish maqsad qilingan?

A) 50 milliard dollar

B) 110 milliard dollar

C) 250 milliard dollar

D) 80 milliard dollar

5. O‘zbekiston Butunjahon savdo tashkilotiga (BST/WTO) qaysi yilgacha a‘zo bo‘lishni strategik maqsad qilib qo‘ygan?

A) 2025-yil **B) 2026-yil** C) 2030-yil D) 2028-yil

6. O‘zbekiston va Yevropa Ittifoqi o‘rtasidagi munosabatlarni yangi bosqichga ko‘targan 2025-yilda imzolangan hujjat qanday nomlanadi?

A) Erkin savdo bitimi

B) Strategik sheriklik deklaratsiyasi

C) Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to‘g‘risidagi bitim (EPCA)

D) GSP+ bitimi

7. ”O‘zbekiston – 2030” strategiyasining nechanchi ustuni (pillar) xavfsiz va tinch davlat siyosatini, shu jumladan ochiq va pragmatik tashqi siyosatni o‘z ichiga oladi?

A) 2-ustun B) 3-ustun C) 4-ustun **D) 5-ustun**

8. O‘zbekiston iqtisodiy diplomatiyasi doirasida 2030-yilga kelib eksport hajmini necha milliard dollarga yetkazish ko‘zda tutilgan?

A) 30 milliard dollar B) 40 milliard dollar **C) 45 milliard dollar** D) 50 milliard dollar

9. O‘zbekiston tashabbusi bilan so‘nggi yillarda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan nechta maxsus rezolyutsiya qabul qilindi?

A) 5 ta B) 8 ta **C) 11 ta** D) 15 ta

10. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasiga ko‘ra, qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ulushini 2030-yilga kelib necha foizga yetkazish rejalashtirilgan?

A) 25% B) 30% **C) 40%** D) 50%

11. Markaziy Osiyoni Janubiy Osiyo dengiz portlari bilan bog‘lovchi strategik temir yo‘l loyihasi qanday nomlanadi?

A) Xitoy-Qirg'iziston-O'zbekiston temir yo'li

B) Trans-Afg'on temir yo'li(UAP)

C) Shimol-Janub koridori

D) Kaspiy orti yo'nalishi

12. Yevropa Ittifoqining GSP+ tizimi O'zbekistonga qanday imtiyoz beradi?

A) Yevropa kreditlaridan foizsiz foydalanish

B) 6200 dan ortiq turdagi tovarlarni bojxona bojlarisiz eksport qilish

C) Vizasiz rejim o'rnatish

D) Yevropa Ittifoqi budjetidan to'g'ridan-to'g'ri yordam olish

13. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasiga ko'ra, davlat ittifoqlar tuzishi va xalqaro tuzilmalarga kirishi uchun nimaga tayanishi kerak?

A) Faqat iqtisodiy manfaatlarga

B) Xalqaro tashkilotlar talablariga

C) Davlat va xalqning oliy manfaatlar, uning farovonligi va xavfsizligiga

D) Qo'shni davlatlar roziligiga

14. Afg'oniston shimolida barpo etilayotgan va Amu daryosi suvidan foydalanish bo'yicha mintaqaviy xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan kanal nomi nima?

A) Qaraqum kanali B) Do'stlik kanali **C) Qosh Tepa kanali** D) Shimoliy Afg'on kanali

15. O'zbekistonning yangilangan Tashqi siyosiy faoliyat konsepsiyasi qaysi omillar tufayli qayta ko'rib chiqilmoqda?

A) Faqat ichki iqtisodiy sabablar

B) Boshqa davlatlar talabi bilan

C) Global geosiyosiy o'zgarishlar va tizimli beqarorlik

D) Aholi sonining o'sishi

16. O'zbekiston tashabbusi bilan 2025-yilda qaysi nufuzli parlamentlararo tadbir mamlakatimizda o'tkazilishi rejalashtirilgan?

A) Yevropa Parlamenti yig'ilishi

B) Parlamentlararo Ittifoqning (IPU) 150-yubiley Assambleyasi

C) SHHT parlamentlar forumi

D) Turkiy davlatlar parlament assambleyasi

17. O'zbekiston diplomatik aloqalar o'rnatgan davlatlar soni so'nggi ma'lumotlarga ko'ra nechtaga yetdi?

A) 130 ta B) 145 ta **C) 159 ta** D) 170 ta

18. Xitoy-Qirg'iziston-O'zbekiston temir yo'li loyihasining taxminiy qiymati qancha deb baholanmoqda?

A) 3 milliard dollar B) 5 milliard dollar **C) 8 milliard dollar** D) 10 milliard dollar

19. Konstitutsiyaga ko'ra, xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya va denonsatsiya qilish kimning vakolatiga kiradi?

A) Faqat Prezidentning

B) Vazirlar Mahkamasining

C) Oliy Majlis palatalarining birgalikdagi vakolati

D) Tashqi ishlar vazirligining

20. Orol dengizi suvi hajmi 1960-yildan beri taxminan necha foizga kamaydi?

A) 30-40% B) 50-60% **C) 73-90%** D) 20-30%

3-BOB. O‘ZBEKISTON VA ROSSIYA FEDERATSIYASI O‘RTASIDAGI MUNOSABATLAR

Reja:

- 3.1. O‘zbekiston–Rossiya munosabatlarining tarixiy asoslari
- 3.2. Siyosiy hamkorlik va strategik sheriklik, iqtisodiy va energetik aloqalar
- 3.3. Harbiy-texnik va xavfsizlik sohasidagi hamkorlik
- 3.4. Madaniy-gumanitar aloqalar
- 3.5. Xalqaro munosabatlar nazariyalari prizmasida tahlil. Zamonaviy bosqich va istiqbollar

Tayanch so‘z va iboralar: Xalqaro munosabatlar, suverenitet, geosiyosat, strategic sheriklik, ittifoqchilik munosabatlari, kollektiv xavfsizlik, integratsiya, o‘zaro bog‘liqlik (interdependence), energetik geopolitika, soft power, multivektor tashqi siyosat, postimperial transformatsiya, assimetrik aniqlik, kuchlar muvozanati, siyosiy dialog, geosiyosiy konyuktura, pragmatizm

3.1. O‘zbekiston–Rossiya munosabatlarining tarixiy asoslari

O‘zbekiston va Rossiya Federatsiyasi o‘rtasidagi munosabatlarni yoritgan ekanmiz o‘zaro aloqalari evolyutsiyasidagi zamonaviy bosqichi nafaqat mintaqaviy barqarorlikning asosi, balki ikki davlatning uzoq muddatli milliy manfaatlariga javob beruvchi keng qamrovli strategik sheriklikning yorqin namunasidir. Ushbu ilmiy kirish qismi mavzuning nazariy va amaliy ahamiyatini ochib berishga xizmat qiladi.

Zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimidagi transformatsiya jarayonlari va geosiyosiy kon’yunkturaning murakkablashishi sharoitida O‘zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o‘rtasidagi ikki tomonlama aloqalar yangi sifat bosqichiga ko‘tarildi. Ushbu munosabatlarning ilmiy-nazariy asoslari 2004-yilgi “Strategik sheriklik to‘g‘risida”¹¹ hamda 2005-yilgi “Ittifoqchilik

¹¹ O‘zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o‘rtasidagi Ittifoqchilik munosabatlari to‘g‘risidagi shartnoma. 2005-yil 14-noyabr // O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to‘plami. – Toshkent, 2006.

munosabatlari to‘g‘risida”gi¹² shartnomalarga tayanib, ularning mazmun-mohiyati 2022-yilda imzolangan “Keng qamrovli strategik sheriklik to‘g‘risidagi deklaratsiya”si¹³ bilan yanada boyitildi. Mazkur hujjatlar nafaqat diplomatik muloqotning huquqiy asosi, balki ikki davlatning xavfsizlik, iqtisodiyot va gumanitar sohalaridagi integratsiyalashuv darajasini belgilovchi strategik kompas hisoblanadi.

Geosiyosiy nuqtayi nazardan, O‘zbekiston va Rossiya o‘rtasidagi hamkorlik Markaziy Osiyo mintaqasidagi barqarorlikni ta’minlovchi muhim faktor bo‘lib xizmat qilmoqda. Global xavf-xatarlar, jumladan, xalqaro terrorizm, ekstremizm va transmilliy jinoyatchilikka qarshi kurashda ikki davlatning xavfsizlik tizimlari o‘rtasidagi yaqin kooperatsiya mintaqaviy xavfsizlik arxitekturasining poydevorini tashkil etadi. Shuningdek, MDH va ShHT kabi ko‘p tomonlama platformalar doirasidagi hamfikirlik global siyosatdagi muvozanatni saqlashda ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiy o‘lchovda munosabatlar shunchaki tovar ayirboshlash jarayonidan chuqur sanoat kooperatsiyasi va investitsion integratsiya bosqichiga o‘tdi. Rossiya Federatsiyasi O‘zbekistonning eng yirik tashqi iqtisodiy hamkorlaridan biri sifatida energetika, metallurgiya, mashinasozlik va agrosanoat komplekslarida yirik qo‘shma loyihalarni amalga oshirmoqda. Xususan, neft-gaz sohasidagi uzoq muddatli kelishuvlar va atom energetikasi loyihasi ikki davlatning energetik xavfsizligini ta’minlashda muhim bo‘g‘in bo‘lib qolmoqda. Shu bilan birga, hududlararo hamkorlik formatining shakllanishi O‘zbekiston viloyatlari va Rossiya subyektlari o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri iqtisodiy muloqotni yo‘lga qo‘yib, investitsiyalar oqimining diversifikatsiyalashuviga xizmat qilmoqda.

Gumanitar hamkorlik yo‘nalishida ta’lim va ilm-fan integratsiyasi alohida diqqatga sazovordir. O‘zbekistonda Rossiyaning yetakchi oliy ta’lim muassasalari

¹² O‘zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o‘rtasidagi Ittifoqchilik munosabatlari to‘g‘risidagi shartnoma. 2005-yil 14-noyabr // O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to‘plami. – Toshkent, 2006.

¹³ O‘zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o‘rtasida keng qamrovli strategik sheriklik to‘g‘risidagi deklaratsiya. 2022-yil 15-sentyabr // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. – www.lex.uz.

filiallari sonining ortishi intellektual salohiyatni yuksaltirish va zamonaviy kadrlar tayyorlashda muhim ilmiy platforma yaratdi. Bu jarayon madaniy diplomatiyaning asosi sifatida xalqlar o'rtasidagi tarixiy va do'stona aloqalarni mustahkamlab, o'zaro ishonch muhitini yanada kengaytirmoqda.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston va Rossiya munosabatlari bugungi kunda pragmatizm, o'zaro hurmat va milliy manfaatlarning uyg'unligiga asoslangan barqaror modelni ifodalaydi. Ushbu tadqiqot ishi ikki davlat o'rtasidagi strategik aloqalarning hozirgi holatini tahlil qilish, iqtisodiy kooperatsiyaning yangi imkoniyatlarini o'rganish va kelajakdagi hamkorlik istiqbollarini prognoz qilishga qaratilgan bo'lib, u mintaqashunoslik va xalqaro munosabatlar fanlari doirasida muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston hududi va Rossiya o'rtasidagi munosabatlar uzoq tarixiy evolyutsiya natijasi bo'lib, dastlab savdo va diplomatik aloqalar shaklida yuzaga kelgan, keyinchalik esa geosiyosiy raqobat va mustamlakachilik siyosatiga aylangan. Bu jarayonni bir necha bosqichga ajratib o'rganish mumkin.

1.1. Xonliklar davrida dastlabki aloqalar (XVI–XVIII asrlar)

XVI–XVIII asrlarda Markaziy Osiyoda mustaqil siyosiy birliklar - Buxoro xonligi, Xiva xonligi va Qo'qon xonligi faoliyat yuritgan. Ushbu davlatlar Rossiya podsholigi bilan ko'proq savdo va diplomatik aloqalarni yo'lga qo'ygan.

Savdo aloqalari Buyuk ipak yo'lining shimoliy tarmoqlari orqali amalga oshirilib, Markaziy Osiyodan:

ipak, paxta, gilam va ziravorlar eksport qilingan,

Rossiyadan esa metall buyumlar, qurol-yarog' va sanoat mahsulotlari olib kelingan.

XVII asrdan boshlab diplomatik aloqalar tizimli tus ola boshladi. Buxoro va Xiva xonlari Moskva saroyiga elchilar yuborgan, Rossiya esa o'z navbatida savdo manfaatlarini kengaytirish uchun elchilik missiyalarini jo'natgan. Bu davr aloqalari nisbatan teng va o'zaro manfaatli xarakterga ega edi.

XVIII asrga kelib, Rossiya imperiyasi Markaziy Osiyoga nisbatan faol tashqi siyosat yurita boshladi. Bu jarayon bir nechta omillar bilan izohlanadi:

iqtisodiy: yangi bozorlar va xom ashyo manbalariga ehtiyoj

strategik: janubiy yo‘nalishda kengayish va Hindistonga chiqish istagi

xavfsizlik: chegara hududlarini mustahkamlash

Bu davrda Rossiya va Buyuk Britaniya o‘rtasidagi raqobat kuchayib, u tarixga Buyuk o‘yin nomi bilan kirgan. Ushbu raqobat Markaziy Osiyoni global geosiyosat markazlaridan biriga aylantirdi.

1.2. XIX asrda harbiy ekspansiya va hududiy bosib olish

XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasi ochiq harbiy bosqin siyosatini boshladi. Bu bosqich O‘zbekiston hududi tarixida tub burilish yasadi.

Asosiy voqealar:

1865-yil - Toshkent bosib olindi

1868-yil - Buxoro amirligi Rossiyaga qaram davlatga aylandi

1873-yil - Xiva xonligi protektorat maqomini oldi

1876-yil - Qo‘qon xonligi tugatildi

Natijada hududda Turkiston general-gubernatorligi tashkil etildi.

Amerikalik tarixchi Edward Allworth bu jarayonni quyidagicha baholaydi:

“Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyoni egallashi iqtisodiy manfaatlar bilan birga strategik nazoratni qo‘lga kiritish maqsadiga xizmat qilgan.”¹⁴

Mustamlakachilik siyosati: iqtisodiy va ijtimoiy transformatsiya

Rossiya imperiyasi tomonidan joriy etilgan siyosat hududning iqtisodiy va ijtimoiy tuzilishini keskin o‘zgartirdi.

Iqtisodiy o‘zgarishlar:

paxta monokulturasini joriy etildi

mahalliy ishlab chiqarish Rossiya sanoatiga bo‘ysundirildi

transport infratuzilmasi (temir yo‘llar) qurildi

¹⁴ Allworth E. The Modern Uzbeks: From the Fourteenth Century to the Present: A Cultural History. – Stanford: Hoover Institution Press, 1990. – P. 210-245. (O‘zbekcha varianti: Olvort E. Zamonaviy o‘zbeklar: XIV asrdan hozirgi kungacha: Madaniy tarix. – Stenford: Guver instituti nashriyoti, 1990).

Siyosiy boshqaruv:

harbiy-ma'muriy boshqaruv tizimi o'rnatildi
mahalliy hukmdorlar nominal darajada saqlab qolindi

Madaniy ta'sir:

rus tilining kirib kelishi
yangi tipdagi maktablar tashkil etilishi
Britaniyalik olim Geoffrey Hosking ta'kidlaydi:

“Rossiyaning mustamlakachilik siyosati iqtisodiy ekspluatatsiya va madaniy integratsiya elementlarini o'zida mujassam etgan.”¹⁵

1.3. XX asr boshlarida milliy uyg'onish va qarshilik

XX asr boshlarida mustamlakachilik siyosatiga qarshi intellektual va qurolli qarshilik kuchaydi.

Asosiy jarayonlar: jadidchilik harakati (ma'rifiy islohotlar)

milliy o'zlikni anglash jarayoni
siyosiy mustaqillik g'oyalarining shakllanishi

1916-yilda Rossiya imperiyasining safarbarlik siyosati natijasida keng xalq qo'zg'olonlari yuzaga keldi. Bu voqealar mustamlakachilik siyosatiga qarshi ommaviy norozilikning ifodasi edi.

Sovet hokimiyatining o'rnatilishi (1917–1924)

1917-yilgi Oktyabr inqilobi natijasida Rossiyada siyosiy tuzum o'zgardi va bu Markaziy Osiyoga ham bevosita ta'sir ko'rsatdi, bolsheviklar hokimiyatni qo'lga oldi va Turkiston Muxtoriyati tugatildi ushbu voqealar hududda qurolli qarshilik harakatlari (basmachilar) yuzaga kelishiga sabab bo'ldi.

1924-yilda amalga oshirilgan milliy-hududiy chegaralash natijasida O'zbekiston SSR tashkil etildi va hudud Sovet Ittifoqi tarkibiga kiritildi.

Amerikalik siyosatshunos Alexander Wendt konstruktivizm doirasida tarixiy merosning ahamiyatini quyidagicha izohlaydi:

¹⁵Hosking G. Russia: People and Empire, 1552–1917. – Cambridge, Massachusetts: Harvard University Press, 1997. – P. 380-398. (O'zbekcha varianti: Hosking J. Rossiya: xalq va imperiya, 1552–1917. – Kembrij, Massachusetts: Garvard universiteti nashriyoti, 1997).

“Davlatlar o‘rtasidagi munosabatlar nafaqat kuch va manfaat, balki tarixiy tajriba va identitet orqali ham shakllanadi.”¹⁶

Xonliklar davrida boshlangan savdo va diplomatik aloqalar XVIII–XIX asrlarda Rossiya imperiyasining geosiyosiy manfaatlari ta’sirida harbiy ekspansiyaga aylandi. Natijada Markaziy Osiyo hududi mustamlakaga aylantirildi va bu jarayon keyinchalik sovet tizimining o‘rnatilishi uchun siyosiy va institutsional zamin yaratdi

1.4. Mustaqillikdan keyingi davrda diplomatik aloqalarning shakllanishi (1991–2000)

1991-yilda O‘zbekiston davlat mustaqilligini e’lon qilishi bilan uning tashqi siyosati tubdan yangi bosqichga o‘tdi. Sobiq ittifoq parchalanishi natijasida yuzaga kelgan geosiyosiy vakuum sharoitida Rossiya Federatsiyasi bilan munosabatlarni qayta formatlash zarurati yuzaga keldi. Ushbu davr ikki davlat o‘rtasidagi aloqalarning institutsional, huquqiy va strategik asoslari shakllangan davr sifatida alohida ahamiyatga ega.

Sovet Ittifoqining parchalanishi xalqaro tizimda kuchlar muvozanatini o‘zgartirdi. Markaziy Osiyo davlatlari, jumladan O‘zbekiston, mustaqil tashqi siyosat yuritish zarurati bilan yuzlashdi.

Bu jarayon haqida Foreign Affairs quyidagicha yozadi:

“Postsovet hududidagi davlatlar uchun asosiy muammo – sobiq markaz bilan aloqalarni uzmasdan turib, yangi suveren siyosatni shakllantirish edi.”¹⁷

Rossiya esa o‘zini sobiq ittifoq hududida “markaziy kuch” sifatida saqlab qolishga intildi.

Rossiyalik siyosatchi Yevgeniy Primakov bu davrni quyidagicha izohlaydi:

¹⁶Wendt A. Social Theory of International Politics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1999. – P. 193-245. (O‘zbekcha varianti: Vent A. Xalqaro siyosatning ijtimoiy nazariyasi. – Kembrij universiteti nashriyoti, 1999).

¹⁷ Hill F. The Next Order: The Global South and the End of the Unipolar Era. // Foreign Affairs. – 2023. – Vol. 102, No. 3. – P. 15-22. (O‘zbekcha varianti: Xill F. Keyingi tartib: Global Janub va bir qutbli dunyoning yakuni. // Foreign Affairs. – 2023. – 102-jild, 3-son. – B. 15-22).

“Rossiya uchun yaqin xorij – bu nafaqat tarixiy makon, balki strategik manfaatlar hududidir.”¹⁸

Diplomatik munosabatlarning institutsional asoslari

1992-yil 20-mart kuni O‘zbekiston va Rossiya o‘rtasida diplomatik munosabatlar o‘rnatildi. Shu bilan birga, ikki tomonlama aloqalarning huquqiy bazasi yaratildi.

Asosiy hujjatlar:

1992-yil: Do‘stlik va hamkorlik to‘g‘risidagi bitim

1994-yil: Iqtisodiy hamkorlikni chuqurlashtirish kelishuvi

1990-yillar davomida ko‘plab tarmoqlararo bitimlar

Bu jarayonda Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi muhim rol o‘ynadi.

Boris Yeltsin MDH haqida shunday degan:

“Biz umumiy tarix va iqtisodiy aloqalarni yangi shaklda davom ettirishimiz zarur.”¹⁹

MDH integratsion tashkilot sifatida zaif bo‘lsa-da, aloqalarni uzluksiz saqlash mexanizmi vazifasini bajardi.

1.5. O‘zbekiston tashqi siyosatining konseptual asoslari

1990-yillarda Islom Karimov tomonidan ilgari surilgan tashqi siyosat konsepsiyasi quyidagi tamoyillarga asoslandi:

suverenitet va milliy manfaatlar ustuvorligi

harbiy bloklardan uzoqlik

ko‘p vektorli tashqi siyosat

Karimovning mashhur fikrlaridan biri:

“Biz hech kimga qarshi emasmiz, lekin hech kimga qaram ham bo‘lmaymiz.”²⁰

¹⁸Примаков Е.М. Очерки истории российской внешней разведки. – Москва: Международные отношения, 2014.

¹⁹Б.Ельцин Б.Н. Президентский марафон. – Москва: АСТ, 2000. – С. 134-152.

²⁰ Karimov I.A. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild. – Toshkent: "O‘zbekiston", 1996. – B. 38.

Bu prinsip Rossiya bilan munosabatlarda muvozanatni ta'minlashga xizmat qildi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida iqtisodiy aloqalar sezilarli darajada qisqardi. Buning sabablari sifatida yagona sovet iqtisodiy tizimining parchalanishi logistika va ishlab chiqarish zanjirlarining uzilishi va milliy valyutalarning joriy etilishi kabilarni keltirishimiz mumkin. Shunga qaramay, Rossiya asosiy savdo hamkorlarimizdan biri bo'lib qoldi.

Xalqaro valyuta jamg'armasi tahliliga ko'ra "Postsovet iqtisodiy makoni parchalanmagan, balki yangi iqtisodiy aloqalar shakliga o'tgan."²¹

1990-yillarning oxiriga kelib savdo hajmi barqarorlasha boshladi energetika va sanoat sohalarida hamkorlik tiklandi.

The Economist quyidagicha yozadi:

"Rossiya Markaziy Osiyo uchun iqtisodiy jihatdan muhim sherik bo'lib qolmoqda, ayniqsa energetika va savdo sohalarida."²²

O'zbekiston gaz va energetika resurslariga boy davlat sifatida Rossiya bilan muhim hamkorlikni yo'lga qo'ydi.

gaz eksporti

energetika infratuzilmasi

texnologik hamkorlik

Bu hamkorlik ikki tomonlama manfaatga asoslangan bo'lsa-da, ayrim ekspertlar tomonidan asimmetrik bog'liqlik sifatida baholanadi.

1990-yillarda iqtisodiy qiyinchiliklar natijasida Rossiyaga mehnat migratsiyasi kuchaydi. Bu jarayon ikki davlat o'rtasidagi aloqalarning muhim komponentiga aylandi.

Jahon banki qayd etadi: "Mehnat migratsiyasi Markaziy Osiyo iqtisodiyotlarining barqarorligiga sezilarli hissa qo'shadi."

²¹ International Monetary Fund. Economic Transformation in the Post-Soviet Space: From Fragmentation to New Cooperation Models. – Washington, D.C.: IMF Staff Discussion Note, 2021. – P. 14-22.

²² The Economist. Russia's Sway in Central Asia is Challenged, but not Broken. // The Economist. – 2023. – May 25th. – www.economist.com.

Qisqacha xulosa qiladigan bo'lsak har ikki davlat o'rtasidagi aloqalar do'stlik va o'zaro manfaatlarga asoslangan va strategic sheriklik shartnomalari bilan mustahkamlangandir.

3.2. Siyosiy hamkorlik va strategic sheriklik, iqtisodiy va energetik aloqalar

O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'rtasidagi ikki tomonlama munosabatlar zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida dinamik rivojlanayotgan, ko'p qirrali va strategic xususiyatga ega bo'lgan hamkorlik modelini ifodalaydi. Ushbu hamkorlikning fundamental asoslari o'zaro ishonch, teng huquqlilik va milliy manfaatlarning uyg'unligiga tayanadi.

Ikki davlat o'rtasidagi diplomatik aloqalarning huquqiy arxitekturasini 2004-yil 16-iyundagi "Strategic sheriklik to'g'risida"gi²³ hamda 2005-yil 14-noyabrdagi "Ittifoqchilik munosabatlari to'g'risida"gi²⁴ shartnomalar bilan mustahkamlangan. Biroq, munosabatlarning sifat jihatidan yangi bosqichi 2022-yil 15-sentyabrda Samarqand sammiti doirasida imzolangan "Keng qamrovli strategic sheriklik to'g'risidagi deklaratsiya"²⁵ bilan belgilandi. Ushbu hujjat nafaqat siyosiy mulohazani, balki mudofaa, xavfsizlik va tashqi siyosiy muvofiqlashtirish masalalarini ham qamrab oladi.

Siyosiy sohada hamkorlikning muhim yo'nalishi ko'p tomonlama diplomatiya doirasida namoyon bo'ladi. O'zbekiston va Rossiya BMT, MDH va Shanhay hamkorlik tashkiloti (ShHT) kabi xalqaro platformalarda mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash, xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm va narkotrafikka qarshi kurash masalalarida yagona pozitsiyadan turib harakat qiladi. Ayniqsa, Afg'onistondagi vaziyatni barqarorlashtirish va Markaziy Osiyo mintaqasining geosiyosiy daxlsizligini saqlashda ikki davlatning strategic manfaatlari o'zaro kesishadi.

²³ O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'rtasidagi Strategic sheriklik to'g'risidagi shartnoma. 2004-yil 16-iyun // O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'plami. – Toshkent, 2004.

²⁴ O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'rtasidagi Ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi shartnoma. 2005-yil 14-noyabr // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi. – Toshkent, 2005.

²⁵ O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'rtasida keng qamrovli strategic sheriklik to'g'risidagi deklaratsiya. 2022-yil 15-sentyabr // Lex.uz online.

Iqtisodiy munosabatlar O‘zbekiston va Rossiya strategik hamkorligining lokomotivi hisoblanadi. Rossiya O‘zbekistonning eng yirik tashqi savdo sheriklari reytingida yetakchi o‘rinni egallab kelmoqda. Rasmiy statistik ma’lumotlarga ko‘ra, so‘nggi yillarda o‘zaro tovar ayirboshlash hajmi 10 milliard dollarlik ko‘rsatkichdan oshdi va yaqin istiqbolda ushbu raqamni 20 milliard dollarga yetkazish bo‘yicha “yo‘l xaritalari” amalga oshirilmoqda.

Hamkorlikning xarakterli xususiyati - oddiy savdo-sotiqdan chuqur sanoat kooperatsiyasiga o‘tishidir. Bugungi kunda O‘zbekistonda Rossiya kapitali ishtirokida 3000 ga yaqin qo‘shma korxona faoliyat ko‘rsatmoqda.²⁶ Metallurgiya, mashinasozlik, kimyo sanoati va to‘qimachilik sohalarida o‘nlab yirik loyihalar hayotga tatbiq etilmoqda. Xususan, Toshkent viloyatidagi “Chirchiq” kimyo-industrial texnoparki va Jizzaxdagi texnoparklar Rossiyaning yuqori texnologik tajribasini mahalliy resurslar bilan integratsiya qilishning muvaffaqiyatli namunasidir. Shuningdek, hududlararo hamkorlik forumi doirasida O‘zbekiston viloyatlari va Rossiya subyektlari o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomaviy aloqalarning yo‘lga qo‘yilishi investitsiyalar oqimini diversifikatsiyalashga xizmat qilmoqda.

Energetika sektori ikki tomonlama munosabatlarning eng muhim strategik bo‘g‘ini hisoblanadi. O‘zbekiston va Rossiya o‘rtasidagi energetik muloqot nafaqat uglevodorod resurslarini qazib olish, balki ularni qayta ishlash va tranzit qilish masalalarini ham o‘z ichiga oladi. “Gazprom” va “Lukoil” kabi transmilliy kompaniyalar O‘zbekistonning neft-gaz konlarini o‘zlashtirishda yirik investorlar sifatida ishtirok etmoqda.

2023-yil oktyabr oyidan boshlab Rossiya gazini Qozog‘iston hududi orqali O‘zbekistonga teskari (revers) tartibda yetkazib berishning yo‘lga qo‘yilishi mintaqaviy energetik barqarorlikni ta’minlashda tarixiy qadam bo‘ldi. Bu loyiha O‘zbekistonning kuz-qish mavsumidagi energetik ehtiyojlarini qoplash va sanoat korxonalarining uzluksiz ishlashini kafolatlash imkonini beradi.

²⁶ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. O‘zbekiston Respublikasining tashqi savdo aylanmasi (yillik to‘plam). – Toshkent, 2025.

Bundan tashqari, atom energetikasi sohasidagi hamkorlik aloqalari istiqbolli yoʻnalish hisoblanadi. Oʻzbekistonda Rossiya texnologiyalari asosida kam quvvatli atom elektr stansiyasini (AES) qurish boʻyicha kelishuvlar²⁷ ikki davlatning yuqori texnologiyalar sohasidagi ishonchli hamkorligidan dalolat beradi. Ushbu loyiha mamlakatning “yashil iqtisodiyot”ga oʻtish va energiya taqchilligini bartaraf etish strategiyasiga toʻliq mos keladi.

Xulosa qilib aytganda, Oʻzbekiston va Rossiya Federatsiyasi oʻrtasidagi munosabatlar pragmatik iqtisodiy manfaatlar va chuqur oʻylangan siyosiy strategiyaga asoslangan. Keng qamrovli strategik sheriklikning mustahkamlanishi nafaqat ikki davlat taraqqiyoti, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasining barqaror rivojlanishi va xalqaro maydondagi nufuzini oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Kelajakda raqamli iqtisodiyot, logistika koridorlarini rivojlantirish va innovatsion texnologiyalar almashinuvi hamkorlikning yangi drayverlari boʻlib xizmat qiladi.

3.3. Harbiy-texnik va xavfsizlik sohasidagi hamkorlik

Oʻzbekiston va Rossiya Federatsiyasi oʻrtasidagi harbiy-texnik hamkorlik va xavfsizlik sohasidagi aloqalarning strategik munosabatlarga toʻxtalar ekanmiz, Markaziy Osiyo mintaqasidagi murakkab geosiyosiy transformatsiyalar va yangi koʻrinishdagi tahdidlarning kuchayishi sharoitida Oʻzbekiston va Rossiya oʻrtasidagi harbiy-texnik hamkorlik (HTH) davlatlararo munosabatlarning eng muhim va ustuvor boʻgʻini hisoblanadi. Mazkur sohadagi aloqalar nafaqat ikki tomonlama manfaatlar, balki mintaqaviy barqarorlikning fundamental kafolati sifatida namoyon boʻladi.

Ikki davlat oʻrtasidagi harbiy hamkorlikning konseptual asosi 2005-yilgi “Ittifoqchilik munosabatlari toʻgʻrisida”gi shartnoma hamda 2017-yilda kuchga kirgan “Harbiy-texnik hamkorlikni yanada rivojlantirish toʻgʻrisida”gi²⁸ bitimga

²⁷ Oʻzbekiston Respublikasi hududida atom elektr stansiyasini qurishda hamkorlik qilish toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi Hukumati va Rossiya Federatsiyasi Hukumati oʻrtasidagi bitim. 2018-yil 7-sentyabr.

²⁸ Oʻzbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi oʻrtasida harbiy-texnik hamkorlikni yanada rivojlantirish toʻgʻrisidagi Bitim. 2016-yil 29-noyabr.

tayanadi. 2022-yilda imzolangan Keng qamrovli strategik sheriklik deklaratsiyasi ushbu yo‘nalishdagi hamkorlikni yangi bosqichga - mudofaa qobiliyatini o‘zaro muvofiqlashtirilgan holda yuksaltirish darajasiga ko‘tardi.

HTH sohasidagi hamkorlikning asosiy yo‘nalishi O‘zbekiston Qurolli Kuchlarini zamonaviy qurol-yarog‘ va harbiy texnika bilan ta‘minlash hamda mavjud texnik bazani modernizatsiya qilishdan iborat. Rossiya Federatsiyasi O‘zbekiston uchun yuqori texnologiyali mudofaa mahsulotlarini yetkazib beruvchi asosiy hamkor bo‘lib qolmoqda. Bunga aviatsiya texnikalari (masalan, Mi-35M vertolyotlari), havo hujumidan mudofaa tizimlari, zirhli transport vositalari va radioelektron kurash vositalari kiradi. Muhim jihati shundaki, O‘zbekiston ushbu texnikalarni sotib olishda Rossiyaning ichki narxlari darajasidagi imtiyozli shartlardan foydalanish huquqiga ega bo‘lib, bu o‘z navbatida mamlakat mudofaa byudjetining samaradorligini oshiradi.

Xavfsizlik sohasidagi hamkorlikning strategik o‘zagi Afg‘onistondagi vaziyatning beqarorligi, xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm va transmilliy jinoyatchilik kabi tahdidlarga qarshi birgalikda kurashishga qaratilgan. Ikki davlat maxsus xizmatlari va huquqni muhofaza qilish organlari o‘rtasida doimiy ravishda axborot almashinuvi hamda tezkor-qidiruv tadbirlari muvofiqlashtirib boriladi.

Harbiy tayyorgarlik darajasini oshirish maqsadida o‘tkazilayotgan qo‘shma o‘quv-mashg‘ulotlari (masalan, “Janub-2021” va boshqalar) xalqaro tajribada “mintaqaviy tiyib turish omili” sifatida baholanadi. Ushbu mashg‘ulotlar davomida qo‘shinlarning o‘zaro muvofiqligi, tog‘li va cho‘l sharoitida jangovar harakatlarni olib borish hamda shartli dushmanning diversion guruhlarini yo‘q qilish strategiyalari ishlab chiqiladi.

Harbiy hamkorlikning intellektual o‘lchami kadrlar tayyorlash tizimini o‘z ichiga oladi. Bugungi kunda yuzlab o‘zbekistonlik ofitser va kursantlar Rossiya Federatsiyasi Mudofaa vazirligining yetakchi harbiy akademiyalarida tahsil olmoqda. Bu jarayon nafaqat harbiy tajriba almashish, balki yagona operativ-taktik qarashlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, sanoat kooperatsiyasi doirasida O‘zbekistonda harbiy texnikalarga texnik xizmat ko‘rsatish va ta‘mirlash bo‘yicha qo‘shma servis markazlarini tashkil etish loyihalari ko‘rib chiqilmoqda. Bu esa mamlakatimiz mudofaa sanoati kompleksining (MSK) mahalliyashtirish darajasini oshirishda muhim qadamdir.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston va Rossiya o‘rtasidagi harbiy-texnik va xavfsizlik sohasidagi hamkorlik sof harbiy xususiyatga ega bo‘lib qolmay, balki mintaqaviy geosiyosiy muvozanatni saqlashning muhim instrumentidir. Kelajakda raqamli xavfsizlik (kiberxavfsizlik) va yuqori aniqlikdagi robotlashtirilgan tizimlar sohasidagi hamkorlik aloqalarni yanada diversifikatsiyalashi kutilmoqda. Mazkur ittifoqchilik aloqalari Yangi O‘zbekistonning tashqi siyosiy strategiyasiga to‘la mos kelgan holda, milliy suverenitet va daxlsizlikni kafolatlashga xizmat qiladi.

3.4.Madaniy-gumanitar aloqalar

O‘zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o‘rtasidagi madaniy-gumanitar hamkorlik ikki tomonlama munosabatlarning “yumshoq kuch” (soft power) strategiyasidagi eng barqaror va samarali yo‘nalishi hisoblanadi. Mazkur aloqalar 2022-yilda imzolangan “Keng qamrovli strategik sheriklik to‘g‘risidagi deklaratsiya” hamda uzoq muddatli hukumatlararo dasturlar asosida institutsional tartibga solingan bo‘lib, xalqlar o‘rtasidagi tarixiy va ma‘naviy yaqinlikni saqlashga xizmat qiladi.

Hamkorlikning eng dinamik rivojlanayotgan sektori - oliy ta‘lim va ilm-fan integratsiyasidir. Bugungi kunda O‘zbekiston Rossiya oliy ta‘lim muassasalari filiallari soni bo‘yicha xalqaro miqyosda yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi. Mamlakatda M.V. Lomonosov nomidagi MGU, MGIMO, Milliy tadqiqot yadro universiteti (MIFI) kabi 14 ta nufuzli Rossiya OTMlari filiallarining faoliyat yuritishi²⁹ yuqori malakali kadrlar tayyorlash va ilmiy-tadqiqot almashinuvini yangi sifat bosqichiga olib chiqdi. Shu bilan birga, “Lomonosov”, “Mendeleyev”

²⁹ O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi rasmiy hisoboti. 2024. – www.edu.uz.

kabi qo'shma ilmiy-amaliy forumlar ikki davlat olimlari o'rtasida fundamental tadqiqotlar bo'yicha ko'prik vazifasini o'tamoqda.

Madaniy diplomatiya yo'nalishida "Rossiya madaniyati kunlari" O'zbekistonda va "O'zbekiston madaniyati kunlari" Rossiyada muntazam ravishda o'tkazib kelinayotgani milliy merosni targ'ib qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. San'at, teatr va kino sohasidagi hamkorlik, xususan, "Ipak yo'li durdonasi" Toshkent xalqaro kinofestivali doirasidagi Rossiya kinoijodkorlarining ishtiroki hamda Ermitaj va Davlat san'at muzeylari o'rtasidagi ko'rgazmalar almashinuvi gumanitar aloqalarning mazmunan boyishiga xizmat qilmoqda.

Sog'liqni saqlash va sanitariya-epidemiologik barqarorlikni ta'minlash borasidagi hamkorlik, ayniqsa global pandemiyadan keyingi davrda, strategik xususiyat kasb etdi. Tibbiy texnologiyalar transferi va mutaxassislar malakasini oshirish bo'yicha qo'shma loyihalar ijtimoiy sohadagi sheriklikning ustuvor yo'nalishlaridir.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston va Rossiya o'rtasidagi madaniy-gumanitar hamkorlik nafaqat madaniy o'ziga xoslikni asrash, balki zamonaviy bilimlar iqtisodiyotini barpo etishda ham hal qiluvchi faktor bo'lib qolmoqda. Ushbu munosabatlar ikki davlat o'rtasidagi ishonchli muloqotning ijtimoiy poydevorini mustahkamlab, uzoq muddatli barqaror taraqqiyotni kafolatlaydi.

3.5.Xalqaro munosabatlar nazariyalari prizmasida tahlil. Zamonaviy bosqich va istiqbollar

O'zbekiston va Rossiya Federatsiyasi munosabatlari: Xalqaro munosabatlar nazariyalari prizmasidan tahlil va istiqbollar

O'zbekiston va Rossiya o'rtasidagi ikki tomonlama aloqalar zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimining eng murakkab va ko'p qirrali modellaridan birini ifodalaydi. Ushbu munosabatlarni ilmiy-akademik jihatdan tahlil qilishda realizm, neoliberalizm va konstruktivizm nazariyalari asosiy metodologik vosita bo'lib xizmat qiladi.

1. Nazariy tahlil: Realizm va Neoliberalizm to'qnashuvi

Realizm nazariyasi nuqtayi nazaridan, O‘zbekiston va Rossiya hamkorligi mintaqaviy xavfsizlik va kuchlar muvozanatini saqlash (balance of power) intilishiga asoslanadi. Rossiya uchun O‘zbekiston Markaziy Osiyodagi geosiyosiy barqarorlikning kalit davlati va “janubiy strategik bufer” hisoblansa, O‘zbekiston uchun Rossiya mintaqaviy tahdidlar (terrorizm, ekstremizm) ga qarshi turuvchi asosiy harbiy-siyosiy hamkor hisoblanadi. Bu yerda davlatlarning omon qolish va milliy manfaatlarini himoya qilish instinkti birlamchi omil bo‘lib chiqadi.

Biroq, munosabatlarning iqtisodiy o‘lchovini Neoliberalizm (institutsionalizm) nazariyasi orqali tushunish osonroq. Ikki davlat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik (interdependence) savdo aylanmasining 10 mlrd dollardan oshishi,³⁰ yirik sanoat kooperatsiyalari va energetik integratsiya orqali namoyon bo‘ladi. Neoliberallar ta’kidlaganidek, iqtisodiy manfaatlar siyosiy ziddiyatlarni yumshatuvchi va barqaror hamkorlikni ta’minlovchi poydevor vazifasini o‘tamoda.

Konstruktivizm nazariyasi esa munosabatlardagi umumiy tarixiy meros, til va madaniy o‘xshashliklarning “identifikatsiya” faktorini ochib beradi. Bu omillar ikki davlat o‘rtasidagi ishonchli muloqotni (strategic trust) shakllantirishda muhim subyektiv poydevor hisoblanadi.

2. Zamonaviy bosqich: Keng qamrovli strategik sheriklik

Hozirgi bosqichda munosabatlar “Keng qamrovli strategik sheriklik” (2022-yil) maqomi bilan tavsiflanadi. Bu bosqichda hamkorlik faqatgina vertikal (davlatlararo) emas, balki gorizontal (hududlararo va sohalararo) xarakter kasb etmoqda. Oliy darajadagi uchrashuvlar dinamikasi (Mirziyoyev-Putin muloqoti) munosabatlarga yuqori darajadagi siyosiy impuls bermoqda. Sanoat texnoparklarining (Chirchiq, Jizzax) tashkil etilishi “oddiy savdo” bosqichidan “texnologik integratsiya” bosqichiga o‘tilganini ko‘rsatadi.

³⁰ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. O‘zbekiston Respublikasining tashqi savdo aylanmasi (yillik to‘plam). – Toshkent, 2025.

Energetika sohasidagi hamkorlik - Rossiya gazining reversiv tarzda yetkazib berilishi va atom energetikasi loyihalari - munosabatlarning qaytmas (irreversible) xususiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

3. Kelajak istiqbollari va geosiyosiy prognozlar

Istiqbolda O‘zbekiston va Rossiya munosabatlari quyidagi uchta asosiy yo‘nalishda rivojlanishi kutilmoqda:

- * Logistika va transport integratsiyasi: “Shimol-Janub” xalqaro transport koridori doirasidagi hamkorlik O‘zbekistonning jahon bozorlariga chiqish imkoniyatlarini kengaytiradi.

- * Raqamli va yuqori texnologik hamkorlik: IT-sektori, sun‘iy intellekt va kiberxavfsizlik sohalarida birgalikda standartlar ishlab chiqish dolzarb masalaga aylanadi.

- * Yangi ko‘p qutbli dunyo tartibi: O‘zbekiston “Katta Yevroosiyo” g‘oyasi doirasida Rossiya bilan hamkorlikni saqlagan holda, o‘zining tashqi siyosiy muvozanatini (multivektorlik) saqlab qolishga intiladi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston va Rossiya munosabatlari xalqaro munosabatlarning pragmatik modelini ifodalaydi. Kelajakda munosabatlar samaradorligi global sanksiyalar bosimi va geosiyosiy o‘zgarishlarga nisbatan har ikki davlatning qanchalik moslashuvchan (adaptive) siyosat yuritishiga bog‘liq bo‘ladi. Strategik ittifoqchilikning mustahkamlanishi Markaziy Osiyo mintaqasining nafaqat barqarorligini, balki global iqtisodiy jarayonlardagi subyektliligini ham oshirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston va Rossiya Federatsiyasi o‘rtasidagi munosabatlar ko‘p qirrali va dinamik rivojlanayotgan strategik sheriklik sifatida mintaqaviy barqarorlikning muhim ustunidir. Ushbu aloqalar uzoq yillik umumiy tarixiy o‘tmish va madaniy yaqinlik poydevori ustiga qurilgan. Davlatlar o‘rtasidagi zamonaviy muloqot nafaqat diplomatik uchrashuvlar, balki chuqur iqtisodiy va ijtimoiy integratsiya jarayonlarini ham qamrab oladi. Yuqorida keltirilganidek, har ikki tomon o‘zaro manfaatli hamkorlikni uzoq muddatli istiqbolga yo‘naltirilgan ustuvor vazifa deb

hisoblaydi. Siyosiy sohadagi ishonchli muloqot iqtisodiy loyihalarning jadal amalga oshirilishiga xizmat qiladi. Ikki davlat rahbarlarining siyosiy irodasi tufayli strategik sheriklik munosabatlari ittifoqchilik darajasiga ko'tarildi. 2022-yilda imzolangan keng qamrovli deklaratsiya munosabatlarning huquqiy va siyosiy asosi sifatida xizmat qilmoqda. O'zbekiston tashqi siyosatida Rossiya yo'nalishi milliy xavfsizlik va iqtisodiy taraqqiyot nuqtayi nazaridan hal qiluvchi ahamiyatga ega. Global geosiyosiy o'zgarishlar sharoitida ham ikki tomonlama aloqalar barqarorligini saqlab qolmoqda. Iqtisodiy hamkorlikning moddiy asosi sifatida savdo aylanmasining rekord darajada o'sayotganini ko'rish mumkin. Rossiya investitsiyalari O'zbekiston sanoatining turli tarmoqlarini modernizatsiya qilishga yo'naltirilgan. Energetika sohasidagi loyihalar mintaqaviy energetik xavfsizlikni ta'minlashning muhim kafolatidir. Madaniy-gumanitar aloqalar "yumshoq kuch" siyosatining eng muvaffaqiyatli yo'nalishi sifatida ko'rinadi. O'zbekistonning ko'p vektorli tashqi siyosati Rossiya bilan munosabatlarni yanada samaraliroq qilishga imkon beradi. Xalqaro tashkilotlar doirasidagi hamkorlik global muammolarni hal qilishda umumiy yondashuvlarni shakllantiradi. Mintaqaviy integratsiya jarayonlarida Rossiya va O'zbekistonning rollari bir-birini inkor etmaydi.

Aksincha, ular MDH va ShHT kabi tuzilmalarning faolligini oshiradi. Iqtisodiy transformatsiya jarayonlarida Rossiya tajribasi va texnologiyalari O'zbekiston uchun foydali bo'lmoqda. Tashqi savdoni diversifikatsiya qilishda Rossiya bozori o'zining strategik ahamiyatini yo'qotmaydi. Energetik geopolitika sohasidagi yangi trendlar ikki davlatni yanada yaqinroq ishlashga undamoqda. Strategik sheriklik shunchaki rasmiy hujjat emas, balki hayotiy zaruratga aylangan. Kelajakda raqamli iqtisodiyot va kiberxavfsizlik sohasidagi aloqalar ustuvorlik kasb etadi. Ekologik muammolar va iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatishda ham hamkorlik imkoniyatlari mavjud. Ikki xalqning tarixiy xotirasi munosabatlarning ma'naviy asosini tashkil qiladi. Diplomatik aloqalarning 30 yildan ortiq davri davomida to'plangan tajriba har qanday inqirozlarni bartaraf etishga yordam

beradi. Assimetrik aniqlik tamoyili munosabatlardagi barcha tushunmovchiliklarni ochiq muloqot orqali hal qilish imkonini beradi. Siyosiy dialogning barcha darajalarda davom etishi tizimli hamkorlikni ta'minlaydi. O'zbekistonning suvereniteti va hududiy yaxlitligini hurmat qilish munosabatlarning bosh tamoyilidir. Oliy darajadagi tashriflar har doim yangi shartnomalar va investitsiya kelishuvlari bilan yakunlanadi. Hukumatlararo komissiyalar faoliyati munosabatlarning institutsional asosini mustahkamlaydi. O'zaro bog'liqlik darajasining yuqoriligi har ikki davlat uchun ham iqtisodiy foyda keltiradi. Global bozorlardagi beqarorlik sharoitida ikki tomonlama aloqalar himoya qalqoni vazifasini o'taydi. Mintaqaviy xavfsizlik arxitekturasini Rossiya ishtirokisiz to'liq bo'lmaydi. O'zbekistonning tinchliksevar tashqi siyosati Rossiyaning mintaqadagi manfaatlari bilan muvozanatlashgan. Xalqaro ekspertlar ham O'zbekiston-Rossiya aloqalarini "namunali strategik sheriklik" deb baholamoqda. Rossiya O'zbekiston uchun nafaqat bozor, balki ta'lim va ilm-fan markazi hamdir. O'zbekiston esa Rossiya uchun janubiy yo'nalishdagi eng muhim darvoza hisoblanadi. Strategik sheriklikning har bir yo'nalishi o'ziga xos ahamiyatga ega va bir-birini to'ldiradi. Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, O'zbekiston va Rossiya munosabatlari mantiqiy, asosli va istiqbolli.

Nazorat savollari:

1. Islom Karimovning "qaram bo'lmaslik" tamoyili bugungi "keng qamrovli strategik ittifoqchilik" sharoitida o'zining geosiyosiy dolzarbligini qanchalik saqlab qola oldi?
2. Global sanksiyalar fonida Rossiya bilan energetika va savdo sohasidagi "almashib bo'lmas" bog'liqlik O'zbekiston iqtisodiyoti uchun strategik imkoniyatmi yoki geosiyosiy tuzoq?
3. Umumiy tarixiy o'tmish (Konstruktivizm) munosabatlarni mustahkamlovchi ko'priklarni vazifasini o'tayaptimi yoki milliy manfaatlarini erkin belgilashga xalaqit beruvchi psixologik bosimmi?

4. Rossiya bilan gaz va atom energetikasi bo'yicha kelishuvlar O'zbekistonning energetik xavfsizligini ta'minlaydimi yoki uni tashqi ta'sir dastagiga aylantirib qo'yadimi?

5. Rossiya oliy ta'lim filiallarining rekord darajadagi ko'pligi shunchaki kadrlar tayyorlashmi yoki kelajak elitasining dunyoqarashini nazorat qilishga qaratilgan "Yumshoq kuch" (Soft Power) loyihasimi?

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'rtasida keng qamrovli strategik sheriklik to'g'risidagi deklaratsiya. 2022-yil 15-sentyabr // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi – www.lex.uz.

2. O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'rtasidagi Ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi shartnoma. 2005-yil 14-noyabr // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi. – Toshkent, 2005.

3. O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'rtasidagi Strategik sheriklik to'g'risidagi shartnoma. 2004-yil 16-iyun // O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'plami. – Toshkent, 2004.

4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2022.

5. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild. – Toshkent: "O'zbekiston", 1996.

6. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l – demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. 11-jild. – Toshkent: "O'zbekiston", 2003.

7. Ельцин Б.Н. Президентский марафон. – Москва: АСТ, 2000.

8. Примаков Е.М. Мир после 11 сентября. – Москва: Мысль, 2002.

9. Allworth E. The Modern Uzbeks: From the Fourteenth Century to the Present: A Cultural History. – Stanford: Hoover Institution Press, 1990.

10. Hosking G. Russia: People and Empire, 1552–1917. – Cambridge: Harvard University Press, 1997.
11. Wendt A. Social Theory of International Politics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1999.
12. Sayfullayev D.B. Zamonaviy xalqaro munosabatlar va O‘zbekiston tashqi siyosati. – Toshkent: JIDU, 2022.
13. International Monetary Fund. Economic Transformation in the Post-Soviet Space: From Fragmentation to New Cooperation Models. – Washington, D.C.: IMF Staff Discussion Note, 2021.
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti tahliliy sharhi. – Toshkent, 2023.
15. Sayfullayev D.B. “Diplomatik munosabatlar tarixi”. – Toshkent: JIDU, 2020. (
16. Jo‘rayev S. “Xalqaro munosabatlar nazariyasi va amaliyoti”. – Toshkent: JIDU, 2018. (
17. Madaminov A. “Markaziy Osiyoda geosiyosiy jarayonlar”. – Toshkent: Akademiya, 2021.
18. Gulyamov S.S. “Xalqaro iqtisodiy munosabatlar”. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2022.
19. Torkunov A.V. “Sovremennie mejdunarodnie otnosheniya” (Zamonaviy xalqaro munosabatlar). – Moskva: Aspekt Press, 2022.
20. Malashenko A. “Sentralnaya Aziya: Na natsionalnix i mejdunarodnix perekrestkax” (Markaziy Osiyo: Milliy va xalqaro chorrahalarida). – Moskva: Rosspen, 2019.
21. Kutsenko V. “Rossiya i Uzbekistan: Istoriya i sovremennost” (Rossiya va O‘zbekiston: Tarix va zamonaviylik). – Moskva: MGIMO, 2021.
22. Ziyoeva D. “Turkiston mustamlakachilik davri tarixi”. – Toshkent: Sharq, 2017.

Test topshirqlari

1. O'zbekiston va Rossiya o'rtasidagi diplomatik munosabatlar qachon o'rnatilgan?

A) 1991-yil 1-sentyabr

B) 1992-yil 20-mart

C) 1994-yil 10-yanvar

D) 2004-yil 16-iyun

2. 2022-yilda imzolangan qaysi hujjat munosabatlarni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqdi?

A) Strategik sheriklik to'g'risidagi shartnoma

B) Ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi shartnoma

C) Keng qamrovli strategik sheriklik to'g'risidagi deklaratsiya

D) Do'stlik va hamkorlik to'g'risidagi bitim

3. Rossiyaning O'zbekistonga kiritgan jami investitsiyalari hajmi qancha?

A) 5 mlrd dollardan ortiq

B) 10 mlrd dollardan ortiq

C) 13 mlrd dollardan ortiq

D) 20 mlrd dollardan ortiq

4. "Yashil yo'lak" tizimi asosan qaysi mahsulotlar eksportini osonlashtirishga qaratilgan?

A) Neft va gaz mahsulotlari

B) Qishloq xo'jaligi mahsulotlari

C) To'qimachilik mahsulotlari

D) Qurilish materiallari

5. Hozirgi kunda O'zbekistonda Rossiya kapitali ishtirokida nechta korxona faoliyat yuritmoqda?

A) 1500 ga yaqin

B) 2000 ga yaqin

C) 3000 ga yaqin

D) 5000 ga yaqin

6. Toshkent viloyatidagi qaysi shahar yaqinida Rossiya bilan hamkorlikda kimyo-industrial texnopark ochilgan?

A) Olmaliq

B) Chirchiq

C) Angren

D) Bekobod

7. O‘zbekistonda Rossiyaning nechta oliy ta’lim muassasasi filiali faoliyat ko‘rsatmoqda?

A) 5 ta

B) 10 ta

C) 14 ta

D) 20 ta

8. Qaysi Rossiya kompaniyasi O‘zbekistonning Qandim konlar majmuasida yirik gazni qayta ishlash zavodini qurgan?

A) Gazprom

B) LUKOIL

C) Rosneft

D) Novatek

9. “Agro-ekspres” loyihasining asosiy vazifasi nima?

A) Talabalarni Rossiyaga o‘qishga yuborish

B) Harbiy texnikalarni ta’irlash

C) Qishloq xo‘jaligi yuklarini temir yo‘l orqali tezkor yetkazish

D) Gaz quvurlarini qurish

10. Ikki davlat xavfsizlik sohasida qaysi xalqaro tashkilot doirasida eng yaqin hamkorlik qiladi?

A) NATO

B) ASEAN

C) MDH va ShHT

D) OPEK

11. O'zbekiston Rossiyadan harbiy texnikalarni qanday narxlarda sotib olish imkoniyatiga ega?

A) Jahon bozoridagi o'rtacha narxlarda

B) Rossiyaning ichki narxlari darajasida

C) Faqat kredit asosida

D) Faqat grant (bepul) asosida

12. 2023-yil oktyabr oyida qaysi muhim energetik loyiha ishga tushirildi?

A) Quyosh elektr stansiyasi

B) Rossiya gazining O'zbekistonga reversiv yetkazib berilishi

C) Neftni qayta ishlash zavodi

D) Ko'mir konini o'zlashtirish

13. Rossiya bilan hamkorlikda O'zbekistonning qaysi hududida texnopark tashkil etilgan?

A) Jizzax

B) Nukus

C) Namangan

D) Termiz

14. Harbiy-texnik hamkorlik doirasida O'zbekiston Rossiyadan qanday turdagi aviatsiya texnikasini sotib olgan?

A) Su-57 qiruvchi samolyotlari

B) Mi-35M zarbdor vertolyotlari

C) Tu-160 bombardimonchi samolyotlari

D) Faqat yuk samolyotlari

15. Xalqaro munosabatlar nazariyasiga ko'ra, iqtisodiy o'zaro bog'liqlik qaysi maktabga xos?

A) Realizm

B) Neoliberalizm

C) Marksizm

D) Idealizm

16. Rossiya va O'zbekiston o'rtasida xavfsizlik sohasidagi asosiy tahdid sifatida nima ko'riladi?

A) Global iqlim o'zgarishi

B) Afg'onistondagi beqarorlik va terrorizm

C) Kosmik fazoning egallanishi

D) Okean suvlari ifloslanishi

17. O'zbekiston va Rossiya o'rtasidagi "Ittifoqchilik munosabatlari to'g'risida"gi shartnoma qachon imzolangan?

A) 2004-yil

B) 2005-yil

C) 2017-yil

D) 2022-yil

18. "Shimol-Janub" xalqaro transport koridori O'zbekistonga qaysi yo'nalishda imkoniyat ochadi?

A) Faqat Rossiya ichiga kirish

B) Janubiy Osiyo va jahon bozorlariga chiqish

C) Faqat Xitoy bilan savdo qilish

D) Yevropa Ittifoqi bilan chegara ochish

19. Kam quvvatli atom elektr stansiyasi (AES) loyihasi qaysi korporatsiya bilan hamkorlikda amalga oshiriladi?

A) Siemens

B) Rosatom

C) General Electric

D) Westinghouse

20. Madaniy-gumanitar sohada "yumshoq kuch" (soft power) sifatida nima xizmat qiladi?

A) Harbiy mashg'ulotlar

B) Ta'lim va madaniyat kunlari

C) Gaz narxi

D) Bojxona to'lovlari

To'g'ri javoblar kaliti:

4-BOB. O‘ZBEKISTON VA XITOIY XALQ RESPUBLIKASI

Reja:

4.1.O‘zbekiston va Xitoy diplomatik munosabatlarining shakllanishi, tarixiy asoslari.

4.2.Savdo-iqtisodiy hamkorlik: investitsiyalar, qo‘shma loyihalar va iqtisodiy imkoniyatlar.

4.3.Transport, logistika va “Bir makon – bir yo‘l” tashabbusi doirasidagi hamkorlik.

4.4.Madaniy-gumanitar aloqalar: ta’lim, turizm va madaniyat almashinuvi.

4.5.Zamonaviy bosqichda strategik sheriklik va istiqboldagi rivojlanish yo‘nalishlari.

Tayanch so‘z va iboralar: Strategik sheriklik, ikki tomonlama munosabatlar, diplomatik aloqalar, savdo-iqtisodiy hamkorlik, investitsiya siyosati, transport va logistika, energetik hamkorlik, infratuzilma loyihalari, mintaqaviy integratsiya, geosiyosiy manfaatlar, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik, eksport-import operatsiyalari, sanoat kooperatsiyasi, innovatsion rivojlanish, barqaror taraqqiyot

4.1. O‘zbekiston va Xitoy diplomatik munosabatlarining shakllanishi, tarixiy asoslari.

Hozirgi globallashuv sharoitida davlatlar o‘rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalar xalqaro munosabatlar tizimining muhim tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Ayniqsa, Osiyo mintaqasida joylashgan davlatlar o‘rtasidagi hamkorlik nafaqat mintaqaviy barqarorlikni ta’minlash, balki iqtisodiy taraqqiyot va o‘zaro manfaatli integratsiyani rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston va Xitoy Xalq Respublikasi o‘rtasidagi munosabatlar zamonaviy xalqaro siyosat va iqtisodiy hamkorlik tizimida alohida o‘rin egallaydi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng, dunyo davlatlari bilan o‘zaro manfaatli va teng huquqli diplomatik aloqalarni yo‘lga qo‘yishga alohida e’tibor qaratdi. Bu jarayonda Xitoy bilan hamkorlik aloqalarini rivojlantirish muhim strategik yo‘nalishlardan biri sifatida shakllandi. Ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlar

siyosiy ishonch, iqtisodiy manfaatlar va madaniy almashinuv tamoyillariga asoslanib, bosqichma-bosqich rivojlanib bormoqda.

O'zbekiston hududi Buyuk ipak yo'lining chorrahasi bo'lganligi tufayli ikki davlat o'rtasidagi munosabatlar bir necha ming yillik tarixga ega. "O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi munosabatlar qadimiy Ipak yo'li davriga borib taqaladi va bugungi kunda strategik sheriklik darajasiga ko'tarilgan"³¹. Ammo birinchi Xitoy elchisi Chjan Syanning qadimgi Farg'ona (Davan, Dayyuan) davlatiga kelishi miloddan avvalgi 128-yilda yuz bergan. Ushbu voqeani ikki davlat o'rtasidagi diplomatik aloqaning boshlanishi deb hisoblash mumkin. Elchi vataniga qaytib borgandan so'ng, xitoyliklar nafaqat Farg'ona, balki butun O'rta Osiyo haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lgan. Shuning uchun ular elchini g'arbga boradigan Buyuk ipak yo'lini ochgan shaxs deb bilishadi. Chjan Syandan keyin hozirgi O'zbekiston hududiga kelib ketgan elchilar va budda rohiblarining soni ko'paygan. Qadim zamondan beri O'zbekiston va Xitoy o'rtasida ijobiy ahamiyatga ega bo'lgan savdo va boshqa munosabatlar rivojlangan.

Shu bilan birga ikki mamlakat o'rtasida noxush damlar ham bo'lib o'tgan. Masalan, Xitoyda tezlik vositasi va boylik mezoni hisoblangan Farg'ona tulporlarini qo'lga kiritish maqsadida Xan imperiyasi qo'shinlarining Farg'onaga qilgan urushi (mil. av. 104 - 100) va Tan imperiyasi armiyasining Toshkentga qilgan harbiy yurishi (658) bunga misoldir. Aloqalarning rivojlanishi bilan birga uzum, shaftoli, mosh, piyoz, oshqovoq kabi meva-sabzavotlar va tandir noni, somsa kabi oziq-ovqatlarning yurtimiz va qo'shni davlatlardan Xitoyga tarqalishi kuzatilgan. O'tgan o'rta va qadimgi asrlarda hozirgi O'zbekiston hududida yashagan ko'p kishilar Xitoyga borib faoliyat ko'rsatganlar. Ular nafaqat savdo ishlarida, balki qurilish, fan va texnika sohasida ham nom chiqarishgan. Ayniqsa, Xitoyda tashkil topgan va Yuan deb nomlangan mo'gullar sulolasi davri (1279 - 1368)da Mahmud Yalavoch, Umar Shamsiddin va boshqalar davlat ishlarida, Jamoliddin Buxoriy, Kamoliddin, Muhammad Buxoriy, xorazmlik Ahmad

³¹ S. S. G'ulomov. O'zbekiston tashqi siyosati, Toshkent, 2019, 45-bet

Fanakatiylar matematika va astronomiya sohasida ulkan ishlar qilib, Xitoyda mashhur bo'lganlar. 13 - 14-asrlarda bir qator tabiblar Xitoyda faoliyat ko'rsatgan, ular yordamida Ibn Sinoning "Tib qonunlari" xitoy tiliga tarjima qilingan va u xitoy tabobati durdonasi hisoblangan "Xueyxuey yaofan" ("Musulmon dorivorlari") hamda "Bentsao ganmu" ("Giyoh dorivorlar qonuni") asarlarining yaratilishida asos bo'lgan. O'zbekistonliklar Xitoyda islomning tarqalishiga ham katta hissa qo'shishgan. Shu zamonlarda Samarqanddan borgan va o'g'uz qabilasining solor urug'i avlodidan bo'lgan 40 dan ortiq oila Sinxay viloyatiga borib joylashgan. Ularning avlodi ko'payib hozir XXRda mavjud bo'lgan 56 xalq (millat) ning birini tashkil qiladi.

1368-yil hokimiyat tepasiga kelgan Min sulolasi davrida Buyuk ipak yo'li orqali amalga oshiriladigan Xitoy va Turkiston o'rtasidagi aloqalar biroz susaydi. Ammo Temuriylar davrida bu aloqalar yana jonlandi.

1950-yildan O'zbekiston Xitoyning Sintszyan Uyg'ur muxtoriyatiga kadrlar tayyorlash, mahalliy aholini uyg'ur, qozoq tillaridagi adabiyot va o'quv kitoblari bilan ta'minlash, tibbiy yordam ko'rsatish, yer osti boyliklarni aniqlash, irrigatsiya tizimini yaxshilash bo'yicha katta yordam ko'rsatdi. Adabiyotlarni nashr qilish uchun Toshkentda maxsus tahririyat, kadrlar tayyorlash uchun O'rta Osiyo davlat universiteti (hoz. O'zbekiston milliy universiteti)da maxsus kafedra tashkil etildi. 1978-yildan O'zbekiston talabalari Xitoyga til o'rganish uchun yuborildi. Toshkentda termos ishlab chiqaruvchi Xitoy-O'zbekiston qo'shma korxonasi tashkil etildi (1987). Shu yili O'zbekistonga XXRning birinchi rasmiy delegatsiyasi tashrif buyurdi. 1990-yil noyabrda Sintszyan Uyg'ur muxtoriyatini raisi Temur Davomat Toshkentga keldi. 1991-yil iyunda ilk bor O'zbekistonning rasmiy delegatsiyasi Urumchiga bordi. Ikki davlat o'rtasida savdo va turistik aloqalar jonlandi.

Xitoy Xalq Respublikasi O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini 1991-yil 27-dekabrda tan olgan. Diplomatik munosabatlar esa 1992-yil 2-yanvardan

oʻrnatilgan. 1992-yildan buyon ikki davlat oʻrtasida siyosiy, iqtisodiy va gumanitar sohalarga oid yuzlab hukumatlararo va idoralararo bitimlar imzolangan.

Mustaqillikning ilk yillarida (1992–1996) munosabatlar asosan bir-birini tan olish va xalqaro huquq doirasida aloqalarni yoʻlga qoʻyishga qaratildi. 1992-yilda Oʻzbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimovning Pekinga amalga oshirgan tashrifi tarixiy ahamiyatga ega boʻlib, unda ikki davlat oʻrtasidagi hamkorlikning asosiy prinsiplari belgilab olindi. Xitoy Oʻzbekistonning suvereniteti va hududiy yaxlitligini soʻzsiz qoʻllab-quvvatladi, bu esa yosh davlat uchun tashqi siyosatda muhim tayanch boʻldi.

2000-yillar boshiga kelib, aloqalar xavfsizlik va barqarorlik masalalariga koʻproq urgʻu bera boshladi. 2001-yilda Shanxay hamkorlik tashkilotining (SHHT) tashkil etilishi ikki davlatning terrorizm, ayirmachilik va ekstremizmga qarshi kurashdagi pozitsiyalarini yaqinlashtirdi.

Mustaqillikning ilk oʻttiz yilligida Islom Karimovning Pekinga tashriflari (1992, 1994, 1999, 2005, 2011) asosan xavfsizlik va suverenitetni tan olish masalalariga qaratilgan edi. Bu davrda Xitoy Oʻzbekiston uchun Gʻarbning siyosiy shartlarisiz hamkorlik qiluvchi ”muvozanatlovchi kuch” rolini oʻynadi. Biroq, 2017-yildan keyin, Prezident Shavkat Mirziyoyev davrida tashriflar soni va sifati tubdan oʻzgardi. “Xitoy Oʻzbekistonning ishonchli strategik sherigi boʻlib, ikki davlat oʻrtasidagi hamkorlik oʻzaro manfaat va hurmat tamoyillariga asoslanadi”³². 2017-yilgi Pekin tashrifi Oʻzbekistonning ”Bir makon, bir yoʻl” loyihasiga rasman va faol qoʻshilishini anglatib, oʻzaro munosabatlarda ”iqtisodiy realizm” davrini boshlab berdi. ‘Bir makon, bir yoʻl’ tashabbusi Oʻzbekistonni mintaqaviy logistika markaziga aylantirish imkonini bermoqda”³³. “Xitoyning Markaziy Osiyoga nisbatan siyosati, ayniqsa Oʻzbekistonga qaratilgan tashqi iqtisodiy faoliyati mintaqada muhim ahamiyat kasb etadi”³⁴.

³² <https://president.uz/>

³³ Zhang Wie. *The Belt and Road Initiative and Central Asia*, Beijing, 2021, 87-bet

³⁴ A. V. Torkunov. *Современные международные отношения*. Moskva, 2018, 312-bet

Samarqand va Pekin: Strategik yaqinlashuv nuqtalari 2022-yil sentabr oyida ShHT sammiti doirasida Si Szinpinning Samarqandga tashrifi pandemiyadan keyingi ilk xorijiy safari sifatida tarixiy ahamiyat kasb etdi. Ushbu tashrifda O‘zbekistonning mintaqaviy yetakchiligi Xitoy tomonidan tan olindi va ”yangi davrdagi jamiyatlar taqdiri birdamligi” g‘oyasi ilgari surildi. 2024-yil yanvar oyida Shavkat Mirziyoyevning Xitoyga amalga oshirgan davlat tashrifi esa munosabatlarni eng yuqori - ”barcha sharoitlarda strategik sheriklik” darajasiga olib chiqdi. Siyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, bu maqom Xitoy diplomatiyasida faqat eng ishonchli va strategik muhim davlatlargagina beriladi.

4.2. Savdo-iqtisodiy hamkorlik: investitsiyalar, qo‘shma loyihalar va iqtisodiy imkoniyatlar.

Tashriflarning iqtisodiy va logistik samarasi Oliy darajadagi muloqotlarning bevosita natijasi sifatida ”Xitoy – Qirg‘iziston – O‘zbekiston” temir yo‘li loyihasi muzlash nuqtasidan chiqdi. Ko‘p yillik siyosiy to‘siqlardan so‘ng, so‘nggi ikki yildagi tashriflar doirasida ushbu loyihani moliyalashtirish va qurish bo‘yicha aniq kelishuvlarga erishildi. Bu O‘zbekiston uchun ”quruqlik ichidagi mamlakat” (land-locked) holatidan chiqib, global savdo yo‘llari markaziga aylanish imkoniyatidir. Shuningdek, tashriflar chog‘ida Xitoyning kambag‘allikni qisqartirish modeli O‘zbekistonning davlat boshqaruvi tizimiga integratsiya qilindi, bu esa siyosiy hamkorlikning ijtimoiy sohadagi yangi qirrasidir.

Tashriflar kun tartibidan Afg‘oniston masalasi va ”uch yovuz kuch” (terrorizm, ekstremizm, separatizm) ga qarshi kurash hech qachon tushmagan. Pekin uchun O‘zbekiston Markaziy Osiyodagi barqarorlik anklavi bo‘lsa, Toshkent uchun Xitoy texnologik va moliyaviy resurslar manbaidir. Siyosiy tahlilchilarning fikricha, o‘zaro tashriflarning jadallashishi O‘zbekistonning ko‘p vektorli tashqi siyosatida ”Xitoy vektori”ni yanada mustahkamladi, biroq bu o‘zaro manfaatlar balansini saqlagan holda amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan buyon Xitoy Xalq Respublikasi bilan munosabatlar dinamik rivojlanib kelmoqda. Biroq, so‘nggi yetti yil ichida bu aloqalar shunchaki savdo sherikligidan ”har tomonlama strategik sheriklik” va

iqtisodiy integratsiya bosqichiga ko'tarildi. Xitoy bugun O'zbekiston iqtisodiyoti-ning eng yirik lokomotivlaridan biri, asosiy sarmoyadori va texnologik hamkoridir.

Savdo aloqalari O'zbekiston va Xitoy hamkorligining asosi hisoblanadi. 2017-yilda o'zaro tovar ayirboshlash hajmi taxminan 4,5-5 milliard dollarni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yil yakuniga ko'ra bu ko'rsatkich 13,7 milliard dollardan oshdi. Ikki davlat rahbarlari yaqin istiqbolda bu raqamni 20 milliard dollarga yetkazish bo'yicha aniq vazifa qo'yishgan. O'zbekiston eksportining tarkibi sezilarli darajada diversifikatsiya qilinmoqda. "O'zbekiston uchun Xitoy bilan hamkorlik energetika, transport va investitsiya sohalarida ustuvor yo'nalishlardan biridir"³⁵. Agar ilgari asosan tabiiy gaz va paxta xomashyosi yetkazib berilgan bo'lsa, hozirda to'qimachilik mahsulotlari, mis, kimyo sanoati tovarlari va qishloq xo'jaligi mahsulotlari (ayniqsa, gilos, mosh, qovun) Xitoy bozoridan mustahkam o'rin egallamoqda. Xitoydan import qilinayotgan tovarlarning 70 foizdan ortig'ini yuqori texnologiyali uskunalar, mashina-mexanizmlar va butlovchi qismlar tashkil etishi O'zbekiston sanoatining modernizatsiya qilinayotganidan dalolat beradi.

Xitoy O'zbekiston iqtisodiyotiga eng ko'p investitsiya kiritayotgan davlatdir. Bugungi kunda mamlakatimizda Xitoy sarmoyasi ishtirokidagi 2 500 dan ortiq korxona faoliyat yuritmoqda. Investitsiyalar hajmi so'nggi yillarda 15 milliard dollardan oshib ketdi.

Xitoy investitsiyalarining o'ziga xosligi shundaki, ular faqatgina xomashyo qazib olishga emas, balki yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishga yo'naltirilgan. Xususan: Sanoat parklari: Jizzax, Sirdaryo va Toshkent viloyatlaridagi maxsus iqtisodiy zonalarda Xitoy texnologiyalari asosida tayyor mahsulotlar (smartfonlar, maishiy texnika, qurilish materiallari) ishlab chiqarilmoqda. Kredit liniyalari: Xitoy Eksim banki va Xitoy taraqqiyot banki O'zbekistondagi yirik infratuzilma loyihalarini (temir yo'llar, ko'priklar, suv omborlari) imtiyozli shartlarda moliyalashtirmoqda. "Yashil" energetika: Kelajak poydevori. O'zbekiston va Xitoy hamkorligining eng istiqbolli va strategik

³⁵ R. Alimuhamedov. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar, Toshkent, 2020, 198-bet

yoʻnalishi - bu qayta tiklanuvchi energiya manbalaridir. Oʻzbekiston 2030-yilga kelib “yashil” energiya ulushini 40 foizga yetkazishni maqsad qilgan va bu yoʻlda Xitoyning gigant kompaniyalari asosiy sherik boʻlib chiqmoqda.

Yirik loyihalar:

- **Quyosh va shamol stansiyalari:** *China Energy Storage, Masdar* (Xitoy texnologiyalari bilan) va *Gezhouba Group* kabi kompaniyalar Buxoro, Qashqadaryo va Navoiyda umumiy quvvati bir necha gigavattga teng quyosh panellarini oʻrnatmoqda. 2023-yil oxirida bir necha yirik stansiyalar muddatidan oldin ishga tushirildi.

- **Gidroenergetika:** Kichik va oʻrta gidroelektr stansiyalarini qurishda Xitoyning tajribasi va uskunolari keng qoʻllanilmoqda.

Bu loyihalar nafaqat ekologik toza energiya beradi, balki Oʻzbekistonning energetika mustaqilligini taʼminlaydi va yangi ish oʻrinlari yaratadi.

Avtomobilsozlikda “Inqilob”: BYD misolida

2023-2024 yillar Oʻzbekiston avtosanoatida Xitoy brendlarining hukmronligi boshlangan davr boʻldi. Dunyodagi elektromobillar ishlab chiqarish boʻyicha yetakchi boʻlgan BYD kompaniyasining Jizzaxda oʻz zavodini ochishi (“BYD Uzbekistan Factory”) tarixiy voqeadir. Iqtisodiy ahamiyati: Bu loyiha Oʻzbekistonni Markaziy Osiyodagi elektromobillar ishlab chiqarish markaziga (habbiga) aylantiradi. Mahalliyashtirish darajasining oshishi natijasida ehtiyot qismlar ishlab chiqaruvchi kichik va oʻrta biznes subyektlari rivojlanadi. Shuningdek, *Chery, Haval, Jetour* kabi brendlarning bozordagi faolligi raqobatni kuchaytirib, isteʼmolchilar uchun tanlov imkoniyatini kengaytirdi.

4.3. Transport, logistika va “Bir makon – bir yoʻl” tashabbusi doirasidagi hamkorlik.

Transport va logistika - bu iqtisodiy oʻsishning qon tomiridir. Oʻzbekistonning okean yoʻllaridan uzoqligi (land-locked) iqtisodiy rivojlanishga doim toʻsiq boʻlib kelgan. “Bir makon, bir yoʻl” tashabbusi doirasidagi “Xitoy – Qirgʻiziston – Oʻzbekiston” temir yoʻli loyihasi bu muammoni hal qiladi. Ushbu yoʻl nafaqat Xitoy tovarlarini Yevropaga qisqa yoʻl bilan yetkazadi, balki Oʻzbekistonni

mintaqaviy tranzit markaziga aylantiradi. Loyiha ishga tushgach, yuk tashish xarajatlari 15-20 foizga kamayishi kutilmoqda. Bu esa mamlakatimiz eksportyorlarining jahon bozorida raqobatbardoshligini oshiradi.

Kambag'allikni qisqartirish: Ijtimoiy-iqtisodiy innovatsiya: O'zbekiston va Xitoy iqtisodiy hamkorligi faqat "zavod va fabrikalar" bilan cheklanmaydi. O'zbekiston Xitoyning kambag'allikni qisqartirish bo'yicha noyob tajribasini (800 mln odamni qashshoqlikdan chiqarish) o'zlashtirmoqda. Oilaviy tadbirkorlik: Xitoy modeli asosida har bir mahallada kichik ishlab chiqarish zanjirlari yaratilmoqda. Qishloq xo'jaligi: Sho'rlangan yerlarda dehqonchilik qilish, issiqxonalar qurish va tomchilatib sug'orish bo'yicha Xitoy texnologiyalari o'zbek dehqonlari hayotiga kirib bormoqda. Raqamli iqtisodiyot va IT-sektor

Xitoyning *Huawei*, *ZTE* va *Alibaba* kabi texnologik gigantlari O'zbekistonda raqamli infratuzilmani yaratishda ishtirok etmoqda. "Aqlli shahar", "Xavfsiz shahar" loyihalari va 5G tarmoqlarining joriy etilishi raqamli iqtisodiyotning poydevori bo'lib xizmat qiladi. Bu esa yoshlar uchun yuqori texnologiyali ish o'rinlari va frilans imkoniyatlarini yaratadi.

Insoniyat tarixida Buyuk Ipak yo'li nafaqat savdo yo'li, balki madaniyatlar va sivilizatsiyalar tutashgan ko'prik bo'lgan. Bugungi kunda ushbu tarixiy yo'l Xitoy Xalq Respublikasining "Bir makon, bir yo'l" (Belt and Road Initiative - BRI) tashabbusi doirasida yangi zamonaviy qiyofa kasb etmoqda. O'zbekiston ushbu global loyihaning qoq markazida joylashgan bo'lib, uning muvaffaqiyati mamlakatimiz uchun geoiqtisodiy qamalni yorib o'tish va jahon bozorlariga chiqishning strategik imkoniyatidir.

O'zbekiston dunyodagi okean yo'llariga chiqish uchun kamida ikkita davlat chegarasini kesib o'tish kerak bo'lgan ikki mamlakatdan biri (double land-locked) hisoblanadi. Bu geografik cheklov mahsulot eksporti va importi tannarxini 20–30 foizga oshiradi.

2013-yilda e'lon qilingan "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi O'zbekiston uchun ushbu "geografik taqdir"ni o'zgartirish imkonini berdi. Prezident Shavkat

Mirziyoyev ta'kidlaganidek, O'zbekistonning maqsadi - yopiq hududiy iqtisodiyotdan mintaqaviy transport xabi (bog'lovchi markaz)ga aylanishdir. Xitoy uchun esa O'zbekiston Markaziy Osiyo orqali Yaqin Sharq, Janubiy Osiyo va Yevropaga chiqadigan eng qisqa va xavfsiz yo'lak hisoblanadi³⁶.

BRI doirasidagi muvaffaqiyatli loyihalarning eng yirik namunasi - Angren-Pop temir yo'li va uning tarkibidagi 19 kilometrlik Qamchiq tunnelidir. Xitoyning *China Railway Tunnel Group* kompaniyasi tomonidan qurilgan ushbu obekt Markaziy Osiyodagi eng murakkab muhandislik inshooti hisoblanadi. Ushbu yo'l Farg'ona vodiysini mamlakatning qolgan qismi bilan temir yo'l orqali bog'ladi. Ilgari yuklar qo'shni Tojikiston hududi orqali o'tishga majbur edi. Bu loyiha O'zbekistonning ichki logistika mustaqilligini ta'minlash bilan birga, BRI doirasidagi Sharq-G'arb yo'lagining muhim bo'g'iniga aylandi.

4.4.Madaniy-gumanitar aloqalar: ta'lim, turizm va madaniyat almashinuvi.

Diplomatik va iqtisodiy munosabatlar davlatlar o'rtasidagi "tana" bo'lsa, madaniy-gumanitar aloqalar uning "ruhi" hisoblanadi. O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi munosabatlar tarixi ikki ming yildan ortiq davrni qamrab olgan bo'lib, u qadimgi Buyuk Ipak yo'li orqali shakllangan. Bugungi kunda, O'zbekistonning yangilanish davri va Xitoyning global tashabbuslari sharoitida, bu aloqalar ta'lim, turizm va madaniyat sohalarida misli ko'rilmagan chuqurlikka erishdi.

Ta'lim sohasi O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi gumanitar hamkorlikning eng dinamik yo'nalishidir. O'zbekiston yoshlari uchun Xitoy - zamonaviy texnologiyalar, muhandislik va boshqaruv bilimlarini o'rganish bo'yicha asosiy markazga aylandi.

Konfutsiy institutlari va til o'rganish: O'rta Osiyodagi birinchi Konfutsiy instituti 2004-yilda aynan Toshkentda ochilgan bo'lib, hozirda Samarqandda ham muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. Ushbu institutlar nafaqat til markazi, balki ikki xalq o'rtasidagi madaniy ko'priklar vazifasini o'tamoqda. Bugungi kunda

³⁶ Mustafayev B. "O'zbekiston-Xitoy munosabatlari: Transport va logistika loyihalari". Markaziy Osiyo xalqaro instituti materiallari.

O‘zbekistonning qator oliy o‘quv yurtlarida xitoy tili fakultetlari ochilgan, Xitoyning nufuzli universitetlarida esa o‘zbek tili o‘qitilmoqda. Pekin xorijiy tillar universiteti va Shanxay xalqaro tadqiqotlar universitetida o‘zbek tili markazlarining ochilishi Xitoyning O‘zbekistonga bo‘lgan intellektual qiziqishi yuqori ekanligidan dalolat beradi.

Talabalar almashinuvi va Grantlar: Xitoy hukumati har yili o‘zbekistonlik talabalar uchun yuzlab grantlar (CSC) ajratmoqda. Hozirda 6500 dan ortiq o‘zbekistonlik talaba Xitoyning eng nufuzli OTMlarida (Sinxua, Pekin universiteti, Fudan) tahsil olmoqda. Ayniqsa, IT, biotexnologiya va ”yashil” energetika yo‘nalishlaridagi mutaxassislar tayyorlash O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun strategik ahamiyatga ega. 2024-yilda Toshkentda Xitoyning qator texnik universitetlarining filiallari ochilishi bo‘yicha kelishuvlarga erishildi, bu esa ”ta’lim eksporti”ning yangi bosqichidir.

2020-yildan boshlab Xitoy fuqarolari uchun O‘zbekistonga 7 kunlik vizasiz rejim joriy etilgan edi, keyinchalik bu muddat 10 kunga uzaytirildi. 2024-yilgi oliy darajadagi tashriflar doirasida turizm sohasidagi hamkorlikni yanada erkinlashtirish masalalari ko‘rib chiqildi. Hozirda Toshkentdan Pekin, Chengdu, Sian va Guanchjou kabi shaharlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri reyslar soni bir necha barobar ko‘paydi.

“Ipak yo‘li” brendi: Xitoylik sayyohlar uchun Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlari tarixiy “Ipak yo‘li”ning ajralmas qismi sifatida katta qiziqish uyg‘otadi. O‘zbekiston hukumati “Xitoylik sayyohlar uchun do‘stona” (China Friendly) standartlarini joriy etmoqda, bu mehmonxonalar va restoranlarda xitoy tilidagi ma’lumotlar, UnionPay to‘lov tizimining ishlashi va xitoylik gidlar tayyorlashni o‘z ichiga oladi. Tahlillarga ko‘ra, 2030-yilga kelib O‘zbekistonga keladigan xitoylik sayyohlar sonini 1 million nafarga yetkazish real iqtisodiy maqsad qilib olingan.

4.5.Zamonaviy bosqichda strategik sheriklik va istiqboldagi rivojlanish yo‘nalishlari.

Madaniy almashinuv tadbirlari ikki xalqning bir-birini chuqurroq anglashiga yordam beradi. "O‘zbekistonda Xitoy madaniyati kunlari" va "Xitoyda O‘zbekiston madaniyati kunlari" an‘anaviy tus oldi. Kino va San‘at: So‘nggi yillarda o‘zbek va xitoy kinoijodkorlari hamkorlikda tarixiy filmlar ustida ishlamoqda. Masalan, Buyuk Ipak yo‘li va tarixiy shaxslar (Szyan Syan, Abu Rayhon Beruniy) haqidagi qo‘shma loyihalar ekran yuzini ko‘rmoqda. Xitoyda O‘zbekistonning milliy hunarmandchiligi, kiyim-kechaklari va musiqasi (maqom san‘ati) yirik ko‘rgazmalarda namoyish etilmoqda. Arxeologik hamkorlik: Arxeologiya sohasidagi hamkorlik aloqalari alohida e‘tiborga loyiq. Xitoylik arxeologlar o‘zbekistonlik hamkasblari bilan birgalikda Farg‘ona vodiysi va Surxondaryo hududlarida qazish ishlarini olib bormoqda. Bu tadqiqotlar Kushon imperiyasi davridagi madaniy bog‘liqlikni va ikki xalqning qadimiy ildizlari mushtarakligini ilmiy isbotlamoqda.

O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasidagi diplomatik aloqalar o‘tgan 30 yildan ortiq vaqt davomida oddiy qo‘shnichilik munosabatlaridan "Barcha sharoitlarda har tomonlama strategik sheriklik" darajasiga ko‘tarildi. Ushbu munosabatlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, ikki davlat o‘rtasidagi hamkorlik nafaqat iqtisodiy manfaatlar, balki chuqur geosiyosiy ishonch va madaniy yaqinlik poydevoriga qurilgan.

Siyosiy barqarorlik va Geosiyosiy muvozanat: O‘zbekiston mustaqilligining ilk yillarida Xitoy uni tan olgan birinchi davlatlardan biri bo‘ldi. Islom Karimov davrida shakllangan xavfsizlikka yo‘naltirilgan muloqot, Shavkat Mirziyoyev davrida ochiq va pragmatik integratsiya bosqichiga o‘tdi. Xitoy O‘zbekistonning suvereniteti va hududiy yaxlitligini so‘zsiz qo‘llab-quvvatlab, mintaqada muvozanatlovchi kuch rolini o‘ynadi. ShHT doirasidagi hamkorlik esa terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashda ikki davlat pozitsiyalarini yanada yaqinlashtirdi. Bugungi kunda Xitoy O‘zbekistonning birinchi raqamli savdo va investitsiyaviy sherigi hisoblanadi. O‘zaro tovar ayirboshlash hajmi 14 milliard dollarga yetgani va bu ko‘rsatkichni 20 milliardga yetkazish maqsadi qo‘yilgani hamkorlikning

ulkan salohiyatidan dalolat beradi. Eng muhimi, hamkorlik sifati o'zgardi: Xitoy endi shunchaki sarmoyador emas, balki yuqori texnologiyalar transferi (BYD elektromobillari, raqamli iqtisodiyot) va "yashil" energetika (quyosh va shamol stansiyalari) bo'yicha asosiy hamkorga aylandi. Bu O'zbekistonning 2030-yilgacha bo'lgan rivojlanish strategiyasining asosiy drayveridir. "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi doirasidagi "Xitoy – Qirg'iziston – O'zbekiston" temir yo'li loyihasi O'zbekistonning geografik "qamali"ni yorib o'tish uchun tarixiy imkoniyatdir. Ushbu yo'l mamlakatni "land-locked" (dengizdan uzilgan) davlatdan Markaziy Osiyoning eng yirik tranzit xabiga aylantirmoqda. Bu nafaqat eksport xarajatlarini kamaytiradi, balki O'zbekistonni global savdo zanjirlarining ajralmas bo'lagiga aylantiradi. Munosabatlarning eng noyob jihati - Xitoyning kambag'allikni qisqartirish modelining O'zbekistonda qo'llanilishidir. Bu ikki davlat o'rtasidagi ishonch faqat iqtisodiy foyda bilan cheklanmay, ijtimoiy boshqaruv va inson kapitalini rivojlantirish darajasiga chiqqanini ko'rsatadi. Ta'lim grantlari, Konfutsiy institutlari va turizm sohasidagi viza yengilliklari "ma'naviy Ipak yo'li"ni qayta tiklab, xalqlar o'rtasidagi do'stlikni mustahkamladi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston va Xitoy munosabatlari bugun o'zining "oltin davri"ni boshdan kechirmoqda. Bu ittifoq o'zaro manfaatdorlik, bir-birining ichki ishlariga aralashmaslik va teng huquqlilik tamoyillariga asoslangan. Kelajakda raqamli transformatsiya, yuqori texnologiyalar va transport integratsiyasi bu aloqalarning asosiy ustunlari bo'lib qoladi. O'zbekiston uchun Xitoy - bu zamonaviy taraqqiyot manbayi, Xitoy uchun esa O'zbekiston - Markaziy Osiyodagi eng ishonchli va strategik tayanch nuqtasidir.

Nazorat savollari:

1. Xitoy Xalq Respublikasi O'zbekiston mustaqilligini qachon tan olgan va diplomatik aloqalar qaysi sanada o'rnatilgan?
2. 2024-yil yanvar oyida ikki davlat munosabatlari qanday yangi oliy maqomga ko'tarildi?

3. O‘zbekiston va Xitoy hamkorligida Shanxay hamkorlik tashkiloti (ShHT) qanday rol o‘ynaydi?
4. O‘zbekiston tashqi siyosatida Xitoyning hududiy yaxlitligiga oid qaysi prinsipni doimiy qo‘llab-quvvatlaydi?
5. Markaziy Osiyo davlatlari va Xitoy o‘rtasidagi hamkorlikning yangi ko‘p tomonlama formati qanday nomlanadi?
6. Hozirgi kunda Xitoyning O‘zbekiston tashqi savdo aylanmasidagi o‘rni qanday?
7. Ikki davlat rahbarlari yaqin istiqbolida o‘zaro tovar ayirboshlash hajmini necha milliard dollarga yetkazishni maqsad qilgan?
8. O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan Xitoy kapitali ishtirokidagi korxonalar soni taxminan qancha?
9. Xitoyning qaysi yirik avtomobilsozlik kompaniyasi Jizzaxda elektromobillar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘ydi?
10. O‘zbekiston iqtisodiyotining qaysi sohalarida Xitoy investitsiyalari eng katta ulushga ega?
11. “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusining O‘zbekiston uchun strategik ahamiyati nimadan iborat?
12. “Xitoy – Qirg‘iziston – O‘zbekiston” temir yo‘li bitkazilgach, yuk tashish masofasi qanchaga qisqarishi kutilmoqda?
13. Xitoy mutaxassislari ishtirokida qurilgan, Markaziy Osiyodagi eng uzun temir yo‘l tonneli qaysi dovonda joylashgan?
14. O‘zbekistonning “land-locked” holatidan “land-linked” davlatga aylanishida Xitoyning logistik loyihalari qanday yordam beradi?
15. Xitoy kompaniyalari O‘zbekistonning qaysi viloyatlarida yirik quyosh va shamol elektr stansiyalarini barpo etmoqda?
16. O‘zbekiston raqamli infratuzilmasini rivojlantirishda (masalan, 5G aloqasi) Xitoyning qaysi texnologik giganti faol ishtirok etmoqda?

17. O‘zbekistonda xitoy tili va madaniyatini o‘rgatuvchi qanday institutlar faoliyat yuritmoqda?

18. O‘zbekiston Xitoyning qaysi ijtimoiy tajribasini (800 mln odamni qamrab olgan) o‘z davlat boshqaruviga tatbiq etmoqda?

19. Xitoy fuqarolari uchun O‘zbekistonga kirishda qanday viza yengilliklari joriy etilgan?

20. O‘zbekistonning qaysi tarixiy shaharlari Xitoylik sayyohlar uchun “Ipak yo‘li” brendi ostida eng jozibador hisoblanadi?

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: Tasvir. 2022.
2. O‘zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasi o‘rtasidagi “Har tomonlama strategik sheriklikni yanada chuqurlashtirish to‘g‘risida”gi Qo‘shma deklaratsiya (2023-2024 yillardagi oliy darajadagi tashriflar yakunlari bo‘yicha).
3. Qodirova R.Ya. O‘zbekistonning tashqi siyosati va diplomatiyasi. – Toshkent: JIDU, 2020.
4. Xitoy tushunchasi (The China Concept): Xitoyning “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusi va Markaziy Osiyo. – Tahliliy to‘plam, 2022.
5. Alimov R. O‘zbekiston va Xitoy: strategik sheriklikning yangi ufqlar. – Toshkent, 2019.
6. O‘zbekiston va Xitoy: Iqtisodiy hamkorlik istiqbollari. Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi hisoboti, 2023.
7. Mustafayev B. O‘zbekiston-Xitoy munosabatlari: Transport va logistika loyihalari. Markaziy Osiyo xalqaro instituti materiallari.
8. O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi rasmiy sayti (mfa.uz) Ikki tomonlama munosabatlar bo‘limi.

Test topshirqlari

1. O‘zbekiston va Xitoy Xalq Respublikasi o‘rtasida diplomatik munosabatlar qachon o‘rnatilgan?
A) 1990-yil
B) 1991-yil
C) 1992-yil
D) 1995-yil
2. O‘zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimov Xitoyga ilk rasmiy tashrifini qaysi yilda amalga oshirgan?
A) 1991-yil
B) 1992-yil
C) 1994-yil
D) 1996-yil
3. O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasidagi munosabatlarning “strategik sheriklik” darajasiga ko‘tarilishi qaysi yilda sodir bo‘lgan?
A) 2005-yil
B) 2012-yil
C) 2016-yil
D) 2018-yil
4. Shavkat Mirziyoyev prezident sifatida Xitoyga ilk davlat tashrifini qachon amalga oshirgan?
A) 2016-yil
B) 2017-yil
C) 2018-yil
D) 2019-yil
5. O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishda qaysi tashabbus muhim rol o‘ynaydi?
A) Marshall rejasi
B) Bir kamar, bir yo‘l tashabbusi

- C) NAFTA
D) ASEAN
6. Xitoy rahbari Si Szinpin O‘zbekistonga ilk davlat tashrifini qachon amalga oshirgan?
A) 2010-yil
B) 2013-yil
C) 2016-yil
D) 2019-yil
7. O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasida energetika sohasidagi hamkorlikning asosiy yo‘nalishlaridan biri qaysi?
A) Atom energetikasi
B) Shamol energetikasi
C) Gaz eksporti va quvurlar
D) Hidroenergetika
8. O‘zbekiston-Xitoy gaz quvuri loyihasi qaysi mintaqani bog‘laydi?
A) Yevropa – Osiyo
B) Markaziy Osiyo – Xitoy
C) Janubiy Osiyo – Yaqin Sharq
D) Rossiya – Xitoy
9. O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasidagi madaniy-gumanitar hamkorlik qaysi yo‘nalishni o‘z ichiga oladi?
A) Harbiy ittifoq
B) Ta’lim va talabalar almashinuvi
C) Faqat savdo aloqalari
D) Valyuta ittifoqi
10. Shanxay hamkorlik tashkiloti doirasida O‘zbekiston va Xitoy qanday hamkorlik olib boradi?
A) Faqat iqtisodiy
B) Faqat harbiy

C) Siyosiy, xavfsizlik va iqtisodiy

D) Faqat madaniy

11. O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasidagi oliy darajadagi uchrashuvlar asosan qaysi formatda o‘tkaziladi?

A) Parlamentlararo

B) Prezidentlar darajasida

C) Viloyatlar darajasida

D) Faqat elchilar orqali

12. Xitoyning O‘zbekistondagi investitsiyalari asosan qaysi sohalarga yo‘naltirilgan?

A) Turizm va sport

B) Energetika, transport va sanoat

C) Faqat qishloq xo‘jaligi

D) Faqat IT sohasi

13. O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasidagi transport hamkorligining asosiy maqsadi nima?

A) Harbiy nazoratni kuchaytirish

B) Yangi savdo yo‘laklarini yaratish

C) Chegaralarni yopish

D) Migratsiyani kamaytirish

14. O‘zbekiston hududi orqali o‘tuvchi xalqaro logistika loyihalari qaysi tashabbus bilan bog‘liq?

A) NATO

B) Yevropa Ittifoqi

C) Bir kamar, bir yo‘l tashabbusi

D) BRICS

15. O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasidagi munosabatlarning hozirgi bosqichi qanday tavsiflanadi?

A) Sovuq munosabatlar

B) Strategik sheriklik

C) Harbiy ittifoq

D) Raqobat

5-BOB. O‘ZBEKISTON - AQSH MUNOSABATLARINING RIVOJI VA ISTIQBOLLARI

Reja:

- 5.1. O‘zbekiston–AQSH diplomatik munosabatlarining shakllanishi
- 5.2. 2000-yillarda strategik hamkorlik va uning o‘zgarishi
- 5.3. Yangi bosqich: Hamkorlikning qayta faollashuvi va islohotlar davri
- 5.4. Iqtisodiy va investitsion hamkorlik

Tayanch so‘z va iboralar: diplomatik munosabatlar, strategik sheriklik, geosiyosat, xalqaro hamkorlik, tashqi siyosat, investitsiya, iqtisodiy integratsiya, xavfsizlik hamkorligi, terrorizmga qarshi kurash, inson huquqlari, globalizatsiya, logistika, energetika hamkorligi, raqamli iqtisodiyot, innovatsiya, siyosiy dialog, iqtisodiy islohotlar, mintaqaviy barqarorlik, xalqaro tashkilotlar, iqtisodiy rivojlanish, O‘zbekiston – Amerika Qo‘shma Shtatlari munosabatlari, ikki tomonlama hamkorlik, strategik hamkorlik, diplomatik aloqalar, siyosiy munosabatlar, savdo-iqtisodiy aloqalar, investitsion hamkorlik, xalqaro xavfsizlik, terrorizmga qarshi siyosat, mintaqaviy xavfsizlik, Afg‘oniston omili, geosiyosiy manfaatlar

5.1. O‘zbekiston–AQSH diplomatik munosabatlarining shakllanishi

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, o‘zining tashqi siyosatini ko‘p vektorli, ochiq va pragmatik yo‘nalishda olib borishni boshladi. Shu jarayonda Amerika Qo‘shma Shtatlari bilan hamkorlik alohida ahamiyat kasb etdi. AQSH dunyoning yetakchi siyosiy, iqtisodiy va harbiy qudratiga ega davlat sifatida Markaziy Osiyo mintaqasida muhim geosiyosiy o‘rin tutadi.

O‘zbekiston uchun AQSH bilan munosabatlar iqtisodiy rivojlanish, xavfsizlikni ta‘minlash, investitsiyalarni jalb qilish va demokratik islohotlarni amalga oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Mazkur ishda ikki davlat o‘rtasidagi

munosabatlarning shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va istiqbollari batafsil tahlil qilinadi.

XXI asr global tahdidlari - terrorizm, ekstremizm, migratsiya va energetika xavfsizligi - O'zbekiston va AQSH o'rtasidagi hamkorlikning dolzarbligini oshirdi. Ayniqsa, 2001-yil 11-sentabr voqealari mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlash va terrorizmga qarshi kurash sohasida hamkorlikni kuchaytirdi. Shu davrdan boshlab O'zbekiston AQSHning strategik sherigi sifatida mintaqaviy va global muammolarni hal qilish jarayonlarida faol ishtirok eta boshladi.

Shuningdek, iqtisodiy jihatdan hamkorlikning ahamiyati ortdi. AQSH investitsiyalari, texnologik yordami va ilmiy hamkorligi O'zbekiston iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish, innovatsion rivojlanish va raqamli iqtisodiyot sohalarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

1991-yilda O'zbekiston davlat mustaqilligini qo'lga kiritgach, uning oldida eng muhim vazifalardan biri xalqaro maydonda o'z o'rnini mustahkamlash va rivojlangan davlatlar bilan diplomatik aloqalarni yo'lga qo'yish edi. Shu nuqtai nazardan, Amerika Qo'shma Shtatlari bilan munosabatlar strategik ahamiyat kasb etdi.

AQSH 1991-yil 25-dekabrda O'zbekiston mustaqilligini tan oldi. Bu voqea ikki davlat o'rtasidagi siyosiy ishonchning dastlabki belgisi sifatida baholanadi. 1992-yil fevral oyida esa diplomatik munosabatlar rasman o'rnatildi.

O'zbekiston uchun AQSH bilan aloqalar quyidagi sabablar bilan muhim edi:

- global iqtisodiy tizimga integratsiya qilish
- investitsiyalarni jalb etish
- xavfsizlikni ta'minlash
- demokratik institutlarni shakllantirish

AQSH esa O'zbekistonni Markaziy Osiyodagi muhim strategik hamkor sifatida ko'rdi. Chunki O'zbekiston:

- mintaqada eng katta aholi soniga ega
- geosiyosiy jihatdan markaziy o'rinda joylashgan

- xavfsizlik nuqtai nazaridan muhim hudud hisoblanadi

Vashington-O'zbekiston 35 yil oldin Sovet Ittifoqidan chiqib, mustaqillik e'lon qilganida, AQSh birinchilardan bo'lib uni tan olib, diplomatik aloqa o'rnatgan. Respublikaning Vashingtondagi elchixonasi o'tkazgan virtual forumda Amerikaning sobiq elchilariga so'z berildi. O'zbekistonning AQSh va Kanadadagi elchisi Javlon Vahobovga ko'ra, ular ikki davlatni strategik sherikka aylantirishda behisob hissa qo'shgan.

1992-yilda Toshkentda Amerika elchixonasi ochilgan. AQShning O'zbekistondagi birinchi elchisi Genri Klark mamlakat kuponlar va iqtisodiy taqchillik kunlarini qanday o'tkazgani, qozonini qaynatishga qiynalgan damlarni yodga oladi.

Islom Karimov yosh, zaif, qoloq tizimni bosqarayotgan edi, deydi Klark. SSSR qulagan edi, ammo uning yo'q bo'lgani hali sezilmayotgan edi. Chegaralarni mahkamlash, dunyo bilan mustaqil davlat sifatida bog'lanish kerak edi, iqtisodiyotni oyoqqa turg'azib, yangi bosh qomusni ishga solish, butun tizimni yangilash lozim edi.

“Mening asosiy vazifam diplomatik jihatdan Toshkentda nima qila olsak, shularni amalga oshirish edi. Gumanitar sohalardan siyosiy hamkorlikkacha, o'zaro manfaatlarga urg'u berib, O'zbekistonga qanday madad zarurligini aniqlab, uning hukumati irodasini tahlil qilgan holda harakat qilish. Nimaiki mumkin bo'lsa, shunga intilganmiz”, - deydi Klark.

AQShning O'zbekistondagi ikkinchi elchisi Stenli Eskudero mamlakatining Tojikistondagi ilk bosh diplomati bo'lgan. U yerda fuqarolar urushi, qonli voqealarga guvoh bo'lib Toshkentga kelgan Eskudero fikricha, Karimov mustaqillikning birinchi besh yilligida misli ko'rilmagan o'zgarishlar qilishga uringan. Xalqaro munosabatlarni yo'lga qo'ygan, deydi diplomat, ammo u bora-bora O'zbekiston iqtisodiyotini yopdi va bu katta xato bo'lgan, deydi Eskudero.

Uning eslashicha, 1990-yillar boshida respublika siyosiy-ijtimoiy jihatdan jiddiy sinovlar bilan yuzlashayotgan muhit edi. Mustaqillik nima ekanini hali

jamiyat his qila olmayotgan, tizim hamma narsani noldan boshlashi kerak bo'lgan, xalq qanchalik mehnat qilmasin, farovonlikka erishish naqadar mashaqqatli ekani yaqqol sezilayotgan va birinchi navbatda barqarorlik muhim ekanini anglab turgan davrlar edi.

O'zbekiston uchun Karimov davri haqiqatan murakkab zamonlar edi, ammo bugungi jarayonlarga yetaklagan, deya xulosa qiladi Eskudero.

“Rahbariyatning tinch yo'l bilan o'zgarishi, Shavkat Mirziyoyev prezidentlikka kelib islohotlar boshlashi, mamlakatni yangicha yo'ldan olib borishga harakat qilayotgani tahsinga sazovor”, - deya kuzatadi Eskudero³⁷.

Uning elchiligida AQSh bizneslari, ayniqsa tabiiy boyliklar bilan ishlaydigan kompaniyalar O'zbekistonga qiziqish bildirib, kirishga harakat qila boshlagan. Toshkentga dastlab bu yoqqan, ammo keyinchalik Karimov tilla va boshqa zaxiralarni ayashga qaror qilib, chet el ishbilarmonlariga eshikni yopdi. Ularni qanday ishlab chiqarish borasida prezident bir to'xtamga kelolmagach, xorijdan e'tibor ham pasaydi.

O'zbekistondagi uchinchi elchi Josef Presel deydi, ikki davlat razvedka tizimlari orasidagi aloqalar uning paytida ancha mustahkam edi. 1990-yillar oxirida xizmat qilgan diplomat mamlakatda inson huquqlari bilan bog'liq vaziyat yomonlashgani sari Amerika bilan hamkorlikka ham darz keta boshlagan.

“Lekin, umuman olganda, Vashington va Toshkent o'zaro manfaatlar yo'lida hamisha til topisha olgan. Ziddiyatlarni tan olib, ularni hal etish uchun harakat bo'lgan, tomonlar muloqotni to'xtatmagan”, - deya eslaydi Presel.

Keksa diplomat nazarida O'zbekiston va Qozog'iston 20-asr oxirida ham Markaziy Osiyodagi eng yirik ikki kuch edi, hozir ham shunday.

1999-yilda O'zbekiston bilan AQSh o'rtasidagi tovar aylanmasi 282 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. O'zbekiston AQShdan bug'doy, xalq iste'mol mollari, asbob-uskunalar sotib oladi. Eksport asosan paxta tolasidan iborat. AQShdagi turli firma va kompaniyalarning O'zbekiston bilan muvaffaqiyatli hamkorligi,

³⁷ <https://www.amerikaovozi.com/a/5983438.html>

delegatsiyalar almashuvi ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlashga imkon beradi.

O'zbekistonda bir qancha O'zbekiston - Amerika qo'shma loyihalarini amalga oshirishga kirishildi. Ular orasida eng yiriklari "Nyumont-Mayning" kompaniyasi tomonidan Zarafshon shahrida oltin ruda konidan foydalanish, International Telset, Inc kompaniyasi tomonidan Toshkent shahrida kabel televideniyesi tarmogini yaratish va boshqarish loyihalaridir.

Amerikaning firma va kompaniyalaridan „Barents grupp“ kimyo sanoati sohasida, "Kellog" Ko'qdumaloq koni uchun kompressor st-yasi qurish, "AIG", "Emsi-Ay" turli sohalarda o'zbekistonlik sheriklari bilan muvaffaqiyatli hamkorlik qilmoqda.

"Zarafshon Newmount" O'zbekiston - Amerika qo'shma korxonasi Qizilqumcho'lida qisqa muddatda zamonaviy korxona barpo etdi.

MDH mamlakatlaridagi katta loyihalarni ro'yobga chiqaruvchi Amerika firmalarining tadqiqotlarini mablag' bilan ta'minlovchi AQShning yirik nohukumat tashkiloti - Savdo va taraqqiyot agentligi oltin qazib chiqaruvchi modulli yangi zavod loyihasining texnik-iqtisodiy asoslamasini mablag' bilan ta'minlash uchun Navoiy kon-metallurgiya kombinatiga grant ajratishga qaror qildi³⁸.

O'zbekiston - Amerika hamkorligiga xususiy biznes namoyandalari ham salmoqli hissa qo'shdi. Jumladan 1997-yilda Amerikaning "Keys interneyshnl" kompaniyasi yordamida Toshkent traktor zavodi qayta qurilib, shu firmaning zamonaviy traktorlarini ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. „Boeing“ kompaniyasi esa o'zaro manfaatli shartlar (lizing) asosida yo'lovchi tashiydigan samolyotlar yetkazib berdi. "Boeing" qulayligi jihatidan ham, uchish xavfsizligi jihatidan ham Rossiyaning shu toifadagi samolyotlaridan katta farq qiladi.

Dunyodagi eng kuchli kompyuterkompaniyasi IBM esa O'zbekiston bank tizimini kompyuterlash sohasida katta amaliy yordam berdi. Amerikaning IREX,

³⁸ https://uz.wikipedia.org/wiki/AQSh_-_O'zbekiston_munosabatlari

ACCELS, Soros jamg'armasi kabi muassasalari esa AQSh va Yevropaning ilmiy markazlarida O'zbekiston uchun mutaxassislar tayierlashga oid dasturlarni amalga oshirmoqda.

O'tish davrining qiyinchiliklarini bartaraf etishda AQSh hukumati va xayriya jamg'armalari insonparvarlik yordami berib, O'zbekistonga bolalar va davolash muassasalari uchun doridarmon, tibbiyot asbob-uskunolari, kiyimkechak, oziq-ovqat mahsulotlari yuborib turibdi. 1997-yil noyabrda AQSh prezidenti rafiqasi Hillary clintonning O'zbekistonga tashrifi ikki mamlakat o'rtasidagi samarali aloqalarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

1997-yil 9-11-iyunda O'zbekiston - Amerika qo'shma komissiyasining tuzilishi AQSh bilan O'zbekiston o'rtasidagi munosabatlarning yanada mustahkamlanib va rivojlanib borayotganligini ko'rsatdi. Qo'shma komissiya mintaqaviy siyosiy muammolarni o'z ichiga olgan o'zaro manfaatli masalalar, O'zbekistonning siyosiy va iqtisodiy islohotlardagi siljishi, harbiy sohada hamkorlik qilish hamda O'zbekistonda xorijiy investitsiyalar uchun sharoitlarni muhokama etadi. 1998-yil 26-27-fevral Vashington shahrida qo'shma komissiyaning birinchi, 1999-yil 24-25-may Toshkent shahrida ikkinchi majlisi bo'lib o'tdi.

5.2. 2000-yillarda strategik hamkorlik va uning o'zgarishi

XXI asr boshlarida xalqaro tizimda keskin o'zgarishlar yuz berdi. Ayniqsa, 2001-yil 11-sentabrda Amerika Qo'shma Shtatlari hududida sodir bo'lgan 11-sentabr teraktlari butun dunyo xavfsizlik tizimini tubdan o'zgartirdi. Mazkur voqealardan so'ng AQSH global terrorizmga qarshi keng ko'lamli kurash boshladi. Bu jarayonda O'zbekiston Markaziy Osiyodagi eng muhim hamkorlardan biriga aylandi.

O'zbekistonning bu jarayondagi ahamiyati quyidagilar bilan belgilanadi:

- geografik joylashuvi
- Afg'onistonga yaqinligi
- mintaqaviy xavfsizlikdagi roli

2001–2005-yillar oralig‘ida O‘zbekiston va AQSH o‘rtasidagi harbiy hamkorlik sezilarli darajada kuchaydi. O‘zbekiston AQSHga o‘z hududidan foydalanish imkonini berdi. Eng muhim ob’ektlardan biri - Qarshi-Xonobod (K2) harbiy bazasi bo‘ldi. Ushbu baza orqali AQSH:

- Afg‘onistonga harbiy yuklar yetkazdi
- harbiy operatsiyalarni muvofiqlashtirdi
- logistika tizimini rivojlantirdi

Bu davrda ikki davlat o‘rtasida:

- harbiy treninglar
- ofitserlar tayyorlash
- texnik yordam

yo‘lga qo‘yildi.

2002-yilda O‘zbekiston va AQSH o‘rtasida Strategik sheriklik to‘g‘risidagi deklaratsiya imzolandi. Bu hujjat ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqdi³⁹.

Deklaratsiyada quyidagilar nazarda tutilgan:

- xavfsizlik sohasida hamkorlik
- siyosiy dialogni rivojlantirish
- iqtisodiy aloqalarni kengaytirish
- demokratik islohotlarni qo‘llab-quvvatlash

AQSH O‘zbekistonni mintaqadagi asosiy tayanch davlat sifatida ko‘ra boshladi.

2000-yillar boshida iqtisodiy aloqalar ham sezilarli darajada rivojlandi. AQSH kompaniyalari O‘zbekiston bozoriga kirib kela boshladi.

Asosiy yo‘nalishlar:

- energetika
- neft-gaz sektori
- transport va logistika

³⁹ https://en.wikipedia.org/wiki/United_States-Uzbekistan_relations

- qishloq xo‘jaligi

AQSH O‘zbekistonga investitsiyalar kiritib, iqtisodiy islohotlarni qo‘llab-quvvatladi.

Shu bilan birga, AQSH O‘zbekistondagi:

- inson huquqlari
- so‘z erkinligi
- siyosiy islohotlar

masalalariga doimiy e‘tibor qaratib keldi. Bu masalalar ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlarda muhim, ba‘zan esa murakkab omil bo‘lib xizmat qildi.

2005-yilda Andijon shahrida yuz bergan Andijon voqealari O‘zbekiston–AQSH munosabatlarida burilish nuqtasiga aylandi.

AQSH ushbu voqealar yuzasidan:

- xalqaro tergov o‘tkazishni talab qildi
- inson huquqlari masalasida tanqidlar bildirdi

O‘zbekiston esa buni ichki ishlariga aralashuv sifatida baholadi.

Natijada:

- siyosiy munosabatlar sovuqlashdi
- harbiy hamkorlik to‘xtatildi
- AQSH bazasi yopildi

Ushbu davrda ikki davlat o‘rtasidagi aloqalar sezilarli darajada pasaydi.

Hamkorlik asosan cheklangan yo‘nalishlarda davom etdi:

- minimal diplomatik aloqa
- ayrim iqtisodiy loyihalar
- xalqaro tashkilotlar doirasidagi hamkorlik

AQSH O‘zbekiston bilan aloqalarni to‘liq uzmad, ammo ularni qayta ko‘rib chiqdi.

2000-yillarning oxiriga kelib, geosiyosiy vaziyat yana o‘zgarishni boshladi.

Ayniqsa:

- Afg‘onistondagi vaziyat

- mintaqaviy xavfsizlik muammolari

ikki davlatni yana yaqinlashishga majbur qildi.

AQSH O‘zbekiston bilan:

- logistika yo‘llarini rivojlantirish
- Shimoliy ta‘minot yo‘li (NDN) orqali yuk tashish

bo‘yicha hamkorlikni qayta tikladi.

Geosiyosiy omillar va yirik davlatlar raqobati davrida O‘zbekiston tashqi siyosatda muvozanatni saqlashga harakat qildi. O‘zbekiston:

- Rossiya
- Xitoy
- AQSH

o‘rtasida balans yuritishga intildi. Bu esa AQSH bilan munosabatlarga ham bevosita ta‘sir ko‘rsatdi⁴⁰.

5.3. Yangi bosqich: Hamkorlikning qayta faollashuvi va islohotlar davri

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Vashington shahriga amaliy tashrifi ikki davlat munosabatlarini yangi strategik bosqichga olib chiqdi. Davlatimiz rahbari qisqa fursat ichida o‘nlab muhim uchrashuvlar o‘tkazib, zamonaviy diplomatiya qanday bo‘lishi kerakligining haqiqiy namunasini “master-klass”ini namoyish etdi.

Mamlakatimiz rahbari Vashingtondagi dasturini AQSH Kongressi va Senati vakillari bilan uchrashuvdan boshladi. Vakolatchilar palatasi a‘zolari Bill Xayzinga, Kerol Miller va Sidni Kemlager-Dovn hamda Senatdagi Markaziy Osiyo bo‘yicha kokus hamraisi senator Stiv Deyns bilan suhbatlarda strategik sheriklikni chuqurlashtirish, parlamentlararo aloqalarni faollashtirish, shtatlar miqyosidagi hamkorlikni kengaytirish masalalari muhokama qilindi. Kongressdagi “O‘zbekiston bo‘yicha kokus” faoliyati va “O‘zbekiston kunlari”

⁴⁰ <https://uzbekistan.org/political-relations/>
<https://uza.uz/en/posts/strategic-partnership->

an'anasi ikki davlat munosabatlarini mustahkamlashda muhim platforma ekani ta'kidlandi.

Iqtisodiy hamkorlik yo'nalishida Prezidentimiz AQSH Eksport-import banki (EXIM) rahbari Jon Yovanovich va Xalqaro moliyaviy taraqqiyot korporatsiyasi bosh direktori (DFC) Ben Blek bilan uchrashib, energetika, transport, muhim minerallar, qishloq xo'jaligi va AKT yo'nalishlaridagi yirik loyihalarni moliyalashtirish, qo'shma investitsiya platformasi va DFCning Toshkentda mintaqaviy ofisini ochish masalalarini kelishib oldi. EXIM bilan qo'shma loyihalarni moliyalashtirish bo'yicha bitim almashildi, milliy aviatransportni modernizatsiya qilish va "Boeing" samolyotlarini yetkazib berishga alohida e'tibor qaratildi.

"General Motors International" rahbariyati, AQSH savdo vaziri Xovard Latnik va yetakchi kompaniyalar hamda moliya institutlari vakillari bilan uchrashuvlarda esa sanoat kooperatsiyasini chuqurlashtirish, raqamli iqtisodiyot, suvni tejovchi texnologiyalar, qishloq xo'jaligi va logistikada amaliyotga yo'naltirilgan sheriklik bo'yicha kelishuvlar shakllantirildi.

Vashingtonda o'tgan birinchi kun davomida Prezidentimiz AQSHning yetakchi moliyaviy va ishbilarmon doiralari bilan ham samarali muloqotlar o'tkazdi. Eksimbank, DFC, "General Motors", "Boeing", "Meta", "Google", "Cargill", "John Deere" va boshqa kompaniyalar bilan kelishuvlar mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun muhim investitsiya manbalarini ochadi. Ayniqsa, energetika, qishloq xo'jaligi va raqamli iqtisodiyot sohalaridagi bitimlar O'zbekistonning barqaror rivojlanish strategiyasiga to'g'ridan to'g'ri xizmat qiladi. Mazkur muloqotlar Donald Tramp bilan uchrashuv va "C5+1" sammiti arafasida siyosiy-iqtisodiy kun tartibini aniq belgilab berdi.

Oq uyda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev va Amerika Qo'shma Shtatlari Prezidenti Donald Trampning muzokaralari shubhasiz, Vashington tashrifining eng muhim va siyosiy jihatdan eng samarali voqeasi sifatida tarixga kirdi. Oliy darajadagi muzokarlarda ikki davlat o'rtasidagi strategik sheriklik

munosabatlarni yanada rivojlantirish, siyosiy muloqotni chuqurlashtirish va iqtisodiy hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish masalalari muhokama qilindi.

Yetakchilar sentyabr oyida Nyu-Yorkda o'tgan ilk muloqotda erishilgan kelishuvlarning amalga oshirilishini muhokama qilib, iqtisodiy va investitsiyaviy loyihalarni institutsional asosda ilgari surish zarurligini ta'kidladi.⁴¹

Vashingtonda Prezident Donald Tramp raisligida o'tgan Markaziy Osiyo mamlakatlari va AQSH yetakchilarining "C5+1" formatidagi sammiti Prezident Mirziyoyev tashrifining markaziy voqeasi bo'ldi. Bu sammit Markaziy Osiyo davlatlari bilan AQSH o'rtasidagi strategik muloqotni yangi bosqichga olib chiqdi, deyish mumkin. Prezidentimiz o'z nutqida "C5+1" formatining so'nggi o'n yilda mintaqada savdo, transport va energetika sohalaridagi hamkorlikni rivojlantirishda muhim mexanizmga aylanganini qayd etdi.

Davlatimiz rahbari bir qator amaliy tashabbuslarni ilgari surdi. Doimiy faoliyat yuritadigan Kotibiyatni tashkil etish, investitsiya va savdo bo'yicha muvofiqlashtiruvchi Kengash tuzish, "Markaziy Osiyo investitsiyaviy sherikligi" jamg'armasini yo'lga qo'yish, shuningdek, muhim minerallarni qidirish, qazib olish va chuqur qayta ishlash borasidagi say-harakatlarni samarali muvofiqlashtirish uchun Maxsus qo'mita tuzish, mintaqaviy agrotexnologik innovatsiyalar sherikligini tashkil etish kabi muhim tashabbuslar shular jumlasidandir.

Mamlakatimiz Prezidenti gumanitar sohada ham yangi tashabbus bilan chiqdi - AQSHning yetakchi muzeylarida Markaziy Osiyo madaniyatiga bag'ishlangan ko'rgazmalar tashkil etish, kelgusi "C5+1" sammitini esa Samarqand shahrida o'tkazish taklifini bildirdi.

Oq uyda Donald Tramp bilan o'tgan samarali muzokaralar va "C5+1" sammitida ilgari surilgan tashabbuslar ikki tomonlama munosabatlarni yangi bosqichga ko'tardi. Aytish mumkinki, bu tashrif O'zbekistonning tashqi siyosatidagi muvozanatli, pragmatik va manfaatga asoslangan yondashuvning

⁴¹ <https://parliament.gov.uz/news/ozbekiston-aqsh-munosabatlari-yangi-bosqichda>

yorqin ifodasi bo'lib, mamlakatimizning xalqaro maydondagi nufuzini yanada oshirdi.

Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston hokimiyati tepasiga kelgach, barcha sohalar kabi tashqi siyosat yo'nalishida, davlatlar bilan o'zaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirish masalalari ham yangi bosqichda siljiy boshladi. O'zbekiston va AQSh prezidentlarining 2017 yilda ikki marta: may oyida Saudiya Arabistonining Ar-Riyod shahrida bo'lib o'tgan Arab musulmon davlatlari va AQSh samnitida shuningdek, sentabr oyida Nyu Yorkda BMT bosh Assambleyasining 72-sessiyasi doirasida bo'lib o'tgan uchrashuvlaridagi siyosiy muloqot ikki davlat munosabatlarida yangi davrni boshlab berdi.

O'zbekistonning yangi prezidenti hokimiyatga kelganidan so'ng jamiyat hayotining deyarli barcha jabhalarida keng ko'lamli islohotlarni boshlab yubordi, asosiy e'tibor boshqaruv tizimini takomillashtirish, mamlakatning xalqaro mavqeini yuksaltirish, ijobiy biznes va sarmoyaviy muhitni ta'minlashga qaratildi. Bu ijobiy siyosiy dinamika va Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlik uchun yangi ishtiyoqning quvonarli alomatlariga turtki berdi. O'zbekistonning davlatni isloh qilish va modernizatsiya qilish bo'yicha keng ko'lamli dasturi - bir amerikalik olim "Ekstremal o'zgarishlar: Markaziy Osiyo nashri" deb atagan dastur butun mintaqani qamrab olgan ushbu jarayonning markazida turadi.

Shunday bo'lsa ham, har qanday ichki islohotlar jiddiy tashqi to'siqlar bo'lsa, o'z-o'zidan barbod bo'lishi mumkin. Shu bois, dunyoning barcha yetakchi davlatlari, jumladan, Rossiya, Xitoy va AQSH bilan do'stona munosabatlar O'zbekistonning muvaffaqiyati uchun juda muhim. Moskva va Pekin bilan yaqin aloqalar geografik yaqinlik natijasida berilgan bo'lsa-da, Vashington Toshkent shug'ullanmoqchi bo'lgan global yetakchi va fundamental islohotlar o'tkazayotgan har qanday davlat uchun tabiiy ittifoqchi bo'lib qolmoqda. Bu Sh.Mirziyoyevning islohotlar dasturini AQSH tomonidan bildirilgan kuchli qo'llab-quvvatlash, AQSH O'zbekistonning iqtisodiy yetakchi sifatidagi roli tobora ortib borayotganini tan olishi hamda JSTga a'zo bo'lishda AQSH ko'maging ahamiyatini ko'rsatib beradi.

Vashingtonda imzolangan kelishuvlarning amalga oshirilishi savdo, sarmoyaviy va iqtisodiy faoliyat sohasida O'zbekiston-AQSH hamkorligini yaxshilash uchun yangi imkoniyatlarni rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratadi. Innovatsiyalar va yuqori texnologiyalar sohasida salmoqli afzalliklarga ega bo'lgan AQSH O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish, mamlakatning kadrlar salohiyatini yuksaltirish va ilmiy-texnik salohiyatini yuksaltirishda muhim rol o'ynashi mumkin. Xuddi shunday, tashrif chog'ida imzolangan tijorat shartnomalari va kelishuvlari ham boshqa mamlakatlar ishbilarmon doiralariga O'zbekiston bozorining uzoq muddatli barqarorligi haqida aniq signal beradi. AQSHning asosiy korporatsiyasining ishtiroki boshqa mamlakatlardagi tadbirkorlik subyektlarining O'zbekistonning o'sib borayotgan iqtisodiyotiga qiziqishini yanada oshirmoqda.

Tashrifning yana bir muhim samarasi O'zbekistonning izchil va konstruktiv tashqi siyosat yurituvchi davlat sifatida xalqaro obro'-e'tibori ortib borayotgani e'tirof etildi. O'zbekiston suverenitet va hududiy yaxlitlikni hurmat qilishga qaratilgan Tashqi siyosat konsepsiyasiga asoslangan tashqi siyosatining pragmatizmi va natijaga yo'naltirilganligi bilan doimo alohida ajralib turadi. Shu asosda O'zbekiston butun dunyo bo'ylab, yetakchi xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar bilan o'zaro hurmatga asoslangan munosabatlarni samarali yo'lga qo'ymoqda. Ayni paytda Toshkent barcha yirik davlatlar bilan aloqalarni rivojlantirib, xorijiy davlatlar manfaatlari o'rtasida muvozanatni saqlashga, Markaziy Osiyoda konstruktiv hamkorlik platformasini saqlab qolishga intilmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, AQSH xalqaro xavfsizlikdagi hal qiluvchi rolini hisobga olgan holda O'zbekiston uchun hal qiluvchi strategik hamkor hisoblanadi. AQSH-O'zbekiston hamkorligining asosiy yo'nalishlari ikki o'rtada imzolangan Strategik sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi deklaratsiyada o'z ifodasini topdi va 2018-yildagi tashrif chog'ida yanada faollashdi.

Muvaffaqiyatli O'zbekiston-Amerika hamkorligi Markaziy va Janubiy Osiyodagi vaziyatni barqarorlashtirishda muhim rol o'ynaydi.

Tarixan rivojlanib kelgan hamkorlik AQSHga amalga oshirgan tashrifida imzolangan “O'zbekiston va Amerika Qo'shma Shtatlari: strategik sheriklik

yo'lida yangi davrning boshlanishi" deb nomlangan Qo'shma bayonotda yanada mustahkamlanib qo'yildi. Tahlillar va kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning AQSHga amalga oshirgan tashrifi davomida yerishilgan kelishuvlar, imzolangan hujjatlar asosida ikki tomonlama aloqalar rivojlanib bormoqda. Xususan, tashrif davomida investitsiyalar, Markaziy Osiyo mintaqasida investitsiyalarni jalb qilish va ilg'or texnologiyalar borasida va mintaqaviy muammolarni hal yetishga qaratilgan g'oyalar ilgari surildi. Binobarin, mintaqaviy xavfsizlik, bu geosiyosiy makondagi mamlakatlar taraqqiyoti, o'sish va iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlarini ta'minlashga intilayotgan, bu borada amaliy tashabbuslar bilan o'zini ko'rsatayotgan O'zbekiston Respublikasi manfaatlari uchun Amerika Qo'shma Shtatlari bilan strategik sheriklik g'oyat muhimdir. O'zbekiston Prezidentining AQSHga tashrifi davomida qishloq xo'jaligi, kimyo, moliya, sog'liqni saqlash, raqamli texnologiyalar bo'yicha imzolangan hujjatlar ikki va ko'p tomonlama hamkorlikning istiqbolda rivojlanish tendensiyasining qanchalik jozibador bo'lishidan darak berib turibdi. Masalan, agrosanoat sohasida dunyoning yetakchi davlatlaridan biri bo'lgan AQSH qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanish darajasi, jahon miqyosidagi qishloq xo'jaligi tovarlarining, to'rtinchi qismini tashkil etadigan mahsulotlari hajmi va xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun iqtisodiy sheriklikning muhim yo'nalishi qishloq xo'jaligi tarmog'i hisoblanadi. Shu sababli, davlat rahbarining tashrifi davomida “Silverleaf Capital” kompaniyasi bilan Jizzax viloyatida qo'shma agroklastar tashkil etish to'g'risida bitim imzolandi. Klasterning asosiy faoliyat yo'nalishi paxta yetishtirish va uni chuqur qayta ishlash, undan tayyor mahsulot ishlab chiqarishdan iborat. Ikki taraflama investitsiyalar sohasidagi hamkorlikni rivojlantirishda O'zbekiston

Respublikasi Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi va AQSH xususiy xorijiy investitsiyalar korporatsiyasi (OPIC) o'rtasida imzolangan O'zaro anglashuv memorandumini bugungi kundagi hamkorlik holatida muhim rol o'ynab kelmoqda. Ushbu hujjat O'zbekiston Respublikasi hududida yirik investitsion loyihalarni moliyalashtirish uchun ko'maklashishga qaratilgan. Qo'shma investitsion loyihalarni qo'llab - quvvatlash maqsadida O'zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki va AQSHning eksport-import banki o'rtasida 100 million dollarlik Moliyalashtirish haqidagi memorandum imzolandi. Bu hujjat ham o'z navbatida davlatlar o'rtasidagi bank-moliya sohasidagi hamkorlikni sifat jihatidan yangi pog'onaga olib chiqishiga umid bag'ishlaydi.⁴²

AQSH va O'zbekiston o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar rivojida AQSH Xalqaro taraqqiyot agentligi (USAID) ning faoliyati ham alohida ahamiyatga egadir. 2020-yilda agentligining O'zbekistondagi ikki tomonlama vakolatxonasi ishga tushirildi. Mamlakatda to'laqonli missiya tashkil etilishi USAIDga O'zbekiston hukumatining keng ko'lamli iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy islohotlarini yanada qo'llab-quvvatlash bilan birga xususiy biznes, nodavlat tashkilotlar va mustaqil ommaviy axborot vositalari faoliyatini kuchaytirishiga

hissa qo'shdi. USAID mamlakatda iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, xususiy sektorni rivojlantirish, qishloq xo'jaligi, ta'lim, sog'liqni saqlash, suv resurslarini boshqarish, qonun ustuvorligini takomillashtirish, migratsiya va odam savdosi bilan bog'liq masalalar bo'yicha faoliyatini davom ettiradi. Yangi missiya ushbu dasturlarni samarali yo'naltirib, mahalliy hamkorlar ko'lamini yanada kengaytirish imkonini beradi.

Hozirgi davrda O'zbekiston Respublikasi siyosatni shakllantirishda "soft power" ya'ni "yumshoq kuch"ning o'rni ortib bormoqda.

Ayniqsa, 2017-yildan buyon O'zbekiston Respublikasi yuritayotgan tashqi siyosatda ham xorijlik va mahalliy ekspertlarning fikricha, "yumshoq kuch"dan unumli foydalanilmoqda. Yangilanayotgan O'zbekistonda yuqorida qayd

⁴²<https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbekiston-aqsh-mamlakatlari-o-rtasidagi-savdo-iqtisodiy-alloqalar-yangi-bosqichda>

etilganidek, yumshoq kuch elementlari sirasiga kiruvchi madaniyat kunlari, festivallarni o'tkazish, do'stlik jamiyatlarini tuzish va sayyohlarni keng jalb etish kabi xayrli tadbirlardan unumli foydalanilmoqda.

5.4. Iqtisodiy va investitsion hamkorlik

Bugungi kunda O'zbekiston va Amerika Qo'shma Shtatlari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar ikki tomonlama hamkorlikning eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mustaqillikdan so'ng bu aloqalar bosqichma-bosqich rivojlanib, hozirgi kunda strategik ahamiyat kasb etmoqda.

AQSH O'zbekiston uchun:

- yirik investitsiya manbai
- zamonaviy texnologiyalar yetkazib beruvchi
- global bozorga chiqish imkoniyatini beruvchi hamkor hisoblanadi.

Ikki davlat o'rtasidagi savdo hajmi yildan-yilga oshib bormoqda. Asosiy eksport-import yo'nalishlari quyidagicha:

O'zbekiston eksporti:

- qishloq xo'jaligi mahsulotlari
- to'qimachilik mahsulotlari
- mineral resurslar

AQSH eksporti:

- sanoat uskunalari
- aviatsiya texnikasi
- farmatsevtika mahsulotlari
- texnologik mahsulotlar

Savdo aloqalarining rivojlanishi O'zbekiston iqtisodiyotining diversifikatsiyasiga xizmat qilmoqda.

So'nggi yillarda AQSH investitsiyalari O'zbekistonda sezilarli darajada oshdi. Bunga sabab:

- iqtisodiy islohotlar
- investitsion muhitning yaxshilanishi

- qonunchilikning liberallasuvi

AQSH investorlarini jalb qilayotgan asosiy sohalar:

- energetika
- neft-gaz
- kimyo sanoati
- qishloq xo‘jaligi
- IT sektori

Bu investitsiyalar yangi ish o‘rinlari yaratish va iqtisodiy o‘sishga xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston bozorida AQSHning bir qator yirik kompaniyalari faoliyat yuritmoqda:

- General Electric

→ energetika va infratuzilma loyihalari

- Boeing

→ Uzbekistan Airways bilan hamkorlik

- Coca-Cola

→ ichimlik ishlab chiqarish va distribyutsiya

- John Deere

→ qishloq xo‘jaligi texnikasi

Ushbu kompaniyalar:

- texnologiyalar olib kiradi
- mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantiradi
- eksport salohiyatini oshiradi

Energetika O‘zbekiston–AQSH iqtisodiy hamkorligining eng muhim yo‘nalishlaridan biridir. O‘zbekiston:

- gaz va neft resurslariga boy
- energetika tizimini modernizatsiya qilmoqda

AQSH kompaniyalari bu jarayonda:

- yangi texnologiyalar

- energiya samaradorligini oshirish
- elektr stansiyalarini modernizatsiya qilish

bo'yicha faol ishtirok etmoqda.

Shuningdek:

- quyosh energiyasi
- shamol energiyasi

sohalarida hamkorlik rivojlanmoqda.

O'zbekiston – AQSH strategik sheriklik munosabatlari, eng avvalo, savdo-iqtisodiyot va investitsiya sohalarida barqaror sur'atda rivojlanib borayotgani ta'kidlandi.

O'zaro savdoni ko'paytirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishdagi muvaffaqiyatlar mamnuniyat bilan qayd etildi. O'tgan yili tovar ayirboshlash hajmi 1 milliard dollardan oshdi.⁴³

O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev Vashingtonga amaliy tashrifi doirasida AQSH savdo vakili Jeymison Grir bilan ishbilarmonlik uchrashuvi o'tkazdi.

Unda qo'shma loyihalar doirasida ikki tomonlama hujjatlarni imzolash marosimining amaliy natijalari muhokama qilindi. O'zbekiston - AQSH strategik sheriklik munosabatlari, eng avvalo, savdo-iqtisodiyot va investitsiya sohalarida barqaror sur'atda rivojlanib borayotgani ta'kidlandi. O'zaro savdoni ko'paytirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishdagi muvaffaqiyatlar qayd etildi. O'tgan yili tovar ayirboshlash hajmi 1 milliard dollardan oshdi.

O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lish jarayonini yakuniga yetkazishga oid masalalarda amaliy hamkorlikni kuchaytirish va AQSH tomonidan ushbu jarayonlarni yanada qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratildi.

Mahsulotlarni barqaror yetkazib berish, texnik tartibga solish va raqamli savdoga oid mintaqaviy yondashuvlarni ishlab chiqish maqsadida Markaziy Osiyo

⁴³https://uza.uz/oz/posts/ozbekiston-prezidenti-aqsh-bilan-savdo-iqtisodiy-va-investitsiyaviy-hamkorlikni-kengaytirish-muhimligini-takidladi_821169

mamlakatlari va AQSH o'rtasidagi Savdo va investitsiyalar bo'yicha hadli bitim (TIFA) doirasida hamkorlikni faollashtirish taklifi bildirildi.

Uchrashuv yakunida O'zbekiston prezidenti AQSH savdo vakili Jeymison Grirni 2026-yilning iyun oyida bo'lib o'tadigan Toshkent xalqaro investitsiya forumida ishtirok etishga taklif qildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Vashingtonga tashrifning ishbilarmonlik tadbirlari davomida AQSH savdo vaziri bilan uchrashdi, AQSH Eksimbanki prezidenti hamda Xalqaro moliyaviy taraqqiyot korporatsiyasi bosh ijrochi direktori bilan hamkorlik masalasini muhokama qildi. Ikki davlat o'rtasida investitsiya platformasini tashkil etish to'g'risidagi bitim almashildi.

Davlat rahbari ushbu mamlakatga tashrif davomida Tinchlik kengashining dastlabki yig'ilishida ham ishtirok etadi. Kengashning birinchi sammiti AQSH Tinchlik institutida bo'lib o'tadi hamda G'azo sektorini tiklash, unga gumanitar yordam ko'rsatish, ushbu mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta'minlash masalalariga bag'ishlanadi.

Mamlakatimizning JSTga a'zo bo'lish jarayonini yakuniga yetkazishga oid masalalarda amaliy hamkorlikni kuchaytirish va AQSH tomonidan ushbu jarayonlarni yanada qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratildi.⁴⁴

Mahsulotlarni barqaror yetkazib berish, texnik tartibga solish va raqamli savdoga oid mintaqaviy yondashuvlarni ishlab chiqish maqsadida Markaziy Osiyo mamlakatlari va AQSH o'rtasidagi Savdo va investitsiyalar bo'yicha hadli bitim (TIFA) doirasida hamkorlikni faollashtirish taklifi bildirildi.

O'zbekiston va AQSh o'rtasidagi munosabatlar mustaqillikdan so'ng bosqichma-bosqich rivojlanib, bugungi kunda o'zaro manfaatlarga asoslangan strategik hamkorlik darajasiga yetdi. Ikki davlat o'rtasidagi aloqalar siyosiy, iqtisodiy, harbiy va madaniy-gumanitar sohalarda izchil kengayib bormoqda. Ayniqsa, so'nggi yillarda olib borilayotgan ochiq va pragmatik tashqi siyosat natijasida hamkorlik yangi bosqichga ko'tarildi.

⁴⁴ <https://daryo.uz/2026/02/19/ozbekiston-aqsh-bilan-savdo-iqtisodiy-va-investitsiyaviy-hamkorlikni-faollashtiradi/>

Shu bilan birga, O‘zbekiston va AQSh o‘rtasidagi munosabatlarda xavfsizlik, terrorizmga qarshi kurash, mintaqaviy barqarorlikni ta’minlash kabi masalalar muhim o‘rin tutadi. Iqtisodiy yo‘nalishda esa investitsiyalarni jalb qilish, savdo hajmini oshirish va texnologik hamkorlikni rivojlantirish istiqbollari keng. Ta’lim va madaniyat sohasidagi aloqalar esa xalqlar o‘rtasidagi o‘zaro tushunishni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Kelgusida ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlar yanada chuqurlashishi kutilmoqda. Bunda O‘zbekistonning islohotlarga yo‘naltirilgan siyosati, AQShning mintaqaga bo‘lgan strategik qiziqishi muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois, o‘zaro ishonch va manfaatlarga asoslangan hamkorlikni davom ettirish ikki tomon uchun ham foydali bo‘lib qoladi.

Aviatsiya sohasidagi hamkorlik - jumladan, O‘zbekiston tomonidan zamonaviy yo‘lovchi samolyotlarini xarid qilinishi - ikki davlat o‘rtasidagi amaliy hamkorlikning muhim ko‘rinishidir. Bu jarayon mamlakatning transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, xalqaro aloqalarni kengaytirish va iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirishga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, bunday yirik texnologik xaridlar O‘zbekistonning xalqaro hamkorlarga bo‘lgan ishonchini oshiradi hamda AQSh bilan iqtisodiy aloqalarni mustahkamlaydi. Aviatsiya texnologiyalari, servis xizmatlari va mutaxassislar tayyorlash sohasidagi hamkorlik esa uzoq muddatli rivojlanish uchun muhim asos yaratadi.

Nazorat savollari:

1. O‘zbekiston va AQSH o‘rtasidagi diplomatik munosabatlar qachon va qanday boshlangan?
2. Mustaqillikdan so‘ng ikki davlat o‘rtasidagi siyosiy aloqalar qanday rivojlandi?
3. O‘zbekiston–AQSH strategik sherikligi nima va uning asosiy yo‘nalishlari qanday?

4. 2001-yil 11-sentabr voqealari O‘zbekiston–AQSH munosabatlariga qanday ta’sir ko‘rsatdi?
5. AQSH O‘zbekiston iqtisodiyotida qaysi sohalarda faoliyat yuritmoqda?
6. O‘zbekiston–AQSH hamkorligidagi mintaqaviy xavfsizlik masalalari nimalardan iborat?
7. Ta’lim, madaniyat va gumanitar sohada ikki tomonlama hamkorlik qanday amalga oshiriladi?
8. Kelajakda O‘zbekiston–AQSH munosabatlarining rivojlanish istiqbollari qanday ko‘rinishda bo‘lishi mumkin?
9. AQSH investitsiyalari O‘zbekiston iqtisodiyotiga qanday ijobiy ta’sir ko‘rsatadi?
10. Diplomatik aloqalarda yuzaga keladigan muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari qanday?
11. O‘zbekistonning geosiyosiy joylashuvi AQSH bilan hamkorlikni qanday ta’sir qiladi?
12. Xavfsizlik va terrorizmga qarshi kurash sohasida ikki davlat o‘rtasidagi hamkorlik mexanizmlari qanday ishlaydi?
13. Iqtisodiy hamkorlikda transport, logistika va energetika loyihalarining o‘rni qanday?

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Embassy of Uzbekistan in the United States – Political Relations – O‘zbekiston elchixonasi rasmiy sayti. <https://uzbekistan.org/political-relations/>
2. Strategic Partnership Between Uzbekistan and the United States: Achievements and Prospects – O‘zbekiston Milliy axborot agentligi (O‘zA). https://uza.uz/en/posts/strategic-partnership-between-uzbekistan-and-the-united-states-achievements-and-prospects_822407
3. Bugun – O‘zbekiston va AQSH diplomatik munosabat o‘rnatgan kun – O‘zA. <https://uza.uz/posts/569312>

4. O‘zbekiston–AQSh: munosabatlarning yangi sahifasi – Kun.uz, siyosiy va diplomatik munosabatlar tarixi. <https://kun.uz/uz/72104763>
5. Uzbekistan and the United States: Current Issues and Perspectives – Diplomatic Insight Journal, 2020.
6. Central Asia and the United States: Strategic Partnership – Routledge, London, 2018.
7. Markaziy Osiyo va AQSh tashqi siyosati – Toshkent Davlat Sharqshunoslik Instituti, 2019.
8. Foreign Policy of Uzbekistan in the 21st Century – International Journal of Central Asian Studies, 2021.
9. Economic Cooperation between Uzbekistan and the United States – World Bank Reports, 2017–2022.
<https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan>

Test topshiriqlari

1.O‘zbekiston va AQSH diplomatik munosabatlari rasmiy ravishda qachon o‘rnatilgan?

- A) 1990-yil
- B) 1992-yil**
- C) 1995-yil
- D) 2001-yil

2.AQSHning O‘zbekistonga strategik sherik sifatida aloqalari qaysi voqea ortidan kuchaydi?

- A) Mustaqillik e‘lon qilinishi
- B) 2001-yil 11-sentabr voqealari**
- C) 1998-yil iqtisodiy islohotlar
- D) 2016-yil yangi tashabbuslar

3.Quyidagi qaysi yo‘nalish O‘zbekiston va AQSH hamkorligining asosiy strategik jihatlaridan biri hisoblanadi?

- A) Energetika va xavfsizlik**

B) Faol sport musobaqalari

C) Turizm reklamalari

D) Ichki siyosiy saylovlar

4.O‘zbekiston–AQSH iqtisodiy hamkorligi doirasida qaysi soha eng ko‘p investitsiya jalb qilgan soha hisoblanadi?

A) Qishloq xo‘jaligi

B) Energetika va neft-gaz

C) Sport va turizm

D) Kino sanoati

5.Quyidagi davlatlardan qaysi biri O‘zbekiston bilan AQSH orqali xavfsizlik hamkorligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatgan?

A) Rossiya

B) Afg‘oniston

C) Xitoy

D) Janubiy Koreya

6.2016-yildan boshlab O‘zbekiston–AQSH munosabatlarida yangi bosqich nima bilan ajralib turadi?

A) Siyosiy tashriflar va ochiqlik siyosati

B) Aloqa to‘xtatilishi

C) Strategik sheriklik bekor qilinishi

D) Faol sport hamkorligi

7.Quyidagi qaysi sohalar O‘zbekiston va AQSH gumanitar va ta’lim hamkorligiga kiradi?

A) Universitetlar va grant dasturlari

B) Energetika loyihalari

C) Neft qazib olish korxonalari

D) Transport infratuzilmasi

8.O‘zbekistonning geosiyosiy joylashuvi AQSH bilan hamkorlikni qanday ta’sir qiladi?

A) Mintaqaviy barqarorlik va xavfsizlik masalalarini muhim qiladi

B) Hamkorlikni umuman ta'qiqlaydi

C) Iqtisodiy manfaatlarga hech ta'sir qilmaydi

D) Diplomatik tashriflarni bekor qiladi

9. Kelajak istiqbollarida O'zbekiston–AQSH munosabatlarini rivojlantirishda qaysi yo'nalishlar eng muhim hisoblanadi?

A) Iqtisodiy, siyosiy, xavfsizlik va texnologik rivojlanish

B) Musiqiy almashinuv

C) Sport musobaqalari

D) Ichki saylovlar

10. Quyidagi qaysi ibora O'zbekiston–AQSH munosabatlarining strategik tabiatini eng to'g'ri ifodalaydi?

A) Ikki tomonlama sheriklik va mintaqaviy barqarorlik

B) Yagona sport hamkorligi

C) Ijtimoiy tarmoqlar orqali reklama

D) Turizm va sayohat faqat

6-BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TASHQI SIYOSATIDA GERMANIYA, FRANSIYA VA BUYUK BRITANIYA

Reja

- 6.1. O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy tamoyillari
- 6.2. O‘zbekiston va Germaniya o‘rtasidagi siyosiy-iqtisodiy hamkorlik
- 6.3. O‘zbekiston va Fransiya munosabatlarining rivojlanish bosqichlari
- 6.4. O‘zbekiston va Buyuk Britaniya o‘rtasidagi hamkorlik istiqbollari

Tayanch so‘z va iboralar: Tashqi siyosat, diplomatik munosabatlar, xalqaro hamkorlik, strategik sheriklik, iqtisodiy diplomatiya, investitsiya siyosati, savdo-iqtisodiy aloqalar, siyosiy dialog, xalqaro tashkilotlar, global hamkorlik, integratsiya jarayonlari, texnologik hamkorlik, madaniy diplomatiya.

6.1. O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy tamoyillari

Mustaqillikka erishganidan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlar tizimida mustaqil davlat sifatida faoliyat yurita boshladi. Mamlakat tashqi siyosatining asosiy maqsadi milliy manfaatlarni himoya qilish, davlat suverenitetini mustahkamlash hamda xalqaro hamkorlikni rivojlantirishdan iboratdir. Zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimi murakkab siyosiy va iqtisodiy jarayonlar bilan tavsiflanadi. Globalizatsiya sharoitida davlatlar o‘rtasidagi hamkorlik tobora kengayib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasi o‘z tashqi siyosatini muvozanatli va pragmatik tamoyillar asosida olib boradi. Bu siyosat turli mintaqalar bilan hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, Yevropa davlatlari bilan aloqalar muhim o‘rin tutadi. Xususan, Germaniya, Fransiya va Buyuk Britaniya kabi rivojlangan davlatlar bilan hamkorlik O‘zbekiston iqtisodiyoti va siyosiy nufuzining oshishida katta rol o‘ynaydi. Ushbu davlatlar ilm-fan, texnologiya, iqtisodiyot va madaniyat sohalarida dunyoning yetakchi mamlakatlari hisoblanadi. Shuning uchun ular bilan hamkorlik O‘zbekistonning modernizatsiya jarayonlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Mazkur ishning asosiy maqsadi O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosatida Germaniya, Fransiya va Buyuk Britaniya bilan hamkorlikning ahamiyatini tahlil qilishdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so‘ng xalqaro munosabatlar tizimida mustaqil tashqi siyosat yurituvchi davlat sifatida shakllandi. Mustaqillik mamlakat uchun yangi siyosiy va iqtisodiy imkoniyatlarni yaratdi hamda xalqaro hamjamiyat bilan teng huquqli hamkorlikni rivojlantirishga zamin yaratdi. Shu davrdan boshlab O‘zbekiston o‘zining milliy manfaatlariga asoslangan tashqi siyosiy strategiyasini ishlab chiqdi. Ushbu strategiya mamlakat suverenitetini mustahkamlash, hududiy yaxlitlikni ta‘minlash hamda xalqaro maydonda barqaror hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan. O‘zbekiston tashqi siyosati tinchlikparvarlik tamoyillariga asoslanadi. Davlat boshqa mamlakatlar bilan o‘zaro hurmat, tenglik va manfaatdorlik asosida hamkorlik qilishga intiladi. Tashqi siyosatning asosiy vazifalaridan biri mamlakat xavfsizligini ta‘minlash hamda iqtisodiy rivojlanish uchun qulay xalqaro sharoit yaratishdir. Shu sababli O‘zbekiston xalqaro munosabatlarda muvozanatli siyosat yuritishga alohida e‘tibor qaratadi.

Mamlakat tashqi siyosatida milliy manfaatlar ustuvor ahamiyatga ega. Milliy manfaatlar davlatning siyosiy mustaqilligi, iqtisodiy rivojlanishi, xavfsizligi hamda xalq farovonligini ta‘minlash bilan bog‘liqdir. Shu sababli O‘zbekiston tashqi siyosatida muvozanatli va pragmatik yondashuvga amal qiladi. O‘zbekiston tashqi siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish hisoblanadi. Markaziy Osiyo davlatlari bilan yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini rivojlantirish mamlakat tashqi siyosatining ustuvor vazifalaridan biridir. Mintaqaviy barqarorlik va xavfsizlikni ta‘minlash O‘zbekiston tashqi siyosatining muhim maqsadlaridan hisoblanadi.

Shuningdek, zamonaviy davrda tashqi siyosatda ochiqlik va pragmatizm tamoyillari muhim ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston xalqaro hamkorlikni kengaytirish, yangi iqtisodiy sheriklar bilan aloqalarni rivojlantirish hamda global

iqtisodiy jarayonlarda faol ishtirok etishga intilmoqda. Shu tariqa, O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosati xalqaro huquq me‘yorlari va milliy manfaatlar asosida olib boriladi. Mazkur siyosat mamlakatning xalqaro maydondagi nufuzini oshirish, iqtisodiy rivojlanishni ta‘minlash hamda barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

O‘zbekiston tashqi siyosatining huquqiy asoslari mamlakat Konstitutsiyasi va xalqaro huquqning umum e‘tirof etilgan tamoyillariga asoslanadi. Davlatlar suverenitetini hurmat qilish, hududiy yaxlitlikni tan olish hamda xalqaro nizolarni tinch yo‘l bilan hal qilish ushbu siyosatning muhim tamoyillaridan hisoblanadi. Shu bilan birga, O‘zbekiston boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik prinsipiga ham qat’iy amal qiladi.

Mamlakat tashqi siyosatida xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik muhim o‘rin tutadi. O‘zbekiston turli xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish orqali global siyosiy va iqtisodiy jarayonlarda faol ishtirok etmoqda. Bu hamkorlik mamlakat xavfsizligini ta‘minlash, iqtisodiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash hamda xalqaro muammolarni hal qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston tashqi siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri iqtisodiy diplomatiya hisoblanadi. Iqtisodiy diplomatiya orqali mamlakat xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, savdo aloqalarini kengaytirish hamda yangi texnologiyalarni o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Bu esa mamlakat iqtisodiyotining modernizatsiya qilinishiga va sanoatning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Madaniy diplomatiya ham tashqi siyosatning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Madaniy aloqalar xalqlar o‘rtasidagi o‘zaro tushunishni kuchaytiradi va davlatlar o‘rtasidagi do‘stona munosabatlarni mustahkamlaydi. O‘zbekiston boy tarixiy va madaniy merosga ega davlat sifatida ko‘plab mamlakatlar bilan madaniy hamkorlikni rivojlantirmoqda.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston tashqi siyosatida ochiqlik va pragmatizm tamoyillari yanada kuchaymoqda. Mamlakat turli mintaqalar bilan hamkorlikni

kengaytirishga intilmoqda. Ayniqsa Yevropa davlatlari bilan aloqalar iqtisodiy, texnologik va madaniy rivojlanish nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega.

Shunday qilib, O'zbekiston tashqi siyosati xalqaro huquq me'yorlari va milliy manfaatlar asosida amalga oshiriladi. Ushbu siyosat mamlakatning xalqaro maydondagi nufuzini oshirishga hamda iqtisodiy rivojlanishga xizmat qilmoqda.

6.2. O'zbekiston va Germaniya o'rtasidagi siyosiy-iqtisodiy hamkorlik.

O'zbekiston Respublikasi va Germaniya Federativ Respublikasi o'rtasidagi diplomatik munosabatlar 1992-yilda o'rnatilgan. Shu davrdan boshlab ikki davlat o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalar izchil rivojlanib bormoqda. Germaniya Yevropaning yetakchi iqtisodiy davlatlaridan biri hisoblanadi va zamonaviy texnologiyalar hamda sanoat sohasida katta tajribaga ega. Shu sababli Germaniya O'zbekistonning Yevropadagi muhim hamkorlaridan biri sifatida qaraladi. Ikki davlat o'rtasidagi siyosiy muloqot do'stona va konstruktiv xarakterga ega. Oliy darajadagi rasmiy tashriflar va muzokaralar hamkorlikni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Siyosiy dialog davlatlar o'rtasidagi ishonchni mustahkamlashga hamda o'zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirishga xizmat qiladi.

Savdo-iqtisodiy hamkorlik Germaniya va O'zbekiston o'rtasidagi aloqalarning eng muhim yo'nalishlaridan biridir. Germaniya kompaniyalari O'zbekistonda mashinasozlik, energetika, kimyo sanoati va transport infratuzilmasi sohalarida faoliyat yuritmoqda. Bu hamkorlik mamlakat sanoatining rivojlanishiga va yangi texnologiyalarning joriy etilishiga yordam bermoqda. Germaniya O'zbekistonga investitsiya kiritayotgan yirik davlatlardan biri hisoblanadi. Nemis kompaniyalari ishtirokida amalga oshirilayotgan loyihalar sanoat ishlab chiqarishini modernizatsiya qilishga xizmat qilmoqda. Bu esa mamlakat iqtisodiy o'sishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Ta'lim sohasidagi hamkorlik ham ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarning muhim yo'nalishlaridan biridir. Germaniya tajribasi asosida O'zbekistonda professional ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha qator loyihalar amalga oshirilmoqda.

Ayniqsa dual ta'lim tizimi yosh mutaxassislarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega.

Ekologiya va energetika sohalarida ham Germaniya bilan hamkorlik rivojlanib bormoqda. Germaniya yashil texnologiyalar va qayta tiklanuvchi energiya manbalari sohasida katta tajribaga ega. Ushbu tajriba O'zbekistonda ekologik barqarorlikni ta'minlash va energiya samaradorligini oshirishga yordam bermoqda. Madaniy hamkorlik ham ikki davlat o'rtasidagi aloqalarning muhim qismidir. Germaniya madaniyat markazlari va ta'lim dasturlari O'zbekistonda faoliyat yuritmoqda. Bu esa xalqlar o'rtasidagi madaniy aloqalarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Umuman olganda, Germaniya O'zbekistonning Yevropadagi eng muhim strategik hamkorlaridan biri hisoblanadi. Kelajakda ham ikki davlat o'rtasidagi hamkorlik sanoat, energetika, ta'lim va texnologiyalar sohalarida yanada rivojlanishi kutilmoqda. O'zbekiston va Germaniya o'rtasidagi hamkorlik bugungi kunda faqat siyosiy va iqtisodiy aloqalar bilan cheklanib qolmay, balki innovatsiya, ilm-fan, texnologiya va ekologiya sohalarini ham qamrab olmoqda. Germaniya Yevropa Ittifoqining eng rivojlangan davlatlaridan biri sifatida zamonaviy sanoat, ilmiy tadqiqotlar va yuqori texnologiyalar sohasida katta tajribaga ega. Shu sababli O'zbekiston Germaniya bilan hamkorlik orqali o'z iqtisodiyotini modernizatsiya qilish hamda yangi texnologiyalarni joriy etishga alohida e'tibor qaratmoqda. So'nggi yillarda ikki davlat o'rtasidagi strategik hamkorlik yanada faollashdi. Davlat rahbarlari o'rtasidagi uchrashuvlar, iqtisodiy forumlar va rasmiy tashriflar orqali yangi hamkorlik loyihalari ishlab chiqilmoqda. Bu jarayon ikki davlat o'rtasidagi ishonchli siyosiy dialogni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. O'zbekiston va Germaniya o'rtasidagi hamkorlikda sanoat kooperatsiyasi muhim o'rin tutadi. Germaniya mashinasozlik, avtomobilsozlik va sanoat texnologiyalari sohasida yetakchi davlat hisoblanadi. Nemis kompaniyalari bilan hamkorlik O'zbekistonda zamonaviy ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etishga va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yordam bermoqda.

- B) Dengiz portlariga chiqish uchun muqobil yo‘lak yaratish
- C) Ichki savdoni to‘xtatish
- D) Elektr energiyasi eksport qilish

6. O‘zbekiston va Qirg‘iziston hamkorlikda qurayotgan yirik gidroenergetika inshooti qaysi?

- A) Rog‘un GES
- B) Qambarota-1 GES
- C) Tuyamo‘yun GES
- D) Chorvoq GES

7. O‘zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan savdo aylanmasi oxirgi yillarda qaysi ko‘rsatkichdan oshdi?

- A) 1 milliard dollar
- B) 3 milliard dollar
- C) 7 milliard dollar
- D) 100 million dollar

8. Sanoat kooperatsiyasi deganda nima tushuniladi?

- A) Faqat tayyor mahsulot sotish
- B) Davlatlararo birgalikda ishlab chiqarish zanjirini yaratish
- C) Chegaralarni yopish
- D) Faqat xomashyo yetkazib berish

9. “Trans-Afg‘on” temir yo‘li O‘zbekistonni qaysi okean portlari bilan bog‘laydi?

- A) Atlantika okeani
- B) Hind okeani
- C) Tinch okeani
- D) Shimoliy muz okeani

10. Markaziy Osiyodagi eng asosiy ekologik muammo qaysi?

- A) O‘rmonlarning kamayishi
- B) Orol dengizi qurishi va suv tanqisligi
- C) Atmosferaning haddan tashqari isishi
- D) Muzliklarning haddan tashqari ko‘payishi

11. Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida madaniy yaqinlikni ifodalovchi tushuncha?

- A) Til va dinning turli xilligi
- B) Mushtarak tarix va qadriyatlar
- C) Alohida ajratilgan madaniyatlar
- D) Faqat zamonaviy san’at

12. “Silk Road Visa” loyihasining maqsadi nima?

- A) Faqat ipak sotish
- B) Mintaqaviy yagona turistik viza tizimini yaratish
- C) Talabalar almashinuvini to'xtatish
- D) Ishchi kuchi migratsiyasini nazorat qilish

13. O‘zbekiston tashabbusi bilan BMT tomonidan qabul qilingan muhim rezolyutsiya qaysi?

- A) Kosmosni o‘rganish haqida
- B) Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash haqida
- C) Okeanlarni himoya qilish haqida
- D) Sun’iy intellektni taqiqlash haqida

14. Qozog‘iston va Ozarbayjonda O‘zbekistonning qaysi sanoat tarmog‘i korxonalari yig‘ilmoqda?

- A) Kimyo sanoati
- B) Avtomobilsozlik
- C) Oziq-ovqat sanoati
- D) Farmatsevtika

15. “Yashil makon” loyihasi mintaqaviy miqyosda qanday nomlanadi?

- A) Yashil taraqqiyot

B) Yashil Markaziy Osiyo

C) Moviy osmon

D) Toza mintaq

8-BOB. AFG‘ONISTON – XALQARO MUNOSABATLAR TIZIMIDA

Reja:

8.1. Afg‘onistonning geosiyosiy o‘rni va tarixiy rivojlanish xususiyatlari

8.2. Afg‘onistonning xalqaro munosabatlar tizimidagi roli va tashqi siyosati

8.3. Afg‘onistondagi zamonaviy siyosiy jarayonlar va rivojlanish istiqbollari

Tayanch so‘z va iboralar: Afg‘oniston, geosiyosiy hudud, strategik joylashuv, xalqaro munosabatlar tizimi, global kuchlar, mintaqaviy xavfsizlik, siyosiy beqarorlik, tashqi siyosat, diplomatik aloqalar, geosiyosiy raqobat, xavfsizlik muammolari, terrorizm, ekstremizm, davlat qurilishi, siyosiy transformatsiya, ichki nizolar, xalqaro tashkilotlar, mintaqaviy hamkorlik, iqtisodiy rivojlanish, integratsiya jarayonlari, milliy manfaatlar, geostrategik manfaatlar, barqarorlik, siyosiy tizim, transmilliy tahdidlar.

8.1 Afg‘onistonning geosiyosiy o‘rni va tarixiy rivojlanish

xususiyatlari

Afg‘oniston Markaziy va Janubiy Osiyo chorrahasida joylashgan bo‘lib, u tarixiy jihatdan turli sivilizatsiyalar, savdo yo‘llari va geosiyosiy manfaatlar kesishgan hudud sifatida shakllangan. Mamlakat shimolda Markaziy Osiyo davlatlari, g‘arbda Eron, janub va sharqda Pokiston bilan chegaradosh bo‘lib, bu holat uni mintaqaviy xavfsizlik va xalqaro siyosiy jarayonlarda muhim o‘rin egallashiga sabab bo‘ladi. Afg‘onistonning dengizga chiqish imkoniyati yo‘qligi uning iqtisodiy rivojlanishiga muayyan cheklovlar qo‘ysa-da, ayni paytda tranzit hudud sifatidagi ahamiyatini oshiradi. Afg‘oniston tarixan markazlashmagan siyosiy tuzilma bilan ajralib turadi, bu esa uning barqaror davlat sifatida shakllanishini murakkablashtirgan⁵⁵.

Geosiyosiy nazariyalar nuqtai nazaridan qaralganda, Afg‘onistonning ahamiyati ayniqsa Halford Makkinder tomonidan ilgari surilgan “Heartland” nazariyasida yaqqol ifodalanadi. Mazkur nazariyaga ko‘ra, Yevroosiyo markaziy hududlarini nazorat qilish global hukmronlik uchun muhim omil hisoblanadi.

⁵⁵ Barnett R. Rubin, *The Fragmentation of Afghanistan*, Yale University Press, New Haven, 2002, p. 45.

Afg‘oniston aynan shu hududga yaqin joylashgani sababli, u geosiyosiy raqobat markaziga aylangan. Shuningdek, Zbigniev Bjezinskiy o‘z tadqiqotlarida Afg‘onistonni Yevroosiyodagi “strategik tugun” sifatida ta’riflab, bu hudud ustidan nazorat mintaqaviy muvozanatni belgilashini ta’kidlaydi. Tolibon harakati mintaqaviy va global siyosatda muhim o‘rin egallab, geosiyosiy muvozanatga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi.⁵⁶

Tarixiy jihatdan Afg‘oniston hududi qadimiy sivilizatsiyalar chorrahasi bo‘lgan. Ahamoniylar davrida bu hudud imperiya tarkibiga kirgan bo‘lsa, keyinchalik Buyuk Aleksandr yurishlari natijasida yunon madaniyati bilan uyg‘unlashgan. Yunon-Baqtriya va Kushonlar davrida Afg‘oniston hududi savdo va madaniy almashinuv markaziga aylangan. Ayniqsa, Buyuk Ipak yo‘lining muhim tarmoqlari ushbu hududdan o‘tgan bo‘lib, bu uning iqtisodiy va madaniy rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. O‘rta asrlarda Afg‘oniston turli sulolalar, jumladan, G‘aznaviylar va Temuriylar davlati tarkibida bo‘lgan. Bu davrda hudud ilm-fan, madaniyat va savdo markazlaridan biri sifatida rivojlangan. Biroq keyingi davrlarda ichki nizolar va tashqi bosqinlar mamlakat barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan. XVIII asrda Ahmad Shoh Durraniy tomonidan asos solingan davlat zamonaviy Afg‘onistonning shakllanishida muhim rol o‘ynadi.

Afg‘onistondagi urushlar nafaqat ichki nizolar, balki yirik davlatlar manfaatlari to‘qnashuvi natijasidir⁵⁷. XIX asrga kelib, Afg‘oniston “Buyuk O‘yin” (The Great Game) doirasida Britaniya va Rossiya imperiyalari o‘rtasidagi geosiyosiy raqobat markaziga aylandi. Ushbu davrda Afg‘oniston bufer davlat sifatida shakllanib, ikki yirik imperiya o‘rtasida muvozanatni ta’minlash vositasi bo‘lib xizmat qildi. Bu jarayon mamlakatning tashqi siyosatida ehtiyotkorlik va neytrallik elementlarini shakllantirdi. XX asr davomida Afg‘oniston o‘z mustaqilligini mustahkamlashga intildi. 1979-yilda Soviet Union qo‘shinlarining kiritilishi mamlakat tarixida keskin burilish yasadi. Bu voqea xalqaro maydonda

⁵⁶ Ahmed Rashid, *Taliban: Militant Islam, Oil and Fundamentalism in Central Asia*, Yale University Press, 2010, p. 78.

⁵⁷ William Maley, *The Afghanistan Wars*, Palgrave Macmillan, London, 2009, p. 112.

keskin qarama-qarshiliklarga sabab bo‘lib, Afg‘oniston sovuq urush davridagi muhim konflikt hududiga aylandi. Tadqiqotchilar, jumladan Samuel Hantington, bu jarayonlarni global ideologik qarama-qarshiliklar kontekstida baholaydi.

Sovet qo‘shinlari chiqib ketganidan keyin mamlakat ichki fuqarolar urushi girdobiga tushib qoldi. 1990-yillarda siyosiy beqarorlik kuchayib, markazlashgan davlat boshqaruvi izdan chiqdi. 2001-yil 11-sentabr voqealaridan so‘ng AQSh boshchiligidagi xalqaro koalitsiya Afg‘onistonga harbiy aralashuvni boshladi. Bu jarayon mamlakatni global xavfsizlik siyosatining markaziga olib chiqdi.

Zamonaviy davrda Afg‘oniston geosiyosiy jihatdan bir nechta yirik kuchlar manfaatlari to‘qnashgan hudud bo‘lib qolmoqda. Xitoyning “Bir kamar – bir yo‘l” tashabbusi doirasida mintaqaga bo‘lgan qiziqishi ortib borayotgan bo‘lsa, Rossiya va Eran ham ushbu hududda o‘z strategik manfaatlarini ilgari surmoqda.

Taniqli tadqiqotchi Ahmed Rashid o‘z asarlarida Afg‘onistonni “doimiy geosiyosiy raqobat maydoni” sifatida tavsiflab, bu yerda barqarorlikka erishish murakkabligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, mamlakatdagi ichki siyosiy beqarorlik tashqi kuchlar aralashuvi bilan yanada chuqurlashadi. Mamlakatdagi siyosiy beqarorlik ijtimoiy tuzilma va qabila tizimlari bilan chambarchas bog‘liq.⁵⁸ Shu bilan birga, Afg‘onistonning tabiiy resurslari ham uning geosiyosiy ahamiyatini oshiradi. Turli xalqaro tadqiqotlarga ko‘ra, mamlakatda foydali qazilmalar, jumladan, mis, temir, litiy va boshqa strategik resurslar mavjud. Bu esa uni global iqtisodiy manfaatlar nuqtai nazaridan ham muhim hududga aylantiradi.

Xulosa qilib aytganda, Afg‘onistonning geosiyosiy o‘rni uning tarixiy rivojlanish xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, mamlakat asrlar davomida yirik davlatlar manfaatlari kesishgan hudud sifatida shakllangan. Zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida ham u strategik ahamiyatini saqlab qolgan bo‘lib, mintaqaviy va global xavfsizlik masalalarida muhim rol o‘ynashda davom etmoqda.

1.1-rasm: Afg‘oniston xaritasi

⁵⁸ Antonio Giustozzi, War, Politics and Society in Afghanistan, Georgetown University Press, 2000, p. 67.

Aree d'intervento:
• Badakhshan • Balkh • Bamyan • Chishti Sharif • Faryab • Ghazni • Helmand • Hert • Jalalabad • Kabul • Kandahar • Khost • Kunhar • Laghman • Mazar i Sharif • Nangarhar • Nimruz • Sar e Pol • Takhar



8.2.Afgʻonistonning xalqaro munosabatlar tizimidagi roli va tashqi siyosati

Afgʻoniston zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida murakkab va koʻp qatlamli geosiyosiy oʻyin maydoni sifatida namoyon boʻladi. Xalqaro hamjamiyat Afgʻonistonni global xavfsizlik tizimining muhim boʻgʻini sifatida koʻradi.⁵⁹ Uning tashqi siyosati tarixan ichki beqarorlik, geografik joylashuv va yirik davlatlar manfaatlarini taʼsiri ostida shakllangan. Shu bois, Afgʻonistonni mustaqil va barqaror tashqi siyosat yurituvchi subyekt sifatida emas, balki koʻp hollarda global va mintaqaviy kuchlar oʻrtasidagi oʻzaro taʼsir maydoni sifatida tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Afgʻoniston xalqaro munosabatlarda, avvalo, xavfsizlik omili bilan bogʻliq holda muhim ahamiyat kasb etadi. XX asr oxiri va XXI asr boshlarida mamlakat terrorizm, ekstremizm va transmilliy jinoyatchilik bilan bogʻliq global tahdidlar markaziga aylandi. Ayniqsa, 11-sentabr voqeasidan soʻng Afgʻoniston global xavfsizlik siyosatining asosiy obyektlaridan biriga aylandi. AQSh boshchiligidagi xalqaro koalitsiyaning harbiy amaliyotlari mamlakatning xalqaro tizimdagi oʻrnini keskin oʻzgartirdi va uni xalqaro siyosiy kun tartibining markaziga olib chiqdi.

⁵⁹ United Nations, The Situation in Afghanistan and Its Implications for International Peace and Security, UN Report, New York, 2021, p. 5.

Afg‘oniston tashqi siyosatining muhim xususiyatlaridan biri — bu yirik davlatlar o‘rtasidagi geosiyosiy raqobat bilan chambarchas bog‘liqligidir. AQSh, Rossiya va Xitoy kabi davlatlar Afg‘onistonda o‘z strategik manfaatlarini ilgari suradi. Xususan, AQSh uchun Afg‘oniston terrorizmga qarshi kurash va mintaqaviy xavfsizlikni ta‘minlash nuqtai nazaridan muhim bo‘lsa, Rossiya uchun u Markaziy Osiyo xavfsizligi bilan bevosita bog‘liq. Xitoy esa Afg‘onistonni iqtisodiy va infratuzilmaviy loyihalar, xususan “Bir kamar – bir yo‘l” tashabbusi doirasida muhim hudud sifatida ko‘radi.

Shuningdek, Afg‘onistonning qo‘shni davlatlar bilan munosabatlari ham uning tashqi siyosatida muhim o‘rin tutadi. Pokiston bilan munosabatlar tarixan murakkab bo‘lib, chegara masalalari va xavfsizlik muammolari bilan belgilanadi. Eron bilan esa madaniy va iqtisodiy aloqalar bilan birga siyosiy manfaatlar ham muhim rol o‘ynaydi. Markaziy Osiyo davlatlari uchun esa Afg‘oniston barqarorligi mintaqaviy xavfsizlik va iqtisodiy hamkorlik nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega.

Afg‘oniston xalqaro tashkilotlar bilan ham faol aloqalar o‘rnatgan. U BMT a‘zosi bo‘lib, mamlakatda turli tinchlikparvarlik va gumanitar missiyalar amalga oshirilgan. Bundan tashqari, ShHT kabi tuzilmalar doirasida ham Afg‘oniston bilan hamkorlik masalalari muhokama qilinadi. Bu esa mamlakatning xalqaro tizimga integratsiyalashuv jarayonida muhim omil hisoblanadi.

Ilmiy tadqiqotlarda Afg‘oniston tashqi siyosati ko‘pincha “cheklangan suverenitet” modeli asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotchi Barnet Rubin ta’kidlaganidek, Afg‘oniston siyosiy tizimi ko‘p hollarda tashqi kuchlar ta’siri ostida shakllanadi, bu esa uning mustaqil tashqi siyosat yuritish imkoniyatlarini cheklaydi. Shu bilan birga, mamlakat ichidagi etnik, diniy va siyosiy bo‘linishlar tashqi siyosatning izchil olib borilishiga to‘sqinlik qiladi. Zamonaviy bosqichda Afg‘oniston xalqaro tizimda yangi rol izlamoqda. 2021-yilda Tolibonning hokimiyatni qo‘lga kiritishi mamlakat tashqi siyosatida yangi bosqichni boshlab berdi. Bu holat xalqaro hamjamiyat tomonidan turlicha qabul qilinib, diplomatik

tan olish, iqtisodiy yordam va siyosiy hamkorlik masalalarida murakkab vaziyatni yuzaga keltirdi. Shu nuqtai nazardan, Afgʻonistonning xalqaro munosabatlar tizimidagi roli doimiy oʻzgarishda boʻlib, u global va mintaqaviy siyosatning muhim elementlaridan biri boʻlib qolmoqda. Mamlakat tashqi siyosatining samaradorligi esa, avvalo, ichki barqarorlik, siyosiy institutlarning mustahkamligi va xalqaro hamkorlik darajasiga bevosita bogʻliqdir. Xalqaro tashkilotlarning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- 1. Gumanitar yordam koʻrsatish;*
- 2. Iqtisodiy tiklanish dasturlarini amalga oshirish;*
- 3. Siyosiy barqarorlikni qoʻllab-quvvatlash;*
- 4. Taʼlim va sogʻliqni saqlash tizimlarini rivojlantirish.*

8.3. Afgʻonistondagi zamonaviy siyosiy jarayonlar va rivojlanish istiqbollari

Afgʻonistonning zamonaviy siyosiy jarayonlari mamlakat ichki va tashqi omillarining murakkab oʻzaro taʼsiri natijasida shakllanadi. Ichki siyosiy beqarorlik, etnik va diniy mojarolar, iqtisodiy zaiflik hamda transmilliy tahdidlar mamlakatni doimiy muvozanatni saqlashga majbur qiladi. Tadqiqotchi Tomas Barfield oʻz asarlarida Afgʻonistonning siyosiy beqarorligini “tarixiy ildizlari chuqur va geosiyosiy kesishmalar bilan bogʻliq” deb taʼriflaydi. Unga koʻra, ichki siyosiy nizolar mamlakatning tashqi siyosiy maydondagi pozitsiyasiga ham bevosita taʼsir qiladi, chunki ichki zaiflik tashqi aralashuvlar uchun imkoniyat yaratadi.

Zamonaviy Afgʻoniston siyosiy tizimi koʻp hollarda markazlashmagan va turli etnik guruhlar va mahalliy qudrat markazlari oʻrtasidagi kelishmovchiliklar bilan belgilanadi. Ahmed Rashid mamlakat ichidagi kuchlar muvozanati barqarorlikning asosiy omili ekanligini taʼkidlaydi. Uning fikricha, Tolibon, etnik guruhlar va mahalliy hokimiyat organlari oʻrtasidagi murakkab aloqalar Afgʻoniston siyosiy tizimini doimiy ravishda oʻzgaruvchan qiladi.

Xavfsizlik va terrorizm masalalari ham Afgʻonistonning zamonaviy siyosiy jarayonlarida markaziy oʻrin egallaydi. Davlat qurilishi jarayoni etnik va hududiy omillar tufayli murakkablashgan⁶⁰. Tolibonning hokimiyatni qoʻlga kiritishi va mintaqaviy xavfsizlikni taʼminlashdagi murakkab vaziyat, shuningdek, transmilliy terrorizm tahdidlari Afgʻonistonning global siyosiy maydondagi rolini yanada murakkablashtiradi. Antonio Giustozzi oʻz tadqiqotlarida Tolibonning mintaqaviy va xalqaro siyosatdagi ambitsiyalarini tahlil qilgan va ularni Afgʻonistonning ichki siyosiy barqarorligi bilan uzviy bogʻliq ekanligini qayd etadi.

Iqtisodiy jihatdan mamlakat zaifligi uning siyosiy barqarorligi va tashqi siyosatida mustaqillikka salbiy taʼsir koʻrsatadi. Afgʻonistonning tabiiy resurslarga boyligi va tranzit imkoniyatlari mavjud boʻlsa-da, ichki siyosiy beqarorlik va xavfsizlik muammolari investorlarni uzoq muddatli iqtisodiy loyihalarga jalb qilishni qiyinlashtiradi. Tadqiqotchi Vanda Felbab-Brown Afgʻoniston iqtisodiy integratsiyasi va barqarorligining xalqaro hamkorlikka bevosita bogʻliqligini taʼkidlaydi. Shuningdek, Afgʻonistonning kelajakdagi siyosiy istiqbollari xalqaro hamjamiyatning tan olishi va mintaqaviy hamkorlikga qanchalik moslashishiga bogʻliq. BMT va Jahon Banki tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, Afgʻoniston ichki barqarorlikni taʼminlamaguncha, xalqaro investitsiyalar va diplomatik hamkorlik samarador boʻlishi cheklangan.

Zamonaviy tadqiqotlar Afgʻonistonning xalqaro tizimda oʻziga xos “cheklangan suverenitet”ga ega ekanligini koʻrsatadi. Barnett Rubinning fikricha, mamlakat ichki siyosiy barqarorligi va xalqaro qonuniylik masalalari bilan bogʻliq holda global geosiyosiy qarorlar qabul qilishda cheklangan mustaqillikka ega. Shu bilan birga, ichki siyosiy institutsional tuzilmalarning zaifligi Afgʻonistonning tashqi siyosatidagi elastiklik va diplomatik manevr qobiliyatini cheklaydi.

Xulosa qilib aytganda, Afgʻonistondagi zamonaviy siyosiy jarayonlar va rivojlanish istiqbollari koʻp qatlamli va murakkabdir. Ichki siyosiy beqarorlik, etnik va diniy mojarolar, iqtisodiy zaiflik va transmilliy tahdidlar mamlakatning

⁶⁰ Rasul Bakhsh Rais, *Recovering the Frontier State: War, Ethnicity, and State in Afghanistan*, Lexington Books, 2008, p. 101.

tashqi siyosiy pozitsiyasini, xalqaro hamjamiyat bilan munosabatlarini va mintaqaviy xavfsizlikni bevosita shakllantiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Afg'oniston barqaror siyosiy institutlar va xalqaro hamkorlik mexanizmlarini mustahkamlashga muvaffaq bo'lsa, u mintaqaviy va global siyosatda yanada faol rol o'ynash imkoniyatiga ega bo'ladi. Afg'oniston mintaqaviy xavfsizlik tizimida muhim o'rin tutadi. Mamlakatdagi siyosiy beqarorlik Markaziy Osiyo, Janubiy Osiyo va Yaqin Sharq davlatlari xavfsizligiga bevosita ta'sir ko'rsatishi mumkin. O'zbekiston Afg'oniston bilan tinchlik va barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan faol tashqi siyosat olib bormoqda.⁶¹

Afg'onistondagi vaziyat bilan bog'liq asosiy xavfsizlik muammolari quyidagilardan iborat:

1. *Terrorizm xavfi;*
2. *Noqonuniy giyohvand moddalar savdosi;*
3. *Noqonuniy migratsiya;*
4. *Transmilliy jinoyatchilik;*

Shu sababli mintqa davlatlari Afg'oniston bilan hamkorlikni mustahkamlashga intilmoqda. Xavfsizlik sohasidagi hamkorlik bilan bir qatorda iqtisodiy va transport loyihalari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Afg'onistonning geostrategik ahamiyatini tahlil qiling.
2. Afg'oniston va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi hamkorlik istiqbollari o'rganing.
3. Xalqaro tashkilotlarning Afg'onistondagi faoliyati haqida referat tayyorlang.
4. Afg'oniston muammosining global xavfsizlik tizimiga ta'sirini tahlil qiling.
5. Afg'onistonning tranzit davlat sifatidagi rolini baholang.

⁶¹ O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi, Afg'oniston bo'yicha rasmiy bayonotlar to'plami, Toshkent, 2021, 23-bet.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Islomov, A. *Markaziy Osiyoda geosiyosiy jarayonlar va Afg'oniston*. Toshkent: Fan, 2015. – Afg'onistonning mintaqaviy xavfsizlik tizimidagi o'rni va strategik ahamiyati.
2. Qodirov, S. *Afg'oniston va xalqaro siyosat: tarixiy va zamonaviy tahlil*. Toshkent: Sharq, 2018. – Tarixiy bosqichlar, ichki siyosiy jarayonlar va tashqi siyosatni o'rganish.
3. Rustamov, N. *Afg'oniston: mintaqaviy xavfsizlik va xalqaro aloqalar*. Toshkent: Ilm, 2020. – Mintaqaviy xavfsizlik, qo'shni davlatlar bilan munosabatlar va xalqaro hamkorlik tahlili.
4. Yodgorov, F. *Zamonaviy Afg'oniston va global geosiyosat*. Samarqand: Fan va Texnologiya, 2021. – Global kuchlar manfaatlari, mintaqaviy integratsiya va Afg'onistonning strategik roli.
5. Rashid, Ahmed. *Taliban: Militant Islam, Oil, and Fundamentalism in Afghanistan*. Yale University Press, 2000. – Afg'onistonning zamonaviy siyosiy jarayonlari va Tolibon harakatining mintaqaviy va global ta'siri.
6. Barfield, Thomas. *Afghanistan: A Cultural and Political History*. Princeton University Press, 2010. – Afg'onistonning tarixiy rivojlanishi, etnik va madaniy tuzilmalari, geosiyosiy ahamiyati.
7. Rubin, Barnett. *Afghanistan from the Cold War through the War on Terror*. Oxford University Press, 2013. – Sovet davri, fuqarolar urushi va XXI asrning global xavfsizlik kontekstida Afg'onistonning roli.
8. Brzezinski, Zbigniew. *The Grand Chessboard: American Primacy and Its Geostrategic Imperatives*. Basic Books, 1997. – Afg'onistonning Yevroosiyo geosiyosiy maydonidagi strategik roli va global kuchlar manfaatlari.

Test topshiriqlari

1. Afg'oniston qaysi mintaqalar chorrahasida joylashgan?

A) Markaziy va Janubiy Osiyo

B) Yevropa va Osiyo

C) Afrika va Osiyo

D) Amerika va Osiyo

2. Afgʻonistonning geosiyosiy ahamiyati asosan nimaga bogʻliq?

A) Geografik joylashuvi

B) Tabiiy resurslari

C) Tranzit imkoniyatlari

D) Barchasi toʻgʻri

3. Afgʻoniston qaysi tarixiy savdo yoʻli orqali mashhur boʻlgan?

A) Ipak yoʻli

B) Atlantika savdo yoʻli

C) Shimoliy dengiz yoʻli

D) Panamerika yoʻli

4. 1979-yilda Afgʻonistonda sodir boʻlgan muhim tarixiy voqea qaysi?

A) Konstitutsiya qabul qilinishi

B) Sovet qoʻshinlarining kirishi

C) NATOga aʼzo boʻlishi

D) Mustaqillik eʼlon qilinishi

5. Afgʻoniston mintaqaviy xavfsizlikka qanday tahdidlar bilan bogʻliq?

A) Terrorizm

B) Noqonuniy giyohvand moddalar savdosi

C) Noqonuniy migratsiya

D) Barchasi toʻgʻri

6. Afgʻonistonda tinchlik va barqarorlikni taʼminlashda muhim rol oʻynaydigan tashkilot qaysi?

A) Birlashgan Millatlar Tashkiloti

B) FIFA

C) OPEC

D) ASEAN

7. Afgʻoniston qaysi davlat bilan chegaradosh emas?

- A) Pokiston
- B) Eron
- C) Hindiston**
- D) Tojikiston

8. Afgʻoniston iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan biri qaysi?

- A) Qishloq xoʻjaligi**
- B) Dengiz transporti
- C) Kosmik sanoat
- D) Avtomobil ishlab chiqarish

9. Afgʻoniston qaysi mintaqaviy jarayonlarda muhim tranzit hudud hisoblanadi?

- A) Energetika va transport loyihalarida**
- B) Dengiz savdosida
- C) Kosmik tadqiqotlarda
- D) Aviatsiya sanoatida

10. Afgʻonistonning xalqaro munosabatlar tizimidagi oʻrni nimasi bilan belgilanadi?

- A) Geostrategik joylashuvi
- B) Siyosiy jarayonlari
- C) Mintaqaviy xavfsizlikka taʼsiri
- D) Barchasi toʻgʻri**

9-BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA AFG‘ONISTONDAGI YARASHUV JARAYONLARINING ISTIQBOLLARI

Reja:

- 9.1.O‘zbekiston Respublikasining Afg‘onistondagi yarashuv jarayonlariga nisbatan tashqi siyosiy yondashuvi va strategik manfaatlari
- 9.2.Afg‘onistonda yarashuv jarayonlarining zamonaviy holati: ichki va tashqi omillar tahlili
- 9.3.O‘zbekiston ishtirokida Afg‘onistonda yarashuv jarayonlarining istiqbollari va mintaqaviy xavfsizlikka ta’siri

Tayanch so‘z va iboralar: Afg‘oniston muammosi, yarashuv jarayonlari, milliy yarashuv, siyosiy barqarorlik, mintaqaviy xavfsizlik, geosiyosat, tashqi siyosat, diplomatik vositachilik, strategik manfaatlar, tinchlik muzokaralari, ichki siyosiy omillar, xalqaro tashkilotlar, terrorizmga qarshi kurash, iqtisodiy hamkorlik, transport-logistika loyihalari, integratsiya jarayonlari, xavf-xatarlar, global va mintaqaviy kuchlar, siyosiy legitimlik, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish.

9.1.O‘zbekiston Respublikasining Afg‘onistondagi yarashuv jarayonlariga nisbatan tashqi siyosiy yondashuvi va strategik manfaatlari

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so‘ng o‘z tashqi siyosatini milliy manfaatlar, mintaqaviy barqarorlik va xalqaro hamkorlik tamoyillari asosida shakllantirib bordi. O‘zbekiston Afg‘onistondagi yarashuv jarayonlarini qo‘llab-quvvatlash orqali mintaqaviy barqarorlikni mustahkamlashga intilmoqda⁶². Markaziy Osiyo mintaqasining ajralmas qismi sifatida Afg‘oniston bilan bog‘liq jarayonlar O‘zbekiston tashqi siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Ayniqsa, Afg‘onistonda uzoq yillar davom etgan siyosiy beqarorlik, qurolli mojarolar va ijtimoiy-iqtisodiy inqirozlar O‘zbekiston uchun nafaqat tashqi, balki ichki xavfsizlik bilan ham bevosita bog‘liq masala sifatida namoyon bo‘ldi.

⁶² O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi, Afg‘oniston bo‘yicha tashqi siyosat konsepsiyasi materiallari, Toshkent, 2022, 10-bet.

O'zbekistonning Afg'onistondagi yarashuv jarayonlariga nisbatan yondashuvi, avvalo, tinchlikparvarlik, qo'shnichilik va aralashmaslik prinsiplariga asoslanadi. Shu bilan birga, mamlakat o'zining milliy xavfsizlik manfaatlarini himoya qilishni ustuvor vazifa sifatida ko'radi. Bu yondashuv o'z navbatida O'zbekistonning Afg'onistonga nisbatan konstruktiv, pragmatik va muvozanatli siyosat olib borayotganini ko'rsatadi. O'zbekiston tashqi siyosatining muhim xususiyatlaridan biri - bu mintaqaviy muammolarni mintaq davlatlari ishtirokida hal etish g'oyasidir. O'zbekiston Afg'onistonda inklyuziv siyosiy tizim shakllanishini qo'llab-quvvatlaydi.⁶³ Afg'oniston masalasida ham ushbu tamoyil izchil amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Afg'onistonni Markaziy Osiyoning ajralmas qismi sifatida ko'radi va uni mintaqaviy integratsiya jarayonlariga jalb etish orqali barqarorlikka erishish mumkin, deb hisoblaydi. Bu esa mamlakatning uzoq muddatli strategik qarashlarini ifodalaydi. Afg'onistondagi yarashuv jarayonlariga nisbatan O'zbekistonning yondashuvi, birinchi navbatda, siyosiy dialog va muzokaralar orqali nizolarni hal etishga qaratilgan. Mamlakat har qanday mojaroni harbiy yo'l bilan emas, balki siyosiy vositalar orqali bartaraf etish tarafdori hisoblanadi. Shu bois O'zbekiston turli xalqaro va mintaqaviy platformalarda Afg'onistonda tinchlik muzokaralarini qo'llab-quvvatlab kelmoqda. O'zbekistonning tashqi siyosiy strategiyasida Afg'oniston bilan bog'liq masalalar xavfsizlik nuqtayi nazaridan alohida o'rin tutadi. Chunki Afg'onistondagi beqarorlik ekstremizm, terrorizm va noqonuniy narkotrafik kabi tahdidlarning tarqalishiga sabab bo'lishi mumkin. Bu esa bevosita O'zbekiston va butun Markaziy Osiyo xavfsizligiga tahdid soladi. Shu sababli mamlakat Afg'onistonda tinchlik o'rnatilishini o'z milliy xavfsizligining muhim sharti sifatida baholaydi.

O'zbekistonning strategik manfaatlari nafaqat xavfsizlik bilan, balki iqtisodiy va transport-logistika sohalari bilan ham chambarchas bog'liq. O'zbekistonning Afg'oniston siyosati pragmatik va iqtisodiy manfaatlarga

⁶³ United Nations, The Situation in Afghanistan and Its Implications for International Peace and Security, New York, 2022, p. 9.

yo'naltirilgan.⁶⁴ Afg'oniston geografik jihatdan Janubiy Osiyo va Markaziy Osiyoni bog'lovchi muhim hudud hisoblanadi. Shu sababli Afg'onistonda tinchlik va barqarorlik o'rnatilishi mintaqaviy savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. O'zbekiston aynan shu omilni hisobga olgan holda Afg'oniston bilan iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda. Xususan, transport va logistika loyihalari O'zbekistonning Afg'oniston bo'yicha strategik siyosatida muhim o'rin tutadi. Mamlakat Afg'oniston orqali dengiz portlariga chiqish imkoniyatini kengaytirishni maqsad qilgan. Bu esa O'zbekiston iqtisodiyotining tashqi bozorga chiqish imkoniyatlarini sezilarli darajada oshiradi. O'zbekiston tashqi siyosatida Afg'oniston bilan tinchlik va barqarorlik masalasi ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi.⁶⁵ Shu bilan birga, Afg'oniston iqtisodiyotining tiklanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston tashqi siyosatida Afg'oniston bilan madaniy-gumanitar aloqalarni rivojlantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ikki xalq o'rtasidagi tarixiy, madaniy va diniy yaqinlik ushbu hamkorlikni mustahkamlash uchun qulay zamin yaratadi. Ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa ijtimoiy sohalarda amalga oshirilayotgan loyihalar Afg'oniston jamiyatining barqarorlashuviga xizmat qiladi. O'zbekistonning Afg'onistondagi yarashuv jarayonlariga nisbatan yondashuvi xalqaro hamjamiyat bilan hamkorlikda amalga oshirilmoqda. Mamlakat BMT, SHHT va boshqa xalqaro tashkilotlar doirasida Afg'oniston muammosini hal etishga qaratilgan tashabbuslarni qo'llab-quvvatlab kelmoqda. Bu esa O'zbekistonning global siyosiy jarayonlardagi faol ishtirokini namoyon etadi.

Shuningdek, O'zbekiston Afg'oniston muammosiga kompleks yondashuv zarurligini ta'kidlaydi. Ya'ni, faqat siyosiy muzokaralar bilan cheklanib qolmasdan, iqtisodiy tiklanish, ijtimoiy rivojlanish va infratuzilmani yaxshilash kabi omillar ham muhim hisoblanadi. Bu yondashuv Afg'onistonda uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlash uchun zarur shartlardan biridir. O'zbekistonning pragmatik tashqi siyosati Afg'oniston bilan aloqalarda ham yaqqol namoyon

⁶⁴ World Bank, Regional Economic Cooperation and Afghanistan, Washington D.C., 2021, p. 14.

⁶⁵ S. N. Arifkhanov, O'zbekiston tashqi siyosati va xavfsizlik masalalari, Toshkent, 2020, 102-bet.

bo‘ladi. Mamlakat mavjud siyosiy vaziyatdan qat’i nazar, Afg‘oniston bilan muloqotni davom ettirish tarafdori. Bu esa O‘zbekistonning mintaqaviy barqarorlikni ta’minlash borasidagi qat’iy pozitsiyasini ko‘rsatadi.



Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasining Afg‘onistondagi yarashuv jarayonlariga nisbatan tashqi siyosiy yondashuvi kompleks, muvozanatli va uzoq muddatli strategik manfaatlarga asoslangan. Ushbu yondashuv tinchlik, barqarorlik va mintaqaviy hamkorlikni ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, nafaqat O‘zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlash O‘zbekistonning asosiy strategik manfaatlaridan biri hisoblanadi.⁶⁶ O‘zbekistonning bu boradagi faol siyosati kelajakda Afg‘onistonda tinchlik o‘rnatilishiga hamda mintaqaviy xavfsizlikning mustahkamlanishiga xizmat qilishi kutilmoqda.

9.2. Afg‘onistonda yarashuv jarayonlarining zamonaviy holati:

ichki va tashqi omillar tahlili

Afg‘oniston uzoq yillar davomida global va mintaqaviy siyosat markazida bo‘lib kelayotgan murakkab geosiyosiy makon hisoblanadi. Mazkur hududda davom etayotgan siyosiy beqarorlik, qurolli to‘qnashuvlar va ijtimoiy-iqtisodiy

⁶⁶ V. V. Naumkin, *Afganistan v sovremennoy geopolitike*, Moskva, 2018, p. 81.

muammolar mamlakatda barqaror tinchlikni ta'minlashga jiddiy to'squinlik qilib kelmoqda. Mamlakatda markazlashgan hokimiyatning zaifligi ichki siyosiy muvozanatni ta'minlashni qiyinlashtirmoqda.⁶⁷ Shu bois Afg'onistonda yarashuv jarayonlarining zamonaviy holatini tahlil qilishda ichki va tashqi omillarni kompleks tarzda o'rganish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Afg'onistondagi yarashuv jarayonlarining bugungi holati, avvalo, mamlakat ichidagi siyosiy tizimning o'ziga xosligi bilan belgilanadi. Afg'on jamiyati etnik, diniy va ijtimoiy jihatdan murakkab tuzilishga ega bo'lib, bu holat yagona markazlashgan siyosiy tizimni shakllantirishni qiyinlashtiradi. Pashtunlar, tojiklar, hazoralar va o'zbeklar kabi yirik etnik guruhlar o'rtasidagi manfaatlar muvozanatini ta'minlash masalasi yarashuv jarayonlarining asosiy muammolaridan biri bo'lib qolmoqda.

Ichki siyosiy omillar orasida davlat boshqaruvi tizimining zaifligi alohida o'rin tutadi. Afg'onistonda uzoq yillar davom etgan urushlar natijasida davlat institutlari yetarli darajada shakllanmagan. Bu esa hukumatning butun hudud bo'ylab samarali nazorat o'rnatish imkoniyatini cheklaydi. Natijada ayrim hududlarda turli qurolli guruhlar faoliyati davom etib, markaziy hokimiyatning legitimligiga putur yetkazmoqda.

Yarashuv jarayonlarining muhim ichki omillaridan yana biri - bu ijtimoiy-iqtisodiy muammolardir. Afg'oniston dunyoning eng kambag'al davlatlaridan biri bo'lib, aholining katta qismi qashshoqlik sharoitida yashaydi. Ishsizlik, infratuzilmaning rivojlanmaganligi, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlarining zaifligi jamiyatda norozilik kayfiyatining kuchayishiga olib keladi. Bu esa o'z navbatida turli radikal guruhlar uchun ijtimoiy baza yaratadi.

Shuningdek, mafkuraviy va diniy omillar ham yarashuv jarayonlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ichki siyosiy kuchlar o'rtasidagi ishonchsizlik yarashuv jarayonining asosiy to'siqlaridan biri hisoblanadi.⁶⁸ Afg'onistonda turli diniy

⁶⁷ Barnett R. Rubin, *The Fragmentation of Afghanistan*, Yale University Press, 2002, p. 89.

⁶⁸ Ahmed Rashid, *Taliban: Militant Islam, Oil and Fundamentalism in Central Asia*, Yale University Press, 2010, p. 220.

oqimlar mavjud bo'lib, ularning ayrimlari keskin radikal qarashlarga ega. Bu esa jamiyatda ideologik bo'linishni kuchaytiradi va umumiy milliy yarashuvga erishishni murakkablashtiradi.

Afg'onistondagi yarashuv jarayonlariga tashqi omillar ham katta ta'sir ko'rsatmoqda. Mamlakatning geosiyosiy joylashuvi uni yirik davlatlar manfaatlari to'qnashadigan hududga aylantirgan. AQSh, Rossiya, Xitoy, Pokiston, Eron va boshqa davlatlarning Afg'onistonga nisbatan o'z strategik manfaatlari mavjud. Bu manfaatlar har doim ham o'zaro mos kelavermaydi, natijada yarashuv jarayonlari murakkablashadi.

Xususan, xalqaro harbiy kuchlarning uzoq yillar davomida Afg'onistonda bo'lishi mamlakat ichki siyosatiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Harbiy amaliyotlar ayrim hududlarda nisbiy xavfsizlikni ta'minlagan bo'lsa-da, umumiy tinchlikni o'rnatishga erishilmadi. Aksincha, ba'zi hollarda bu jarayonlar mahalliy aholining noroziligiga sabab bo'ldi.

Tashqi omillar orasida qo'shni davlatlarning roli ham muhim hisoblanadi. Afg'oniston bilan chegaradosh davlatlar, jumladan, Pokiston va Eron mamlakat ichki jarayonlariga turli darajada ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Ayrim hollarda bu ta'sir ijobiy bo'lsa, ayrim vaziyatlarda esa mojarolarning davom etishiga xizmat qilgan.

Mintaqaviy tashkilotlar va xalqaro institutlar ham yarashuv jarayonlarida muhim o'rin tutadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Shanxay hamkorlik tashkiloti va boshqa tuzilmalar Afg'onistonda tinchlikni ta'minlash bo'yicha turli tashabbuslarni ilgari surmoqda. Biroq bu tashabbuslarning samaradorligi ko'p jihatdan a'zo davlatlarning siyosiy irodasiga bog'liq.

Afg'onistonda yarashuv jarayonlarining zamonaviy bosqichida siyosiy dialog muhim vosita sifatida qaralmoqda. Turli siyosiy kuchlar o'rtasida muzokaralar olib borish orqali murosaga erishish yo'li tanlangan. Biroq bu jarayon murakkab va uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, tomonlar o'rtasida ishonch yetishmasligi asosiy muammolardan biri hisoblanadi.

Yarashuv jarayonlarining yana bir muhim jihati - bu xalqaro yordamga bog'liqlikdir. Afg'oniston iqtisodiy jihatdan tashqi yordamga katta darajada muhtoj. Bu esa mamlakat siyosiy qarorlarining mustaqilligiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, xalqaro yordamning samarali taqsimlanmasligi korrupsiya muammosini kuchaytiradi.

Afg'onistonda yarashuv jarayonlarining istiqbolini baholashda demografik omillar ham muhimdir. Mamlakat aholisi asosan yoshlar qatlamidan iborat bo'lib, ularning bandligi va ijtimoiy faolligi yarashuv jarayonlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Agar yoshlar uchun yetarli imkoniyatlar yaratilmasa, ular turli radikal guruhlar ta'siriga tushib qolish xavfi mavjud.

Shuningdek, axborot makoni va ommaviy kommunikatsiya vositalari ham yarashuv jarayonlarida muhim rol o'ynaydi. Zamonaviy texnologiyalar orqali turli mafkuraviy ta'sirlar tez tarqalmoqda. Bu esa jamiyatda qarama-qarshi fikrlarning kuchayishiga olib kelishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiy integratsiya va infratuzilma loyihalari yarashuv jarayonlarini qo'llab-quvvatlovchi omillardan biridir.⁶⁹ Afg'onistonda yarashuv jarayonlarining zamonaviy holati murakkab va ko'p qirrali omillar bilan belgilanadi. Ichki siyosiy beqarorlik, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar, etnik va diniy tafovutlar bilan bir qatorda, tashqi geosiyosiy manfaatlar ham ushbu jarayonlarga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli Afg'onistonda barqaror tinchlikka erishish uchun kompleks yondashuv, barcha manfaatdor tomonlarning konstruktiv hamkorligi va uzoq muddatli strategik rejalashtirish zarur hisoblanadi. Mazkur jarayonlarda mintaqaviy davlatlar, jumladan, O'zbekistonning faol ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi va kelgusida yarashuv jarayonlarining ijobiy yo'nalishda rivojlanishiga xizmat qilishi mumkin.

⁶⁹ Asian Development Bank, Regional Cooperation and Integration in Central Asia, Manila, 2021, p. 18.

9.3. O‘zbekiston ishtirokida Afg‘onistonda yarashuv jarayonlarining istiqbollari va mintaqaviy xavfsizlikka ta’siri

O‘zbekistonning Afg‘oniston masalasida faol siyosiy ishtiroki mamlakatning mintaqaviy barqarorlik va xavfsizlikni ta’minlashdagi strategik manfaatlaridan kelib chiqadi. Afg‘onistonda yarashuv jarayonlari uzoq yillar davomida turli ichki va tashqi omillar ta’sirida murakkablashgan bo‘lsa-da, O‘zbekistonning vositachilik va diplomatik tashabbuslari bu jarayonlarni barqarorlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu kontekstda mamlakatning tashqi siyosiy strategiyasi Afg‘onistonda barqarorlikni ta’minlash, radikallik va terrorizm tahdidlarini kamaytirish hamda mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlashga qaratilgan. O‘zbekistonning Afg‘onistondagi yarashuv jarayonlarida ishtiroki bir nechta asosiy yo‘nalishlarda amalga oshiriladi. Birinchidan, diplomatik vositachilik va siyosiy dialogni rivojlantirish. Mamlakat Afg‘onistonda tinchlik muzokaralarini qo‘llab-quvvatlash va turli siyosiy kuchlar o‘rtasida murosaga erishish uchun doimiy mexanizmlarni yaratishga intiladi. Bu jarayonlarda O‘zbekistonning neytral va konstruktiv pozitsiyasi, shuningdek, mintaqaviy davlatlar bilan uyg‘unlashgan harakatlari natijasida ishonchli vositachi sifatida qabul qilinadi.

Ikkinchidan, O‘zbekistonning iqtisodiy va infratuzilma loyihalaridagi ishtiroki Afg‘onistonda barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Mamlakat Afg‘onistonga transport-logistika, energetika, suv resurslarini boshqarish va qishloq xo‘jaligi loyihalarida yordam ko‘rsatadi. Bu esa nafaqat Afg‘oniston iqtisodiy barqarorligini oshiradi, balki mintaqaviy savdo aloqalari va integratsiyani ham rivojlantiradi. Shu tarzda iqtisodiy mustahkamlik siyosiy barqarorlikning asosi sifatida xizmat qiladi.

Uchinchidan, O‘zbekistonning xavfsizlik va radikalizmga qarshi choralar bo‘yicha hamkorligi Afg‘onistonda yarashuv jarayonlarining istiqbollarini belgilaydi. O‘zbekiston qurolli guruhlarining tarqalishi, terrorizm va narkotrafik tahdidlariga qarshi xalqaro va mintaqaviy tashabbuslarni amalga oshiradi. Ushbu

chora-tadbirlar Afg'onistonning xavfsizlik tizimini mustahkamlashga yordam beradi, shuningdek, mintaqaviy davlatlar o'rtasida o'zaro ishonchni oshiradi.

To'rtinchidan, gumanitar va ijtimoiy yordam sohasidagi tashabbuslar yarashuv jarayonlarini qo'llab-quvvatlashning muhim elementi hisoblanadi. O'zbekiston Afg'oniston aholisi, ayniqsa yoshlar va ayollar uchun ta'lim, sog'liqni saqlash va kasb-hunar markazlarini tashkil etish orqali ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga hissa qo'shadi. Bu esa jamiyatda radikallik va ekstremizmga qarshi immunitet hosil qilishga xizmat qiladi.

Beshinchidan, O'zbekistonning mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlashdagi roli yarashuv jarayonlarining istiqbollari bilan bevosita bog'liq. Afg'onistonda siyosiy barqarorlik va tinchlik o'rnatilishi, shubhasiz, Markaziy Osiyo mintaqasida umumiy xavfsizlikni ta'minlaydi. Shu sababli O'zbekiston mintaqaviy tashkilotlar, xususan, SHHT, Markaziy Osiyo davlatlari forumlari va BMT bilan hamkorlikda Afg'onistonda tinchlik va xavfsizlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tashabbuslarni ilgari suradi.

Yarashuv jarayonlarining istiqbollari jihatidan, O'zbekistonning strategik ishtiroki uzoq muddatli ijobiy natijalar berishi kutiladi. Birinchidan, siyosiy muzokaralar orqali Afg'onistonda kuchlar muvozanati saqlanadi va milliy yarashuvga erishish imkoniyati oshadi. Ikkinchidan, iqtisodiy va infratuzilma loyihalari Afg'onistonning iqtisodiy tiklanishini tezlashtiradi, bu esa ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi. Uchinchidan, xavfsizlik sohasidagi hamkorlik radikalizm va ekstremizm tahdidlarini kamaytiradi, mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlaydi. Bundan tashqari, O'zbekistonning vositachilik roli mintaqaviy va xalqaro siyosiy manbalarni birlashtirishga imkon beradi. Mamlakat neytral va konstruktiv pozitsiyasini saqlab, barcha tomonlar bilan samarali muloqot olib boradi. Shu tarzda O'zbekiston Afg'onistonda yarashuv jarayonlarining barqaror va ijobiy yo'nalishda rivojlanishini ta'minlashga hissa qo'shadi. Biroq istiqbolli natijalarga erishish uchun ayrim shart-sharoitlar muhim hisoblanadi. Shu jumladan, Afg'onistondagi siyosiy institutlarning mustahkamligi, korrupsiyaga

qarshi samarali choralar, ijtimoiy va iqtisodiy islohotlarning amalga oshirilishi zarur. Shu bilan birga, xalqaro hamjamiyat va mintaqaviy davlatlarning konstruktiv hamkorligi mustahkamlanishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonning Afg‘onistonda yarashuv jarayonlarida ishtiroki strategik, kompleks va uzoq muddatli natijalarga qaratilgan. Diplomatik vositachilik, iqtisodiy loyihalar, xavfsizlik va gumanitar yordam orqali mamlakat mintaqaviy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Ushbu faoliyat Afg‘onistonda siyosiy barqarorlikni ta‘minlash, radikalizm tahdidlarini kamaytirish va mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlash yo‘lida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu tariqa O‘zbekiston Afg‘onistondagi yarashuv jarayonlarining istiqbollari ijobiy yo‘nalishda shakllantirishga sezilarli hissa qo‘shmoqda.

Nazorat savollari:

1. Afg‘onistonda yarashuv jarayonlari qachondan boshlangan?
2. O‘zbekiston Afg‘oniston tinchlik jarayonida qanday rol o‘ynamoqda?
3. Milliy yarashuv jarayonining asosiy bosqichlari nimalardan iborat?
4. Markaziy Osiyo davlatlari Afg‘oniston barqarorligiga qanday hissa qo‘shmoqda?
5. Afg‘onistonda tinchlik jarayonining asosiy muammolari nimalardan iborat?

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Qodirov, S. *Markaziy Osiyo davlatlarining tashqi siyosati*. Toshkent: Universitet nashriyoti, 2018.
2. Raxalqaro munosabatlar onov, A. *O‘zbekiston va Afg‘oniston: diplomatik hamkorlik va vositachilik*. Toshkent: Fan nashriyoti, 2019.
3. Yo‘ldoshev, J. *Mintaqaviy xavfsizlik va diplomatiya: O‘zbekiston tajribasi*. Toshkent: Ilmiy nashriyot, 2020.
4. Xolmirzaev, B. *Mintaqaviy integratsiya va xavfsizlik masalalari*. Toshkent: Siyosat va huquq nashriyoti, 2021.

5. Ahmed Rashid. *Taliban: Militant Islam, Oil and the State in Afghanistan*. New Haven: Yale University Press, 2000.
6. Barnett Rubin. *Afghanistan: A Modern History*. Oxford: Oxford University Press, 2002.
7. Antonio Giustozzi. *Koran, Tribes and Politics in Afghanistan*. London: Hurst & Co, 2009.
8. Thomas Barfield. *Afghanistan: A Cultural and Political History*. Princeton: Princeton University Press, 2010.

Test topshirqlari

1. O'zbekiston Afg'onistonda qaysi jarayonni qo'llab-quvvatlaydi?

A) Harbiy mojarolarni

B) Tinchlik va yarashuv jarayonini

C) Savdo cheklovlarini

D) Siyosiy izolyatsiyani

2. 2018-yilda Afg'oniston bo'yicha xalqaro konferensiya qayerda o'tkazilgan?

A) Moskva

B) Toshkent

C) Pekin

D) Tehron

3. Afg'onistonda milliy yarashuv jarayonining asosiy maqsadi nima?

A) Siyosiy barqarorlikni ta'minlash

B) Harbiy ustunlikka erishish

C) Savdo hajmini kamaytirish

D) Migratsiyani oshirish

4. Afg'oniston tinchlik jarayonida muhim rol o'ynayotgan tashkilot qaysi?

A) Birlashgan Millatlar Tashkiloti

B) FIFA

C) OPEC

D) UNESCO

5. Afgʻonistonda yarashuv jarayonlari qaysi yoʻl orqali amalga oshiriladi?

A) Siyosiy muzokaralar orqali

B) Harbiy toʻqnashuvlar orqali

C) Savdo embargo orqali

D) Migratsiya orqali

6. Afgʻoniston barqarorligi qaysi mintaq uchun muhim?

A) Markaziy Osiyo

B) Yevropa

C) Afrika

D) Janubiy Amerika

7. Oʻzbekiston tashqi siyosatida Afgʻoniston bilan munosabatlar qanday ahamiyatga ega?

A) Ikkinchi darajali

B) Muhim strategik yoʻnalish

C) Tasodifiy

D) Cheklangan

8. Afgʻonistonda tinchlik jarayonining muhim sharti nima?

A) Siyosiy kelishuv

B) Harbiy ustunlik

C) Savdo cheklovlari

D) Migratsiya

9. Afgʻoniston iqtisodiy tiklanishi nimaga yordam beradi?

A) Barqarorlikni mustahkamlashga

B) Mojarolarni kuchaytirishga

C) Savdoni kamaytirishga

D) Izolyatsiyaga

10. Afgʻonistonda yarashuv jarayonlari muvaffaqiyati nimaga bogʻliq?

A) Siyosiy kelishuvga

- B) Xalqaro hamkorlikka
- C) Iqtisodiy rivojlanishga
- D) Barchasi to'g'ri**

10-BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING POKISTON VA HINDISTON BILAN IKKI TOMONLAMA ALOQALARI

Reja:

10.1.O‘zbekiston Respublikasi Tashqi siyosatining nazariy va huquqiy asoslari

10.2.O‘zbekiston–Pokiston munosabatlari

10.3.O‘zbekiston–Hindiston munosabatlari

10.4.Pokiston va Hindiston bilan hamkorlikning integratsiya va strategik ahamiyati

Tayanch so‘z va iboralar: Tashqi siyosat, diplomatik munosabatlar, strategik sheriklik, iqtisodiy diplomatiya, investitsiya siyosati, savdo-iqtisodiy aloqalar, siyosiy dialog, xalqaro tashkilotlar, global hamkorlik, integratsiya jarayonlari, texnologik hamkorlik, madaniy diplomatiya

10.1. O‘zbekiston Respublikasi Tashqi siyosatining nazariy va huquqiy asoslari

Mustaqillikka erishganidan so‘ng, O‘zbekiston Respublikasi o‘zining tashqi siyosatini mustaqil va pragmatik tamoyillar asosida shakllantirdi. Mamlakatning asosiy maqsadi milliy manfaatlarni himoya qilish, iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash va xalqaro hamkorlikni kengaytirishdir.

Markaziy Osiyo mintaqasida strategik joylashuvi tufayli O‘zbekiston Pokiston va Hindiston kabi muhim mintaqaviy davlatlar bilan ikki tomonlama aloqalarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratadi. Ushbu davlatlar iqtisodiyoti, texnologiyasi va diplomatik salohiyati bilan mintaqaviy va global siyosatda muhim o‘rin tutadi. Shu sababli O‘zbekistonning ularni o‘zining strategik hamkorlari sifatida jalb qilishi mamlakatning tashqi siyosatida ustuvor vazifa hisoblanadi.

Ushbu ishning maqsadi O‘zbekiston-Pokiston va O‘zbekiston-Hindiston ikki tomonlama aloqalarini siyosiy, iqtisodiy, madaniy va xavfsizlik yo‘nalishlarida tahlil qilishdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi 1991-yil 1-sentabrda mustaqil davlat sifatida xalqaro maydonda paydo bo‘ldi. Mustaqillik e‘lon qilinishi bilan birgalikda mamlakatning tashqi siyosati ham shakllana boshladi.

Asosiy maqsadlar:

- Davlat suverenitetini mustahkamlash va xalqaro maydonda tan olinishi;
- Mintaqaviy barqarorlikni ta‘minlash;
- Iqtisodiy, siyosiy va madaniy manfaatlarni himoya qilish;
- Global hamkorlik va investitsiyalarni jalb etish. 1991–1992 yillarda O‘zbekiston BMT, ShHT (keyinchalik), Islom Hamkorligi Tashkiloti (IHT) kabi xalqaro tashkilotlarga a‘zo bo‘ldi va xalqaro huquq me‘yorlariga rioya qiluvchi mustaqil siyosat yo‘lini tanladi.

O‘zbekiston tashqi siyosatida quyidagi tamoyillar muhim hisoblanadi:

1. Suverenitet va mustaqillikni himoya qilish
 - Davlatning ichki ishlariga aralashmaslik va o‘zining tashqi siyosat strategiyasini mustaqil belgilash;
2. Muvozanat va neytrallik
 - Turli davlatlar bilan munosabatlarda adolatli va muvozanatli siyosat yuritish;
3. Pragmatizm
 - Siyosiy va iqtisodiy manfaatlarga asoslangan amaliy hamkorlik;
4. Barqarorlik va xavfsizlikni ta‘minlash
 - Hududiy va mintaqaviy barqarorlikni saqlash, terrorizm va ekstremizmga qarshi kurash;
5. Global hamkorlik
 - Xalqaro maydonda ishtirok etish, investitsiyalarni jalb qilish va texnologik hamkorlik.

Tashqi siyosiy faoliyatning asosiy va birinchi darajali vazifalaridan biri bu “Uzbekiston - 2030” strategiyasini samarali amalga oshirishdir.

Ushbu maqsadga erishish uchun tashqi siyosat idorasi oldiga quyidagi vazifalar qo'yilgan:

- mamlakatimizda olib borilayotgan demokratik islohotlarni hamda jamiyat va iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning jadal jarayonlarini samarali amalga oshirish uchun mumkin qadar qulay tashqi siyosiy shart-sharoitlarni shakllantirish;

- Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni saqlash hamda mustahkamlash, mintaqani xavfsizlik va barqaror taraqqiyot hududiga aylantirish;

- jahonning yetakchi davlatlari va xalqaro tashkilotlar bilan strategik hamkorlik qilishning mutanosib, ko'p qirrali tizimini shakllantirish;

- O'zbekistonning mintaq va jahon siyosatidagi muhim yo'nalishlar bo'yicha xalqaro tashabbuslarini ilgari surish;

- mahalliy mahsulotlarning eksport hajmini oshirish va geografiyasini kengaytirish borasida ko'maklashish;

- milliy iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va ilg'or texnologiyalarni jalb etishda faol ko'mak berish;

- mamlakatimizga turistlarni jalb qilish hamda turistik infratuzilmani rivojlantirish borasida amaliy yordam ko'rsatish;

- transport va tranzit sohasidagi hamkorlikni kengaytirish va chuqurlashtirishda hamda xalqaro transport kommunikatsiyalari va logistik infratuzilmalarni rivojlanishiga ko'maklashish;

- xorijdagi O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va yuridik shaxslari huquq va manfaatlarining har tomonlama himoya qilinishini ta'minlash;

- xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlar bilan aloqalarni mustahkamlash.

O'zbekiston Janubiy Osiyo mamlakatlari, xususan Hindiston va Pokiston bilan savdo-sotiq, transport-kommunikatsiya, turizm kabi sohalarda har taraflama va o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirishni qo'llab quvvatlaydi.

O'zbekiston musulmon dunyosi davlatlari bilan o'zaro manfaatli aloqalarni iqtisodiyot, transport kommunikatsiyasi, moliya, investitsiya va sayyohlik

sohalarida, shu jumladan Islom hamkorlik tashkiloti va Islom taraqqiyot banki doirasida faol rivojlantirish va mustahkamlashdan manfaatdor.⁷⁰

O‘zbekiston tashqi siyosatida xalqaro huquqning quyidagi tamoyillari asosiy ahamiyatga ega:

- Davlatlararo hurmat va suverenitetni tan olish;
- Chegaralarni o‘zaro kelishilgan holda belgilash;
- Xalqaro nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish;

10.2. O‘zbekiston – Pokiston ikki tomonlama munosabatlari

O‘zbekiston va Pokiston mustaqillikdan so‘ng diplomatik aloqalarni yo‘lga qo‘ydi. Rasmiy diplomatik munosabatlar 1992-yil 25-fevralda boshlangan. Asosiy maqsadlar:

- Iqtisodiy, savdo va investitsiya aloqalarini rivojlantirish;
- Mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash;
- Madaniy va ilmiy hamkorlikni kengaytirish;
- Hududiy va global siyosiy masalalarda bir-birini qo‘llab-quvvatlash.

O‘zbekiston va Pokiston ko‘plab xalqaro platformalarda hamkorlik qiladi, xususan BMT, IHT va boshqa mintaqaviy forumlarda o‘zaro masalalarni muvofiqlashtiradi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston–Pokiston savdo hajmi barqaror o‘sib bormoqda. Asosiy eksport-import yo‘nalishlari:

- O‘zbekistondan Pokistonga eksport: paxta va paxta mahsulotlari, meva va sabzavotlar, kimyo sanoati mahsulotlari;
- Pokistondan O‘zbekistonga import: to‘qimachilik mahsulotlari, oziq-ovqat mahsulotlari, farmatsevtika va transport vositalari.

Investitsiyalar va qo‘shma loyihalar

- Pokiston investorlar O‘zbekistonda sanoat va infratuzilma sohalariga investitsiya kiritmoqda;

⁷⁰ <https://uzbekistan.org.ua/uz/o-zbekiston-respublikasi-tashqi-siyosati.html>

- O‘zbekiston Pokistonda transport va energiya sohalarida hamkorlikni kengaytirishga intilmoqda;

- Qo‘shma savdo-u-sanoat palatalari va biznes forumlar muntazam tashkil etiladi.

Madaniy va ilmiy hamkorlik

- Ta’lim: Talabalar almashuvi dasturlari, universitetlar o‘rtasidagi hamkorlik;

- Madaniyat: Madaniy tadbirlar, san’at ko‘rgazmalari, musiqa va teatr festivallari;

- Ilmiy soha: Birgalikda ilmiy tadqiqotlar, texnologik va agrar sohalarda hamkorlik.

O‘zbekiston va Pokiston mintaqaviy xavfsizlik masalalarida bir-birini qo‘llab-quvvatlaydi. Asosiy yo‘nalishlar:

- Terrorizm va ekstremizmga qarshi kurash;
- Gumanitar va transport xavfsizligini ta’minlash;
- Mintaqaviy forumlarda barqaror siyosiy pozitsiyani saqlash.

2020–2025 yillarda O‘zbekiston va Pokiston o‘rtasida quyidagi yutuqlar qayd etildi:

- Savdo hajmi 20–25% ga oshdi;
- Qo‘shma iqtisodiy va transport loyihalari amalga oshirildi;
- Talabalar va olimlar almashuvi tizimi mustahkamlandi;
- Madaniy va sport tadbirlari orqali xalqlararo do‘stlik rivojlantirildi.

Jahonda geosiyosiy raqobat, transport-logistika yo‘nalishlari uchun kurash, oziq-ovqat va energetik xavfsizlik masalalari dolzarblashib borayotgan bugungi sharoitda davlatlar o‘rtasidagi ko‘p qirrali hamkorlik yangi ahamiyat kasb etmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Pokiston Islom Respublikasiga davlat tashrifi ana shu jarayonlarning mantiqiy davomi sifatida Markaziy va

Janubiy Osiyo mintaqalari o'rtasidagi integratsiyani yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qilishi, shubhasiz.

O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri – mintaqada ishonch, o'zaro manfaat va pragmatik hamkorlik muhitini shakllantirish hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, mazkur tashrif ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarning institutsional asoslarini yanada mustahkamlashga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Oliy darajadagi muzokaralar davomida ikki mamlakat yetakchilari strategik sheriklik munosabatlarini amaliy mazmun bilan boyitish masalalarini muhokama qildi. Xususan, siyosiy muloqotni kengaytirish, parlamentlararo va hukumatlararo aloqalarni faollashtirish, ishbilarmon doiralar va hududlar o'rtasidagi hamkorlikni chuqurlashtirish ustuvor vazifalar sifatida belgilandi. Bu esa ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarni institutsional darajada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Muzokaralar natijasida Qo'shma deklaratsiya va hamkorlikning turli sohalarini qamrab olgan o'nlab kelishuvlar imzolanishi ikki mamlakat munosabatlari barqaror huquqiy asosga ega bo'layotganini ko'rsatadi. Bu holat O'zbekiston tashqi siyosatida ko'p tomonlama diplomatiya va o'zaro manfaatli sheriklik tamoyillari izchil amalga oshirilayotganini tasdiqlaydi.

Mazkur tashrifning eng muhim jihatlaridan yana biri transport-logistika sohasidagi hamkorlikni kengaytirish bo'ldi. Transafg'on temir yo'li loyihasi va "Pokiston – Xitoy – Qirg'iziston – O'zbekiston" transport yo'lagini rivojlantirish masalalari muhokama qilinishi mintaqaviy integratsiya nuqtayi nazaridan alohida ahamiyat kasb etadi.

Ushbu loyihalar Markaziy Osiyo davlatlari uchun Janubiy Osiyo portlariga chiqish imkoniyatini kengaytirib, eksport geografiyasini diversifikatsiya qilishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, transport yo'laklarining rivojlanishi mintaqada savdo aylanmasi va investitsiya oqimlarining o'sishiga zamin yaratadi.

O'zbekiston va Pokistonni nafaqat siyosiy va iqtisodiy manfaatlar, balki umumiy tarixiy va madaniy meros ham bog'lab turadi. Boburiylar merosini

o'rganish va targ'ib qilish, madaniyat haftaliklari, kino kunlari hamda ta'lim sohasidagi hamkorlik tashabbuslari xalqlar o'rtasidagi do'stlik munosabatlarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Islomobodda Toshkent ko'chasi va Bobur nomidagi bog' barpo etilishi madaniy diplomatiyaning yorqin namunasidir. Bu kabi tashabbuslar ikki davlat xalqlarini yanada yaqinlashtirishga turtki beradi.

Ikki davlat hamkorligi Markaziy va Janubiy Osiyoning o'zaro bog'liqligini kuchaytirishda muhim geosiyosiy ahamiyatga ega. Pokistonning xalqaro tashkilotlardagi faol ishtiroki, jumladan, BMT Xavfsizlik Kengashidagi ishtiroki, ikki davlat o'rtasida ko'p tomonlama hamkorlik imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Shu bilan birga, mazkur sheriklik O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayonida ham muhim diplomatik qo'llab-quvvatlash omillaridan biridir.⁷¹

O'zbekiston bilan Pokiston o'rtasidagi an'anaviy do'stlik va ko'p qirrali amaliy hamkorlik mustahkamlanib bormoqda, har ikkala mamlakatning taraqqiyotga erishish yo'lidagi islohotlari ham bir-biriga hamohangdir.

2021-2026 yillarga mo'ljallangan Madaniy almashuv dasturi va Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti bilan Pokiston diplomatik xizmat akademiyasi o'rtasidagi Anglashuv memorandumini mamlakatlarimiz o'rtasidagi hamkorlikni yangi, yana-da yuqori bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

Ikki davlat o'rtasidagi do'stlik va hamkorlik an'alarini davomi sifatida O'zbekistonda Shanxay hamkorlik tashkilotining Xalq diplomatiyasi markazi tomonidan bir qator tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, 2021-yil 9-iyun kuni Markaz tomonidan O'zbekiston va Pokiston o'rtasida diplomatiya munosabatlari o'rnatilganining 29 yilligi munosabati bilan "O'zbekiston va Pokiston – Shanxay hamkorlik tashkiloti doirasidagi hamkorlik istiqbollari" mavzusida ekspertlarning onlayn uchrashuvi o'tkazildi.

2021-yil 12-iyul kuni Pokiston Bosh vaziri Imron Xonning O'zbekistonga rasmiy tashrifi arafasida Toshkent Davlat sharqshunoslik universiteti bilan

⁷¹ <https://parliament.gov.uz/news/ozbekiston-pokiston-munosabatlarning-yangi-ufqlari>

hamkorlikda “O‘zbekiston-Pokiston: mintaqaviy o‘zaro bog‘liqlikning bugungi holati va istiqbollari” mavzusidagi xalqaro davra suhbat tashkil etildi.

2021-yilning 5-fevralida Pokiston Tinchlik va diplomatiya instituti prezidenti Farxat Asif bilan videomuloqot o‘tkazildi. Suhbat so‘ngida Markaz va Pokiston tinchlik va diplomatiya instituti o‘rtasida Hamkorlik memorandumini imzolandi.⁷²

Ushbu hujjat doirasida O‘zbekiston va Pokiston o‘rtasida diplomatiya munosabatlari o‘rnatilganining 30 yilligi, shuningdek, Pokiston Respublikasining Mustaqilligi kuni arafasida xalqlarimizning ko‘p asrlik madaniy, savdo-iqtisodiy aloqalari, samimiy do‘stona munosabatlari bilan bog‘liq qator tadbirlarni o‘tkazishga qaror qilindi.

2021-yil 2-mart kuni Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2021-yil 22-fevraldagi BMT Inson huquqlari bo‘yicha kengashining 46-sessiyasidagi nutqi bo‘yicha SHHT Xalq diplomatiyasi markazining Pokistondagi xamkori - Tinchlik va diplomatiya instituti direktori Muhammad Asif Nurning “Daily Times Pakistan” gazetasida “O‘zbekiston BMT Inson huquqlari bo‘yicha kengashi a‘zosi” nomli maqolasi chop etildi.

O‘z navbatida, 2021-yil 8-noyabr kuni Markazning madaniy-gumanitar aloqalar bo‘limi boshlig‘i Faxriddin Otbosarovning “Muxammad Iqbol-Sharq va Islom olami ma‘rifat ahlining muallimi” nomli maqolasi Pokistonning eng yirik gazetalaridan biri - “Global news pakistan” sahifasida bosilib chiqdi.

O‘zbekiston va Pokistonning boy tarixi va madaniy merosini, shuningdek, ko‘hna falsafasini targ‘ib etish, xalqlar o‘rtasida bag‘rikenglik va o‘zaro hurmat o‘rnatilishiga ko‘maklashish Markazning maqsad va vazifalari sirasiga kiradi.

SHHT mamlakatlari, jumladan, Pokiston, uning musiqiy madaniyati va me‘moriy merosi bilan tanishish, shuningdek, ta‘lim, fan, sport va boshqa sohalardagi qiziqarli loyihalarni hamkorlar bilan amalga oshirishga bag‘ishlangan katta tadbirlarni o‘tkazish Markazning kelgusidagi ish rejasidan joy olgan.

⁷² <https://sco-summit2022.uz/uz-Latn/newsDetail/225>

10.3. O‘zbekiston – Hindiston ikki tomonlama munosabatlari

O‘zbekiston va Hindiston mustaqillikdan so‘ng diplomatik aloqalarni yo‘lga qo‘ydi. Rasmiy diplomatik munosabatlar 1992-yil 18-yanvarda boshlangan.

Siyosiy hamkorlikning asosiy yo‘nalishlari:

- Mintaqaviy barqarorlik va xavfsizlikni ta‘minlash;
- Iqtisodiy va investitsiya aloqalarini rivojlantirish;
- Madaniy, ilmiy va ta‘lim sohalarida hamkorlik;
- Xalqaro forumlarda bir-birini qo‘llab-quvvatlash.

O‘zbekiston va Hindiston o‘rtasida diplomatik aloqalar tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan. Asosiy hamkorlik platformalari: BMT, SCO (Shanghai Cooperation Organization) va boshqa mintaqaviy tashkilotlar.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston–Hindiston savdo aloqalari sezilarli darajada o‘ydi. Asosiy yo‘nalishlar:

- O‘zbekistondan Hindistonga eksport: paxta va to‘qimachilik mahsulotlari, meva-sabzavotlar, kimyo sanoati mahsulotlari;
- Hindistondan O‘zbekistonga import: dori-darmonlar, farmatsevtika mahsulotlari, transport vositalari, texnologik jihozlar.

Investitsiyalar va qo‘shma loyihalar

- Hindiston kompaniyalari O‘zbekistonda energetika, farmatsevtika va IT sohalarida investitsiya qilmoqda;
- O‘zbekiston Hindistonda qishloq xo‘jaligi va transport loyihalarida hamkorlikni rivojlantirmoqda;
- Qo‘shma iqtisodiy forumlar va biznes delegatsiyalar muntazam ravishda o‘tkaziladi.

Madaniy va ilmiy hamkorlik

- Ta‘lim: Talabalar va professorlar almashuvi, universitetlar o‘rtasida qo‘shma dasturlar;
- Madaniyat: Madaniy tadbirlar, san‘at festivallari, musiqa va teatr;

- Ilm-fan: Agrar, texnologik va ijtimoiy sohalarda birgalikda tadqiqotlar.

Hududiy xavfsizlik va strategik hamkorlik

- Terrorizm, ekstremizm va kiberxavfsizlikka qarshi birgalikda kurash;
- Mintaqaviy transport va energetika xavfsizligini ta'minlash;
- SCO va boshqa forumlarda strategik hamkorlikni kuchaytirish.

So'nggi yillarda hamkorlikning rivojlanishi

2020–2025 yillarda quyidagi yutuqlar qayd etildi:

- Savdo hajmi 25–30% ga oshdi;
- Qo'shma sanoat va transport loyihalari amalga oshirildi;
- Madaniy va ilmiy almashinuv dasturlari kengaytirildi;
- Hindiston–O'zbekiston madaniy va sport tadbirlari orqali xalqlararo

do'stlik mustahkamlandi.

15-avgust — Hindiston Respublikasi Mustaqilligi kuni. Do'st davlat va yaqin hamkorimiz bo'lgan ushbu mamlakat mustaqilligining o'z tarixi bor va mazkur sana har bir hindistonlik uchun nihoyatda qadrlidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Hindiston Mustaqilligi kuni munosabati bilan Bosh vazir Narendra Modiga tabrik yo'llab, Hindiston xalqini milliy Mustaqillik bayrami bilan qizg'in qutlab, samimiy tilaklarini izhor qildi.

Qayd etish kerak, O'zbekiston va Hindiston o'rtasidagi yaqin do'stlik munosabatlari uzoq tarixga borib taqaladi. Ko'p asrlik do'stlik aloqalari an'analariga sodiq holda, bugungi kunda ikki mamlakat davlatlararo sheriklikni sifat jihatidan yangi darajaga olib chiqishdan o'zaro manfaatdor ekanini namoyon etmoqda.

Bu borada o'zaro aloqalar so'nggi bir necha yil ichida yangi cho'qqilarga ko'tarilgani, avvalo, ikki davlat rahbarlari o'rtasida yo'lga qo'yilgan muntazam va izchil siyosiy muloqot ikki tomonlama munosabatlarning ravnaqi uchun mustahkam zamin yaratayotgani alohida qayd etilgan.

Xususan, Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil oktyabr oyida Hindistonga davlat tashrifi natijasida turli ustuvor sohalardagi hamkorlikka oid 20 ta hujjat imzolangani munosabatlarimizda yangi sahifa ochgani, 2019-yil yanvar oyida yana shu mamlakatga tashrif buyurib, “Jo‘shqin Gujarat” global sarmoyaviy sammitida bosh mehmon sifatida ishtirok etgani, 2020-yil dekabr oyida O‘zbekiston Prezidenti va Hindiston Bosh vaziri o‘rtasida bo‘lib o‘tgan virtual sammit ikki tomonlama aloqalar rivojida muhim bosqich bo‘ldi. Shuningdek, o‘zaro manfaatli hamkorlik doirasida turli soha va darajadagi delegatsiyalar muloqoti samarali yo‘lga qo‘yilgan.

2020-yilda pandemiya bilan bog‘liq cheklovlar joriy qilingan og‘ir va sinovli davrlarda O‘zbekiston ham, Hindiston ham o‘ta muhim va zarur farmatsevtika mahsulotlari va tibbiy asbob-uskunalaridan tashkil topgan insonparvarlik yuklari orqali bir-biriga do‘stona yordam qo‘lini cho‘zdi.

Bugungi kunda ikki mamlakat o‘rtasida qulay savdo rejimi amal qilmoqda. O‘rtadagi yillik tovar ayirboshlash hajmi 440 million AQSH dollaridan oshadi. Savdo va sarmoyaviy sohalarda ikki tomonlama hamkorlikni yanada mustahkamlash borasida foydalanilmagan ulkan salohiyat mavjud. Bugungi kunda O‘zbekistonda Hindiston kapitali ishtirokidagi 330 ga yaqin korxonalar, jumladan, 100 foizlik Hindiston kapitaliga asoslangan 220 ta muassasa faoliyat ko‘rsatmoqda.

Ayni vaqtda O‘zbekiston oliy o‘quv yurtlari Hindistonning 10 dan ortiq universiteti, ilmiy-tadqiqot muassasasi va markazi bilan samarali hamkorlik qilib kelmoqda. Xususan, ilm-fan sohasida O‘zbekiston Fanlar akademiyasining bir qancha ilmiy-tadqiqot tashkilotlari Dehli, Mumbay va Puna shaharlaridagi akademik markazlar bilan aloqalarni yo‘lga qo‘ygan va qo‘shma ilmiy loyihalarni amalga oshirmoqda.

Dehlidagi Jomiya Milliya Islomiy va Javoharlal Neru universitetlarida o‘zbek tili kurslari yo‘lga qo‘yilgan. 2019-yilda Hindistonning Amity va Sharda universitetlarining filiallari Toshkent va Andijon shaharlarida o‘z faoliyatini

boshladi. 2021-yil dekabr oyida esa Jizzax viloyatida Sambhram texnologiya institutining yangi kampusi ochildi. Hozirda Hindistonning boshqa qator yetakchi universitetlari O‘zbekistonning turli hududlarida o‘z filiallarini tashkil etish ustida ish olib bormoqda.⁷³

10.4. O‘zbekiston – Pokiston va Hindiston bilan uch tomonlama strategik va iqtisodiy hamkorlik

Uchinchi tomon sifatida mintaqaviy strategik o‘yinlar

- O‘zbekiston mintaqaviy barqarorlikni mustahkamlash uchun Hindiston va Pokiston bilan diplomatik aloqalarni rivojlantirmoqda.

- Uchinchi tomon sifatida O‘zbekiston, mintaqada tinchlik va xavfsizlikni ta’minlashda vositachilik rolini bajaradi.

- SCO va boshqa xalqaro platformalarda O‘zbekiston mintaqaviy muammolarni hal qilishda hamkorlik qiladi.

Iqtisodiy integratsiya va savdo yo‘nalishlari, uch tomonli savdo aloqalari

- O‘zbekiston Hindiston va Pokiston orqali Markaziy Osiyo va Janubiy Osiyo o‘rtasida savdo ko‘prigi vazifasini bajaradi.

- Asosiy savdo mahsulotlari:

- Paxta va to‘qimachilik mahsulotlari;

- Agrar va meva-sabzavot mahsulotlari;

- Farmatsevtika va dori-darmonlar;

- Texnologik jihozlar va transport vositalari.

Investitsiyalar va qo‘shma loyihalar

- Hindiston va Pokiston kompaniyalari O‘zbekistonda energetika, transport va IT sohalarida investitsiya qilmoqda.

- O‘zbekiston Pokiston va Hindistonda qishloq xo‘jaligi va sanoat loyihalarida hamkorlikni kuchaytiradi.

- Uch tomonlama iqtisodiy forumlar va biznes delegatsiyalari muntazam ravishda o‘tkaziladi.

⁷³ <https://xs.uz/uz/post/hindiston-ozbekistonning-muhim-hamkori>

Madaniy va ilmiy uch tomonlama hamkorlik

- Talabalar va professorlar almashuvi, universitetlar o'rtasida qo'shma dasturlar.
- Madaniy tadbirlar, musiqa, teatr va sport musobaqalari orqali xalqlararo do'stlikni mustahkamlash.
- Ilm-fan sohasida agrar, texnologik va ijtimoiy sohalarda uch tomonlama tadqiqotlar.

Hududiy xavfsizlik va strategik uch tomonlama hamkorlik

- Terrorizm, ekstremizm va kiberxavfsizlikka qarshi birgalikda kurash.
- Mintaqaviy transport va energetika xavfsizligini ta'minlash.
- SCO va BMT kabi xalqaro platformalarda strategik hamkorlikni kuchaytirish.

So'nggi yillarda uch tomonlama hamkorlikning rivojlanishi

- 2020–2025 yillarda uch tomonlama savdo hajmi sezilarli darajada oshdi.
- Qo'shma sanoat, transport va IT loyihalari amalga oshirildi.
- Madaniy, ilmiy va sport almashinuv dasturlari kengaytirildi.
- Uchinchi tomon sifatida O'zbekiston mintaqada diplomatik va iqtisodiy balansni mustahkamlashga muvaffaq bo'ldi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning Pokiston Islom Respublikasi Bosh vaziri Shahboz Sharifning taklifiga binoan shu yil 5-6-fevral kunlari ushbu mamlakatga davlat tashrifi ikki tomonlama munosabatlarda yangi davrni boshlab berdi.

Ayniqsa, Islomobod shahridagi tor doirada muzokara hamda oliy darajadagi Strategik hamkorlik kengashining birinchi yig'ilishi O'zbekiston – Pokiston o'rtasida strategik sheriklik va ko'p qirrali hamkorlik munosabatlarini yanada kengaytirish uchun zamin yaratdi.

Ma'lumki, ikki davlat o'rtasida o'zaro tovar ayirboshlash hajmini 2 milliard dollarga yetkazish bo'yicha aniq rejalar belgilab olingan. O'tgan yil yakunlariga ko'ra o'zaro savdo hajmi salkam 500 million dollarga yetdi. O'zbekistonda

Pokiston kapitali ishtirokidagi 230 ga yaqin korxona faoliyat yuritmoqda. Bu ikki davlat ishbilarmon doiralari o'rtasidagi o'zaro ishonchning barqaror o'sib borayotganidan dalolat beradi.

So'nggi yillarda mavjud imkoniyatdan samarali foydalanish maqsadida ikki davlat o'rtasida yirik transport infratuzilma loyihalari ham ilgari surilmoqda. Ana shunday muhim tashabbuslardan biri – Transafg'on temir yo'li. Termiz shahrini Afg'oniston hududi orqali Pokistondagi dengiz portlari bilan bog'lash nazarda tutilgan. Loyiha amalga oshgach, yuk tashish vaqti avtomobil transportiga nisbatan qariyb 30 foiz qisqarishi kutilyapti.

Pokiston portlarini Markaziy Osiyo bilan bog'lovchi temir yo'l loyihalari O'zbekistonning dengiz orqali jahon bozoriga chiqish imkoniyatini kengaytiradi. Mazkur tashabbuslar nafaqat savdo hajmini, balki butun mintaqa iqtisodiy raqobatbardoshligini mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

Ikki mamlakat o'rtasida parlamentlararo aloqalar ham rivojlanib, parlament delegatsiyalari o'rtasidagi muntazam aloqalar, do'stlik guruhlarining faoliyat yuritishi va qonun ijodkorligi sohasida tajriba almashish huquqiy tizimlarni yaqinlashtirishga, iqtisodiy va sarmoyaviy hamkorlikni kengaytirish uchun qulay me'yoriy bazani yaratishga turtki bermoqda.

Umuman, ushbu tashrif ikki tomonlama hamkorlikni yanada mustahkamlash, siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, madaniy-gumanitar sohalardagi sheriklikning istiqbolli yo'nalishlarini belgilashda juda katta tarixiy qadam bo'ldi. Mamlakatimiz Prezidentiga Pokistondagi yetakchi oliygohning faxriy doktori va professori unvonining berilishi, davlat rahbariga ko'rsatilgan yuksak ehtirom namunasidir.

Xulosa qilib aytganda, tarixiy ildizlari mushtarak bo'lgan, ma'naviy dunyosi yaqin birodar ellar o'rtasidagi azaliy aloqalarning mustahkamlanishi keng mintaqalarimizda istiqomat qilayotgan xalqlarimizning umumiy farovonligiga xizmat qiladi. Mazkur tashrif esa strategik sheriklikni yangi bosqichga ko'tarish,

iqtisodiy va transport hamkorligini kengaytirish, gumanitar aloqalarni chuqurlashtirishga turtki beradi.⁷⁴

16-sentabr kuni Samarqandda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Shanxay hamkorlik tashkiloti Davlat rahbarlari kengashi majlisida ishtirok etish uchun mamlakatimizda bo'lib turgan Hindiston Respublikasi Bosh vaziri Narendra Modi bilan uchrashuv o'tkazdi.

Suhbat avvalida davlatimiz rahbari oliy martabali mehmonni Hindiston mustaqilligining 75 yilligi bilan samimiy tabrikladi.

Tomonlar o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada chuqurlashtirish va strategik sheriklik munosabatlarini kengaytirish masalalarini muhokama qildilar.

Ikki tomonlama munosabatlarning rivojlanish sur'atlari mamnuniyat bilan qayd etildi. Tomonlar hamkorlikni o'zaro manfaatli barcha yo'nalishlarda yanada kengaytirish borasida birgalikda ishlashga tayyor ekanliklarini ta'kidladilar.

Yetakchilar o'zaro savdo hajmi oshib borayotganini ko'rsatib o'tdilar. Joriy yil boshidan buyon tovar ayirboshlash 30 foizga o'sdi. Keyingi olti yilda qo'shma korxonalar soni 5 barobar ko'paydi.

IT, sog'liqni saqlash, farmatsevtika, qishloq xo'jaligi va turizm sohalarida investitsiya loyihalari muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Yaqin yillarda o'zaro savdoni 1 milliard dollarga yetkazish rejalashtirilgan.

Savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, fan va ta'lim sohalarida hamkorlik qilish dasturlarini, shuningdek, investitsiyalarni rag'batlantirish va o'zaro himoya qilish bitimini tez fursatda qabul qilish va amalga oshirish zarurligi aytiladi.

Ikki mamlakat hududlari o'rtasidagi sheriklik munosabatlarini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratildi.

O'zbekiston Hindiston bilan transport aloqalarini, shu jumladan "Chobahor" portidan foydalangan holda mustahkamlashdan manfaatdor ekani ta'kidlandi.

⁷⁴ <https://parliament.gov.uz/news/ozbekiston-pokiston-hamkorlikning-yangi-bosqichi>

Madaniy-gumanitar hamkorlikni kengaytirish masalalari muzokaralarning alohida mavzusi bo'ldi. Keyingi yillarda O'zbekistonda Hindistonning uchta universiteti ochildi.

Birinchi "Hindiston – Markaziy Osiyo" onlayn sammitining yakunlari yuksak baholandi, ushbu platforma doirasida qabul qilingan kelishuvlarni ro'yobga chiqarish muhimligi qayd etildi. Hindiston tomoniga BMT Bosh Assambleyasi-ning Markaziy va Janubiy Osiyo o'rtasida o'zaro bog'liqlikni mustahkamlash to'g'risidagi rezolyutsiyasini qo'llab-quvvatlagani uchun minnatdorlik bildirildi.

Afg'onistonga insonparvarlik yordamini ko'rsatish va uning iqtisodiy tiklanishiga ko'maklashish masalalari yuzasidan fikr almashildi. Narendra Modi O'zbekistonning bu boradagi sa'y-harakatlarini olqishladi.

Hamkorlikning ustuvor yo'nalishlarida qo'shma loyiha va dasturlarni ilgari surish bo'yicha qo'shimcha choralar ko'rishga kelishib olindi.⁷⁵

O'zbekiston, Hindiston va Pokiston o'rtasidagi munosabatlar so'nggi yillarda izchil rivojlanib, o'zaro manfaatlarga asoslangan hamkorlik shakllanib bormoqda. Ushbu davlatlar bilan aloqalar siyosiy, iqtisodiy, transport-logistika hamda madaniy-gumanitar sohalarda kengaymoqda. Ayniqsa, savdo-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish, yangi bozorlarni o'zlashtirish va transport yo'laklarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston uchun Hindiston va Pokiston bilan hamkorlik Janubiy Osiyo bozorlariga chiqish imkoniyatini kengaytiradi. Shu bilan birga, energetika, farmatsevtika, axborot texnologiyalari va qishloq xo'jaligi sohalarida ham katta istiqbollar mavjud. Transport va logistika loyihalari, xususan, xalqaro yo'laklarning rivojlanishi uch davlat o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Kelgusida ushbu mamlakatlar o'rtasidagi munosabatlar yanada chuqurlashishi kutilmoqda. Bunda o'zaro ishonchni mustahkamlash, savdo hajmini oshirish va investitsiyalarni ko'paytirish muhim omillar hisoblanadi. Umuman olganda,

⁷⁵ <https://yuz.uz/index.php/uz/news/ozbekiston-va-hindiston-etakchilari-strategik-sheriklikni-yanada-mustahkamlash-istiqbollarini-muhokama-qildilar>

O‘zbekistonning Hindiston va Pokiston bilan hamkorligi mintaqaviy barqarorlikni ta’minlash va iqtisodiy rivojlanishga xizmat qiluvchi muhim yo‘nalishlardan biri bo‘lib qoladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, O‘zbekiston Hindiston va Pokiston davlatlari o‘rtasida Markaziy Osiyo va Janubiy Osiyoda savdo aylanmalarini barqarorligini ta’minlab turuvchi davlat sifatida namoyon bo‘ladi. Tashqi savdo aylanmasi muhim omil hisoblanib, uning ahamiyati davlatning rivojlanib borishida asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Bilamizki, Hindiston dunyoda tibbiyot, fizika, va matematika fanlari bo‘yicha yetakchi davlat sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois bugungi kunda ikki davlat o‘rtasida talabalar almashinuvi yo‘lga qo‘yilib, ushbu sohalarda bilim-ko‘nikmalarni rivojlantirish va amaliyotda qo‘llash chora-tadbirlari olib borilmoqda.

Nazorat savollari:

1. Pokiston bilan O‘zbekiston o‘rtasidagi diplomatik munosabatlar qanday hujjatlar asosida mustahkamlangan?

2. Hindiston bilan O‘zbekistonning energetika va texnologiya sohasidagi hamkorlik loyihalarini misollar bilan keltiring.

3. O‘zbekiston–Pokiston savdo-iqtisodiy aloqalarining asosiy yo‘nalishlari nimalardan iborat?

4. Hindiston bilan qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat xavfsizligi sohasidagi hamkorlik qanday amalga oshiriladi?

5. Pokiston va Hindiston bilan uch tomonlama uchrashuvlarning asosiy diplomatik mexanizmi qanday ishlaydi?

6. O‘zbekistonning mintaqaviy xavfsizlik va strategik sheriklikdagi roli qaysi vazifalarni bajaradi?

7. Pokiston va Hindiston bilan hamkorlikda O‘zbekistonning transport-logistika tizimining rivojlanishiga qanday imkoniyatlar ochiladi?

8. Savdo va investitsiya loyihalarini amalga oshirishda O‘zbekiston qanday strategik yondashuvni qo‘llaydi?

9. Mintaqaviy hamkorlikning iqtisodiy va siyosiy xavf-xatarlarini tahlil qiling.
10. O‘zbekiston uchun ilmiy va madaniy almashinuv qanday diplomatik afzalliklar yaratadi?
11. Sizning fikringizcha, Pokiston va Hindiston bilan iqtisodiy hamkorlik O‘zbekistonning xalqaro nufuzini qanday oshiradi?
12. Uch tomonlama hamkorlikning kelajak istiqbollarini qaysi sohalarda kengaytirish mumkin?
13. Mintaqaviy barqarorlikni mustahkamlash uchun O‘zbekiston qaysi diplomatik vositalardan foydalanishi mumkin?
14. Sizningcha, O‘zbekiston uch tomonlama ilmiy va madaniy loyihalarda qanday strategiyani qo‘llashi maqsadga muvofiq?
15. Pokiston va Hindiston bilan iqtisodiy, siyosiy va madaniy hamkorlikning O‘zbekiston uchun eng muhim afzalliklari nimalardan iborat?

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi. “O‘zbekistonning tashqi siyosati va diplomatik aloqalari”. Toshkent, 2021.
2. Qodirov, A. “Markaziy Osiyo davlatlarining mintaqaviy hamkorligi”. Toshkent, 2019.
3. Karimov, I. “O‘zbekiston va Janubiy Osiyo: siyosiy va iqtisodiy aloqalar”. Toshkent, 2020.
4. Sadiq, R. “Pakistan Foreign Policy: Historical and Contemporary Perspectives”. Lahore, 2018.
5. Gupta, R. “India-Central Asia Relations: New Challenges and Opportunities”. New Delhi, 2020.

Maqolalar va ilmiy jurnallar

6. Ergashev, D. “O‘zbekiston–Hindiston strategik hamkorligi”, *International Relations Journal*, 2021, №2.

7. Ahmed, S. *“Economic Cooperation between Pakistan and Central Asian States”*, *Asian Studies Review*, 2019.

8. Murodov, F. *“O‘zbekiston va Pokiston: siyosiy hamkorlik tendensiyalari”*, *Toshkent Siyosatshunoslik Jurnali*, 2022, №1.

9. Sharma, P. *“India and Uzbekistan: Bilateral Relations and Regional Cooperation”*, *South Asian Studies Journal*, 2020.

Internet manbalari va rasmiy saytlar

10. O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi: <https://mfa.uz>

11. Pokiston Tashqi ishlar vazirligi: <https://mofa.gov.pk>

12. Hindiston Tashqi ishlar vazirligi: <https://mea.gov.in>

13. Asian Development Bank. *“Uzbekistan-Pakistan-India Economic and Trade Cooperation”*, 2021.

14. UNESCO va BMTning mintaqaviy hamkorlik bo‘yicha hisobotlari (online).

Test savollari

1. O‘zbekiston va Pokiston o‘rtasidagi diplomatik aloqalar qachon o‘rnatilgan?

A) 1989

B) 1992

C) 1995

D) 2000

2. Hindiston bilan O‘zbekistonning asosiy iqtisodiy hamkorlik yo‘nalishi qaysi sohada?

A) Sanoat va avtomobilsozlik

B) Energetika va texnologiya

C) Madaniyat va san’at

D) Aerokosmik texnologiyalar

3. Pokiston bilan O‘zbekistonning savdo-iqtisodiy aloqalari qaysi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi?

A) Faqat qishloq xo‘jaligi

B) Energetika, transport, qishloq xo'jaligi

C) Faqat turizm

D) Faqat madaniy almashinuv

4. O'zbekiston va Hindiston o'rtasidagi ilmiy hamkorlikda nimalar asosiy o'rin tutadi?

A) Talabalar almashinuvi va qo'shma ilmiy tadqiqotlar

B) Faqat madaniy tadbirlar

C) Faqat biznes loyihalari

D) Faqat sport musobaqalari

5. Uch tomonlama uchrashuvlar (O'zbekiston–Pokiston–Hindiston) asosiy diplomatik mexanizm sifatida nimani o'z ichiga oladi?

A) Iqtisodiy forumlar va siyosiy maslahatlashuvlar

B) Faqat turizm dasturlari

C) Faqat qurol savdosi

D) Faqat ilmiy grantlar

6. O'zbekiston–Pokiston hamkorligida transport-logistika tizimi qanday imkoniyatlar yaratadi?

A) Yevropa bilan savdo aloqalarini rivojlantiradi

B) Faqat ichki yo'llarni quradi

C) Faqat havodagi transportni rivojlantiradi

D) Faqat suv transportini rivojlantiradi

7. Hindiston bilan qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat xavfsizligi sohasidagi hamkorlik qanday amalga oshiriladi?

A) Zamonaviy agrotexnologiyalar va ekin yetishtirish tajribasi bilan

B) Faqat eksport qilish orqali

C) Faqat turizm orqali

D) Faqat moliya yordamida

8. Pokiston va Hindiston bilan hamkorlikda O'zbekistonning ilmiy va madaniy almashinuvi qanday diplomatik afzalliklar beradi?

A) Tashqi qarzni kamaytiradi

B) Xalqlar o'rtasidagi o'zaro tushunishni kuchaytiradi

C) Transport tizimini modernizatsiya qiladi

D) Energetika tizimini yangilaydi

9. O'zbekiston va Hindiston o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlik kelajakda qaysi yo'nalishlarda rivojlanishi kutiladi?

A) Energetika, transport, qishloq xo'jaligi

B) Faqat madaniy soha

C) Faqat sport va sog'liqni saqlash

D) Faqat mudofaa va qurolsozlik

10. O'zbekiston uchun mintaqaviy barqarorlikni mustahkamlashda uch tomonlama hamkorlikning asosiy vositasi nima?

A) Diplomatik va siyosiy maslahatlashuvlar

B) Faqat investitsiya loyihalari

C) Faqat turizm dasturlari

D) Faqat sport musobaqalari

11-BOB. TURKIYA VA O‘ZBEKISTON HAMKORLIK MUNOSABATLARI EVOLYUTSIYASI

Reja

11.1. O‘zbekiston va Turkiya munosabatlarining tarixiy shakllanishi

11.2. O‘zbekiston-Turkiya siyosiy va iqtisodiy hamkorligining evolyutsiyasi

11.3. Gumanitar diplomatiya va strategik istiqbollar

Tayanch so‘z va iboralar: Diplomatik munosabatlar, ikki tomonlama hamkorlik, strategik sheriklik, tashqi siyosat, savdo-iqtisodiy hamkorlik, investitsiya hamkorligi, gumanitar diplomatiya, turkiy integratsiya, mintaqaviy xavfsizlik, geostrategik hamkorlik, transport-logistika koridorlari, madaniy diplomatiya, siyosiy dialog, davlatlararo bitimlar, strategik hamkorlik kengashi, eksport-import aloqalari, turkiy davlatlar tashkiloti, iqtisodiy integratsiya, sivilizatsion yaqinlik, xalqaro hamkorlik, soft power, investitsion muhit, ko‘p qirrali diplomatiya.

11.1. O‘zbekiston va Turkiya munosabatlarining tarixiy shakllanishi

O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi hamkorlik munosabatlari zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida alohida strategik ahamiyatga ega bo‘lgan ikki tomonlama aloqalardan biri hisoblanadi. Ushbu munosabatlarning asosi tarixiy, madaniy va sivilizatsion mushtaraklikka borib taqaladi. Ikki xalqni birlashtirib turuvchi umumiy til oilasi, diniy qadriyatlar va tarixiy meros davlatlararo hamkorlikning mustahkam ijtimoiy-siyosiy poydevorini yaratgan. Turkiya Respublikasi O‘zbekiston mustaqilligini birinchilardan bo‘lib tan olgan davlat sifatida⁷⁶ ikki tomonlama munosabatlarning shakllanishida muhim rol o‘ynagan. 1992-yil 4-mart kuni diplomatik munosabatlarning rasmiy o‘rnatilishi hamkorlikning institutsional bosqichini boshlab berdi. Dastlabki yillarda ikki

⁷⁶ O‘zbekiston Respublikasi va Turkiya Respublikasi o‘rtasida diplomatik munosabatlar o‘rnatish to‘g‘risidagi Protokol. 1992-yil 4-mart // O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to‘plami. – Toshkent, 1993.

davlat o'rtasidagi aloqalar asosan siyosiy va diplomatik yo'nalishda rivojlandi.⁷⁷ Keyinchalik iqtisodiy, savdo va investitsion hamkorlik ham kengaya bordi. O'zbekistonning Markaziy Osiyodagi geostrategik mavqei Turkiya uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Turkiyaning Yevropa va Osiyo oralig'idagi geosiyosiy joylashuvi esa O'zbekistonning tashqi iqtisodiy manfaatlari bilan chambarchas bog'liqdir. Shu jihatdan ikki davlatning manfaatlari o'zaro uyg'unlashib borayotganini ko'rish mumkin.

So'nggi yillarda O'zbekiston tashqi siyosatidagi ochiqlik va pragmatik yondashuv Turkiya bilan munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqdi. Xususan, 2016-yildan keyin oliy darajadagi siyosiy muloqotlar sezilarli darajada faollashdi. Prezidentlar darajasidagi o'zaro tashriflar strategik sheriklikning mustahkamlanishiga xizmat qildi.⁷⁸ Natijada savdo-iqtisodiy hamkorlik hajmi bir necha barobarga oshdi. Investitsion loyihalar sonining ko'payishi iqtisodiy aloqalarning sifat jihatdan yangi bosqichga chiqqanini ko'rsatmoqda. Shuningdek, ta'lim, madaniyat va turizm sohalarida ham hamkorlikning yangi yo'nalishlari shakllandi. Turkiy davlatlar tashkiloti doirasidagi integratsion jarayonlar ham ikki davlat o'rtasidagi siyosiy yaqinlikni kuchaytirmoqda. Bugungi global geosiyosiy transformatsiyalar sharoitida O'zbekiston va Turkiya hamkorligi mintaqaviy barqarorlik va iqtisodiy rivojlanishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu sababli mazkur mavzuni ilmiy jihatdan o'rganish xalqaro munosabatlar tizimidagi zamonaviy tendensiyalarni anglashda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston va Turkiya hamkorligining evolyutsiyasini tahlil qilish esa kelajakdagi strategik istiqbollarni belgilash imkonini beradi.

O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi diplomatik munosabatlarning shakllanishi mustaqillikning dastlabki davriga to'g'ri keladi. Turkiya Respublikasi O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini birinchilardan bo'lib tan olgan

⁷⁷ O'zbekiston Respublikasi va Turkiya Respublikasi o'rtasida Abadiy do'stlik va hamkorlik to'g'risidagi shartnoma. 1996-yil 8-may // O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'plami. – Toshkent, 1997.

⁷⁸ O'zbekiston Respublikasi va Turkiya Respublikasi o'rtasida Strategik sheriklikni chuqurlashtirish to'g'risidagi Qo'shma bayonot. 2017-yil 25-oktyabr // O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy hujjatlari to'plami. – Toshkent, 2017. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy portali

davlatlardan biri sifatida ikki tomonlama aloqalarning boshlanishida muhim siyosiy qadam tashladi. Bu holat ikki davlat o'rtasidagi siyosiy ishonch va tarixiy yaqinlikning amaliy ifodasi sifatida baholanadi. 1992-yil 4-mart kuni O'zbekiston va Turkiya o'rtasida diplomatik munosabatlar rasman o'rnatildi⁷⁹. Mazkur voqea ikki davlatning xalqaro huquq subyekti sifatidagi rasmiy hamkorlik bosqichini boshlab berdi. Dastlabki yillarda hamkorlikning asosiy yo'nalishi siyosiy muloqot va diplomatik aloqalarni mustahkamlashga qaratildi. Shu davrda Anqara va Toshkent shaharlarida elchixonalar faoliyati yo'lga qo'yildi. Diplomatik vakolatxonalar davlatlararo aloqalarni institutsional rivojlantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qildi. O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi munosabatlarning shakllanishida umumiy tarixiy ildizlar, til va madaniy yaqinlik asosiy omillardan biri bo'ldi. Ayniqsa, turkiy xalqlarning sivilizatsion mushtarakligi siyosiy yaqinlashuvni tezlashtirdi. 1990-yillarda ikki davlat o'rtasida qator siyosiy va iqtisodiy bitimlar imzolandi. Bu esa hamkorlikning huquqiy bazasini shakllantirdi. Diplomatik munosabatlarning shakllanishi keyingi strategik sheriklik uchun mustahkam zamin yaratdi. Bugungi O'zbekiston–Turkiya hamkorligining zamonaviy modeli aynan shu davrda yaratilgan siyosiy asoslarga tayanadi. Shu sababli mazkur bosqich ikki davlat munosabatlari evolyutsiyasining fundamental davri hisoblanadi.

O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi dastlabki siyosiy aloqalar mustaqillikning ilk yillarida faol shakllana boshladi. Bu davrda ikki davlat o'rtasida yuqori darajadagi siyosiy tashriflar, diplomatik uchrashuvlar va turli sohalardagi hamkorlik bo'yicha kelishuvlar amalga oshirildi. Turkiya O'zbekiston bilan siyosiy muloqotni kengaytirish va uni institutsional asosga qo'yishga alohida e'tibor qaratdi. Shu jarayonda iqtisodiy, madaniy va ta'lim sohalarida ham dastlabki hamkorlik mexanizmlari shakllandi. 1996-yilda imzolangan Abadiy do'stlik va hamkorlik to'g'risidagi shartnoma ikki davlat o'rtasidagi siyosiy

⁷⁹ O'zbekiston Respublikasi va Turkiya Respublikasi o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatish to'g'risidagi Protokol. 1992-yil 4-mart // O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'plami. – Toshkent, 1993.

munosabatlarni huquqiy jihatdan mustahkamladi⁸⁰. Keyingi yillarda esa strategik sheriklikka olib boruvchi siyosiy asoslar kengaytirildi. 2000-yillarning boshlarida esa ayrim tashqi siyosiy omillar sababli munosabatlarda nisbiy sustlashuv kuzatildi, biroq diplomatik kanallar to'liq saqlanib qoldi.

2016-yildan boshlab O'zbekiston tashqi siyosatida yangi ochiqlik bosqichi boshlanishi ikki davlat o'rtasidagi siyosiy aloqalarni sezilarli darajada faollashtirdi. Oliy darajadagi tashriflar va strategik muloqotlar muntazam tus oldi. Natijada siyosiy hamkorlik yangi sifat bosqichiga ko'tarildi va strategik sheriklikka zamin yaratildi⁸¹.

O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi strategik sheriklik munosabatlari 2010-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarildi. Bu jarayon ikki davlat tashqi siyosatidagi o'zgarishlar va mintaqaviy geosiyosiy omillar bilan bevosita bog'liqdir. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasining 2016-yildan keyingi ochiq va pragmatik tashqi siyosati Turkiya bilan munosabatlarni faollashtirishga xizmat qildi. Shu davrdan boshlab oliy darajadagi siyosiy muloqotlar muntazam tus oldi va strategik ishonch mustahkamlandi. 2017-yilda O'zbekiston va Turkiya o'rtasida strategik sheriklikni chuqurlashtirish to'g'risidagi qo'shma bayonot imzolanishi muhim burilish nuqtasi bo'ldi⁸². Ushbu hujjat ikki davlat munosabatlarini rasmiy ravishda strategik darajaga olib chiqdi. Strategik sheriklik mexanizmlarini institutsional asosda boshqarish maqsadida Oliy darajadagi Strategik hamkorlik kengashi tashkil etildi. Bu kengash siyosiy, iqtisodiy, xavfsizlik va gumanitar sohalardagi hamkorlikni muvofiqlashtiruvchi asosiy platformaga aylandi.

Keyingi yillarda ikki davlat o'rtasida savdo aylanmasi sezilarli darajada oshdi va investitsion hamkorlik kengaydi. Turkiya kompaniyalari O'zbekiston

⁸⁰ O'zbekiston Respublikasi va Turkiya Respublikasi o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatish to'g'risidagi Protokol. 1992-yil 4-mart // O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'plami. – Toshkent, 1993.

⁸¹ O'zbekiston Respublikasi va Turkiya Respublikasi o'rtasida Strategik sheriklikni chuqurlashtirish to'g'risidagi Qo'shma bayonot. 2017-yil 25-oktyabr // O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy hujjatlari to'plami. – Toshkent, 2017. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy portali

⁸² O'zbekiston Respublikasi va Turkiya Respublikasi o'rtasida Strategik sheriklikni chuqurlashtirish to'g'risidagi Qo'shma bayonot. 2017-yil 25-oktyabr // O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy portali. Prezident.uz

iqtisodiyotining turli tarmoqlarida faol ishtirok eta boshladi. Xususan, qurilish, to'qimachilik, farmatsevtika va logistika sohalarida qo'shma loyihalar amalga oshirildi. Strategik sheriklik nafaqat iqtisodiy, balki harbiy-texnik va xavfsizlik sohalarini ham qamrab ola boshladi. Bu esa ikki davlat o'rtasidagi ishonch darajasining yuqoriligini ko'rsatadi. 2020-yillarga kelib hamkorlik Turkiy davlatlar tashkiloti doirasidagi integratsion jarayonlar bilan yanada mustahkamlandi. Ushbu tashkilot doirasida O'zbekiston va Turkiya mintaqaviy integratsiyaning asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biriga aylandi. Strategik sheriklikning muhim jihatlaridan biri madaniy-gumanitar aloqalarning kengayishidir. Ta'lim va ilmiy almashinuv dasturlari ikki xalq o'rtasidagi yaqinlikni yanada kuchaytirdi. Turkiya burslari dasturi orqali minglab o'zbekistonlik yoshlar Turkiyada tahsil olish imkoniga ega bo'ldi.

Xalqaro tahlilchilarga ko'ra, O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi strategik sheriklik Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq mintaqasida yangi geosiyosiy muvozanatni shakllantirayotgan omillardan biridir⁸³. Bu munosabatlar nafaqat ikki davlat manfaatlariga, balki keng mintaqaviy barqarorlikka ham xizmat qilmoqda. Shu sababli strategik sheriklik bosqichi O'zbekiston–Turkiya munosabatlari evolyutsiyasining eng muhim va hal qiluvchi davri sifatida baholanadi.

11.2. O'zbekiston-Turkiya siyosiy va iqtisodiy hamkorligining evolyutsiyasi

O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi siyosiy dialog bugungi kunda institutsional va muntazam xarakterga ega bo'lgan tizim sifatida shakllangan. Bu dialog ikki davlat o'rtasidagi strategik sheriklikni amaliy jihatdan ta'minlab beruvchi asosiy mexanizmlardan biridir. Siyosiy muloqotning eng yuqori darajasi davlat rahbarlari o'rtasidagi rasmiy tashriflar va sammitlar hisoblanadi. O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi siyosiy dialog evolyutsiyasini tahlil qilganda, davlat rahbarlari darajasidagi tashriflar alohida o'rin egallaydi. Dastlabki bosqichda Turkiya Prezidenti Sulaymon Demirelning O'zbekistonga amalga

⁸³ International Crisis Group. Central Asia and Turkey: Emerging Strategic Cooperation Trends, 2023. International Crisis Group

oshirgan rasmiy tashriflari ikki davlat o'rtasidagi siyosiy aloqalarni shakllantirishda muhim rol o'ynadi⁸⁴. Aynan ushbu tashriflar 1990-yillarda o'zaro ishonch muhitini mustahkamlash va diplomatik aloqalarni chuqurlashtirishga xizmat qildi. Keyinchalik Ahmet Nejdettin Sezer davrida ham ikki davlat o'rtasida siyosiy muloqot davom ettirildi, biroq bu davrda munosabatlar nisbatan barqaror, ammo sust dinamikada rivojlandi.

2010-yillardan boshlab esa siyosiy dialog yangi faollik bosqichiga kirdi. Ayniqsa, Rajab Toyyib Erdo'g'an prezidentligi davrida O'zbekiston bilan munosabatlar strategik sheriklik darajasiga ko'tarildi. Erdo'g'aning O'zbekistonga amalga oshirgan rasmiy tashriflari ikki davlat o'rtasidagi ishonchni yangi bosqichga olib chiqdi. Bu tashriflar davomida iqtisodiy hamkorlik, investitsiya, transport va xavfsizlik sohalarida muhim kelishuvlar imzolandi. Natijada siyosiy dialog an'anaviy diplomatik muloqotdan strategik qarorlar qabul qiluvchi mexanizmga aylandi. Bu jarayon O'zbekiston–Turkiya munosabatlari-ning evolyutsion rivojlanishini yaqqol ifodalaydi. Shu bilan birga tashqi ishlar vazirliklari o'rtasidagi maslahatlashuvlar ham doimiy ravishda olib boriladi. O'zbekiston va Turkiya o'rtasida Strategik hamkorlik kengashi tashkil etilishi siyosiy dialogni institutsional asosga qo'ydi. Ushbu kengash ikki davlat o'rtasidagi hamkorlikning barcha yo'nalishlarini muvofiqlashtiruvchi asosiy platforma sifatida faoliyat yuritadi. Kengash yig'ilishlarida tashqi siyosat, xavfsizlik, iqtisodiyot va gumanitar sohalar muhokama qilinadi.

Siyosiy dialogda parlamentlararo hamkorlik ham muhim o'rin egallaydi. O'zbekiston Oliy Majlisi va Turkiya Buyuk Millat Majlisi o'rtasida do'stlik guruhlar faoliyat yuritadi. Bu guruhlar qonunchilik sohasida tajriba almashish va siyosiy yaqinlashuvni kuchaytirishga xizmat qiladi. Shuningdek, xalqaro tashkilotlar doirasida ham ikki davlat o'zaro qo'llab-quvvatlash amaliyotini olib boradi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti va Turkiy davlatlar tashkiloti platformalarida pozitsiyalar muvofiqlashtiriladi.

A) Mustaqillikdan keyin

B) XX asr boshida

C) Sovet davrida

D) XIX asrda

2. O‘zbekiston bilan faol iqtisodiy hamkorlik qilayotgan arab davlatlaridan biri qaysi?

A) Birlashgan Arab Amirliklari

B) Yaponiya

C) Germaniya

D) Braziliya

3. Arab davlatlari investitsiyalari asosan qaysi sohalarga yo‘naltirilmoqda?

A) Energetika

B) Qishloq xo‘jaligi

C) Infratuzilma

D) Barchasi to‘g‘ri

4. O'zbekiston Arab davlatlari bilan qaysi tashkilot doirasida hamkorlik qiladi?

A) Islom hamkorlik tashkiloti

B) NATO

C) Yevropa Ittifoqi

D) ASEAN

5. O'zbekiston va Arab davlatlari o'rtasidagi madaniy hamkorlik nimani o'z ichiga oladi?

A) Ta'lim

B) Ilm-fan

C) Madaniyat

D) Barchasi to'g'ri

6. Arab davlatlari bilan hamkorlik O'zbekiston uchun nimani ta'minlaydi?

A) Iqtisodiy rivojlanish

B) Savdo aloqalari

C) Investitsiyalar

D) Barchasi to'g'ri

7. O'zbekiston fuqarolari diniy ziyorat uchun qaysi Arab davlatiga boradilar?

A) Saudiya Arabistoni

B) Qatar

C) Misr

D) Kuvayt

8. Arab davlatlari bilan hamkorlik qaysi sohada rivojlanmoqda?

A) Turizm

B) Transport

C) Energetika

D) Barchasi to'g'ri

9. O'zbekiston Arab davlatlari bilan qanday aloqalarni rivojlantirmoqda?

- A) Siyosiy
- B) Iqtisodiy
- C) Madaniy

D) Barchasi

10. O'zbekiston va Arab davlatlari hamkorligining istiqbollari nimaga bog'liq?

- A) Investitsiyalarga
- B) Savdo aloqalariga
- C) Siyosiy hamkorlikka
- D) Barchasi to'g'ri**

15-BOB. O‘ZBEKISTON XALQARO MINTAQAVIY TASHKILOTLAR TIZIMIDA

Reja:

15.1. Yangi O‘zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishlari va Markaziy Osiyo faktori

15.2. O‘zbekiston va global xavfsizlik: BMT hamda ShHT doirasidagi hamkorlik

15.3. Iqtisodiy va madaniy-gumanitar integratsiya: MDH va Turkiy Davlatlar Tashkiloti

15.4. Xalqaro moliya va savdo tashkilotlari bilan hamkorlik istiqbollari

Tayanch so‘z va iboralar: Xalqaro tashkilotlar, mintaqaviy hamkorlik, ko‘p tomonlama diplomatiya, tashqi siyosat strategiyasi, suverenitet, xavfsizlik va barqarorlik, iqtisodiy integratsiya, siyosiy hamkorlik, diplomatik aloqalar, global boshqaruv, geosiyosiy manfaatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsion hamkorlik, transport va logistika tizimi, barqaror rivojlanish.

15.1. Yangi O‘zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishlari va Markaziy Osiyo faktori

Xalqaro munosabatlarning zamonaviy tizimi murakkab transformatsiya jarayonini boshidan kechirmoqda. Globallashuv sharoitida hech bir davlat yakkalangan holda barqaror taraqqiyotga erisha olmaydi. Ayniqsa, Markaziy Osiyo kabi strategik chorrahada joylashgan davlatlar uchun xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar bilan samarali hamkorlik qilish milliy xavfsizlik va iqtisodiy farovonlikning asosiy shartidir. O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining dastlabki kunlaridanoq jahon hamjamiyatining teng huquqli subyekti sifatida xalqaro maydonga chiqdi, biroq so‘nggi yillarda mamlakatimizning tashqi siyosatida tub burilish va “strategik yangilanish” davri boshlandi. “O‘zbekiston xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni o‘z tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilagan.”¹²²Bugungi kunda O‘zbekistonning

¹²² Sh. Jo‘rayev. O‘zbekiston tashqi siyosati asoslari, Toshkent, 2018, 67-bet

xalqaro mintaqaviy tashkilotlar tizimidagi o‘rni shunchaki “a’zolik” maqomi bilan cheklanib qolmay, balki “tashabbuskor va kun tartibini belgilovchi subyekt” darajasiga ko‘tarildi. Mamlakatimiz tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishi etib Markaziy Osiyo mintaqasining belgilanishi, mintaqaviy xavfsizlik va hamkorlikning mutlaqo yangi muhitini yaratdi. Ushbu ma’ruza matni doirasida biz O‘zbekistonning ko‘p tomonlama diplomatiya tizimidagi o‘rnini, uning xalqaro tashkilotlar doirasidagi strategik maqsadlarini va mintaqaviy integratsiya jarayonlariga qo‘shayotgan hissasini tahlil qilamiz.

Zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida O‘zbekistonning tutgan o‘rni so‘nggi yillarda tubdan o‘zgardi. 2017-yildan boshlangan “Yangi O‘zbekiston” taraqqiyot strategiyasi mamlakatning tashqi dunyo bilan muloqotini yangi bosqichga olib chiqdi. Avvallari ko‘proq “yopiqlik” va “ehtiyotkorlik” tamoyiliga tayangan diplomatiya bugun **ochiq, pragmatik va konstruktiv** xarakterga ega bo‘ldi. Xalqaro tashkilotlarda ishtirok etish O‘zbekistonga suverenitetini mustahkamlash va mintaqaviy barqarorlikni ta’minlash imkonini beradi.¹²³

O‘zbekiston tashqi siyosatining o‘ziga xos xususiyati shundaki, u mafkuraviy qarashlardan voz kechib, milliy manfaatlarni iqtisodiy pragmatizm bilan bog‘ladi. Bu siyosatning markazida esa — **Markaziy Osiyo faktori** turibdi. O‘zbekiston Respublikasi Tashqi siyosiy faoliyatining ustuvor yo‘nalishi sifatida aynan qo‘shni davlatlar bilan aloqalarni belgiladi. Bu tasodifiy tanlov emas, balki geografik va tarixiy zaruriyatdir. Yangi O‘zbekistonning eng katta yutug‘i — mintaqadagi “muzlarning erishi”dir. 2016-yilgacha bo‘lgan davrda Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida chegara, suv va transport masalalarida jiddiy ziddiyatlar mavjud edi. Bugungi kunda O‘zbekiston Qirg‘iziston va Tojikiston bilan davlat chegaralarini delimitatsiya va demarkatsiya qilish masalasini deyarli 100% ga hal etdi. Bu esa mintaqada xavfsizlik kamarini yaratdi. Chegaralarning ochilishi va o‘tkazish punktlarining tiklanishi natijasida “yaxshi qo‘shnichilik” diplomatiyasi amalda o‘z isbotini topdi. O‘zbekiston tashabbusi bilan 2018-yilda Ostona shahrida ilk bor

¹²³ R. Allison. *Central Asian Security and International Organizations*, 2014, 143-bet

mintaqa yetakchilarining Maslahat uchrashuvi o'tkazildi. Bu formatning o'ziga xosligi shundaki, u hech qanday tashqi kuchlar ishtirokisiz, faqat "beshlik" (O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston) o'rtasidagi muammolarni hal qilishga qaratilgan. Mintaqa davlatlari o'rtasidagi o'zaro ishonch darajasi oshdi. Endilikda Markaziy Osiyo xalqaro maydonda yagona ovoz bilan chiqish qilish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Yangi tashqi siyosatning eng muhim yo'nalishlaridan biri — qo'shni davlatlar bilan do'stona va o'zaro manfaatli aloqalarni rivojlantirishdir. O'zbekiston Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston bilan siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarni mustahkamlashga alohida e'tibor qaratmoqda. Ilgari mavjud bo'lgan chegaraviy nizolar bosqichma-bosqich hal etilib, chegaralarni delimitatsiya va demarkatsiya qilish bo'yicha sezilarli yutuqlarga erishildi. Bu esa mintaqada ishonch muhitini kuchaytirib, hamkorlik uchun yangi imkoniyatlar yaratdi.

Markaziy Osiyo faktori Yangi O'zbekiston tashqi siyosatining markaziy elementi sifatida namoyon bo'lmoqda. "O'zbekiston ayniqsa Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlik tizimlarida konstruktiv rol o'ynaydi." ¹²⁴Mintaqa davlatlari bilan o'zaro bog'liqlik yuqori bo'lgani sababli, har qanday ichki yoki tashqi siyosiy o'zgarishlar bevosita qo'shni davlatlarga ta'sir ko'rsatadi. Shu bois O'zbekiston mintaqani yagona iqtisodiy va transport makoniga aylantirish tashabbuslarini ilgari surmoqda. Xususan, transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish, temir yo'l va avtomobil yo'llarini modernizatsiya qilish, yangi tranzit yo'laklarini yaratish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. "Markaziy Osiyodagi hamkorlik tashabbuslari tobora ko'proq O'zbekistonning faol diplomatiyasiga tayanmoqda." ¹²⁵

Savdo-iqtisodiy hamkorlik ham sezilarli darajada faollashdi. So'nggi yillarda O'zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi savdo aylanmasi bir necha barobarga oshdi. Qo'shma korxonalar soni ortib, investitsion loyihalar kengaymoqda. Ayniqsa, energetika, qishloq xo'jaligi, sanoat va xizmat ko'rsatish

¹²⁴ Martha Brill Olcott. Central Asia: A New Strategic Landscape, 2012, 89-bet

¹²⁵ Adeeb Khalid. Central Asia: A New History from the Imperial Conquests to the Present, 2021, 287-bet

sohalarida hamkorlik yangi bosqichga chiqdi. Bu jarayon mintaqaning umumiy iqtisodiy salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda.

Suv-energetika masalalari ham Markaziy Osiyo uchun dolzarb hisoblanadi. O‘zbekiston bu borada muvozanatli va hamkorlikka asoslangan yondashuvni ilgari surmoqda. Transchegaraviy suv resurslaridan oqilona foydalanish, ekologik muammolarni birgalikda hal etish, ayniqsa Orol dengizi fojiasi oqibatlarini yumshatish bo‘yicha keng ko‘lamli tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Xalqaro hamjamiyat e‘tiborini ushbu muammoga qaratish orqali O‘zbekiston global ekologik xavfsizlikka ham hissa qo‘shmoqda.

Mintaqaviy xavfsizlik masalalari ham tashqi siyosatning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Terrorizm, ekstremizm, noqonuniy migratsiya va narkotrafik kabi tahdidlarga qarshi kurashishda O‘zbekiston qo‘shni davlatlar bilan yaqin hamkorlik qilmoqda. “O‘zbekistonning mintaqaviy tashkilotlardagi faolligi iqtisodiy integratsiya va xavfsizlikni ta‘minlashda muhim omil hisoblanadi”¹²⁶. Shu bilan birga, Afg‘oniston bilan bog‘liq vaziyat ham alohida e‘tiborda turadi. Afg‘onistonda tinchlik va barqarorlikni ta‘minlash Markaziy Osiyo xavfsizligi uchun muhim omil hisoblanadi. O‘zbekiston ushbu davlat bilan iqtisodiy va infrazilmaaviy loyihalarni amalga oshirish orqali uning mintaqaviy integratsiyasiga ko‘maklashmoqda.

Yangi O‘zbekiston tashqi siyosatida xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik ham muhim o‘rin egallaydi. Jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Shanxay Hamkorlik Tashkiloti va boshqa tuzilmalar doirasida faol diplomatik siyosat olib borilmoqda. Bu esa O‘zbekistonning xalqaro maydondagi nufuzini oshirishga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, tashqi siyosatda yirik davlatlar bilan muvozanatli aloqalarni rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Xitoy, Rossiya, AQSh va Yevropa Ittifoqi bilan strategik hamkorlikni kengaytirmoqda. Bu aloqalar

¹²⁶ Abduvahobov A. Markaziy Osiyo iqtisodiy hamkorligi, Toshkent, 2020, 134-bet

investitsiyalarni jalb qilish, texnologiyalarni olib kirish va eksport geografiyasini kengaytirishda muhim rol o'ynamoqda.

Madaniy-gumanitar diplomatiya ham tashqi siyosatning ajralmas qismi hisoblanadi. O'zbekiston o'zining boy tarixiy va madaniy merosini targ'ib qilish orqali xalqaro maydonda ijobiy imijini mustahkamlashga intilmoqda. Ta'lim, turizm va madaniyat sohalarida hamkorlik aloqalari kengaymoqda. Yangi O'zbekiston tashqi siyosati kompleks va muvozanatli xarakterga ega bo'lib, unda Markaziy Osiyo faktori ustuvor o'rin tutadi. Mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash orqali O'zbekiston nafaqat o'z milliy manfaatlarini ta'minlamoqda, balki butun Markaziy Osiyoning barqaror rivojlanishiga ham muhim hissa qo'shmoqda.

15.2. O'zbekiston va global xavfsizlik: BMT hamda ShHT doirasidagi hamkorlik

Bugungi kunda dunyo hamjamiyati murakkab geosiyosiy transformatsiyalar, "sovuq urush" elementlarining qaytishi va an'anaviy xavfsizlik tizimlarining inqirozi davrini boshidan kechirmoqda. Bunday sharoitda O'zbekiston Respublikasi o'z tashqi siyosatida **"bo'linmas xavfsizlik"** tamoyilini ilgari surmoqda. Bu shuni anglatadiki, bir davlatning xavfsizligi boshqa bir davlatning hisobiga ta'minlanishi mumkin emas.

O'zbekistonning global xavfsizlikni ta'minlashdagi ishtiroki ikki asosiy ustun — **Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)** (universal platforma) va **Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (ShHT)** (mintaqaviy xavfsizlik platformasi) doirasida kechadi. Yangi O'zbekiston ushbu tashkilotlarda faqat qarorlarni ijro etuvchi emas, balki xalqaro kun tartibini shakllantiruvchi tashabbuskor subyekt sifatida namoyon bo'lmoqda. "O'zbekistonning Shanxay hamkorlik tashkiloti, Birlashgan Millatlar Tashkiloti va boshqa tuzilmalar doirasidagi faoliyati uning xalqaro maydondagi mavqeini mustahkamlamoqda"¹²⁷.

O'zbekiston 1992-yildan buyon BMT a'zosi bo'lsa-da, aynan so'nggi yillarda tashkilot bilan hamkorlik sifati butunlay yangi bosqichga ko'tarildi. 2017–2026-

¹²⁷ Shirinov B.N. Xalqaro munosabatlar nazariyasi va amaliyoti, Toshkent, 2019, 221-bet

yillar oralig'ida O'zbekiston BMT minbaridan turib global xavfsizlikning fundamental masalalarini ko'tardi.

O'zbekistonning global xavfsizlikka qo'shgan eng katta tarixiy hissasi — Markaziy Osiyoda yadro qurolidan xoli zonani tashkil etish tashabbusidir. Bu tashabbus BMT tomonidan to'la quvvatlandi va mintaqamiz dunyodagi eng barqaror "tinchlik zonalaridan" biriga aylandi. Bugungi yadroviy qarama-qarshiliklar kuchaygan davrda, ushbu model boshqa mintaqalar uchun namuna bo'lib xizmat qilmoqda.

Global xavfsizlik faqat harbiy harakatlar bilan bog'liq emas. Ekologik fojialar ham insoniyat xavfsizligiga tahdid soladi. O'zbekiston tashabbusi bilan 2021-yil 18-mayda BMT Bosh Assambleyasining "Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar zonasi deb e'lon qilish to'g'risida"gi maxsus rezolyutsiyasi qabul qilindi. Bu xalqaro hamjamiyatning e'tiborini ekologik muammolarning ijtimoiy-siyosiy oqibatlariga qaratishga xizmat qildi. Orol muammosini hal etish — nafaqat O'zbekiston, balki butun Yevroosiyo qit'asining iqlimiy barqarorligini ta'minlash demakdir. "O'zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkiloti doirasida tinchlik va barqarorlikni ta'minlash tashabbuslari bilan faol ishtirok etmoqda"¹²⁸.

O'zbekiston xavfsizlikni ta'minlashda faqat kuch ishlatish uslubidan voz kechib, **"jaholatga qarshi ma'rifat"** g'oyasini ilgari surdi. 2018-yilda BMT tomonidan "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" rezolyutsiyasining qabul qilinishi O'zbekistonning xalqaro ekstremizmga qarshi kurashdagi intellektual g'alabasidir. Bu yondashuv yoshlarni radikalizm domidan asrashning eng samarali yo'li sifatida e'tirof etildi.

Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (ShHT) O'zbekiston uchun mintaqaviy xavfsizlikning "qalqoni" hisoblanadi. Tashkilot asoschilaridan biri sifatida O'zbekiston ShHTning evolyutsiyasiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

¹²⁸ Karimov K.S. Xalqaro tashkilotlar va O'zbekiston, Toshkent, 2021, 54-bet

Ushbu tashkilot 2001-yilda tashkil etilgan bo‘lib, uning asosiy maqsadi — mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlash, iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish va a‘zo davlatlar o‘rtasida o‘zaro ishonchni kuchaytirishdan iborat. O‘zbekiston SHHTning asoschi davlatlaridan biri sifatida tashkilot faoliyatida faol ishtirok etib kelmoqda va uning rivojlanishiga sezilarli hissa qo‘shmoqda. “O‘zbekiston Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi va Shanxay hamkorlik tashkiloti doirasida mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlashga intilmoqda”¹²⁹.

O‘zbekistonning SHHTdagi ishtiroki, ayniqsa, Shavkat Mirziyoyev davrida yangi bosqichga ko‘tarildi. Yangi tashqi siyosiy strategiya doirasida mamlakat mintaqaviy hamkorlikni chuqurlashtirishga, xavfsizlikni ta‘minlashga va iqtisodiy integratsiyani kengaytirishga alohida e‘tibor qaratmoqda. Bu esa SHHT doirasidagi hamkorlikning yanada faollashuviga olib keldi.

SHHTning asosiy ustuvor yo‘nalishlaridan biri — xavfsizlik masalalaridir. Tashkilot doirasida terrorizm, ekstremizm va separatizmga qarshi kurash muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston ushbu yo‘nalishda faol tashabbus ko‘rsatib, mintaqaviy xavfsizlikni ta‘minlashda muhim rol o‘ynamoqda. Ayniqsa, Markaziy Osiyo hududida barqarorlikni saqlash uchun davlatlar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish zarur. SHHTning Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi (RATS) orqali qo‘shma mashg‘ulotlar, axborot almashinuvi va profilaktik choralar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekistonning geografik joylashuvi ham uning SHHTdagi rolini yanada muhim qiladi. Mamlakat Markaziy Osiyoning markazida joylashgan bo‘lib, transport va logistika yo‘laklarining kesishgan nuqtasida turadi. Shu sababli, O‘zbekiston SHHT doirasida transport-kommunikatsiya loyihalarini ilgari surishda faol ishtirok etmoqda. Bu loyihalar nafaqat mintaq ichidagi aloqalarni yaxshilaydi, balki Osiyo va Yevropa o‘rtasidagi savdo aloqalarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

¹²⁹ Olimov S. Regional Security in Central Asia, 2015, 98-bet

Iqtisodiy hamkorlik SHHT faoliyatining yana bir muhim yo‘nalishidir. O‘zbekiston tashkilot doirasida savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, investitsiyalarni jalb qilish va qo‘shma loyihalarni amalga oshirishga katta ahamiyat bermoqda. Ayniqsa, energetika, transport, qishloq xo‘jaligi va sanoat sohalarida hamkorlik istiqbollari yuqori. SHHT doirasida erkin savdo zonalari yaratish, bojxona tartiblarini soddalashtirish va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha tashabbuslar ilgari surilmoqda.

SHHTning kengayishi ham O‘zbekiston uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Tashkilot tarkibiga Hindiston va Pokiston kabi yirik davlatlarning qo‘shilishi uning iqtisodiy va siyosiy salohiyatini sezilarli darajada oshirdi. Bu esa O‘zbekiston uchun yangi bozorlar va hamkorlik yo‘nalishlarini ochmoqda. Shu bilan birga, tashkilotning global ahamiyati ham ortib bormoqda.

Mintaqaviy barqarorlikni ta‘minlashda Afg‘oniston omili alohida o‘rin tutadi. Afg‘onistondagi vaziyat Markaziy Osiyo xavfsizligiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. O‘zbekiston SHHT doirasida ushbu muammoni tinch yo‘l bilan hal etish, Afg‘onistonni mintaqaviy iqtisodiy jarayonlarga jalb qilish va infratuzilmaviy loyihalarni amalga oshirish tarafdori hisoblanadi. Bu yondashuv uzoq muddatli barqarorlikni ta‘minlashga xizmat qiladi.

Gumanitar hamkorlik ham SHHT faoliyatining muhim qismi hisoblanadi. O‘zbekiston ta‘lim, madaniyat va turizm sohalarida hamkorlikni kengaytirishga alohida e‘tibor qaratmoqda. Talabalar almashinuvi, ilmiy loyihalar va madaniy tadbirlar orqali xalqlar o‘rtasidagi aloqalar mustahkamlanmoqda. Bu esa o‘zaro ishonchni oshirishga va barqarorlikni ta‘minlashga xizmat qiladi.

SHHT doirasida ekologik muammolarni hal etish ham dolzarb masalalardan biridir. Ayniqsa, Orol dengizi fojiasi mintaqa uchun jiddiy ekologik muammo bo‘lib qolmoqda. O‘zbekiston ushbu muammoni hal etish uchun xalqaro hamkorlikni kuchaytirish va qo‘shma dasturlarni amalga oshirish tashabbusi bilan chiqmoqda.

O'zbekistonning SHHTdagi faoliyati uning xalqaro maydondagi nufuzini oshirishga ham xizmat qilmoqda. Mamlakat tashkilot doirasida konstruktiv va muvozanatli siyosat yuritib, turli manfaatlar o'rtasida muvozanatni saqlashga intilmoqda. Bu esa O'zbekistonni ishonchli hamkor sifatida namoyon etmoqda.

15.3. Iqtisodiy va madaniy-gumanitar integratsiya: MDH va Turkiy Davlatlar Tashkiloti

Bugungi kunda **MDH** an'anaviy iqtisodiy aloqalarni saqlab qolish va rivojlantirish maydoni bo'lsa, **Turkiy Davlatlar Tashkiloti** yangi strategik imkoniyatlar, madaniy birlik va zamonaviy integratsiya ramzi sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu ikki tuzilma O'zbekistonning tashqi iqtisodiy muvozanatini ta'minlashda bir-birini to'ldiruvchi muhim mexanizmlardir.

MDH O'zbekiston uchun o'n yillar davomida shakllangan xo'jalik aloqalari, yagona texnik standartlar va vizasiz harakatlanish imkoniyatini beruvchi muhim platformadir. O'zbekistonning MDH doirasidagi ishtiroki birinchi navbatda **Erkin savdo hududi to'g'risidagi shartnomaga** asoslanadi. Bu shartnoma o'zbek mahsulotlarining Hamdo'stlik bozorlariga bojxona to'lovlarisiz kirib borishini ta'minlaydi. MDH davlatlari (ayniqsa Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston) O'zbekistonning tashqi savdo aylanmasida qariyb **30-35%** ulushga ega. Bu yerda nafaqat xomashyo, balki tayyor tovarlar — avtomobillar, maishiy texnika va to'qimachilik mahsulotlari sotiladi. Bugungi kunda MDH doirasida sanoat kooperatsiyasi kuchaymoqda. O'zbekistonning qo'shni davlatlar bilan birgalikda texnoparklar va qo'shma korxonalar tashkil etishi (masalan, Qozog'iston va Ozarbayjonda avtomobil yig'ish liniyalari) iqtisodiy integratsiyaning oliy bosqichidir. MDH doirasidagi gumanitar hamkorlikning eng og'riqli va muhim nuqtasi — mehnat migratsiyasidir. Yagona huquqiy maydon yaratish orqali fuqarolarning ijtimoiy kafolatlari, pensiya ta'minoti va mehnat huquqlarini himoya qilish masalalari tizimli ravishda hal etilmoqda.

2019-yilda O'zbekistonning Turkiy davlat tashkiloti tashkilotga to'laqonli a'zo bo'lishi tashqi siyosatdagi "burilish nuqtasi" bo'ldi. TDT nafaqat til va din birligiga, balki ulkan iqtisodiy salohiyatga tayanadi. Tashkilot doirasida qabul

qilingan strategik hujjatlar turkiy davlatlar o'rtasida tovarlar, xizmatlar va kapitalning erkin harakatlanishini maqsad qilgan.

- **Turkiy investitsiya jamg'armasi:** O'zbekiston ushbu jamg'armaning faol tashabbuskori bo'lib, u kichik va o'rta biznesni moliyalashtirish, infratuzilma loyihalarini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.
- **Soddalashtirilgan bojxona dahlizi:** Turkiy davlatlar orqali o'tuvchi yuklarning bojxona rasmiylashtiruvini raqamlashtirish va tezlashtirish bo'yicha "yashil yo'laklar" tashkil etilmoqda.

O'zbekiston uchun TDT — Kaspiy dengizi orqali Yevropaga chiqishning eng qisqa va xavfsiz yo'lidir. "Xitoy – Qirg'iziston – O'zbekiston – Kaspiy dengizi – Ozarbayjan – Turkiya" yo'nalishi. Bu transport zanjiri O'zbekistonning tranzit salohiyatini bir necha barobar oshiradi va dengiz portlariga chiqish imkonini beradi.

15.4.Xalqaro moliya va savdo tashkilotlari bilan hamkorlik istiqbollari

Xalqaro moliya va savdo tashkilotlari bilan hamkorlik zamonaviy global iqtisodiyotda har qanday davlatning barqaror rivojlanishi uchun muhim omillardan biri hisoblanadi. O'zbekiston uchun ham bu yo'nalish strategik ahamiyatga ega bo'lib, mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya qilish, investitsiyalarni jalb etish va xalqaro savdo tizimiga integratsiyalashuvni jadallashtirishda muhim rol o'ynamoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston Jahon banki, Xalqaro Valyuta Jamg'armasi, Osiyo taraqqiyot banki va Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki kabi yetakchi moliya institutlari bilan faol hamkorlik olib bormoqda. Ushbu tashkilotlar tomonidan ajratilayotgan kreditlar va grantlar iqtisodiyotning turli sohalarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Xususan, infratuzilma, energetika, qishloq xo'jaligi va ijtimoiy sohalarda yirik loyihalar amalga oshirilmoqda.

Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikning asosiy istiqbollardan biri — investitsiya muhitini yaxshilashdir. O'zbekiston so'nggi yillarda iqtisodiy islohotlarni jadallashtirib, xorijiy investorlar uchun qulay shart-sharoitlar

yaratishga intilmoqda. Valyuta siyosatini liberallashtirish, soliq tizimini soddalashtirish va biznes yuritish sharoitlarini yaxshilash bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar xalqaro moliya institutlari tomonidan ijobiy baholanmoqda. Bu esa mamlakatga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimini oshirishga xizmat qilmoqda.

Savdo tashkilotlari bilan hamkorlik ham alohida ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayoni mamlakat tashqi savdo siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. WTOga a'zolik O'zbekiston uchun yangi bozorlarni ochish, eksport salohiyatini oshirish va xalqaro savdo qoidalariga moslashish imkonini beradi. Shu bilan birga, bu jarayon ichki bozorni raqobatbardosh qilishni ham talab etadi.

Xalqaro savdo tashkilotlari bilan hamkorlik eksport diversifikatsiyasini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston an'anaviy xomashyo eksportidan asta-sekin yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar eksportiga o'tishga intilmoqda. Bu borada texnologik yangilanish, sanoatni modernizatsiya qilish va innovatsion faoliyatni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Xalqaro tashkilotlar bu jarayonda texnik yordam, maslahat xizmatlari va moliyaviy ko'mak orqali ishtirok etmoqda.

Transport va logistika infratuzilmasini rivojlantirish ham hamkorlikning istiqbolli yo'nalishlaridan biridir. O'zbekistonning geografik joylashuvi uni mintaqaviy transport markaziga aylantirish imkonini beradi. Xalqaro moliya institutlari ko'magida temir yo'l, avtomobil yo'llari va logistika markazlarini rivojlantirish bo'yicha yirik loyihalar amalga oshirilmoqda. Bu esa eksport-import operatsiyalarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish ham xalqaro hamkorlikning muhim yo'nalishiga aylanmoqda. Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, elektron savdoni kengaytirish va moliyaviy xizmatlarni raqamlashtirish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish mumkin. Xalqaro moliya institutlari bu borada texnologik va moliyaviy ko'mak ko'rsatmoqda.

Barqaror rivojlanish masalalari ham xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda muhim o‘rin tutadi. Atrof-muhitni muhofaza qilish, energiya samaradorligini oshirish va yashil iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha loyihalar xalqaro moliya institutlari tomonidan qo‘llab-quvvatlanmoqda. Bu esa uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish ham hamkorlikning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Xalqaro tashkilotlar tomonidan taqdim etilayotgan moliyaviy resurslar va texnik yordam kichik biznes subyektlarining rivojlanishiga turtki bermoqda. Bu esa yangi ish o‘rinlari yaratish va aholi daromadlarini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonning xalqaro mintaqaviy tashkilotlar tizimidagi ishtiroki uning tashqi siyosatining muhim va ajralmas qismi hisoblanadi. Mamlakat Shanxay Hamkorlik Tashkiloti, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi, Turkiy davlatlar tashkiloti kabi tuzilmalar doirasida faol qatnashib, mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlash, iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish va transport-logistika aloqalarini kengaytirishga katta hissa qo‘shmoqda. Shu bilan birga, O‘zbekiston mintaqaviy integratsiyani kuchaytirish orqali o‘z milliy manfaatlarini ilgari surmoqda va qo‘shni davlatlar bilan o‘zaro ishonch va hamkorlik muhitini mustahkamlashga erishmoqda. Bu esa nafaqat mamlakat ichki taraqqiyotiga, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasida barqarorlik va xavfsizlikni ta‘minlashga xizmat qilmoqda. Umuman olganda, O‘zbekistonning xalqaro mintaqaviy tashkilotlardagi faol va tashabbuskor ishtiroki uning xalqaro nufuzini oshirib, global va mintaqaviy jarayonlarda muhim o‘rin egallashiga zamin yaratmoqda.

Nazorat savollari:

1. O'zbekiston nechanchi yildan boshlab Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo bo'lgan?
2. BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida O'zbekiston Prezidenti tomonidan ilgari surilgan "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" rezolyutsiyasining asosiy g'oyasi nima?
3. Orolbo'yi mintaqasini "Ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar zonasi" deb e'lon qilish tashabbusi qaysi xalqaro tashkilot doirasida tasdiqlangan?
4. O'zbekistonning BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashiga a'zo etib saylanishi mamlakatning xalqaro nufuziga qanday ta'sir ko'rsatdi?
5. O'zbekiston Afg'onistondagi vaziyatni barqarorlashtirish bo'yicha BMT minbaridan qanday aniq takliflarni ilgari surgan?
6. Yangi O'zbekiston tashqi siyosatining "bosh ustuvor yo'nalishi" sifatida qaysi hudud belgilangan?
7. "Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvlari" formatining boshqa xalqaro tashkilotlardan farqi nimada?
8. O'zbekistonning qo'shni davlatlar bilan chegaralarni delimitatsiya va demarkatsiya qilishdagi strategik yondashuvi qanday natijalar berdi?
9. Nima uchun O'zbekiston Markaziy Osiyo iqtisodiy integratsiyasining "dvigateli" deb hisoblanadi?
10. Mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashda Markaziy Osiyoning yadro qurolidan xoli zona deb e'lon qilinishining ahamiyati nimada?
11. ShHTning Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi (MATT) ijroiya qo'mitasi qaysi shaharda joylashgan?
12. O'zbekiston tomonidan ShHT doirasida ilgari surilgan "Samarqand birdamligi tashabbusi"ning mohiyati nimadan iborat?
13. ShHT doirasidagi hamkorlikda O'zbekiston uchun iqtisodiy va harbiy xavfsizlik masalalaridan qaysi biri ustuvorroq?

14. ShHTning kengayishi (Hindiston, Pokiston, Eronning a'zo bo'lishi) O'zbekistonning transport-logistika imkoniyatlariga qanday ta'sir qiladi?
15. O'zbekistonning Turkiy Davlatlar Tashkilotiga (TDT) to'laqonli a'zo bo'lishi qaysi yili yuz berdi va bu nima uchun muhim strategik qadam edi?
16. TDT doirasidagi "Turkiy dunyo ko'rinishi – 2040" dasturida O'zbekistonning o'rni qanday tasvirlangan?
17. O'zbekiston MDH (Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi) tashkilotiga asosan qaysi sohalaridagi hamkorlik platformasi sifatida qaraydi?
18. MDH doirasidagi Erkin savdo hududi to'g'risidagi shartnoma O'zbekiston eksportyorlari uchun qanday imtiyozlar beradi?
19. Jahon Savdo Tashkilotiga (JST) a'zo bo'lish jarayoni O'zbekiston tashqi iqtisodiy siyosatining nechanchi darajali vazifasi hisoblanadi?
20. "Xitoy – Qirg'iziston – O'zbekiston" temir yo'li qurilishi mintaqaviy integratsiya va xalqaro savdo yo'llarini diversifikatsiya qilishda qanday ahamiyatga ega?

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023. (Tashqi siyosat prinsiplari, 4-bob).
2. O'zbekiston Respublikasining Tashqi siyosiy faoliyat konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonuni.
3. "O'zbekiston – 2030" strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son Farmoni.
4. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomi. (Xalqaro huquqning asosiy hujjati sifatida).
5. Shanxay Hamkorlik Tashkiloti Nizomi. (2002-yil 7-iyunda imzolangan).
6. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. – 464 b.
7. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild. – Toshkent: "O'zbekiston", 2020.

8. Mirziyoyev Sh.M. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqi (2023-yil 19-sentyabr).
9. Mirziyoyev Sh.M. Turkiy davlatlar tashkilotining Ostona sammitidagi nutqi (2023-yil 3-noyabr).
10. Saidov A.X. Xalqaro huquq: Darslik. – Toshkent: Adolat, 2021.
11. Sharifxo‘jayev M. O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi. – Toshkent: Sharq, 2020.
12. Mavlonov I.R. Markaziy Osiyo davlatlarining tashqi iqtisodiy faoliyati va diplomatiyasi. – Toshkent: JIDU, 2019.
13. Yusupov N. Xalqaro tashkilotlar: O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: TDIU, 2022.
14. O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi rasmiy veb-sayti: www.mfa.uz
15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti: www.isrs.uz
16. BMTning O‘zbekistondagi vakolatxonasi rasmiy sayti: www.un.uz
17. Dunyo axborot agentligi: www.dunyo.info

Test topshiriqlari

1. O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishi qaysi mintaqaga hisoblanadi?

a) Yevropa Ittifoqi

b) Markaziy Osiyo

c) Janubi-Sharqiy Osiyo

d) Lotin Amerikasi

2. Shanxay hamkorlik tashkiloti (ShHT) qachon va qaysi shaharda tuzilgan?

a) 1996-yil, Moskva

b) 2001-yil, Shanxay

c) 2002-yil, Toshkent

d) 1999-yil, Bishkek

3. ShHTning Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi (MATT) ijroiya qo‘mitasi qaysi shaharda joylashgan?

- a) Pekin
- b) Ostona
- c) Toshkent**
- d) Dushanbe

4. O‘zbekiston nechanchi yilda Turkiy davlatlar tashkilotiga (sobiq Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi) to‘laonli a‘zo bo‘ldi?

- a) 2012-yil
- b) 2015-yil
- c) 2019-yil**
- d) 2021-yil

5. O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining dastlabki yillarida (1992-yil 2-mart) qaysi global tashkilotga a‘zo bo‘ldi?

- a) BMT**
- b) YXHT
- c) MDH
- d) ShHT

6. Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (IHT - ECO) doirasida O‘zbekiston qaysi davlatlar bilan faol iqtisodiy aloqalarni olib boradi?

- a) Faqat MDH davlatlari bilan
- b) Eron, Pokiston va Turkiya kabi davlatlar bilan**
- c) Faqat Yevropa davlatlari bilan
- d) AQSH va Kanada bilan

7. O‘zbekistonning mintaqaviy xavfsizlik borasidagi tashabbusi bilan tashkil etilgan “6+2” guruhi qaysi muammoni hal qilishga qaratilgan edi?

- a) Ekologiya muammolari
- b) Afg‘oniston muammosini tinch yo‘l bilan hal qilish**

c) Orol dengizi inqirozi

d) Narkotrafikni to'xtatish

8. O'zbekiston 2018-yildan boshlab qaysi mintaqaviy formatni (maslahat uchrashuvlarini) yo'lga qo'ydi?

a) MDH davlat rahbarlari kengashi

b) Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvlari

c) Kaspiybo'yi davlatlari sammiti

d) "Katta yigirmatalik" uchrashuvi

9. Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (YXHT) O'zbekistonda asosan qaysi yo'nalishda loyihalarni amalga oshiradi?

a) Harbiy qurollanishni oshirish

b) Demokratik institutlarni rivojlantirish va inson huquqlari

c) Faqat sanoatni rivojlantirish

d) Kosmik tadqiqotlar

10. O'zbekiston qaysi yili ShHT sammitiga raislik qildi va "Samarqand birdamlik tashabbusi"ni ilgari surdi?

a) 2010-yil

b) 2016-yil

c) 2022-yil

d) 2024-yil

11. Markaziy Osiyoda yagona iqtisodiy makon va xavfsizlikni ta'minlash maqsadida tuzilgan, biroq keyinchalik EvrAzES bilan qo'shilib ketgan tashkilot qaysi?

a) Markaziy Osiyo Hamkorlik Tashkiloti (MOHT)

b) Varshava shartnomasi

c) NATO

d) ASEAN

12. Islom hamkorlik tashkiloti (IHT) O'zbekiston uchun qaysi jihatdan muhim?

a) Faqat neft savdosi uchun

b) Islom dunyosi bilan madaniy-ma'rifiy va iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash uchun

c) Harbiy ittifoq tuzish uchun

d) Barcha a'zo davlatlar o'rtasida yagona til joriy qilish uchun

13. O'zbekistonning xalqaro mintaqaviy tashkilotlardagi ishtirokidan asosiy maqsadi nima?

a) Qo'shni davlatlar ustidan hukmronlik qilish

b) Milliy manfaatlarni himoya qilish va mintaqaviy barqarorlikni ta'minlash

c) Boshqa tashkilotlarga qarshi blok tuzish

d) Tashqi qarzni ko'paytirish

14. Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi (OQXJ) qaysi mintaqaviy muammoni hal qilish uchun tuzilgan?

a) Terrorizm

b) Ekologik inqiroz va suv resurslarini boshqarish

c) Ishsizlik

d) Savdo to'siqlari

15. O'zbekiston qaysi xalqaro moliyaviy-mintaqaviy tashkilot bilan transport koridorlarini rivojlantirish bo'yicha faol hamkorlik qiladi?

a) Osiyo taraqqiyot banki (OTB)

b) Interpol

c) FIFA

d) YuNESKO

GLOSSARIY

Idiografik fanlar - xodisalarni, bo'lib o'tgan voqealarni, ya'ni xususiy xolatlarni har tomonlama o'rganadi (tarix, geografiya, astronomiya kabilar)

Empirik fanlar — qonunlar xaqidagi fanlarning bir turi bo'lib, ular xususiy xolatlarni o'rganish asosida ular o'rtasidagi umumiy bog'likliklarni aniqlaydi (fizika, ximiya, biologiya, sotsiologiya kabi).

Qonun — empirik va nazariy jihatdan asoslangan juda umumiy yoki universal qaydlar.

Kategoriya — narsa va xodisalarning eng muhim xususiyatlari va aloqalarini aks ettiruvchi umumiy tushunchalar.

Oligarxiyalashuv — hokimiyatning kichik guruh qo'liga o'tishi.

Konformizm — moslashish, mavjud tartib, qoidalar, qadriyatlar, g'oyalarni ko'r — ko'rona qabul qilish.

Institutsionallashuv — rasmiylashgan, barcha e'tirof etgan qoidalar, qonunlar, an'ana va maro simlarga asoslangan ijtimoiy munosabatlarning barqaror na'munalarning shakllanishi.

Nazariya — bir-biri bilan muayyan tarzda bog'langan qonunlar tizimi.

Stsientizm — ijtimoiy fanlarni uslublari, jamiyatdagi vazifalariga ko'ra tabiiy fanlar bilan yaqinlashtirishni maqsad qilib qo'ygan yo'nalish.

Utilitarizm — fanlarda foyda, samaralilikning bosh tamoyil ekanligidan kelib chiqadigan yo'nalish.

Pozitivizm — (lot. ijobiy, xayoliy), metafizik, tushuntirishlardan xoli, isbotlanuvchi va foydali "ijtimoiy nazariyani" asosan tabiiy fanlar metodologiyasiga tayanib yaratishga urinish.

Bixeviorizm — (ingl. xulq — atvor) — kuzatish mumkin bo'lgan siyosiy xulq — atvorni ilmiy, empirik metodlar, yordamida kuzatishga asoslangan metodologik yo'nalish.

Pragmatizm — (yun. ish, faoliyat), faqat, amaliy foydali natijalarni beruvchi bilimnigina xaqiqiy, deb bilishga asoslangan yo'nalish.

Metod — (yun. tadqiqot yo'li) bilish usuli, bilimlar tizimini yaratish maadida borliqi tadqq etish usulidir.

Kauzal bog'liqlik — narsa, xodisalar o'rtasidagi sabab — oqibat bog'liqligi.

Resurs — pul mablag'lari, qiymatga ega narsalar, zaxiralar, imkoniyatlar, daromad manbalari.

Aktor — siyosiy hayotda to'g'ridan-to'g'ri yoki bevosita ishtirok etuvchi siyosat subyekti.

Plebistsit — umumxalq ovoz berishi shakllaridan biri. Legal — qonuniy.

Konvertatsiya — almashtirish.

Korporativ davlat — davlatni tashkil etishga oid kontseptsiya. Unga ko'ra, mehnat va kapital munosabatlari davlat tomonidan kasbiy — tarmoq, ittifoqlari (korporatsiyalari) shaklida boshqariladi va tartibga solinadi, parlament esa korporativ kengash bilan almashinadi.

Siyosiy millat — siyosiy tizimning rivojlanishi, ustivor qadriyatlar, me'yorlariga doir yakdil bo'lgan fuqarolar birligi.

Boshqaruv — turli tizimlar (biologik, ijtimoiy, texnologik) king funksiyasi. U shu tizimlarning muayyan tuzilishini saqlab turadi, faoliyat, taribni ta'minlaydi, dasturlar, maqsadlarni amalga oshiradi.

Tartibot — davlat tuzumi, boshqaruv, usuli.

Marginal guruh — bir — birini istisno qiluvchi qadriyatlar, me'yorlar ta'siridagi, turli ijtimoiy guruhlar, tizimlar, madaniyatlar chegarasidagi odamlar guruhi.

Etatizm — davlatning jamiyat siyosiy va iqtisodiy sohalarida faol aralashuvini, asoslovchi ijtimoiy nazariya.

Inson huquqlari — shaxsga o'z ihtiyoriga ko'ra faoliyat ko'rsatish (erkinliklar) yoki, muayyan imtnyozlarga ega bo'lish (huquqlap) imkoniyatini beruvchi individ va davlat o'rtasidagi munosabatlar tamoyillari, me'yorlaridir.

Negativ huquqlar (erkinliklar) — davlat, odamlarning shaxsga nisbatan biror harakatini cheklaydi. Ular tub, asosiy, deb hisoblanadi. Ularning amalga oshishi davlat resurslariga bog'liq emas.

Pozitiv huquqlar — davlat, shaxslar va tashkilotlarning fuqaroga u yoki, bu imtiyozlarni berish, muayyan harakatlarni amalga oshirish bo'yicha vazifalarini belgilaydi. Barcha ijtimoiy huquqlar pozitiv tabiatga ega. Pozitiv huquqlarni amalga oshirish uchun davlat muayyan resurslarga, ijtimoiy — iqtisodiy rivojlanish darajasiga ega bo'lishi kerak.

Kompromiss — o'zaro yon bosishlar natijasida erishilgan kelishuv, bitim.

Mobillik — ijtimoiy makonda shaxs yoki guruhlarining ko'chishi, xarakati. Shaxs, guruh yoki qatlam mavqeining o'zgarishi bilan bog'lig, jarayonlarni "ijtimoiy mobillik" yoki "ijtimoiy siljish", deyiladi

Klub — umumiy maqsadlar bilan bog'lik odamlar birligi, uyushmasi

Partologiya — partiyalar haqidagi fan.

Ijtimoiy qatlamlashuv — o'zaro bog'liq va pog'onalashuv asosida tashkil topgan, qatlamlar birligidan iborat ijtimoiy tengsizlik tizimi

Sinflar — daromad miqdori, kasbinnig nufuzliligi, bilimi, hokimiyatga ta'siri darajasiga ko'ra belgilanuvchi, ijtimoiy maqomi taxminan bir xil bo'lgan odamlar guruhi.

Mnllat — xudud, iqtisodiy aloqalar, til, ruhiy o'ziga xoslik, madaniyat va o'z — o'zini anglashning umumiy jihatlariga ko'ra ajralib turuvchi ijtimoiy guruh.

Elitologiya — elitalar haqidagi fan.

Kooptatsiya — saylanuvchi organ tarkibiga yangi a'zolari qo'shimcha saylovlar o'tkazmasdan, shu organ qaroriga ko'ra kiritilishi.

Qadriyat — borliqdagi narsa, xodisalarning jamiyat, guruh shaxs ehtiyojlariga muvofiq kelishi yoki kelmasligi nuqtai nazaridan ahamiyati.

Konfessional — diniy.

Demografiya — aholi tarkibidagi o'zgarishlarni o'rganuvchi fan.

Etakchilnk — yo'l boshlovchi, rahbar ma'nosini beradi. Etakchilik — boshqa odamlarga; ta'sir o'tkaza olish, ularni ma'lum mo'qsadga erishish yo'lida birlashtirish qobiliyatidir.

Siyosiy etakchilik — insoniyatga xos bo'lgan eng qadimgi universal institutlardan biri va u davlat hamda jamiyat miqyosida hokimiyat funktsiyalarini bajaruvchi subyektlardan biridir.

Siyosiy ong - siyosiy borliqning subyektiv in'ikosidir. U jamiyatning alohida mustaqil — siyosiy soxasini aks ettiradi. Kishilar o'z faoliyatida mavjud siyosiy voqelikni shunchaki ko'rish bilan -qanoatlanib qolmaydilar.

Kishilarning ana shu - siyosiy borliq, xaqidagi bilimlari, qarashlari, tasavvurlari ularning siyosiy ongini tashkil etadi. Siyosiy ong -kishilarning siyosiy bilimlari, tasavvurlari, maslamlari, e'tiqodlari, va o'zlari yashab to`rgan siyosiy tuzumni baholashlarining yig'indisidan iboratdir.

Qo'ysinova Fazilat Oripovna

XALQARO TIZIMLARDA O'ZBEKISTON MANFAATLARI

fanidan o'quv qo'llanma

Toshkent - «SCIENCE PRINT» MCHJ – 2026

Muharrir: S.Alimbayeva

Texnik Muharrir: A. Ergashev

Kompyuterda

sahifalovchi: A.Ismailov

Musavvir: A. Umarov

Nashriyot litsenziyasi:



Email:axrorer42@gmil.com Тел:+99890 118-75-75

Bosishga ruxsat etildi 8.05.2026

Bichimi 60x84 1/16. « Times New Roman » garniturası.

Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i: 10. Adadi: 100.

Buyurtma №75/2026

*Toshkent shahri, Olmazor tumani, Guzarboshi MFY,
Sag‘bon ko‘chasi, Omonat tor ko‘chasi,
«SCIENCE PRINT» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.*